

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**S.Gulyamov, G'.Qosimov, D.Holmirzaeva, S.Saidaxmedov**

# **Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti**

**darslik**

**Barcha magistratura mutaxassisligi uchun**

**Iqtisodiyot yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy – uslubiy Kengash  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent-2013**

Tavsiya etilayotgan “Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti” kursi bo'yicha ushbu darslik tasdiqlangan namunaviy dastur asosida yozilgan bo'lib, qishloq ho'jaligida ishlab chiqarish (texnologik faoliyat) va boshqarish faoliyatlarini amalga oshirishning tamoyillari, boshqarish nazariyasidan foydalanish kabi malumotlar bayon qilingan.

Darslikni chuqur va mukammal egallash uchun qo'shimcha adabiyotlar va me'yoriy hujjatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Darslik bakalavr, magistrantlar, aspirantlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun mo'ljallangan.

Bu darslikni tayyorlashda katta o'qituvchi M.Rasulova, asistent A.Sadikov va magistr G.Nishonova qatnashdilar.

Taqrizchilar:

TDIU i.f.d., professor Fattaxov A.

TDIU i.f.d., professor Salimov B.

Ushbu darslik Toshkent Davlat agrar universiteti “Marketing, mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasining 2013 yil \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_ son “Agroiqtisodiyot” fakul'tetining o'quv uslubiy xayatining 2013 yil..... № ... sonli qarori hamda Universitet ilmiy kengashining 2013 yil № ... sonli bayonnomalari bilan ma'qullangan.

## CO’Z BOSHI

Har bir inson o’zining ongli mehnat faoliyatida ma’ lum moddiy va ma’naviy rag’batlantirilishga erishishni istaydi. Ushbu istak kichik ko’lamdan boshlanib hatto jahon miqyosigacha kengayib borib xalqaro biznes ya’ni foyda keltiradigan har qanday ko’lamdagi tijorat ishiga qaratiladi. Masalan, chayqov, kommersiya ishlari, katta daromad keltiradigan korxona va shu kabilar va tijorat ishi tizimidagi muommolarga aylanadi. Shaxsiy boylik ya’ni biznes bilan shug’ullanuvchi shaxs – biznesmen, foyda orttirishga qaratilgan insonning faoliyati turli xil munosabatlardan tashkil topadi. Biznes – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko’rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Hozirgi vaqtida ko’pgina rivojlangan mamlakatlar davlatning xizmat va muassasalarini qayta tashkil etish maqsadida konsul’tant – menejerlar va konsaltingli firmalarni faol jalb etmoqdalar. Chunki davlat sektorlarida, ya’ni ko’ppog’analı, piramidalı tashkilotlardan iborat bo’lgan ma’muriy tuzilmalarni katta bo’lman gorizontal tuzilishga o’tmoqdalar. Tashkiliy tuzilmalar bilan bir qatorda korxona, firma va tashkilotlarning moliyaviy sohalarida ham o’zgarishlar bormoqda. Ularning maqsadi – mavjud moliyaviy resurslardan samarali tezkor operatsiyalarni bajarishga intilish, byudjetning yalpi manba’larini shakllantirish yo’llarini izlash, moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishdir. Shu bilan iste’molchida orientasiya (orientir olish, past-balandini yaxshi bilish, tushunish, bir kimsaga qarab ish tutish) ni maksimal kuchaytirish ham ko’zda tutilgan.

Shuni unutmaslik lozimki, firma (korxona, tashkilot, korporatsiya, konsern) emas, uning xodimlari – ijrochilar, mutaxassislar, sotuvchilar, kotib va kotibalar, inspektorlar va boshqalar- barcha qolganlar, ya’ni ushbu firmada “ kim o’zini ishini bajaradi ”.

Statistik ma’lumotlarga binoan hozirgi vaqtida qishloq xo’jaligida 66000 ming fermer xo’jaliklari, 3,5 mlnga yaqin shaxsiy yordamchi xo’jaligi qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirmoqda.

O'ZBEKISTON<sup>1</sup> RESPUBLIKASI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING 2012-YILDA MAMLAKATIMIZNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI HAMDA 2013-YILGA MO'LJALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN VAZIRLAR MAHKAMASINING MAJLISIDAGI MA'RUZASIDA: “**Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtida fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda.** Mamlakatimizdagи jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda”

O'zbekiston Respublikasida boshqaruv xodimlari 13,17 % ni tashkil etsa, ba'zi viloyatlarda ( Xorazm - 37,75 % , Qoraqalpog'iston Respublikasi 37,13 % , Andijon – 26,16%, Namangan – 21,06 % ) 20 – 30 % ni tashkil etsa, chet eldag'i me'yor 5- 8 % ni tashkil etadi.

Shu bois daromadli ish, kommersiya, sohibkorlik, tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish kabilar ongli mehnat faoliyatini takomillashtirishni talab etadi. YAngi tarkibiy bo'lim va bo'linma (mahsulot assortimenti, hajmi va sifatini boshqarish, ishlab chiqarish bo'linmalari, tayyorlov va tashish, sotish va taqsimlash, marketing bo'limi, reklama va mehnatni rag'batlantirish, moddiy – texnika ta'minoti bo'linmalari kabilar) tashkil etiladi va unda marketingga, innovasiyaga va logistikaga doir barcha axborotlar jamlanadi, axborotlar jamlanadi, axborotlar asosida xo'jalikning tijorat faoliyatini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaliklari faoliyatining samaradorligi faqat texnik, texnologik, tashkiliy, rejalashtirish va boshqa tizim larga bog'liq bo'lib qolmasdan balki sezilarli darajada infratuzilma ishlarining sifati, miqdori va tabiatning mavsumiyligiga ham

---

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiň yakunları hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

2.

bog'liqdir. Shu sababli ham zamonaviy ishlab chiqarish menejmentining poydevori bo'lib menejment amaliyotini rivojlanishi hisoblanadi.

## **1- Mavzu.O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishining tizimli tahlili.**

### **1.1.Mavzu. Menejment fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari va umumiy tavsifi.**

Har bir firma yoki korxonaning boshqaruv xodimi, mutaxassis, ijrochisi ilg'or tajriba va fan – texnika yutuqlaridan, aql – idrokka asoslangan holda foydalanishi maqsadga muvofiq.

Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti bu kasbiy faoliyat soxasi, ta'lim fanlarining birdan – bir asosiysidir. Uning mazmuni boshqaruv tizimi bilan ob'ekti orasidagi o'zaro munosabatdir.

Zamonoviy ishlab chiqarish menejmenti fanining mazmuni firma yoki korxonaga egalik va raxbarlik qilish, boshqarish orqali ishlarni amalgalash, ishbilarmonlar qanday ish yuritishini o'rganish, yangi boshqarish tafakkurini shakllantirish, boshqarishning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish muammosini o'rgatish (tanshtirish, tavsiyalar berish) hisoblanadi.

Menejment – bu kasbiy faoliyat, fan, san'at. Bu marketing, tashkil etish, rejalahtirish, nazorat, korxona ichidagi o'zaro ta'sir etishni muvofiqlashtirish, resurslardan foydalanib ishlab chiqarish, korxonaning ma'lum faoliyatining ko'rinishi, mahsulotni uzatish va shu kabilardir.

Fanning maqsadi - mutaxassislar kelajakda firmadagi jamoaning ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini boshqarish sirlarini egallab, uning bo'limi va bo'linmasida menejer bo'lib ishlashga, samarali faoliyat ko'rsatishiga yordam berishdir.

Menejmentning ko'lami o'ta keng. Ishlab chiqarish usuliga, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning darajasiga, ishlab chiqarish kuchining pog'onasiga qarab

menejmetning mohiyati o'zgaradi, murakkab lashadi va aks incha, mustaqil fan bo'lib ajraladi. Fan qaysi ko'lampa qo'llanishiga qarab predmeti aniqlanadi.

Menejmentning predmeti firma (korxona)dagi xo'jalik yuritishining barcha pog'onalaridagi boshqarishning qonunlari, tamoyillari va munosabatlarini o'rganadi. Shu bilan birga, korxonadagi holatlar va uning qismlari orasidagi bog'liqliklar, muhitlar, yechim qabul qilishlarni o'rganish menejmentning predmeti.

Menejmentning ob'ekti – xususiy korxona (firma), undagi odamlar, ularning vazifalari va boshqarish tizimidir. Menejmentning usuli – uning predmetlaridagi xususiyatlari bilan bog'liqligi. Chunki ob'ktlarni sotish uchun tanlov mezonlarini bilish va ulardan foydalanish usullarini ishlata bilish zarur.

Menejer – korxona a'zosi, xodimi boshqarish faoliyati va xal qiluvchi boshqarish masalalarini amalga oshirib, u- korxonada yollangan asosiy xodim xisoblanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti fanining asosiy vazifalarini: ishlab chiqarish (texnologik faoliyat); xavfsizlik faoliyati; tahlil qilish, hisobga olish, statistik hisobga olish; boshqarish faoliyati (rejalashtirish, marketing, tashkil etish vazifasi, taqsimlash, muvofiqlashtirish va nazorat) tashkil etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda menejmentning tamoyillari, nazariyasি, andozalar, ma'lumotlarga ishlov berish, boshqarish qonunlaridan foydalana bilish kerak.

Shu bilan birga yana firma iqtisodiy sharoitlar, iste'molchilar, davlat shartnomalari, qonunchilik, raqobatchilik, jamiyatdagi qadriyat va ma'naviyat tizimlari, jamoa qarashlari, texnika va texnologiya, innovasiya va shunga o'xshashlar ta'sirida faoliyat ko'rsatadi. Ular esa, firma faoliyatiga bilvosita, ayrim hollarda esa bevosita ta'sir etadi.

Menejment asoslari esa uning to'la ilmiyligi, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xolis qonunlarga suyanishidir.

Menejmentning umumiy tavsifi – bu menejmentning vazifalarini bajarish uchun uning o'zaro bog'liq bo'lgan asosiy yo'nalishlarini bilishdir. Masalan, har qanday tadbirkor (ishbilarmon), mulkdor, xususiy firma (korxona, tashkilot)

sohibi mehnat resurslari, tabiiy resurslar, xodim va mutuxassislarining kasbiy saloxiyati, moliyaviy vositalar, maqsadlar va masalalar, texnika va texnologiya, tashkiliy boshqarish va tashqi muhit bilan bog'liqlik holda faoliyat yuritadi. Shu ko'rsatkichlar qatori menejmentga oid tashkiliy tizim, tuzilma, axborot, munosabat, muvaffaqiyat kabi korxona (firma) ning belgilarini muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, menejment – bilimlarning alohida doirasi, to'plami, ularni egallay olgan shaxs menejment bo'la oladi, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) mavjudodiga egalik, rahbarlik qila oladi. Menejmentning mavjudodi tashkilot (korxona, firma) bo'lgani uchun ham uning mohiyatini anglamoq shartdir.

Korxona tarkibida insonlar ma'lum maqsadlar atrofida o'zaro munosabatlar o'rnatib, xatti – harakatlar qiluvchi jamoadir. U o'z xududiga, huquqiga, nizomiga, sub'ektiga, maqomiga ega va tashqi muhit bilan o'ta bog'liq. Korxona o'z maqsadlari yo'lida doimo faoliyat ko'rsatib turadi va rivojlanadi.

Korxona o'z faoliyati davrida o'zini o'zi tashkil etuvchi tizimdir. U vujudga kelishi uchun avval rasmiy guruhlar shakllangan, umumiylar maqsadlar aniqlangan, xodimlarning umumiylari – birgalikdag'i faoliyatlar uyushtirilgan bo'lishi zarur. Korxonalar iqtisodiy murakkab ijtimoiy va siyosiy jarayonlar kechadigan makondir, u statik bo'la olmaydi, doimo rivojlanishdadir. Demak, ana shu jarayonda korxonalar iqtisodiyotining xilma – xil muammolarini paydo bo'лади, xilma – xil yechimlar talab etadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti korxonani pirovard maqsadiga erishishi bo'yicha barcha faoliyatiga ekvivalent emas, balki shunday vazifa va harakatlarni o'ziga oladiki, bunda korxona ichidagi o'zaro ta'sir etishni muvofiqlashtiradi va belgilaydi.

Xalqaro iqtisodiyot (ayniqsa, tashqi iqtisodiyot) ning o'zi ham erkin bozor sharoitida ancha kengaymoqda. Bu yerda raqobatning kuchayishi, hisob – kitob va trasport aloqalarining murakkablashuvi, yuqori malakali mutaxasis xodimlarning yetishmasligi, kerakli tajribaning yo'qligi, tashqi iqtisodiy foliyatida mustaqil qatnashuvchilar sonining keskin o'sishi kabilarni zamonaviy ishlab chiqarish

menejmenti e'tiborga olishi lozim. Bunday sharoitda asosiy vazifa chet el mamlakatlari bilan savdo, ilm – fan, texnika, zamonaviy ta'lim, investitsiya va shu singari sohalarda o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlarni ta'minlashdan iborat. Faqat xalqaro mehnat taqsimotida faol qatnashish, fan – texnika sohasida hamkorlik qilish yo'li bilangina ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish sur'atlarini jadallashtirish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy faoliyat ko'rsatuvchi firma (xalqaro milliy kompaniya – TNK, korxona, konsern, kartel', korporasiya, sindikat, xalqaro tender, konglomerat, konsalting, konsorsium, kooperativ, trest, kombinat, kichik korxona) larning tashkiliy shakllari va usullari sifat jixatidan keskin o'zgarmoqda, bu esa ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar, yuqoriga siljishlar natijasidir, bunda transmilliy kompaniya (TNK) larning o'rni (pozitsiyasi) hal qiluvchidir. Bunday o'zgarishlar bozor muammolariga katta ta'sir etib, qayta muammolarni keltirib chiqarmoqda, kengaytirilgan asosda ishlab chiqarish uchun TNK xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida xususiy chet el tarmoqlari chuqurroq qo'llanmoqda. Ushbu qo'llanishlar firmalarning xalqaro faoliyatlarining tavsifi va mazmunida o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda.

Mustaqil va suveren davlat maqomini olgan O'zbekiston endi xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish imkoniga ega bo'ldi. Respublika Prezidentining yaqinda qabul qilingan farmoni bilan jahon moliya inqirozining oqibatlariga qarshi kurashish yo'lida bank va moliya tuzilmalariga qo'shimcha yordam berish, iqtisodiyotning real sektori korxona va kompaniyalarning faolligini kuchaytirish va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishga solish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan "Inqirozga qarshi choralar" dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoldi.

Ilmiy-texnik salohiyati katta bo'lgan davlatlar iqtisodiy o'sishning bu omilida ustunlikka ega bo'ldi.

Birorta iqtisodiy tizim xolisona axborot taminotisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Puxta yo'lga qo'ygan axborot taminoti tizimining mavjudligi barcha xo'jalik masalalariga va boshqa masalalarga oid to'g'ri qarorlar qabul qilishning muhim omillaridan biridir. Ilgari yo'l qo'yilgan xatolarning ko'plari noxolis axborot bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda ilgarigi tizim paytida eng muhim masalalar bo'yicha axborot ta'minotidagi asosiy rolni markaz organlari o'ynar edi. Bu gap avvalo tashqi iqtisodiy faoliyat masalalariga, jahon bozorining holatiga taalluqli edi. Axborot ta'minotining qoniqarsizligi natijasida alohida xo'jalik sub'ektlari ham, umuman respublika miqiyosida ham juda katta zarar ko'rар edilar.

Bu muammolarni hal etish uchun muqobil telefon, internet, komp'yuter va boshqa vositalar keng ko'lamma foydalanilmoqda, demak axborot tizimining samarali tizimi keltirilmoqda. Jahon ma'lumotlari bankidan foydalanishga erishilmoqda.

Xalqaro iqtisodiyot shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat har tomonlama rivojlanmoqda.

## **1.2.O'zbekistonda tarmoq iqtisodiyotlari taraqqiyotining tizimli tahlili**

O'zbekiston Respublikasi keyingi yillarda erishilgan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy yutuqlari benihoya ko'p. Chunki ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini ko'tarishga va turli xil ne'mat (resurs)lardan tejamli va oqilona foydalanishga keng imkon yaratildi.

2011 yilda yalpi ichki mahsulot (77750,6mlrd.so'm) 2010 yilga nisbatan 8,3foizga o'sdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 19633,6 mlrd.so'm (2011yilda)ni tashkil etdi va 6,8 foizga o'sdi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Mlrd.so'm		Avvalgi yilga nisbatan foiz hisobida	
	2010 yil	2011 yil	2010 2009	2011 2010

			yilga nisbatan	yilga nisbatan
YAlpi ichki mahsulotlarning o'sish sur'ati	61831,2	77750,6	108,5	108,3
Sanoat ishlab chiqarishi	33580,5	41655,9	108,3	106,3
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi	15810,7	19633,6	106,8	106,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	15409,1	18291,3	109,2	107,9
Qurilish ishlari	8174,6	9438,1	108,1	108,5

### **Manba:O'zR Davlat qo'mitasi ma'lumotlari**

2013 yilda 2 mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmanan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

Inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi.

2012-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdag'i tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profits it yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya’ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig’i ta’lim, 14,5 foizdan ko’prog’i sog’liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo’naltirildi.

Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko’rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so’nggi uch yilda esa ikki barobar ko’paydi.

Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo’yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

2010-yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo’lgan bo’lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga yetdi.

2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo’naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e’tiborga moyil. O’tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko’rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o’sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig’ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko’prog’i to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalardir.

E’tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo’naltirildi.

Shu borada faqat o’tgan yilning o’zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo’lgan kapital qo’yilmalar o’zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya ob’ekti qurib bitkazildi.

2012-yilda qurilishi nihoyasiga yetkazilgan eng yirik ob’ektlar haqida gapirganda, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida Yaponianing “Mitsubisi”

kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 megavolt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasining ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim.

O'tgan 2012-yilda mamlakatimiz agrar sektorining deyarli barcha tarmoqlarida ulkan yutuq va natijalar qo'lga kiritildi.

Albatta, 2012-yilda ham, so'nggi yillardagi kabi, yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lgani, bahorning kech kelgani va namgarchilikning yuqori bo'lgani, yoz faslida havo haroratining haddan ziyod oshib ketgani qishloq xo'jalik ishlarini amalga oshirishda jiddiy muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Shunga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil yetishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi.

Fermerlik o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rghanish asosida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimi, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga yer uchastkalarini uzoq muddatga ijara berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashlarining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas.

2012-yilda xizmat ko'rsatish sohasi ham yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qariyb 15 foizga o'sdi, ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa bugungi kunda 52 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.

Bu jarayonda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan turlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jumladan, a'loqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,5 foizga, komp'yuter dasturlash xizmatlari 18 foizga, texnologik asbob-uskunalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish 17 foizga, moliya-bank xizmatlari 17,6 foizga o'sdi.

Yangi kasb-hunar kollejlari va ularning filiallarini qurish nihoyasiga yetkazildi. 2012–2013 o'quv yilida mamlakatimizda 12-yillik majburiy ta'limga o'tish to'liq ta'minlandi.

Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi "Innovasiyalarning global indeksi" ma'rurasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rini, deb o'layman. Ma'ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan.

Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovasion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston – shunga e'tibor beringlar – dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan.

Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushi 53 foizgacha o'sishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda.

2013-yilda mutanosib va barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash, butun soliq tizimini soddalashtirish va uning oshkorligini ta'minlash bo'yicha tegishli tadbirlar ko'zda tutilmogda. Shularning hisobidan soliq yuki darajasining oshmasligi ta'minlanib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bu ko'rsatkich 21,3 foizni tashkil etadi.

2013-yilda ham Davlat byudjetining ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajatlar qismining 60 foizdan ortig'i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan.

Joriy yilda mutanosib qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish davom ettiriladi, inflyatsiya ko'rsatkichlari 7-9 foizni tashkil qiladi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 12 foiz darajasida saqlanadi.

Hech kimga sir emaski, hayot darjasini, o'z navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012-yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013-yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'limgan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir.

O'tgan 2012-yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi o'z navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

2011 yilning yanvar-dekabrida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 19633,6 mlrd. so'mni yoki 2010 yilning shu davriga nisbatan 106,6 foizni tashkil qiladi. Jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 11347,4 mlrd. so'mni (106,0 foiz), chorvachilik mahsulotlari 8286,2 mlrd. so'mni (107,6 foiz) tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida dehqon xo'jaliklarining ulushi 63,7 foizni (2010yilning yanvar-dekabrida 62,9

foizni), fermer xo'jaliklarining ulushi 34,1 foizni (35,0 foizni), qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi 2,2 foizni (2,1 foizni) tashkil etdi.

2011 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiylajmi dehqonchilik (boshoqli don ekinlari, paxta, kartoshka, sabzavot, poliz ekinllari)ning ulushi 57,8 foizni (2010 yilda 59,4 foizni) tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 2011 yil hosili uchun ekilgan qishloq xo'jalik ekinlarining umumiylajmi maydoni 3601,2 ming hektar maydonni tashkil etdi.

Boshoqli don ekinlari bilan band bo'lган ekin maydoni 1607,4 ming hektarni yoki 2010 yilga nisbatan 95,8 foizni, shu jumladan bug'doy ekin maydoni 1432,6 ming hektarni (97,7 foizni) tashkil qildi.

Paxta ekin maydoni 1329,2 ming hektarni yoki 2010 yilga nisbatan 99,0 foizni tashkil etdi.

Kartoshka ekin maydonlari 4,1 foizga, sabzavot ekin maydoni 1,4 foizga o'sdi, shu bilan birga poliz ekin maydoni 4,1 foizga, ozuqa ekinlari maydoni 1,9 foizga qisqardi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiylajmi dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 42,2 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha chorvachilikning asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish 2-jadvalda ifodalangan.

2-jadval.

***Toshkent viloyati xo'jalik toifalari bo'yicha chorvachilikning asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarilishi***

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2009 yilga nisbatan foizda	2011 yil	2010 yilga nisbatan foizda
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna shu jumladan:	1461,4	106,8	1564,2	107,0
Fermer xo'jaliklar	37,8	106,8	41,0	108,3

Dehqon xo'jaliklari	1389,2	106,9	1481,6	106,7
Qishloq xo'jalik korxonalarini	34,4	106,6	41,6	121,1
Sut, ming tonna	6169,0	106,7	6766,2	109,7
Shu jumladan Fermer xo'jaliklari	205,0	116,1	230,1	112,3
Dehqon xo'jaliklari	5927,8	106,4	6494,0	109,6
Qishloq xo'jalik korxonalarini	36,2	124,8	41,5	114,7
Tuxum,mln. dona	3058,8	112,6	3441,7	112,5
Shu jumladan Fermer xo'jaliklari	288,1	137,2	374,5	130,0
Dehqon xo'jaliklari	1775,5	108,9	1875,5	105,6
Qishloq xo'jalik korxonalarini	995,2	113,6	1191,7	119,8
Jun, tonna	26510	106,1	28687,0	108,2
Shu jumladan: Fermer xo'jaliklari	1715	119,2	1938,0	113,0
Dehqon xo'jaliklari	21951	106,3	24198,0	110,2
Qishloq xo'jalik korxonalarini	2844	98,2	2551,0	89,7
Qorako'l teri, ming dona	934,9	104,1	1022,3	109,3
Shu jumladan: Fermer xo'jaliklari	44,1	104,2	43,4	98,4
Dexqon xo'jaliklari	632,1	108,1	643,6	101,8
Qishloq xo'jalik korxonalarini	258,7	95,6	335,3	129,6

**Manba:O'zR statistik axboratnomasi**

### **Respublikada YAlpi ichki mahsulotning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti, (%)**

Ko'rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2010 yil
Jami	100	100	100
Sanoat	17,6	14,2	24,0
Qishloq xo'jaligi	33,4	30,1	17,5
Qurilish	5,8	6,0	6,4
Transport va aloqa	5,2	7,7	12,4
Savdo	4,5	10,8	9,0
Boshqalar	22,2	18,7	23,7

### **Dunyoning ayrim mamlakatlarida fermer xo'jaliklarining daromadlarida davlat subsidiyalarining ulushi**

Nº	Mamlakatlar	Subsidiyalarning ulushi, %
1	AQSh	30
2	EI mamlakatlari	49
3	Shvesiya	59
4	Finlyandiya	71
5	Yaponiya	75

## **Agrar sohada olib borilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari**

### **Er islohoti bo'yicha:**

- qishloq xo'jaligida yerlaridan foydalanishda ijara shakli joriy etildi;
- yerni ijaraga 30 yildan 50 yilgacha berish belgilandi;
- yer uchastkalaridan foydalanish huquqini meros qilish tizimi joriy etildi;
- o'z mablag'i hisobidan qo'shimcha yer o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimi joriy etildi.

### **Suvdan foydalanish bo'yicha:**

- irrigatsiya tizimini boshqarishda hududiy prinsipidan havza prinsipiiga o'tildi, respublikada 10 ta irrigatsiya tizimi havza boshqarmalari va 1 ta Farg'ona vodiysi bo'yicha birlashtirilgan dispecherlik Markaziga ega magistral kanallari tizimi boshqarmasi tashkil etildi;
- fermerlarga suv yetkazib berishda Suv iste'molchilar uyushmalari tashkil etildi;

### **Moliya-kredit va soliq sohasida:**

- davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan mahsulotlarni yetishtirishda imtiyozli kredit tizimi yo'lga qo'yildi.
- fermer xo'jaliklari uchun yerlar unum dorligiga bog'liq bo'lgan yagona yer solig'i joriy etiladi.
- fermerga texnika vositalarini lizing asosida berish joriy etildi.
- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kredit tizimi yaratildi.

### **Narx-navo masalalarida:**

- davlat tomonidan sotib oladigan paxtaning narxi jaxon bozoridagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.
- davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.
- boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini narxi bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

**Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari**

- *Birinchi yo'nalish – bevosita fermer xo'jaliklarini mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha asosiy xarajatlarini moliyalashtirish*
- *Ikkinchi yo'nalish – qishloq xo'jaligi korxonalariga soliq imtiyozlarining berilishi*
- *Uchinchi yo'nalish – ball-boniteti past yerlarda paxta yetishtiradigan fermer xo'jaliklariga moliyaviy yordam berish*
- *To'rtinchi yo'nalish – respublikamizda irrigatsiya-melioratsiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash*
- Dehqon xo'jaliklarining ulushi go'sht ishlab chiqarish umumiyligi xajmida 94,7 foizni, sut ishlab chiqarishda 96,0 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 54,5 foizni, jun ishlab chiqarishda 84,4 foizni, qorako'l terisi ishlab chiqarishda 63,0 foizni tashkil etdi.
- Fermer xo'jaliklari, 2011yilda yalpi mahsulot (bo'yicha 6702,3 mlrd.) so'mni yoki 2010yilga nisbatan 104,4 foizni tashkil qildi.
- Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti umumiyligi hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 34,1 foizni tashkil etdi.
- Fermer xo'jaliklariga biriktirilgan umumiyligi yer maydoni 5841,0 ming hektarni tashkil qildi.
- 2012 yilning 1 yanvariga holatiga fermer xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollar 507,2 ming boshni, shu jumladan sigirlar 174,0 ming boshni, qo'y va echkilar 1203,3 ming boshni, parrandalar 4974,2 ming boshni tashkil qildi.
- 2011 yilning 1 yanvariga nisbatan yirik shoxli qoramollar 5,5 ming boshga (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga), shu jumladan sigirlar 1,4 ming boshga (0,8 foizga), qo'y va echkilar 53,4 ming boshga (4,6 foizga), parrandalar 1015,6 ming boshga (25,7 foizga) ko'paydi.
- YAlpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishida raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat

ko'rsatish sohalarini tez sur'atlar bilan taraqqiy etishini belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanishi e'tiborga loyiqdir. Demak, tarmoq iqtisodiyotlarini tashkil etish, rejalashtirish, bashoratlash, marketing nazariyalaridan foydalanish, element, operatsiya va jarayonlarni muvofiqlashtirish, innovatsiyaga e'tiborni, oshirish, tartibga solish, ilg'or boshqaruv yechimlarini qabul qilish, jarayon va tizimlarni nazorat qilish, jarayon va tizimlarni nazoart qilish, iqtisodiy va statistik taxlil qilish, tizimli sintez qilish, iqtisodiy foydalanish kabi imkoniyatlar ijrochilar va boshqa xodimlar uchun qurol va mexanizm sifatida ishlatilsa ayni muddao bo'ladi.

**2006-2012 yillarda Respublika bo'yicha mavjud va yangi sotib olingan qishloq xo'jaligi texnikalari to'g'risida**  
**MA'LUMOT**

Texnikalar nomi	2006 yil		2007 yil		2008 yil		2009 yil		2010 yil		2012 yil		2006-2012 yillarda	
	mavjud soni, dona	yangi sotib olingani, dona	mavjud soni, dona	yangi sotib olingani, dona	mavjud soni, dona	yangi sotib olingani, dona	mavjud soni, dona	yangi sotib olingani, dona	mavjud soni, dona	yangi sotib olingani, dona	mavjud soni, dona	yangi sotib olingani, dona	2010y 1 dekabr holatiga mavjud soni, dona	7 yilda jami yangidan sotib olingani, dona
Traktorlar, jami	151870	2211	152452	1652	153973	2231	152974	3007	153707	2671	154831	2124	156378	13896
Haydov traktorlari	14042	634	14401	164	14732	454	14277	191	13913	378	9368	546	14291	2367
sh.j.yuqori unumli	1942	2	1944	6	1950	6	1986	36	1964	83	4724	297	2047	430
Chopiq traktorlari	45234	1182	45436	1293	46729	1174	46884	1697	47156	1359	31839	1098	48515	7803
Traktor tirkamalari	63614	368	55117	250	57258	348	54114	1421	50161	691	24972	882	50852	3960
Kultivatorlar	26053	503	24572	279	26458	440	25858	1433	25719	633	25348	315	26352	3603
Chigit seyalkalari	16428	352	14625	178	14475	237	13389	215	12799	320	12953	552	13119	1854
Pluglar	10690	130	9617	90	9889	117	9520	244	9415	67	8643	153	9482	801
Don o'rish kombaynlari:	4725	116	4645	93	4962	332	4903	123	4822	167	3011	245	4989	1076
sh. j. yuqori unumli	2057	55	1962	52	2181	86	2286	110	2671	167	2978	245	2838	715
O't-o'rgichlar	1732	30	1481	59	1334	40	1380	308	1211	173	876	169	1384	779
Zichlab-bog'ligichlar	622	1	511		397	14	395	47	385	126	484	72	511	260

**"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 fevraldag'i 30-sonli Qaroriga asosan fermer xo'jaliklariga  
2011 yil davomida yo'naltirilgan ijobiy farq summasi to'g'risida**

**MA'LUMOT**

TG'R	Hududlar nomi	Jami	shundan											
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	Qoraqalpog'iston R	23258	2765	2349	2682	2847	2748	932	1541	2265	2257	928	1253	691
2	Andijon	35564	4228	3592	4100	4353	4203	1425	2357	3464	3452	1419	1915	1056
3	Buxoro	46583	5538	4705	5370	5702	5504	1866	3087	4537	4521	1859	2508	1386
4	Jizzax	21650	2574	2187	2496	2650	2558	867	1435	2109	2101	864	1166	643
5	Qashqadaryo	56208	6682	5677	6481	6880	6642	2252	3725	5474	5456	2243	3027	1669
6	Navoiy	14876	1768	1502	1715	1821	1758	596	986	1449	1444	594	801	442
7	Namangan	24159	2872	2440	2785	2957	2855	968	1601	2354	2345	964	1301	717
8	Samarqand	33029	3927	3336	3808	4043	3903	1323	2189	3217	3205	1318	1779	981
9	Surxondaryo	39239	4665	3963	4524	4803	4637	1572	2600	3822	3809	1566	2113	1165
10	Sirdaryo	20783	2471	2099	2396	2544	2456	833	1377	2024	2017	830	1119	617
11	Toshkent	24891	2959	2514	2870	3047	2941	997	1650	2424	2416	993	1340	739
12	Farg'ona	30551	3632	3086	3522	3740	3610	1224	2025	2976	2965	1219	1645	907
13	Xorazm	32526	3867	3285	3750	3981	3843	1303	2156	3168	3157	1298	1752	966
Jami		403315	47948	40735	46499	49367	47659	16158	26729	39280	39146	16097	21720	11979

**Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga  
davlat byudjetida berilayotgan subsidiyalar to'g'risida ma'lumot**

	<b>Yillar</b>	<b>Moliyaviy yordam hajmi, mlrd. so'm</b>
<b>1</b>	<b>2008</b>	<b>60</b>
<b>2</b>	<b>2009</b>	<b>120</b>
<b>3</b>	<b>2010</b>	<b>130</b>
<b>4</b>	<b>2011</b>	<b>140</b>
<b>5</b>	<b>2012</b>	<b>160</b>

**Hukumat kafolati ostida amalga oshirilayotgan va 2012 yil manzilli jadvalga kiritilgan investitsiya loyihalari to'g'risida  
MA'LUMOT**

(mln. AQSh doll.)

tG'r	<b>Loyihalar nomi</b>	<b>Xorijiy hamkor</b>	<b>Investitsiya va kreditlarning umumiy qiymati</b>	<b>2012 yilda o'zlashtirish</b>		
				<b>Reja</b>	<b>fakt</b>	<b>%</b>
	<i>Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Jami</i>		<i>561,0</i>	<i>105,2</i>	<i>112,9</i>	<i>107%</i>
1	O'zbekiston Drenaj loyihasi. Janubiy Qoraqalpog'istonidan	XRTB, XTA	60,0	5,36	5,36	100%

	drenaj o'tkazish loyihasi					
2	Buxoro viloyati "Quyi-Mozor" nasos stansiyasini qayta tiklash loyihasi	OPEK	12,0	3,81	11,37	298%
3	Buxoro viloyati "Olot" nasos stansiyasini qayta tiklash" loyihasi	STJ	12,0	4,0	4,064	100%
4	"Amu-Zang mashina kanalini qayta tiklash" loyihasi	OTB	73,2	5,45	5,45	100%
5	"Farg'ona va Zarafshon vodiylarida suv resurslarini boshqarish" loyihasi	OTB	100,0	16,98	17,0	100%
6	"Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 1-bosqich." loyihasi	XTA	65,54	14,974	14,974	100%
7	"Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida irrigatsiya-drenaj tarmoqlarini tiqlash" loyihasi	ITB, QAITJ, OPEK	81,0	17,635	17,67	100%
8	Buxoro viloyati "Qorakul" nasos stansiyasini qayta tiklash" loyihasi	XHRX	7,323	7,3	7,3238	100%
9	Navoiy viloyatidagi "Navoiy" va "Uchkara" nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish " loyihasi	Fransiya Hukumati	21,75	0,089	0,089	100%
10	"Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash" loyihasi (2-chi bosqichi)	XTA	68,0	16,927	16,95	100%
11	"Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida yerlarning	OTB	60,2	12,66	12,663	100%

	meliorativ holatini yaxshilash” loyihasi					
--	--	--	--	--	--	--

### **Respublikada infratuzilma ob'ektlari soni o'zgarishi**

<b>Infratuzilma ob'ektlari</b>	<b>2006 y</b>	<b>2007 y</b>	<b>2008 y</b>	<b>2009 y</b>	<b>2010 y</b>	<b>2012 y.</b>
Mini bank	895	1207	1094	1478	1179	1462
Muqobil MTP	1562	1779	1777	1757	1720	1681
Mineral o'g'itlar sotish shoxobchasi	1051	891	928	935	917	917
Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi	1271	1676	1676	1712	1711	1487
YOMM sotish shoxobchasi	1110	1340	1373	1389	1377	1366
Qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish shoxobchasi	581	443	424	424	424	420
Zooveterinariya punktlari	381	2180	2278	2411	2540	2596
Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shoxobchalari	317	295	300	300	301	318
Transport xizmati ko'rsatish shoxobchasi	77	82	82	82	82	85
Tara, idish va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shoxobchalari	73	78	78	78	78	78

Respublikamizning qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida ko'p qirrali yondoshuvni talab etadi. Shu sababdan qishloq xo'jaligini rivojlantirishda zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Jumladan mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini modernizasiyalash bo'yicha qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilindi va foydalanishga topshirildi. Masalan: 2006 yilda Respublikamiz bo'yicha jami traktorlar soni 151870 dona bo'lgan bo'lsa 2012 yilga kelib 156378 donani tashkil etmoqda, kombaynlarning soni esa 4725 donadan 4979 donaga ko'paydi. Bir qarashda bu raqamlar juda kichikka o'xshaydi, ammo ularning bajaradigan ish hajmi va sifati hozirgi kundagi talablarga javob bera oladi.

Qishloq xo'jaligini yanada takomillashtirish, hosildorligi past yerlardan foydalanish hamda ularni o'zlashtirish yuzasidan davlat mablag'lari hisobiga subsidiyalar berilishi miqdori ham yil sayin ortib bormoqda, hususan 2008 yilda 60 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa 2012 yilga borib bu ko'rsatkich 160 mlrd so'mga chiqdi. Albatta bu mablag'lar qishloq xo'jaligi infratuzilmasini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligiga hukumat kafolati ostida amalga oshirilayotgan manzilli jadvalga kiritilgan investitsiya loyihalari ham salmoqli ulushga ega bo'lib bu investitsiyalar, drenajlar barpo etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va hokazolar uchun maqsadli yo'naltirilmoqda. Hususan 2011 yil uchun qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashhabusi bilan kiritilayotgan investitsiyalarning qiymati 561 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qishloq xo'jalik sohasiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida respublikamizda infratuzilma ob'ektlari soni yildan – yilga ortib bormoqda. Bular quyidagilar:

- mini banklar;
- muqobil MTPlar;
- mineral og'itlar sotish shahobchalari;
- zooveterinariya punktlari;
- axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shaxobchalari;

- transport xizmati ko'rsatish shoxobchasi;
- tara idish va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shoxobchalari.

Masalan mini banklarning soni 2006 yilda 895 ta bo'lgan bo'lsa, 2012 yil boshiga kelib bu ko'rsatkich 1462 tani tashkil etdi, zooveterinariya punktlari esa 381tadan 2596 tagacha ko'paydi va hokazo.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda qo'llanilayotgan ustuvor yo'nalishlar bilan birga oldimizda turgan asosiy vazifalar (iqtisodiyotning barqaror va munosib sur'atlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik, innovatsion va texnalogik jihatdan yaxshilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirish) ko'p, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan hayotiy masalalarning ijobiy hal bo'lishini ta'minlashimiz zarur.

Ma'lumki, yetishtirilgan mahsulotlar iste'molchilarga yetkazish tizimi ni bozor munosabatiga mos qilib yaratish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka keng imkoniyatlar, talab va taklif doirasida tashkil etish, yangi ish o'rinalarini barpo etish, haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish kabi qator bozor iqtisodiyotiga mos muammolarni hal etishda keng imkoniyatlar ochib berildi. Ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi (savdo va umumiyligini ovqatlanish, moliya, bank xizmatlari, transport xizmatlari, kommunal xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, avtomabillarni va boshqa texnikalarni ta'mirlash, mehmonxona xizmati, sayyoqlik - ekskursiya xizmatlari, boshqa xizmatlar) va iste'molchilar o'rtasida keng ko'lamma sodir bo'ladigan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularga ko'p qirrali xizmatlar ko'rsatuvchi hamda shu bilan bir qatorda ishchi kuchlarini oqilona joylashtirishga xizmat qiluvchi turli muassasalar (firma, korxona, tashkiliy va boshqalar) majmui bo'lishi bozor infratuzilmalari shakllantirildi va ular takomillashtirilmoqda.

Biroq, O'zbekistonda, ayniqsa uning qishloq joylarida, bozor infratuzilmasining shakllanish sur'ati past, uning korxonalarida faoliyat yurgizadigan malakali xodimlar bilan ta'minlash, yetishtirilgan mahsulotlarni tashishdagi ba'zi-bir iqtisodiy va boshqaruv muammolari, transport xizmati

ko'rsatish tizimini iqtisodiy baholash yuqori darajada emasligi unumdorlikni pasayishiga olib keladi, oqibatda mahsulot tannarxi qimmatlashadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ma'ruzasida keltirilganidek, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalarida ishlayotganlar ulushi iqtisodiyotda band aholining 55-70 foizini tashkil etadi. Ayni vaqtda bizda, bu ko'rsatkich 10-15 foizga boradi, xolos.

Qishloq aholisi butun aholiga taklif qilinayotgan xizmatlarning 20 foizidangina (ya'ni bu 5 marta kam demakdir) foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik mahsulotining 97 foizini xususiy sektor yetkazib bermoqda. Biroq, qishloq xo'jalik infratuzilmasi (xalq xo'jalik infratuzilmasi, hududiy infratuzilma, tugunli yoki uzelli infratuzilma, alohida korxona infratuzilmasi, xalqaro infratuzilma va boshqalar) da xizmat ko'rsatish tarmoqlarida mashg'ul bo'lgan aholining 60-70 foiziga ko'rsatish uchun (hozir bu raqam 9 foiz) katta ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy evolyutsiyani bosib o'tish yo'llari bilan bog'liq. Shu bois soha mutaxassislari, tadbirkorlari, menejerlari, rahbar (menejment)lari chuqur bilim egasi bo'lislari bilan birga bozor mexanizmini qishloq xo'jalik taraqqiyotida va boshqa tarmoqlarni bir-biriga qo'shib olib borish va innovatsiya faoliyatiga e'tiborni oshirish vazifalarni hal qilishlari kerak.

Ma'lumki, har bir korxona yoki xo'jalik ishlab chiqarish jarayonida transport va texnika vositalari bajariladigan ish hajmiga ehtiyoji bo'ladi. Qishloq xo'jalik korxona firmalari transport vositalaridan ishlab chiqarish tizimida foydalanishi lozim. Bu korxonaning transport vositasiga bo'lgan ehtiyojidir. Lekin bu ehtiyojlarni qaysi yo'nalishda, qaysi variantlarda, qanaqa tarzda qondirish lozim. Qaysi usul yoki variant korxona foydasini maksimallashtiruvchi hisoblanadi, shu bilan birga qulaylik yaratadi.

Firma (korxona)lar o'z faoliyatlarini samarali olib borishga intilib va tobora uzoqroq muddat uchun oldindan ustuvor rejalashtirish usulidan foydalanadilar. Bozordagi o'zgarishlar va fan-texnika taraqqiyoti yo'nalishlarini tahlil qilish asosida korxona yoki tarmoqning ustuvorligini ishlab chiqish uchun

negiz bo'ladigan umumiy maqsadlarni belgilaydi. Firma yoki tarmoqning ustuvor (strategik)lik faoliyatining bosh dasturi, marketing, moliya, tashkiliy faoliyat, xodimlar siyosati va boshqa sohalardagi birlamchi yo'nalish va ne'mat (resurs)lar taqsimotini aks ettiradi.

Ustuvor rejorashtirish tarmoq iqtisodiyotlari taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish sohasidagi barcha harakatlarning maqsadga muvofiq yo'nalishini aks ettiradi. So'ngra har bir yo'nalish bo'yicha batafsil rejalar tuziladi, chunki marketing g'oyasini qo'llaydigan tarmoq yoki korxonalar faoliyat natijalari ko'proq savdo sohasi bilan belgilanadi, rejalar orasida mahsulot nusxasi (assortimenti)ni yaratishdan boshlab tovar pirovard sotishga qadar mahsulot harakati (siljishi) jarayonlarini qamraydigan marketingni rejorashtirish alohida o'rinni egallaydi.

Ustuvor marketing bozor talablarini tizimli tahlil qilish bilan bog'liq, servis xizmati ko'rsatuvchining o'z faoliyatida yangi yo'nalishlarini tanlash imkonini beradi, samaraliroq mahsulotlarni tanlab olish, iste'molchi guruhlarni aniqlash, xizmatlarini davom etish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Yana bir muhim omilni chetda qoldirish mumkin emas. U ham bo'lsa - jarayon va operatsiyalarni vaqt bo'yicha bajarilishining davom etish ko'rsatkichiga rioya qilishdir.

Ishlab chiqarish (erni ekishga tayyorlash, ekish, o'simlikni parvarish qilish, yetilgan hosilni yig'ish, tashish vositalariga joylash, ortish, tashish, tashish vositasidan tushirish, saqlash, sotish va hokazolar) siklini uzoqligi - ishlab chiqarishga boshlang'ich materiallarni foydalanishga kiritilgan moment (daqqaqadan iste'molchiga tayyor mahsulotni yetkazgungacha vaqt davri. Lekin bu ta'rif yangi mahsulotlarni buyurtmachining topshirig'i bo'yicha ishlab chiqarish bilan bog'liq xizmatlarni bajarishga to'g'ri keladi. Pirovard natija tarmoq iqtisodiyotini yuqorilashishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

### **1.3. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida milliy madaniyatning ahamiyati.**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida milliy xalqning ijtimoiy omillari, madaniyati, axloqi, xulqi, to'plangan tajribalar, milliy xodimlarning taffakkuri, ma'naviyati, milliy e'tiqod kabi omillar mamlakat boyligida katta o'rinn tutadi. Chunki kishilik jamiyati rivojlanib borar ekan, odamlarning ma'naviy ne'matlarga, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'xtovsiz ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi uning fuqarolariga inson erkinligi huquqlaridan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Ayniqsa, ijodkorlarga, ixtirochilarga, aqliy mulk egalariga qulay sharoitlar yaratdi. Ular aql-zakovat mulkini: ixtirolari, ilmiy kashfiyotlari, texnologik yangiliklari, uslubiy ishlanmalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu, bir tomonidan, xalqimiz ichidan yangi ijodkorlar, ijodkorlarning yetishib chiqishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, ma'naviyat, ma'rifat, ilm-fan kabilarning o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy tarmoq (tashkilot, korxona, firma, infratuzilma va ular)ning iqtisodiyotiga o'zları faoliyat ko'rsatayotgan mamlakat va uning jamiyati astasekin bo'lsa ham ta'sir qiladi. Shuning uchun tashkilotlar jamoatchilik muhitib bilan qanday munosabatda bo'lishi kerak, o'zlarini ijtimoiy javobgar hisoblashlari kerakmi? Albatta, qonunlarni va davlat tomonidan boshqariladigan me'yordarni buzmay foydalanish tashkilot yoki tarmoqlarning ijtimoiy javobgarligida ifodalanadi. Bu tomonidan korxonalar iqtisodiy maqsadlarni ko'zlashlari kerak. Shu bilan birga firmalar iqtisodiy javobgarliklariga qo'shimcha faoliyatlarida insoniy va ijtimoiy yo'naliishlarni hisobga olib firma jamoasiga, jamiyatga ta'sirlarini his etishlari lozim, oqibatda ijtimoiy muammolarning yechilishiga ijobjiy hissa qo'shishlari maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy javobgarlik deganda firma tomonidan ijtimoiy muammolarga javoban ixtiyoriy harakatning ma'lum darjasini tushuniladi. Bu harakat qonun bilan belgilangan va davlat organlari tomonidan boshqariladigan talablardan tashqarisni yoki bu talablar me'yordan yuqori bajarilishi nazarda tutiladi. Firmalarda har xil yordam jamg'armalari, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy ofatlarda

ko'rsatiladigan yordamlar obodonlashtirishga ajratmalar va shu kabilar ijtimoiy javobgarlikka kiradi.

Ijtimoiy javobgarlikning xarajatlari jamiyatning guruhlarini takomillashtirish, tashkilotga jamiyat munosabatini yaxshilash kabilarda o'z ifodasini topadi va shular orqali qoplanadi.

Ijtimoiy javobgarlik muammosining markazida shaxsiy xodim turadi. Rahbarlar va oddiy xodimlarning axloqiy xulqining xususiyatlarini ko'tarish maqsadida firmalarga har xil chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Masalan, ahloqiy me'yornomaning ishlanmasi, axloq bo'yicha qo'mitalar tuzish, ijtimoiy taftish o'tkazish va axloqiy xulqqa o'rgatish kabilar.

Ma'lumki iqtisodiyot – ijtimoiy hayotning maxsus sohasi. U o'zining xususiy qonunlariga binoan faoliyat ko'rsatadi, rivojlanadi. Iqtisodiyotda har bir kishi iqtisodchi bo'lmos'h'i kerak. Shuning uchun ham iqtisodiyotning ob'ekti odamlardir. Shu bois iqtisodiyotni odamlar, insonlar haqidagi fan, ijtimoiy fan sifatida hisoblanishi mumkin. Uning predmeti bo'lib – jamiyatning moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ishlab chiqarish, (xizmat ko'rsatish) resurslaridan foydalanish jarayonida odamlarning o'zaro ta'sirini samarali usullarini izlash nazariyalari, tashkilot va tarmoqlarning hisobot materiallari va shu kabilar xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, xarid-sotish, tayyorlash, tashish, yuklash-tushirish, saqlash, texnologik jarayonlarni tashkil etish, marketing nazariyasidan foydalanish, muvofiqlashtirish, hisobga olish, nazorat qilish, boshqaruv yechimini qabul qilish, axborot almashish, tahlil qilish kabi ishlarni loyihalash lozim. Buning uchun tizim ma'lum guruhlarda andozalanadi. Masalan, texnologik operatsiyalar, foydalaniladigan ish usullari, ishni bajarish ko'rsatkichlari va odam texnika orasidagi o'zaro munosabat, ya'ni ishni qurish; xodimlar bajaradigan texnologik operatsiyalar sonini kengaytirish, ya'ni ish ko'laminini kengaytirish; xodimlarni almashtirib yoki almashlab ishlatish tartibi; ishni tavsifini boyitish; inson omili (ijtimoiy-madaniy tarbiyadagi xulqli odam) plyus ishning texnologiyasi; ishni loyixalash andozasini tanlash.

Korxona yoki tarmoqda ishlaydigan odam uchun tashkilotga qanday ijtimoiy - madaniy tarbiyadagi xulqli odam kerakligini bilish muhim: ish uchun odam kerakmi tashkilot (tarmoq)ga yoki odam uchun ish kerakmi, bu muqobililikni yechayotgan korxona uchun birinchi holat muhim, ya’ni ijrochi kerak, ikkinchi holatda - tashabbuskor. Shundan boshlanadi, ishlaydigan odam uchun o’zining shaxsiy muammosi: “Men yashash uchun ishlaymanmi yoki yashayman, ishlash uchun, umuman, men nima uchun ishlayman va kim uchun?”. Ushbu madaniyat g’oyasi korxona (tarmoq) xodimlari tomonidan e’tirof etilgan eng qimmatli qadriyatlar bo’lib, ularning faoliyatlaridagi axloqlari yo’nalishini belgilovchi omillardir.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida asosan to’rtta madaniyat g’oyasi: “Iqtisodiy odam”, “Ruhiy odam”, “Texnologik odam” va “Axloqiy odam”. Ular jamlanib tashkiliy xulq segmentini tashkil etadi. Tashkiliy hulq tashkilot yoki tarmoqlarning ma’lum ijtimoiy-madaniy muhitida namoyon bo’ladi. Ishbilarmonlik (ahloqiy odam) axloqi korxona yoki tarmoq madaniyati tushunchasi bilan chatishib ketgan. Bu esa barcha mamlakatlarda, jumladan, O’zbekiston biznesida ham muvaffaqiyat tayanchi bo’lib qoladi.

Tashkilot (korxona) madaniyati - bu muassasa, firma, xo’jalik va tarmoqlardagi barcha ishlaydiganlarning qadriyat (bino, dizayn, joylashishi, uskuna va jihozlar, mebel, fazoviy hajmi, qulayliligi, qabul xonalari, avtomobil va texnikalar uchun saqlash joyi va shunga o’xshash xolis qadriyatlar, odatlar, an’analar marosimlar, til muomalasi, ishoralar, firma qaxramonlari, raxnomalari, tashkilot tarixi va sub’ektiv qadriyatlar) va qat’iy ishonch tizimidir.

Tashkilot yoki tarmoq madaniyati mamlakat iqtisodiyotini rivoj-lanishida juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun tashkilot (tarmoq) madaniyatiga rahbar tomonidan doimiy e’tibor qaratilmog’i lozim.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlishi yillar davomida holatlarning ta’siridan milliy madaniyat ma’lum darajada o’zgarishi mumkin. Masalan, 1850-1920 yillarda pul muomilasi to moyiliga asoslangan “Iqtisodiy odam” xulqi, 1920-1960 yillarda ta’sir etish usullaridan foydalanib, o’ziga qulaylik yaratishga asoslangan “Ruhiy odam” xulqi, 1960-1975 yillarda yangi komp’yuter-injiniringga asoslangan

“Texnologik odam” xulqi, 1975 yildan hozirgi davrgacha biznesdag'i ehtiyojlarning o'zaro majburiyatlarini “o'sishi” dan kelib chiqqan “Axloqiy odam” xulqi mavjud bo'lган va ba'zilari davom etmoqda. Hozirgi vaqtida odamlarning aqlida o'zgarishlar bo'ladimi-yo'qmi, bunga ishontirish qiyin. Buni bilish uchun tashkilotlardagi rahnamo ketganidan keyingi dalillargina ko'rsatadi, odamlar yangi madaniyat bilan davom ettirishadimi yoki boshqachami.

Mamlakat, tarmoqlar, tashkilotlar va xo'jaliklarning faoliyat darajasi va imkoniyatlari ularning madaniyatini belgilaydi. Chunki odamlar nima uchun, tashkilot a'zosi bo'laklar, ular orasidagi munosabatlar qanday qurilgan tashkilot (korxona)ning qaysi turg'un me'yorlari va hayotiy tamoyillari, faoliyatini ma'qul ko'radilar, ularning fikricha nima yaxshiyu, nima sayoz, nimalar qadrli va me'yorli. Bulardan ko'rinish turibdiki, tashkilot o'ta murakkab organizm, uning rivojlanishi esa undan ham murakkab. Ammo mamlakat (tarmoq, tashkilot) madaniyati yuzaga aniq qalkib chiqmaydi, uni “ushlab ko'rish” qiyin. Tashkilot madaniyatini ifodalovchi bu odamlarning madaniyatini (tashkilot madaniyatini) asosan ikki tavsifda rivojlanadi: korporativli va individualistik tashkilotlar turada.

Korporativli tashkilot madaniyati (kishi ish uchun, tashkilotga nisbatan sodiq turish, tashkilot kishi uchun javob beradi, tashkilotning mustaqilligi, tashkilot uchun erkinlik, ishlab chiqarishining manfaatini kishining o'zi takror ishlab chiqarishga manfaatdorligi bilan aniqlaydi, yechim qabul qilishda qo'pchilik va kattalik tamoyili, tashkilot faoliyatida yakka xokimlik va standartlash, resurlarni markazlashib taqsimlash bilan noyoblik imkonini keltirib chiqarish, mansabdorlik tuzilmasini hukumronligi va b.) ma'lum axloqqa mos keladi. Ahloq esa xulqdag'i ikkilamchi axloq bo'lib qatnashadi-individualistik ahloq va korporativ ahloq.

Korporativ tuzilmalarda tashkilot (tarmoq, korxona, xo'jaynlik) ga munosabat bo'yicha sodiqlik hukimron, itoatkor va bajaruvchanlik ma'qullanadi, oqibatda mas'uliyatsizlik paydo bo'ladi.

Individualistik tashkilot madaniyati (kishilarni erkin, ochiq, o'z ixtiyorm bilan uyushishi; tashkilotda a'zolar, guruhlar faoliyatida raqobat va kooperatsiyalarni birga olib borilishi; demokratik jarayon doirasida hamma a'zolarning manfaatini bog'lash

tamoyilining hukmdorligi; manfaatning egasi shaxs; kishi o'zi uchun o'zi javob beradi; shaxsnинг mustaqilligi; shaxs uchun erkinlik; yechim qabul qilishda kamchilik tamoyili; xulqida umumodamiylik axloqi va sog'lom fikri; o'z e'tiqodiga nisbatan sodiqligi; ish kuchi uchun; ishlab chiqarishning manfaatini kishining o'zi takror ishlab chiqarish manfaatdorliklari bilan aniqlaydi ) korporativga qarama-qarshidir. Bu ham kishilar uyushmasi, bиргаликда faoliyat ko'rsatadi, ammo uyushish erkin, ochiq, o'z xohishi bilan. Inadividuallistik tashkilot o'zi qo'shilgan yoki yarim muxtor birliklardan iboratdir. Masalan, jamoa mulki bunday tashkilotlarda-bu xammasi xususiy degani emas, balki jamoa a'zolarining har birining xususiy mulkidir.

Individualistik tashkilotda quyi mansabdorlarning yukori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'y sunishi o'rniga demokratik jarayonlar doirasida barcha a'zolarning manfaatiga bog'lanish tamoyili hukimrondir.

Individualistik tashkilotda manfaat sub'ekti shaxsdir. Hamma tashkilotning madaniyati shaxs atrofida shakllanadi va rivojlanadi. Ish uchun kishi qidirilmadi, balki shaxs uchun, uning qobiliyati, asoslanishi bo'yicha ish yaratiladi.

Bunday hollarda kishi o'zi uchun o'zi javob bera boshlaydi. Masalan, kosib, xunarmand va boshqa kasanachilar misol bo'la oladilar. Keyingi yillarda iqtisodiyotimizni o'sish sur'atlariga ijobjiy ta'sir etish uchun, mamlakatimiz aholisiga kasanachilikning turli shakllari bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoit yaratib berish, muxtoj oilalarni chorva mollari bilan ta'minlash borasida qilingan ishlar tufayli O'zbekistonda qariyb 570 mingta ish o'rni yaratildi.

Iqtisodiyotda qaysi turdag'i tashkilotning madaniyati keng va jadal rivojlanishi – kooperativmi yoki individualistikmi, bu uning rivojlanish darajasi davr talablariga mos ravishda eguluvchi va tez o'zgarish imkoniga bog'liq.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar industrial axborotlar jamiyatining birinchi pog'onasiga ko'tarildi. Milliy xo'jalik iqtisodiyotida optimal faoliyatning tizimi vujudga keldi. Bu yo'naliш asosida milliy iqtisodiyotning yagona optimal mezioni, baholash, sarmoyalarning samaradorligi, insonparvarlik, iste'molni me'yorlash va boshqa masalalar dolzarblashdi.

Kelajakda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida milliy madaniyat qanday bo'lishi kerak? Ular qanday rejalarни amalga oshirishlari lozim? Ularda rivojlanish qanday asosda birlashishlari yoki bo'linishlari maqsadga muvofik bo'ladi? Bu savollarni hammasiga javob berish qiyin. Ammo hozirgi vaqtda yuqori texnologiyali sohalarda, tez o'sayotgan tarmoqlarda kelajagi bor tashkilotlar paydo bo'lmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bunday tashkilotlar edxokratik nom bilan ataladi. Ular standart bo'limgan, murakkab ishlarda, qiyinchilik bilan aniqlanadigan va innovatsion faoliyatga asoslangan, tez o'zgaradigan tizimlarda, chukur bilimga va yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, bilimdonlikka asoslangan hokimlikda, quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi shart bo'limgan vaziyatda va chiziqli-funksional boshqaruvi tuzilmasida qo'llanishi mumkin.

Mamlakat, tarmoq va tashkilot (milliy) madaniyatini tahlil qilish va sintez tizimi ko'rsatadiki, uni o'rganishda o'zgaruvchan yo'nalihschlarni tizimlarga ajratib olish lozimdir.

Milliy madaniyatni sodir etuvchi yo'nalihschlarni (oila tizimi, ta'lim tizimi, iqtisodiy tizim orqali jamoa mahsulot ishlab chiqaradi va taqsimlaydi, siyosiy tizim orqali hukumronlik va haqqoniyliliklar o'rnatiladi, diniy tizim madaniyatning nomaterial, ruhiy yo'nalihi bo'lib, yashash va his-tuyg'u uyg'otishda o'z o'rnini topadi, ijtimoylashtirish tizimi, ya'ni ijtimoiy guruhlarga bo'lish tamoyillari, tibbiy tizim, xordiq chiqarish tizimi kabi sharqona madaniyat bilan cheklanmaydi. Sanab o'tilgan milliy madaniyatni boyitishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Odamlar harakatining to'g'ri ekanligini tanlashda axloq haqidagi tushunchani ko'ra bilish muhimdir. Sharqona urf odat, an'ana, xulq-atvorini boshqarishga tayyorligi, mehribon va xushmuomalaligi, og'ir sharoitda ham o'zni tuta bilishi, nimani qilish mumkin, nimani qilmaslik kerak degan savollarga ijtimoiy nuqtai nazardan yondasha olish kabilar axloq me'yorlari hisoblanadi. Axloq jamiyat tomonidan boshqariladi. U orqali kishilarning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va tashkilot (tarmok, firma) faoliyatida qo'llash jamoani katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti ma'rifatli va madaniyatli bo'lishni, o'z kasbini keng va chuqur egallashni, yuqori ahloq me'yorlariga amal qilishni talab etadi. Ma'rifat, madaniyat va axloq orqali kishilarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va tashkilot faoliyatida qo'llash katta muvaffaqiyalarga olib keladi.

Inson yoki xodim shaxs sifatida jamoada o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lishi kerak. Tashkilot yoki korxonaga kirib kelayotganida qancha talab qo'ysa, korxona ham unga turli xil talablar qo'yadi. Xodim mashina emas. U samarali boshqarilishi, ko'ngli faoliyatga majbur etilishi kerak. Bunda kishi xulqiga mo'ljallab ish ko'rinishini ifodalaydi.

Inson o'zi yashab turgan mamlakatdagi aholining farovonligi, odob va rivojlangan bo'lishini, iqtisodiy va intellektual salohiyatlarini ishga solishini istaydi. Boshkacha ayganda, iqtisodiyot eng avvlo insonlar faoliyatidir, ularning tabiatga va o'zaro ta'siri natijasida transport xizmatlari ko'rsatadi, mahsulotar, moddiy ne'matlar yaratiladi, bunyodkorlik va injodkorlik qilinadi. Demak iqtisodiyotning boshlanishi mahsulot ishlab chiqarish, uni tayyorlash, tashish, yuklash, tushirish, saqlash, xarid qilish kabi xizmatlar ko'rsatishdir. Korxonaning muhim maqsadi ham ana shunda.

#### **1.4. O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning ilg'or shakllari va usullarini aniqlash**

Respublika, viloyatlar, tumanlar va korxonalar iqtisodiyotini boshqarish shakllari va usullari har xil yo'llar bilan takomillashtiriladi, shu jumladan, ichki (milliy) va dunyo (eksport va xalqaro) bozorlarning organik o'zaro ta'sir etishi bilan bog'liqligidan.

Respublika iqtisodiyotini boshqarish organlarining asosiy masalalariga iqtisodiy usullarning boshchilik qilishni shakllantirishdir. Shundan kelib chiqib, tarmoq (xususan, transport, qishloq xo'jaligi, sanoat va b.)larni boshqarish organlarining vazifasi va tuzilmasi o'zgaradilar. Masalan, transport tarmog'ini boshqarish organlari (Davlat hissadorlik temir yo'l kompaniyasi "O'zbekiston temir yo'llari", Milliy aviatsiya kompaniyasi "O'zbekiston havo yo'llari", Davlat

Hissadorlik konserni “O’zavtoyo’l”, O’zbekiston transport va daryo transporti agentligi, Davlat assotsiatsiyasi “Toshshaharyo’lovchitrans” va b.)ning vazifa (funksiya)si taraqqiyotning asosiy yo’nalishlari, taraqqiyotining ustuvor rejali va istiqbolini, tarmoqdagi ilmiy - texnik va investitsiya siyosatini aniqlash, ilmiy - texnika taraqqiyoti yutuqlari va ilg’or tajribalarini tashkiliy boshqarish jarayonlarini umumlashtirish va tadbiq etish, korxona (tashkilot, firma)larning tashqi iqtisodiy faoliyatini, xodimlar tayyorlash va qayta tayyorlashni rivojlantirishga yo’naltirilgan.

O’zbekiston Respublikasi bozor munosabatiga o’tishi bilan barcha turdagи transportlarni tashkiliy boshqarish tuzilmasini takomillashtirishga to’g’ri keldi.

Kompaniyalar va assotsiatsiyalarning rahbarlari bir yo’la yana davlat boshqaruv orgonlarining ma’muriy vakillari hamdir. Ularning boshqarish tizimi chiziqli - funksional shaklda amalga oshiriladi. Chunki bozor doimo o’zgaruvchi iqtisodiy unsur (element)dir. Bu narsa hissadorlik jamiyatlari (har xil o’rtoqlik, xo’jalik jamiyatlari, xo’jalik birlashmalar (korxona, firma, davlat va munitsipal korxona, konglomerat, kartel’, sindikat, korporatsiya, transmilliy korporatsiya, trest, konsern, xolding, moliyaviy guruh, konsorsium, qo’shma korxona, kooperativ, kooperativ firmalar va shu kabilar), ishlab chiqarish va potrebkooperatsiyalar)ni majmui tuzilmalardan iborat bo’lishini talab etadi.

Hissadorlik jamiyatlari(AO)-korporatsiyalarining xo’jalik faoliyati, huquqiy holatlari, mulkchilik shakllari bo’yicha murakkab tasniflarga ega, ya’ni:

- xo’jalik faoliyati bo’yicha mahsulot ishlab chiqarish (sanoat sohasi,qishloq xo’jalik sohasi, qurilish sohasi va b.), halqaro yuklar va yo’lovchilar tashish (transport sohasi), mahsulotlarni sotib olish va sotish bo’yicha shug’ullanish (savdo sohasi), halqaro yuklarni halqaro tashishda sug’urta qilishni iste’molchilarga yetkazishdagi operatsiyalarni amalga oshirish (sug’urta qilish) va sh.o’.;
- korxona va firmalarning huquqiy holatlari bo’yicha-yuridik shaxs,jismoniy shaxs, yuridik shaxs xususiy huquqda, yagona shaxsga taalluqli korxona, uyushma korxona, to’liq o’rtoqlik, xissadorlik uyushma, paychilik uyushma, tadbirkorlik va b.;

- mulkchilik shakli bo'yicha-xususiy korxona, firma, tashkilot, kartel(uyushma), sindikat, trest, konsern, sanoat xoldingi, moliya guruhi, davlat firmalari va sh.o'.

Korporatsiya (ongli uyushgan odamlar guruh) larini boshqarishning asosi bo'lib iqtisodiy islohatlarning o'zbek modeli, mulkiy munosabatlarning huquqiy shakllari, antimonopoliya qonunchilik, raqobatchilikning huquqiy asoslari, bozor imkoniyatlarining taraqqiyotlari, iqtisodiyotning davlat boshqaruvi, marketing strategiyasi va boshqalar hisoblanadi. Korxonadagi faoliyatni boshqarish murakkab muammo bo'lishini e'tiborga olgan holda 1-chizmada, uning umumiy ifodasi keltirildi.

Korxonalarning tashkiliy-huquqiy jihatlarini rivojlantirish, foyda olish, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, xodimlarni ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, korxonani axborot va xodimlar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish, xodimlarni ruhiy darajasini ko'tarish kabilalar bilan amaliy jihatdan qurollantirishdir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi Vazirligi tizimida hozirgi davrda 66 ming fermer xo'jaliklari bo'lib, ularda 4953.2 ming ga yer maydoni, 1.4 mln. ishchi band bo'lib, 1 fermer xo'jaligida o'rtacha 7.5 kishi ishlamoqda, 1 kishiga 3.5 o'rtacha ga yer maydoni to'g'ri kelsa, 14.4 ming haydov traktorlari, 60478 ta traktor tirkamalari, 111747 tirkamalar, 15780 ta chigit seyalkalari va moslamalari, 36410 ta kultivatorlar, 10197 ta pluglar va boshqa texnik vositalardan foydalanmoqdalar. Ma'muriy jihatdan qaraganda har bir viloyatda 10 tadan hokimiyat bo'lsa, respublikada 100-120 ta ma'muriy organlar bo'ladi. Bu esa faoliik jihatdan talab darajas ida emas.

### **Korxona faoliyatini boshqarish**

<b>O'zbekiston biznesning asoslari:tadbirkorlar, huqukiy</b>	<b>Respublikasida huquqiy uchun bo'lim;litsenziyalash;</b>	<b>Innovatsion menejment va reinjiniring: g'oyalarni boshqarish; biznesni xarakatga kelturuvchi kuchi; reinjnerik-firma faoliyatini</b>
--	--	---

**menejerlar uchun imkoniyat;  
firmaning asosiy xo'jalik  
jarayonlari**

**yaxshilash uchun jarayonlarini  
qayta ishlab chiqish**

**Marketing va boholi shaklantirish:  
marketing reja; marketing  
bo'linmasining tashliliy tuzilmasi;  
bahol siyosati, baholi shaklatirish.  
Maqsad-mahsulot va xizmat  
bozorida keng qo'lamlı faoliyatga  
erishish va rag'batlantirishga  
qaratish**

**Tashkiliy menejment: korxona  
faoliyatini boshqarishning tashkiliy  
mexanizmi; tashkiliy tuzilma va  
axborot almashish; narmallashtirish  
va markazlashtirish; bo'linmalarda  
tadbirkorlik. Maqsad-korxona  
funksiyasini amalga oshirishga  
qaratish**

**Ustuvor menedjment: tashqi  
muhitni o'zgarishidan kelib  
chiqqan holda korxona bo'yichi  
uzoq muddatli maqsadlarga  
erishish uchun soxa va tizimlarni  
tanlash; tadbirkorlikni  
rejalashtirish; menedjerlar  
harakatini yuqori mas'uliyatda  
ustuvor rejalashtirish; menejerlar  
xarakatini yuqori mas'uliyatda  
ustuvor rejalashtirish; firma  
faoliyatining umumiyo yo'nalishini**

**Nazorat va kontroling: korxona  
ishlarining natijasini baholash va  
hisobga olish; faoliyatni boshqarish;  
kontrollingning mexanizmi-o'z  
vaqtida, ustuvor onglilik,  
hujjatlashtirish, xarakatga keltirish**

**aniqlash**

taraqqiyoti sharoitida, firmaning ustuvor maqsadlariga erishishda tanlangan yagona yakka tizim

**Korxonani 67qboshkarish:**  
byudjetlashtirish; firmajeng portoreshli; hisobga olish; ekkoutning; soliq...

**Modernizatsiyalash, dizayn va mahsulot (xizmat ko'rsatish)**  
**Tayyorlash texologiyasini muntazam yangilash muammolari**

**Tashqi iqtisodiy menejment: tashqi bozorni tadqiq qilish; offsholi (soliqsiz) biznes; boshqa mamlakatlardagi kompaniyalar bilan savdo, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik munosabatlari; amaliy yondashuvlar**

**Tavakkalsiz tadbirkorlik bo'lmas:**  
tavakkallikni boshqarish tizimi; investitsiya (sarmoya)  
**tavakkallikdan saqlanish**

**Zamonaviy menejer va tashkilotchilik qobiliyatini shaklantirish: firmadagi milliy madaniyatni mukammallashtirish:**

**Korxonaning milliy madaniyat:**  
firmfdagi ijtimoiymadaniy muhit;

**malakasini muntazam oshirish;  
muayyan topshiodatini ijrochilarga  
topshira bilish; rioya etish; ijodiy  
fikrlash va faollik qilish**

**xolis qadriyatlar; inson resurslarini  
boshqarishni takomillashtirish  
orqali korxona foydasini oshirish;  
inson xulqining iqtisodiyotga ta'siri;  
milliy madaniyat tizimi;  
antropologiyaning andozalari;  
firmadagi muayyan madaniyatning  
g'oyasi**

## **1-Korxonalar faoliyatini zamonaviy boshqarish tarkibi.**

YUqorida keltirilgan dalil va faktlarni birinchidan-iqtisodiy va ijtimoiy, bozor infratuzilmasi va ijtimoiy-madaniy infratuzilmalari, innovatsion ustunlikka erishish va korparatsion boshqaruv, menejment va marketing taraqqiyoti, qishloq xo'jalik firmalari faoliyatidagi texnik-texnalogik, tashkiliy-boshqaruv tizimlarining sifati va miqdorini o'sishi kabilarni e'tiborga olinsa, ularning faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi omil va kuchlar yuqori darajaga ko'tarilmagan deyish mumkin. Qolaversa bunday murakkab tizimli muommolarni ijobiy hal qilish o'ta murakkab bo'lganligi uchun nazariy jihatdan jarayonlarni mavjud bo'lish qonuniyatlarini aniqlab bersa, boshqarishning uslubiyati bo'lmish fan nazariyasidan kelib chiquvchi insonlarning ilmiy va amaliy ishlari asosida bajarilmog'i lozim. Ana shunday murakkab bosqichlar orqali mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari, xizmat ko'rsatuvchilari, bunyodkorlari, mahsulotlarni bozor infratuzilmalar, ijtimoiy infratuzilmalari, ishlab chiqarish infratuzilmalari orasidagi innovatsion faoliyat tizimining tarkibini ishlab chiqish talab etiladi. Buning uchun boshqaruv ilmining dialektik usullar ishlab chiqarish (xizmat

ko'rsatish) va iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchi insonlar, mehnat jamoalarining ruhiy holatlari va mehnat munosabatlari o'rnatiladi. Bunda ilmiy-tarixiy, tizimli tahlil, sintez tahlili, matematik va iqtisodiy andozalash, holatiy, maqsadli us lub, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya uslublaridan foydalaniladi.

Ikkinchidan - tarmoqlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi faoliyatini mukammallashtirishning mazmuni bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan moddiy ishlab chiqaruvchi korxonalar, servis xizmati ko'rsatuvchi firmalar, xo'jalik birlashmalari, har xil hissadorlik jamiyatlari, ishlab chiqarish korporatsiyalari, ayniqsa iqtisodiy rivojlangan mamalakatlarning institutlari (xarid qilish agentligi, sug'urta kompaniyalari, investitsion fonlar, banklar, birja fondlari, pension fondlar, halqaro moliyaviy institutlar, ARB - Osiyo taraqqiyoti banki, yeBRR - yevropo banki, Halqaro "Uzprivatbank", O'zbekiston-Turkiya "Uttbank"i, "Doychebank", "Bermenbank", Koreya banki va b.) tajribalari asosida takomillashtirilishi lozim.

Korxonalar va ularning bo'g'inlaridagi xo'jalik faoliyati (mahsulot ishlab chiqarish, savdo, tayyorlov ishlari, tashish, saqlash, qayta ishlash, sug'urta, injiniring, ijara va b.), huquqiy holati, mulkchilik shakllari muhim va muammolarni hal qiluvchi mexanizmlardandir. Ularni mukammallashtirishning poydevorlari deb qabul qilish mumkin.

Uchinchidan, tahlil va o'tkazilgan so'rovlardan ma'lum bo'ladiki, kichik va hususiy korxonalar ishlab chiqqan mahsulot asosan-ichki bozorga mo'ljallangan. Tashqi bozorbop, raqobatbardosh mahsulotlar turi va hajmi juda kam miqdorda ishlab chiqariladi. Mahsulotini eksportga chiqarayotgan kichik tadbirkorlar-eksport protseduralarini o'tkazish murakkabligi, bojxona talablariga javob berish qiyinchiliklari, tashqi bozorlar bo'yicha axborotlar va ma'lumotlar kamligi va turli xil ma'muriy to'siqlar mayjudligini ta'kidlashgan.

Ta'kidlangan dolzarb muammolardan kelib chiqib, korxonalar, xo'jaliklar innovatsion faoliyatlar, kichik mexanizatsiyalash (transport, texnikalar, jihozlar va uskunalar)ni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarida keng qo'llash va

ulardan samarali foydalanish kabi qator imkoniyatlar mavjud, foydalanish samarasini yuqori darajaga ko'tarishimiz lozim.

Qaerlarda va kimlarda, qaysi korxonalarda mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib sota olishimizga yuqori qulaylik yarataylik. Shuning uchun tashkiliy va boshqaruv tizimlarni takomillashtirish lozim.

Transport korxonalari faoliyatini chiziqli boshqaruv tizimidan funksional (vazifaviy) boshqaruv tizimiga o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Funksional boshqaruv tizimi chiziqli boshqaruv tizimi qatori faoliyat ko'rsatadi, biroq ijrochilar uchun ikki-uch tomonlama bo'ysunish paydo bo'ladi. Umumiy yechim savollari bo'yicha kollegial, korporatsion hal qilinadi. Funksianal tashkiliy bo'linmalar (rejalashtirish, ekkaunting, ishlab chiqarishni tashkil etish, marketing nazariyasidan foydalanish, korxonaga xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar, ishlab chiqarish yoki tashish, yuklash-tushirish, saqlash, savdo qilish, sug'urta, ijara, injiniring va b., huquqiy holati, mulkchilik shakllari, nazorat, muvofiqlashtirish, halqaro munosabatlarni ta'minlash va sh.k.) quyi pog'onadagi tegishli bo'ysinuvchilarga ko'rsatma va farmoyishlar, maslahatlar berish huquqiga ega bo'ladilar.

Funksional boshqaruv tizimi odatda o'z tarkibida yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'ladilar. Albatta ularning bilimi, malakasi, tajribasidan foydalangan transport korxonalarining faoliyat ko'lami quvvati (iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va b.)ga, korxonalarining tashkiliy boshqaruv tizimiga bog'liq.

Chiziqli-funksional boshqaruv tizimida asosiy boshqaruv bo'lib qoladi. Hamma boshqaruv bosqichlarida va mustaqil xo'jaliklarni boshqarish faoliyatida chiziqli rahbarlar ajratilgan. Ularga korxona faoliyatini yakkaboshchilik tamoyiliga ko'ra boshqarish huquqi saqlanib qolgan.

Funksional xizmat bo'linmasi (agentlar, byuro, guruhlar, bo'limlar, broker, diler va b.) jamoa bo'linmalariga, mahallalarga joylashgan holda yuk tashishni tashkil etadilar va boshqa ishlar bo'yicha tadbir larga yordam ko'rsatadilar. Kerakli kasbiy maslahatlarda yordam beradilar.

Boshqaruvning chiziqli tuzilmasi sharoitida ishlayotgan rahbarlarga, mahalliy hokimiyatlarga malakali yordam va xizmat ko'rsatish uchun funksional va idoraviy muassasa (tashkilot, byuro, guruh, kichik korxona va b.) tashkil etiladi, bu tashkilotlarning vazifasi buyurtmalarni, boshqaruv orgonlari qabul qilgan yechimlarni tayyorlash, amalga oshirish va tizimli boshqarishni bajarilishiga malakali yordam berishdan iborat. Demak, funksional boshqaruv tizimi chiziqli boshqaruv tizimi tarkibida samarali faoliyat ko'rsatishi darkor. Funksional tashkilotlarda, ularning katta, o'rta va kichik korxona bo'lishidan qat'iy nazar yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlashdek muhim muammo yechiladi.

Iqtisodiy jihatdan ravnaq topgan mamlakatlarning barchasi o'zining farovonligiga xo'jalik yuritishning bozor tizimi tufayli erishgan ekan, hozirgi vaqtda bizning mamlakatimizda amaliy va ilmiy muhitlar yaratilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning ilg'or usul va shakllariga erishish uchun katta ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'tarilish yo'llarini muvoffaqiyatli bosib o'tishda. Mavjud transport vositalari, mashina-traktor parklari, ixtisoslashtirilgan tijorat banklari, uyushma korxonalar, trestlar, konsern va sanoat xoldinglari, kichik korxonalar xizmati, ularning xizmat ko'rsatish usullari, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatining darajasini, xizmat ko'rsatish kuchlarining saviyasini ko'tarish muhim mohiyat kasb etadi.

Bulardan ko'rinish turiptiki, O'zbekiston Respublikasining barcha tarmoqlari va ularning infratuzilmalari faoliyatini takomillashtirish va ularni narmal samarali faoliyatini ta'minlash xodimlarimizdan katta bilim, ijod, mehnat va matonat talab etadi. Buning uchun ilmiy-amaliy tadqiqot ob'ektining tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini to'g'ri tanlash, uni bunyod etish, umumiy tizimdagi unsurlarining va bo'g'inlarining tuzilishi orasidagi muttanasoblikni va ularning o'zaro ta'sirini aniqlash lozim. Bu bilan xodimlarning aql-zakovatidagi, tafakkuridagi ba'zi bir sayoz tomonlarini to'ldirishga ta'sir ko'rsatadi, hamda jarayonlarni bajarilishida kerak bo'lgan malakan oshirish uchun sharoitni yaratishga ongli munosabatda bo'linadi.

Bunyod qiluvchining yana bir muhim vazifasi mahsulotlar ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatuvchilar bilan ularning mahsulotini iste'mol

qiluvchilari o'rtasidagi faoliyatini har tomonlama iqtisodiy, statistik, marfologik tahlil qilish, infratuzilmadagi holat, tashkilot (korxona, firma, xo'jaliklar) qismlari orasidagi o'zaro bog'liqliklar, korxonaning ichki va tashqi muhitlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani bilish, korxonalarini boshqa tarmoq va sohalarni rivojlanishida tutgan o'rni, shu sohalar bo'yicha qonunlar, tamoyillar, qarorlari, usullari, huquqiy asoslarini o'rganish, boshqarish yechimlarini qabul qilish kabilardir. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonunlarining o'zaro ta'sirini, o'zaro bog'liq har xil iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, ruhiy, axboratli va boshqa boshqaruv yo'nalishlarining tadqiqotlari hisobga olinishi kerak, ya'ni tizimli yondashuvi shart. Buning hammasi mutaxassisdan infratuzilma faoliyatini chuqur egallab, o'rganib ilg'or varianlar va usullari, mexanizmlarini korxona faoliyatida qo'llay bilishini talab etadi. Demak, davrimiz taraqqiyotini va yutuqlarini infratuzilmalar faoliyatida qo'llashni, tashkil etish usullarini yaratish muhim vazifalardandir.

### **O'zini o'zi sinash uchun savollar**

1. O'zRda iqtisodiyot rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga izoh berilsin?
2. Qishloq ho'jalik toifalari bo'yicha mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha qanday rivojlanmoqda?
3. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda qanday asosiy vazifalarga e'tibor beriladi?
4. Firma va korxonalar o'z faoliyatlarini samarali olib borishlari uchun nimalardan foydalanishlari zarur?.
5. Zamonaviy ishlab chiqirishda milliy madaniyatning asosiy o'rni nimalarda?
6. Ijtimoiy javoblikka tushuntirish bering?
7. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishidagi madaniyat g'oyalariga izoh berilsin.

8. Individualistik tashkilot va korporativli tashkilot madaniyati qanday axloqqa mos keladi?
9. So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar qanday jamiyatning pog'onasiga ko'tarildi?
10. Axloq tushungasiga izoh berilsin.
11. Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti fanining mazmuniga izoh berilsin.
12. Fanning maqsadi nimalardan iborat ?
13. Menejment fanining predmeti va ob'ekti nimalarni o'rganadi ?
14. Zamonaviy ishlab chiqarish menejmentining vazifalariga tushuntirish berilsin.
15. Menejment fanining umumiy tavsifi qanday yo'nalishlarni bilishni talab etadi?
16. O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarish organlarining ilg'or shakllari nimalarni anglatadi?
17. Korxonalar faoliyatini zamonaviy boshqarish tarkibiga izoh berilsin.
18. Nima uchun funksional boshqaruv tizimi chiziqli boshqaruv tizimi qatori faoliyat ko'rsatadi?

## **2-mavzu. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini taraqqiyotining qonunlari va tamoyillari.**

### **2.1.Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishiga oid davlat qonunlari.**

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etayotgan O'zbekiston xalqi o'zining mustaqillik yillarida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalarda ulkan taraqqiyotga erishdi. Xuddi shuningdek, xo'jalik tashkilotlari ham ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida, ayniqlas, sanoat, transport, qurilish, tashqi iqtisodiy aloqalarda yaxshi natijalarga erishdi. Ular zamindida mukammal ishlab chiqilgan qonun va tamoyillar yotadi.

Fan-texnika taraqqiyoti, mehnat unumdonligining o'sishi, resurslardan tejamli foydalanish, resurslarni tejash, mahsulot, xizmat ko'rsatish sifatini ko'rsatish, bozor munosabatlarida tijorat, moliya faoliyatlarini mustahkamlash, resurslarning xavfsizligini taminlash, ekkaunting, boshqaruv faoliyatlarini takomillashtirishda jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Demak, xar qanday rasmiy tashkilot jamoat va xo'jalik (tashkilotlar umumiyl tavsifiga ko'ra, jamoat va xo'jalik tashkilotlari guruhlariga bo'linadi) yo'naliishlarida faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmalarning tashkil topishi mumkin.

Jamoat tashkilotlari o'z nizomlarida yozib qo'ygan maqsadlar va vazifalarga muvofiq hamda qonunlarda belgilanadigan tartibda chet eldan keladigan pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni olishlari mumkin.

Siyosiy maqsadlarni ko'zlaydigan siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar xorijiy tashkilotlar, fuqarolardan moliyaviy va o'zga moddiy yordam olishga haqli emaslar. Jamoat uyushmalari tugatilganidan keyin qolgan mol-mulk uning nizomida ko'zda tutilgan maqsadlarga ishlatiladi.

Ushbu qonun-qoidalar ijtimoiy tashkilotlar uchun faqatgina tamoyil bo'lib qolmasdan, ularni so'zsiz amalga oshirish talab qilinadi. Albatta ijtimoiy

tashkilotlarining faoliyatlari uchun, ularning rivojlanishlari va taraqqiy etishlari uchun puxta ishlab chiqilgan tamoyillar asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish faoliyati jarayonida yuzaga kelgan chiqim, xarajatlar, sarflar korxona balansida o'z ifodasini topadi. Uning faoliyatida iqtisodiy va xuquqiy qonunlarni qo'llash hayotiy muhim intizomdir. Ularni Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis, Vazirliklar, Davlat Qo'mitalari, Birlashmalar va uyushmalar tomonidan tartibga solinadi.

O'zbekistonda qator qonunlar ishlab chiqilgan va ularga rioya qilinmoqda. Masalan, 1993 yilda "Dehqon (fermer) xo'jaliklari to'g'risida" gi qonun qabul qilinishi bilan mamlakatimizda mavjud shaxsiy tomorqa egalari dehqon (fermer) xo'jaliklari maqomini olib faoliyat ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar. 1998 yilda O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga binoan fermer xo'jaliklari alohida xo'jalik yurituvchi sub'ekt, yani dehqon xo'jaligidan farqli o'laroq, o'ziga uzoq muddatli (10-50 yilgacha) ijara olingan yerda qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishga va a'zolarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan xuquqiy shaxs maqomiga ega mustaqil xo'jalik sifatida tashkil eta boshladi, yani fermer xo'jaliklari barcha yuridik tashkilotlar kabi o'zining nizomiga, shtampiga, muhiriga ega va o'zi sudlarda davogar sifatida qatnashish huquqiga ega bo'lishdi.

Vazirlar Mahkamasining 607-sonli qaroriga qo'shimcha sifatida 2006 yilda 638 norentabel va istiqbolsiz shirkatlar fermer xo'jaliklariga aylantirish choralari ko'rildi. O'zgarishdag'i hodisaga ta'sir etish boshqarish jarayonidir. Har qanday holatda ham oxirida qandaydir o'zgarayotgan hodisaga tasir etish boshqarish deb aytildi.

Jamoat tashkilotlarini boshqarishni tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilinishi kerak:

- boshqa unsurlarga ta'sir eta oladigan unsur (hodisa, tizim) bo'lishi kerak;
- ta'sir etadigan unsurlar yoki mavjudotlar harakatga keltira olish qobiliyatiga, ya'ni boshqariluvchi mavjudotni harakatga keltira olishga ega bo'lsin;
- mavjudotga tasir etish samarali bo'lishi kerak.

Boshqarishni tashkil etishda ishlab chiqarishni ixcham, mukammal va arzon tashkil etish, bo'linmalar faoliyatini ilmiy asoslangan tamoyillari, me'yor va me'yorlashlar, standartlar yordamida tashkil etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni unutmaslik lozim.

## **2.2. O'zbekiston mustaqilligi va uning tashqi iqtisodiy tamoyillari.**

O'zbek xalqining ajralmas huquqi-o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ro'yobga chiqarildi. 1991 yilning 31-avgustida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilindi. Muqaddas orzu ushaldi. O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligidagi erishdi. Bu-xalqimizning ko'p asrlik tarixida buyuk voqeadir. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunda respublikadagi ko'p millatli barcha aholining hoxish-irodasi mustahkamlab qo'yildi va umumxalq referendumi buni qat'iy tasdiqladi. Bu tarixiy voqeа davlatimiz yilnomasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi.

O'rtacha qo'yilgan maqsadlarning, tanlangan yo'nalishlarning to'g'riliгини hayotning o'zi ishonarli tarzda va yaqqol tasdiqlanadi. Respublika mustaqilligining bir yili ichida asrlar mobaynida amalga oshirilmagan ko'p narsalarga erishishga muvaffaq bo'ldik. O'zbekiston xalqi jonajon o'lkadagi beqiyos boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo'lib qoldi. Respublika o'z oltinini, boshqa nodir va qimmatbaho metallarni mustaqil qazib chiqarib, qayta ishlamoqda va saqlamoqda. yer, yer osti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar, avlod-ajdodlarning mehnati bilan yaratilgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy kuch-qudrat va imkoniyatlar milliy boylik bo'lib, odamlar farovonligining kafolati, ijtimoiy taraqqiyot va ravnaqning asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zgarmas bir tartib qaror topdi: O'zbekiston Respublikasining hududi va iqtisodiy qudrati bo'linmas, uning chegarasi esa daxlsiz bo'lib, davlat himoyasidadir.

Respublikada demokratik huquqiy jamiyat asoslari faol ravishda vujudga keltirilmoqda. Avvalgi yakkahokimlik tizimining illatlari qat'yan tugatilmoqda. Ko'ppartiyaviylik, g'oyalar va fikrlarning xilma-xilligiga toqat qilish real voqelikka aylanmoqda. Yagona mafkuraning yakkahokimligiga barham berildi. Umumbashariy

qadriyatlarning ustivorligi, chinakam demokratiya, inson erkinliklari va huquqlarining butun dunyo tan olgan marom va qoidalari tobora ko'proq qaror topmoqda.

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini taqsimlash tamoyili izchillik bilan o'tkazilmoqda. O'zbekiston xalqi davlat hokimiyatining chinakam egasi bo'lib qoldi hamda uni bevosita va shuningdek o'z vakillari-noiblari orqali ham amalga oshirmoqda.

Respublika parlamenti qonun yaratuvchilik faoliyati bilan faol shug'ullanmoqdaki, u yosh mustaqil davlatning shakllanishini huquqiy jihatdan har tomonlama ta'minlashga qaratilgandir. Davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllanmoqda. Prezidentlik boshqaruv usuli-shu tizimning o'zagidir. Joylarda ham boshqaruv tizimi qayta tashkil etilmoqda-viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik lavozimi ta'sis etildi. Sud hokimiyati isloh qilinmoqda, u qonunning ustunligini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlanishi lozim. Fuqorolik jamiyatining turmush tarzi tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi mana shu omillarning hammasi qonuniylik va huquq-tartibotning, qattiq intizomning, ichki uyushqoqlik va mas'uliyatning negizi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini amalda namoyon qiladigan va ro'yobga chiqaradigan tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish jarayoni davom etmoqda. Mudofa va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi. Davlat mulkini boshqarish va xususiy lashtirish, Qimmatbaho metallar, Fan va texnika qo'mitalari, Oliy Attestatsiya komissiyasi birinchi marta tashkil etildi. Markaziy iqtisodiy idoralarning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi.

Bank tizimi qayta tashkil etilmoqda. Respublikamizning Markaziy banki boshqaruv idoralaridan mustaqil bo'ldi. O'zimizning Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankimiz ochildi. Ko'pgina tarmoq vazirliklari va idoralari tugatildi. Mustaqil milliy aviakompaniya, axborot agentligi, kinokompaniya va boshqa umumdavlat xizmatlari ishlab turibdi.

O'zbek xalqining mustaqillikka bo'lган intilishini jahon hamjamiyati, halqaro jamoatchilik qo'llab-quvvatlandi. Dunyodagi 150 mamlakat O'zbekistonning Davlat

mustaqilligini tan oldi. 74 dan ziyod xorijiy mamlakatlar bilan diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. Toshkentda Turkiya Jumhuriyatining, Amerika Qo'shma Shtatlarining, Hindiston, Fransiya, Germaniya Respublikalarining va boshqa davlatlarning elchixonalari ochildi. Boshqa xorijiy davlatlar bilan ham diplomatiya vakolatxonalarini ayriboshlash to'g'risida muzokaralar olib borilmoqda.

Tarixda ilk bor, 1992 yilning 2 martida O'zbekiston halqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Respublika yevropada xavfsizlik va hamkorlikka bag'ishlangan Kengashning YAkunlovchi aktini imzolab, Xelsinki jarayoniga qo'shildi. Mana shularning hammasi respublika taraqqiyotida mazmunan yangi bosqichni boshlab berdi va teng huquqli asoslarda xalqaro iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda faol hamkorlik qilish imkoniyatini ochdi.

O'zbekistonning davlat mustaqillagini qo'lga kiritilganligi va u xalqaro miqyosda tan olinganligi shuni bildirdiki, bundan buyon respublika mustaqil ichki va tashqi siyosatni olib boradi, hech kimning vositachiligidiz o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatadi. Respublikani haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analar, urf-odatlari va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarni har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoladi.

Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak. Shunday jamiyatgina O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlashi, milliy an'analar va madaniyat qayta tiklanishini, shaxs sifatida insонning ma'naviy-ahloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonining birinchi bosqichida yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga, eskicha fikrlash tarzlarini ong imizdan chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Bu bosqichda yangi tuzum uchun ishonchli poydevor yaratish vazifasi qo'yildi va hal qilindi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyat tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida takidlanganiga mosdir. Ushbu modda aytiladiki, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqining oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

Konstitutsiyada belgilab qo'yilgankim: O'zbekiston-suveren demokratik respublika, davlat xalq idorasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqorolar oldida mas'uldirlar; O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiysi va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi va shu kabilar.

Ikkinci asosiy tamoyillarga xalq hokimiyatchiligi keltirish mumkin; uchinchi asosiy tamoyillar-konstitutsiya va qonunni ustunligi; to'rtinchi asosiy tamoyillar-tashqi siyosatdir.

O'zbekiston iqtisodiyotining, bir necha o'n yillar davomida bo'lgani kabi tashqi dunyodan ajralib qolishi hollariga barham berilganligi, mustaqil tashqi iqtisodiy yo'l shakllantirilib, amalga oshirilganligi iqtisodiy islohatlar birinchi bosqichining eng muhim natijasi bo'ldi.

Mustaqillik yillari ochiq iqtisodiyot poydevorini vujudga keltirish uchun zarur siyosiy, huquqiy va tashkiliy negizlarni yaratish yillari bo'ldi. Vujudga kelgan vaziyat tashqi iqtisodiy kompleksni boshqarishning o'ziga xos tizimini zudlik bilan shakllantirishni, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida o'z qoidalarimizni ishlab chiqishni, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini mustaqil ravishda belgilashni taqozo etdi. Bu esa ma'muriy cheklashlarni keskin qisqartirdi va ularni umum qabul qilingan xalqaro me'yorlar va qoidalar, tashqi savdoni

boshqarishning bozor vositalari bilan almashtirilib, tashqi iqtisodiy faoliyatini astasekin erkinlashtirishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirildi. Bu tamoyillar, avvalo, O'zbekistonning o'z tashqi siyosatini teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik negizida qurishga intilayotganligidan kelib chiqadi.

O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirish sohasida faol ish olib bormoqda. Mamlakatning jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdag'i iqtisodiyotni barpo etishning asosidir. Biz iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirmoqdamiz. Bunda bozor iqtisodiyoti-erkin iqtisodiyot ekanligi, u ochiq tusda bo'lib, yakkalanish va biqiqlik unga yot ekanligidan iborat haqiqatga asoslanib ish tutmoqdamiz. Shu bois, iqtisodiyotimizning kelajagi uning jahon xo'jaligiga qo'shilishiga bog'liqdir.

### **2.3.Fermer xo'jaliklarining shakllanishi.**

O'zbekistonda to'plangan tajriba va jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot faqat uning o'zigagina xos bo'lgan qonunlar asosida rivojlanib boradi, bozorning mana shu hammaga ma'lum rivojlanish qonunidan boshqa, yani unga muqobil bo'lgan taraqqiy lanish yo'li yo'qdir. Turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti umumiyligi qonunlar bo'yicha taraqqiy etib borgan holda har biri o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lgan. Bu xususiyatlar milliy xo'jalikning tuzilishi orqali, ijtimoiy texnik mexanizmlarning avloddan avlodga o'tishi, tabiat, iqlim sharoitlari bilan, mamlakatning geografik mavqeい, o'z milliy rasm – rusumlari, ananalari, milliy tabiat orqali belgilanadi.

Makro va mikroiqtisodiyotning rivojlanish qonunlarini, tadbirkorlikni rivojlanirish qonuni, fermer xo'jaliklarini rivojlanishiga, ishlab chiqarish, tijorat va ichki fermerlik hisoblashlariga va rivojlanishning asosiy qonunlariga majmui va tizimli yondashishni, tabiat manbalaridan foydalanishni, mulkchilik shakllaridan samarali

foydalishni, me'yor va me'yorlash qonuni bo'yicha mulkni taqsimlashni rivojlanishi bozordagi talab va takliflardan kelib chiqadigan rivojlanish qonunlarini teran tushuntirib beradigan bilimni, fan – texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallab olishni va yana o'nlab qonunlar va nazariyalarni bilish kerak. Har bir mamlakat, har bir mintaqasi (region), har bir jamiyat, har bir fermer xo'jaliklari o'zidagi shart – sharoitlar, imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'z taraqqiyot andozasini, o'z rivojlanish yo'lini tanlab oladi.

O'zbekiston keyingi yigirma yilda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Qishloq xo'jaligi muvaffaqiyatli rivoj topdi. 1998 yilda qabul qilingan qonunga binoan fermer xo'jaliklari alohida xo'jalik yurituvchi sub'ekt huquqiga ega bo'ldi. Fermerlar endi bankdan kreditlarni olish uchun o'z mol – mulkini hamda yer uchastkasini ijara olish haqini garovga qo'yish xuquqiga ega bo'lishdi. Bu dastlab fermer xo'jaligi faoliyatini yuritish uchun moliya mablag'i kam yoki yo'q bo'lgan aholi uchun moliya mablag'i kam yoki yo'q bo'lgan axoli uchun xo'jalikni yuritishga manfaatdorlikni taminlab berdi.

Natijada 1998 yil oxirida Respublikamizda 23 ming fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan. 2002 yilda 72406 fermer xo'jaligiga 1367,7 ming hektar yer ajratilgan, hamda 505.9 ming ishchilar ishlab chiqarishda band bo'lgan. 2006 yilda 63567 ta yangi fermer xo'jaliklari tashkil etilgan, 2006 yil oxiriga kelib, yurtimizda 189235 ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan. Ularga qariyb 5 mln hektar yer ajratgan va ularda 1396,8 ming kishi ishlagan.

2007 yilda fermer xo'jaliklariga aylantiriladigan 329 qishloq xo'jalik korxonalari tugatilib, ular o'rniiga 926 ta bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalari barpo etishga erishildi.

Demak, respublikada fermer xo'jaliklari soni ko'payishi qishloq aholisini ish bilan tamplashda muxim ahamiyat kasb etmoqda, ularning agrar iqtisodiyotdagagi o'rni tobora oshib bormoqda.

Etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlov jarayonlarini bajarish, mahsulotlarni transportda tashish, qayta ishslash, saqlash, xarid qilish esa o'ta murakkabdir. Ularni amalga oshirib texnik, texnologik, sifat jihatidan

benuqson taminlash, kerakli mablag' va jarayonlarni hisobga olish, hisoblash ishlarini bajarish, mezonlar bilan moliyaviy bog'liqliklarni o'rnatish kabi tashkiliy operatsiyalarni bajarilishiga e'tibor ortirilishi lozim.

## **2.4. Qishloq xo'jalik korxonalarida ilg'or mehnat usullaridan foydalanish**

O'zbekiston Respublikasi qudratli mehnat salohiyatiga ega. Mehnat zahiralari butun aholining deyarli 50 foizini tashkil etadi.

Mehnat salohiyatining muhim xususiyati – uning yosh xodimlar va kasb tarkibidir. Mamlakatimiz aholisining (uning 60 foizidan ziyodi qishloq xo'jaligida ) o'rtacha yoshi ham navqiron . Yana bir xususiyati – uning ta'lim va malaka darajasi yuqoriligidir. Aholining savodxonlik darajasi muttasil yuqorilab bormoqda (YUNESKO ko'rsatkichlari bo'yicha 2006 yilda 99,41 foizini tashkil etadi).

Respublikamizda 62 ta oliy ta'lim muassasasi – 18 ta universitet, 42 ta institut va 2 ta akademiya ishlab turipti. Ularning 22 tasi ta'lim sohasida, 4 tasi qishloq xo'jaligi , 15 tasida sanoat, qurilish, transport va aloqa, 5 tasida tibbiyat, 9 tasida iqtisodiyot va huquq sohasidagi kadrlar tayyorlanmoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining barcha oliy o'quv yurtlari va 4 ta malaka oshirish institutlarida mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 14 ta markaz va 16 ta fakul'tet ochilgan bo'lib , shu jumladan Namangan muxandislik – pedagogika instituti (Namangan viloyatida 3 ta oliy o'quv yurti , Andijonda – 3 ta (uning 1 tasi qishloq xo'jaligi bo'yicha ), Farg'onada – 2 ta oliy o'quv yurti bor ) va Buxoro yengil va oziq-ovqat sanoati texnologiya institutida 2 ta fakultet, 4 ta markaz va 14 ta malaka oshirish kurslari mavjud.

So'nggi vaqtarda respublikada telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalari yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan to'rt xodimning bittasi oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega.

Mamlakatimizning ilmiy-tadqiqot majmui akademiya, oliy o'quv yurtlari va tarmoq yo'nalishidagi 362 muassasasini, sh u jumladan, 101 ilmiy tadqiqot institutini,

oliy o'quv yurtlaridagi 55 ilmiy-tadqiqot bo'limmalarini, 65 loyiha-konstrukturlik muassasasini, 32 ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonalarini, 30 axborot-hisoblash markazini o'z ichiga oladi.

Fan sohasida 46 mingga yaqin xodim band bo'lib, ulardan 2.8 minggi fan doktori va taxminan 16.1 minggi fan nomzodidir. 2005-2006 o'quv yilida oliy o'quv yurtlarida 1.65 fan doktorlari, professorlar va 7.09 ming fan nomzodlari, dotsenlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ular yosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqdalar.

Bozor munosabati rivoj topayotgan davrda o'sib-unib kelayotgan yosh kadrlarni ongli,mahoratli,kasbiy faoliyatda yetuk, qalbida mafkuraviy jo'shqinlik urib turgan mutaxassislar tayyorlash muhimdir. Bu muammoni ijobiy yechish uchun respublikamizda to'la imkoniyatlar mavjud va unga muhit yaratilgan.

Jamiyat taraqqiyotida fanlarning rivojlanishi va aqliy salohiyatining ahamiyati benihoya katta, chunki fan ishlab chiqarish va bunyodkorlik (shu jumladan, qishloq xo'jaligida ham) kuchiga aylanmoqda. Davrimiz taraqqiyotidagi kadrlarni tayyorlashning asosiy maqsadi halqimiz (ayniqsa qishloq sharoitdagilar) ning moddiy va madaniy talablarini to'laroq qondirish uchun , inson baxt-saodati uchun xizmat qilishga qaratilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida olib borilayotgan tadbirlar qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi korxonalarini rivojlantirish sur'atini oshirishga qaratilgan. Uni har tomonlama fan va texnika, bunyodkorlik va menejment, iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlari asosida jadallashtirishga, biznes va tadbirkorlik asosida mehnat unumdorligini tez sur'atlar bilan o'sishiga bog'liq. Bunday jarayonlarni hal etish qishloq xo'jaligining turli jabhalarida xizmat qilayotgan kadrlar-olimu-ijrochiga, mutaxassisu-sohibkor, rahbaru-transportchiga, mehanizatiru-ma'muriy hodimlar zimmasiga yuklanadi.

Hozirgi davrimiz in'om etgan imkoniyatlar, ne'matlar va ulardan bahramand bo'layotgan biz insonlardan ulkan javoblar ham kutadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan sharoitida ba'zi bir mamlakatlar xalqining hayotida sinalgan boshqarish haqidagi bir qator maxsus adabiy manbalar paydo bo'la boshladи, ularning aksariyatida davrimizga mos xo'jalik yuritish san'atidan tavsiyalar bor desak haqlidir. Navbatdagи vazifamiz davrimiz, jamiyatimiz, jamoamiz, shaxs yoki kadrlarimizga

mos. Keng ommaga yetkazish va uni singdirishdir. Bundan maqsad barcha tabiat resurslari, inson mehnati va uning mahsuloti, aql-idrokidan samarali foydalanishdir. Vazifani amalga oshiradigan ham insondir. Inson omili haqida, uning iqtisodiy bilimi, madaniyati, hulqi, tashkilotchilik va tadbirkorlik qobiliyati, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, resurslarga munosabati kabi omillar yuqorida qayd qilingan maxsus adabiyotlarda keltirilgan. Ikkinchi tomondan ma'lumki, har davr, jamiyat, tabiat, muhitning o'ziga xos qonunlari, qoidalari, tamoyillari, nazariyalari (eslab ko'raylik, hozirgi kunda oliv o'quv yurtlarida 40 dan ziyod marketing fani, 30 ga yaqin menejment, shu jumladan innovatsion menejment va boshqa fanlar o'qitilmoqda) yoki andozalari tinimsiz o'zgarib turadi.

Bozor munosabatlari rivojlanayotgan bir davrda O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga ham ulkan muammolarni qo'ydi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarisiz hayotni tasavvur qilish qiyin. Fermer, shirkat va dehqon xo'jaliklari, ularni ta'minlovchi korxonalarsiz samarali va maqsadga muvofiqli aholiga va xalq xo'jaligiga xizmat ko'rsata olmaydi. Bu tizim doimo rivojlanishda, takomillashishdadir, demak qishloq xo'jaligi kadrlari zamonaviy rivojlanishdan ortda qolishlari mumkin emas.

Agrosanoat firmalari faoliyatini boshqarishda mutaxassislardan unumli foydalanish darajasini oshirishdan maqsad moddiy, tabiiy, moliyaviy, aqliy resurslardan, ayniqsa inson mehnati va uning mahsulotidan, aql-idrokidan samarali foydalanishdir. Bu bilan iqtisodiyotimiz asosi bo'lgan omilni ko'tarishga erishiladi. Kadrlar –qishloq xo'jaligida bosh figura deb bejiz etilmagan.

Kadrlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni boshqarish, shaxsni boshqarish, iqtisodiyotni boshqarish, texnik vositalarni boshqarish, agrotexnologiya, biologiya, zoologiya, iqtisodiy bilimlari, hulqiy fanlarning tavsiyalardan faoliyatlarida unumli va samarali foydalana bilishlari, madaniyati, ahloqi va hulqi, tashkilotchilik va tadbirkorlik qobiliyatları, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda foydali munosabatda bo'la olishlari davr talabidir, ular o'qitilmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalari (ayniqsa, fermerlar, shirkat va dehqon xo'jaliklari rahbarlari ) va boshqarmadagi apparat xodimlari, menejerlari, mutaxassislari o'zлari

boshqarayotgan hodimlariga quyidagi mexanizmlar orqali ta'sir etsalar: iqtisodiy boshqarish; personalni boshqarish; texnik vositalarni boshqarish.

Personalni boshqarish bo'linmasidagi kadrlar bo'limi, mehnat bo'limi va ish haqi, harakat xavfsizligi, texnika xavfsizligi, ma'muriy-xo'jalik qismi, uyushmalar, kichik xizmat xodimlari va sh.k. o'z mutaxassisliklari bo'yicha samarali faoliyat ko'rsatsalar ayni muddao bo'ladi.

Iqtisodiyotni boshqarish bo'linmasidagi marketing bo'limi, oila pudrati, ijrochilar, tijorat bo'limi, reja bo'limi, buxgalteriya va sh.k. bozor iqtisodiyoti sharoiti talab etgan zamonaviy texnika asosida faoliyat yuritishlari lozim.

Texnik vositalardan foydalanish va ularni boshqarishdagi ishlab chiqarish va tashish texnika bo'limi, agrotexnologiyani va qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash ustaxonasi, bosh mexanik bo'limi, texnik nazorat bo'limi, ishlab chiqarish qismlari, ishlab chiqarishni markaziy boshqarish va sh.k. davr talabiga va mintaqqa hususiyatlari yuqori darajada mos kelishi muhimdir.

YUqorida sanab o'tilgan talablarga mos ravishda kadrlarni tayyorlash va boshqarish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Chunki agrosanoat firmalari faoliyatini boshqarishda mutaxassislardan unumli foydalanish keng tizimdagи mehnat, moliyaviy va moddiy mulklardan, tabiiy boyliklardan, insonlarning ishbilarmonlik qobiliyatlaridan oqilona foydalanib mahsulot yetishtirish, uni iste'molga tayyorlash, tashish, qayta ishlash, xarid qilish va boshqa xizmat ko'rsatishda mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni pasaytirish, rentabellikni oshirish, tashish (xizmat ko'rsatish) sifatini ta'minlash, tizimdagи barcha element, operatsiya va jarayonlarni bajarilish munosabatini takomillashtirish kabi vazifalar (masalalar) doimiy ravishda bajarilib boriladi.

Albatta adabiyotlar va tadqiqotlardagi ilg'or tavsiyalar, usul, uslublar, bunyodkorlik takliflari benixoya qadrli. Ammo ularni qanday bo'lsa shundayligicha hozirgi taraqqiyot davrida aynan ko'chirib bo'lmaydi. Chunonchi, insonlar, guruxlar, korxonalar, yangi muxitda, chunki ijtimoiy munosabatlar tizimida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shu kunga qadar mahalliy xalq, guruh, jamoa, firma, shirkat, dehqon xo'jaligi, kompaniya davlat ruhiga moslab, hayotiylashib kelgan ahloqiy me'yor,

dunyoqarash, qadriyatlarimizga istiqlol ruhini singdirish holda boshqarish lozim. Demak, agrosanoat firmalari faoliyatini boshqarishda raxbar zimmasidagi, jamiyat oldidagi ma'suliyat, javobgarlikni teran idrok etish, xalollik, e'tiqodida maxkam turish, o'ziga va xodimlariga talabchanlik, bunyodkorlik, ayni vaktda odamgarchilikni unutmaslik, ezgu orzularni o'shalishi yo'lida belbog'ini bog'lab kilinadigan mexnatga xam jismonan, xam aqlan mos, ijodkorlik va tadbirkorlik bilan bajarilgan vazifa xar kanday korxona jamoasini bozor iqtisodiyoti munosabatlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlariga kafolat bo'ladi.

Hozirgi kunda yangi va muayyan ijodiy ishlar yetarli darajada agrosanoat firmalari, dehqon va shirkat xo'jaliklariga, talaba va o'qituvchilarga yetib kelmaydi, oqibatda iqtisodiy va boshqaruva fanlari o'qitishdagi amaliy taraqqiyot orqada kolishi mumkin, zamonaviy yosh mutaxassislarni tayyorlashga, amaliyot talablariga javob berishga (bojxonalar atrofida sabzovot mahsulotlari ortilgan avtopoezdlarni chet el bozorlariga o'ta olmay turib qolishi eslashni o'zi kifoya) mutaxassis va mutassadi xodimlarni o'z vaqtida o'rgatishga xalaqit beradi. Bebaxo ilmiy texnik boylik o'z mualliflari bilan, monografiya va darsliklarga o'tib ulgurmay yoki aql – idroklar orqali xayotda o'z o'rnini topmay qolib ketishi mumkun.

Ushbu muammo bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas, o'tmishdagi allomalarimizdan Abu Nasir Farobi (873-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Amir Temur (1336-1405), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Alisher Navoiy (1441-1501), Zaxiriddin Muxammad Bobur (1483-1530) va boshqa ko'plab donolar iqtisodiy g'oyalar bilan milliy iqtisodiyotni, uning asosiy bo'g'ini korxona va tashkilotlar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan.

YUqorida keltirilgan donolar bisotidan maqsad kadrlar tayyorlash va ularning malakasi ni oshirish uzoq tarixiy va eskirmas muammo ekanligini dalillash xolos.

O'zbekiston zamida juda ulkan va noyob xom ashyo resurslari mavjud. Barcha respublika mahsulotlarining eksporti bo'yicha 27.5% paxta tolasini tashkil etsa, 5.4% meva-sabzavot mahsulotlariga to'g'ri keladi. Demak, jami bo'lib qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport bo'yicha 32.9% ni tashkil etadi.. demak, O'zbekiston chet elvalyutasining 1G'3 qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan, fermer va dehqon xo'jaliklari va boshqa tarmoqdag'i minglab bo'lim boshliqlari, quyi, o'rta va yuqori pog'onadagi menejerlar, boshqaruvchilar armiyasi bozor munosabati talablariga javob bera oladilarmi? Bunga ijobiy va alternativ shaklda javob berish qiyin. Ular bunday sharoitga nazariy va amaliy jihatdan puxta bilim va tajriba egalari deyishga asosimiz kam. Ularning aksariyat qismi malakalarini oshirishga, ba'zan qayta tayyorlashga muhtojdirlar. Agar respublikada boshqaruv xodimlari 13.14% ni tashkil etsa, ba'zi viloyatlarda 20-30% (Xorazm -37.75%, Qoraqalpog'iston Respublikasi - 37.13%, Andijon- 26.96%, Namangan- 21.06%, Samarqand-5.35%, Navoiy- 8.67%, va hokozo.). Agarda chet eldag'i me'yor va raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 5.8 % ni tashkil etadi. Demak, boshqaruv xodimlarini tayyorlashda hali qilishi lozim bo'lган muammolar yetarlidir.

Evropa mamlakatlarida qishloq xo'jalik kadrlari va umuman qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, ularni boshqarish shakli yillar davomida taraqqiy eta bordi. 1960 yillarda qishloq xo'jalik shirkatlari egallagan ekin maydoni 450 ga atrofida bo'lган bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi yillarda 5-6 martaga oshdi, oqibatda shirkatlar soni 5-6 martaga kamaydi. Xuddi shuningdek davlat xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarini ham taraqqiy etmoqda.

Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish an'anasi ishlab chiqarish bo'linmalarini ixtisoslashtirishda namoyon bo'ladi. Ixtisoslashtirish darajasi mahsulotlar turiga yoki faoliyat ko'rinishiga teskari proporsionaldir. Bo'linmalarning o'lchamiga qarab ixtisoslashtirish, shunga mos kadrlar tayyorlash darajasini aniqlash benihoya murakkabdir. Chunki tashkiliy tuzilmani yaratishda ta'sir qiluvchi omillarni ba'zi biri quyidagilar:

- dehqonchilik;
- chorvachilik;
- dehqonchilik va chorvachilik orasidagi bog'liqlikni yechish;
- texnik-muxandislik sho''balarini tashkil qilish;
- boshqaruv sohasida tashkiliy bilimni yaratish;
- boshqaruv apparati;

- kommunikatsiya yoki aloqalarni tashkil etish;
- yangi korxona bunyod etilishi bilan bog'liq omillar;
- yangi korxona buyod etishda qatnashuvchi xodimlar;
- yangi korxona tizimini joriy etish.

Ushbu sanab o'tilgan korxona yoki tashkilot ichidagi muhitdan tashqari tashqi muhitni ham e'tiborga va hisobga olish zarur.

Mana kadrlar tayyorlashning yo'llari, muammolari, masalalari.

### **O'zini o'zi sinash uchun savollar**

1. Erkin demokratik jamiyatda ishlab chiqilgan qonun va tamoyillarga tavsif bering.
2. Jamoat tashkilotlari o'z nizomlariga ko'ra nimalarga haqli?
3. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanish bosqichlaridagi qonunlarga tushuntirish bering.
4. Jamoat tashkilotlarini boshqarishni tashkil etish nimalardan iborat?
5. Makro va mikroiqtisodiyotning rivojlanish qonunlari nimalar bilan ifodalanadi?
6. Keyingi yigirma yilda qishloq xo'jaligining rivojlanishi fermer xo'jaliklariga qanday tasir ko'rsatdi?
7. O'zbekistondagi mehnat salohiyatining xususiyatlarini tushuntirib berilsin.
8. Bozor munosabati rivoj topayotgan davrda mutaxassislar tayyorlashning muhim tomonlariga tavsif berilsin.
9. Malakali kadrlar tayyorlashdan maqsad nima?
10. Firma, dehqon xo'jaliklari va korxonalar faoliyatini boshqarishda mutaxassislardan unumli foydalanish darajasini oshirishning maqsadi nimalarda aks etadi?
11. Zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos kadrlar tayyorlash uchun nimalarga e'tibor borilmoqda?

### **3 – mavzu. Ishlab chiqarish tizimi va uning firmalari.**

#### **3.1. Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi sharoitida marketingni qo'llanilishi**

Ishlab chiqarish – firma (korxona, konsern, kompaniya, tashkilot, trest) faoliyatining asosini tashkil etadi. Har qanday firma yoki korxona ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) munosabatlari asosiga quriladi. Ishlab chiqarish korxonasing maqsadi ma'lum mahsulot yoki tovar ishlab chiqarishdir. Bunda faoliyat ko'rsatuvchi xodimlardan yaratuvchanlik, ijodkorlik, ishlab chiqarish talab qilinadi, ya'ni tadbirkorlik hislatlari bo'lishi lozim.

Firmaning asosiy vazifasi resurslardan oqilona foydalanib mahsulot ishlab chiqarishdir (xizmat ko'rsatishdir). Resurslarni olib mahsulot tayyorlash mahsulotni uzatish – firma mahsulotlarini jalb etish jarayonlarini talab etish bilan bog'liq.

Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi innovasion taraqqiyotning vositasi sifatida barcha mamlakatlarda menejmentning mustaqil ob'ekti bo'lib qoldi. Tadbirkorlar, iqtisodchilar, rahbarlar yangilik kiritish, investitsiya, innovasiyani joriy qilish kabi atamalar bilan tez-tez duch kelmoqdalar. Firma ishlab chiqarish faoliyatida bir qancha ishlab chiqarish omillaridan foydalanadi. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish omillaridan uchta yirik guruxlarga- mehnat, moddiy resurslar va kapital sarflarga ajratish mumkin. Bularning xar bittasi bir qancha boshqa kichik omillardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, malakali mehnat, (ijodiy yoki innovasion mehnat) malakasiz mexnat, tadbirkorlik jixati va xokazo. Huddi shu tartibda moddiy va kapital sarflarni ham kichik guruxlarga ajratish mumkin. Ana shu omillarni zamonaviy ishlab chiqarish jarayoni va pirovard natija bilan o'zaro bog'lanishi ishlab chiqarish funksiyasida nomoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish omillarining turli bo'g'inlaridagi bog'lanishda, eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish (q) ni ko'rsatadi, ya'ni

## Q q f ( $M_i * K_i$ )

**bunda:**  $M_i$ - mehnat omillari;

$K_i$  – kapital sarflari;

Q – mahsulot hajmi.

Ushbu umumi shakldagi funksiya mahsulot ishlab chiqarish xajmi, mehnat resurslari va kapital miqdoriga bog'liq. Shu bilan birga aytish lozimki, bu omillarning o'zaro bog'liqligi ishlab chiqarish tehnologiyasi bilan ham bevosita bog'liq, chunki shunday ishlar mavjudki, ularning ayrimlarida mehnat, boshqalarida kapital sarflar ko'p talab qiladi yoki shunday ishlar mavjudki, ularning qo'l mehnati bilan bajarish mumkin. Lekin har bir tadbirkorlar ishlab chiqarishni shunday tashkil qilishi kerakki, ya'ni qo'l mehnati bilan yuqori tehnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni shunday tashkil etish kerakki, unda ishlab chiqariladigan mahsulot xajmi, sifati va uning samarasi yuqori bo'lsin.

Shunga asosan aytish mumkinki, yuqoridagi tenglama tadbirkor, firma, xo'jalik, korxona rahbarining bilim doirasiga bog'liq.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida xo'jalik hayotining hamma sohalarida har tomonlama tadbiq etilayotgan marketing va innovasiya nazariyalari amaliyotida keng taraqqiy etgan. Marketing mahsulot sotilayotgan bozorni o'rghanish, tovarlarni reklama qilish, yangilik va bunyodkorlikni, sotishni rag'batlantirish singari ayrim tamoyillaridan mutaxassislar foydalanmoqdalar.

Zamonaviy ishlab chiqarish vositalari marketingi ko'pgina firmalarning xo'jalik yuritish amaliyotiga aylanib bormoqda. Ishlab chiqarish vositalari marketingi va innovation yangiliklarni joriy etish korxona va jamiyat iqtisodiyotini boshqarishdag'i ta'sirchan mexanizm bo'lib qolmoqda.

G'arbiy yevropa mamlakatlarida qishloq xo'jaligidagi iste'molchilar talabini o'rghanish bilan shug'ullanuvchi maxsus firmalar mavjud. Bu firmalarning tadqiqotlarida qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan tegishli tayyorlovchi – firmalar keng foydalanishadi. Bu ma'lumotlar traktorlar, qishloq xo'jalik texnikasi va boshqalar bozorining tayinli bir qismini birmuncha aniqroq ko'zda tutib, ish olib borishda tayyorlovchilarga ko'p jihatdan yordam beradi.

Qishloq xo'jalik texnikasini tayyorlovchi firmalarning o'zlari ham muvaffaqiyat bilan marketing faoliyatini olib boradi. Qishloq xo'jaligi texnikasini tayyorlovchi yirik kompaniyalar qatorida „Katerpiller” (AQSh), Fiat (Italiya), „Reno” (Fransiya), „Ford motor” (AQSh) va boshqa ko'pgina kompaniyalar bor. Shu firmalarning har biri o'zining tashkiliy tuzilishida marketing xizmatiga egadir.

Agrosanoat kompleksi (ASK) tizimidagi marketingning maqsadi mahsulot ishlab chiqarishdan ham ko'ra ko'proq shu mahsulotni iste'mol qilish davomida foydali natija olishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bu pirovard natijada iste'molchining tovarlarga ma'lum talabini „ishlab chiqarish” ga yordam beradi. Shu munosabat bilan ASK sini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda marketingning roli (ahamiyati) shak – shubhasiz ortadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga birinchi galda fan taraqqiyoti, ilg'or texnologiyalar va g'oyalar, IKT va Internet kabilarning eng yangi yutuqlarini qo'llanish asosida taminlanadi. Chunki, mehnat, kapital va materiallar ishlab chiqarish omili sifatida malakali mehnatni, har xil ishlar mehnatini va rahbarlarning tadbirdorlik harakatini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayoni korxona (firma, tashkilot, xo'jalik va b.) lar tomonidan ko'pgina resurslar va materiallardan foydalangan holda operatsiya va elementlarni amalga oshirish yig'indisidir. Ishlab chiqarish majmui mehnat, kapital va materiallardan iborat bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish munosabatlari birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik munosabatdir.

Ishlab chiqarish majmuasi qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, axborot kommunikasiyalar tizimi, transport va aloqa tarmoqlari, yo'l xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, iqtisodiy infratuzilmalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar, birja faoliyati va boshqa tarmoq va soha (bo'linma) lardan tashkil topadi, ularning chiqargan mahsulotlari va xizmatlarining hajmi va daromadi mamlakatning yalpi milliy mahsulot (YAMM) bilan o'lchanadi.

O'zbekiston tobora sanoatlashgan, qishloq xo'jaligi rivojlangan, axborot kommunikasiyalar tizimi tashkil topgan, mobil aloqa turi keng tarqalgan, ijtimoiy tarmoqlar taraqqiy etgan, xodimlar tayyorlash milliy tizimi yaratilgan, istiqlol va

taraqqiyot yo'lini tanlab olgan respublikaga aylanib bormoqda. Yirik tarmoqlardan qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik sanoati, fan-texnika, mashinasozlik va metallarga ishlov berish tarmog'i, savdo tarmog'i va boshqa tarmoqlar milliy iqtisodiyotimizda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtida yurtimizda ko'ptarmoqli sanoat faoliyat ko'rsatmoqda va ularni milliy kadrlar shakllantirganlar, 2200 dan ziyod konsernlar, ishlab chiqarish birlashmalari va sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqdalar. yengil sanoat, mashinasozlik va metallarga ishlov berish, ximiya va nefteximiya tarmoqlari, yonilg'i-energetika sanoati, qurilish metallari sanoati, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, o'rmon, yog'och ishlash va sellyulozaqog'oz tarmoqlari, boshqa tarmoqlar, soha, sho'balar yetakchi ahamiyat tarmoqlarıdır.

### **3.2. Korxona ( firma ) faoliyatini zamonaviy boshqarish muammosi**

Har qanday korxona yoki firma ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) munosabatlari asosiga quriladi. Ishlab chiqarish korxonasining maqsadi ma'lum mahsulot ishlab chiqarishdir. Bunda faoliyat ko'rsatuvchi kishilardan yaratuvchanlik, ijodkorlik, ishlab chiqarish talab qilinadi, ya'ni tadbirkorlik hislatlari bo'lishi lozim.

Korxona va firmalarning asosiy vazifasi resurslardan oqilona foydalanib mahsulot ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) dir. Resurslarni olib mahsulotni tayyorlash – mahsulotni uzatish – korxona mahsulotlarini jalb etish jarayonlarni talab etish bilan bog'liq.

Firma (korxona) da tashkiliy boshqarishni tashkil etishning dastlabki va belgilovchi nuqtasi – bu ishlab chiqarish jarayonidir. U o'zaro bog'langan, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlaridan iborat bo'lib, bu jarayonlar natijasida dastlabki materiallar, xom ashyolar tayyor mahsulotga aylanadi. Ushbu jarayon firmanın tashkiliy jamoalari o'rtasida mehnat taqsimotini hamda ular o'rtasida yerni ekishga tayyorlash, ekin ekish, parvarishlash, transport va texnika xizmati, mashinalar, asbob-uskunalar, jixozlar, mexanizmlar va shu singarilarni tegishli ravishda taqsimlashni va

ularni bajarilishini talab qiladi. Shu maqsadda firma ishlab chiqarish bo'linmalari, qismlari, bo'limlari va ularga xos bo'lган tashkiliy boshqaruv tuzilmasi tuziladi.

Korxona yoki qismlari, sexlari, bo'linmalari, bo'limlari, markazlari o'zining aniq tashkiliy boshqarish vazifa (funksiya)lariga ega. Bu tashkiliy boshqarish tuzilmasi ko'pgina omillar (texnologiya, firmani joylanishi, firmaning quvvati, faoliyati, xodimlarning firmaga munosabatlari, muhitni o'zgaruvchanligi, ta'minlanish va hokazolar)ga bog'liq.

Shunday qilib, aytish mumkinki, ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlarga qarab boshqarish jarayoni va tashkiliy qurilish ham doimo takomillashib (mukammallahib) boradi. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish o'zgaradi, hamda boshqarish bo'g'inlari bo'yicha vazifalarni taqsimlash xam eskirishi mumkin.

Umumjaxon intilishi ishlab chiqarish texnologiyasida keskin o'zgarishlar orqali global muammo larni hal etishga qaratilgan jaxon taraqqiyoti postindustrial, axborotlar davriga o'tdi.

Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti muayyan davrda odamlar qatnashuvida kechadigan jarayonlarni tashkil etish bilan bog'liq, hamda ma'lum tadbiq etish sohasiga ega bo'lган kasbiy faoliyatdir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va provart jarayonida, yani tizimda qatnashuvchi barcha xodimlar va texnik vositalardan foydalanishga xolis baho berishga marketing kanallari (ko'priklari, xizmati) dan foydalaniladi.

### **3.3. Firmalarning chet ellarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish**

TNK (transnatsionalnaya kompaniya) ning xalqaro faoliyatini boshqarishning tashkiliy shakllaridagi yangi xodisalar eksport qilinuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyaning mamlakatidagi siyosatga bog'liq holda tashqi bozorlarda xarid (sotiladigan) qilinadigan holatlarga moslashtiriladi.

Bunda eng asosiysi – xo'jalik hayotini transmilliy lashtirishdir. Uning (TNK) ishlab chiqarishning ixtisoslashishi va kooperatsiyalashiga talabni oshish holatini ilmiy – texnik inqilob aniq lab bermoqda. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va

kooperatsiyalashni global masshtabda ishlab chiqarishning foydasini o'sishini ta'minlovchi muhim shakl sifatida TNK xizmat qilmoqda. Buni amalga oshirish, xususan, ishlab chiqarish dasturini chet eldag'i sho'ba kompaniyalari o'rtasida taqsimlash yo'li, ularning korxonalarida asosiy (markaziy) kompaniya erishgan ilg'or ilmiy-texnik natijalarni qo'llash natijasida raqobatbardoshlilikini oshirishga erishiladi. TNKlarni chet ellardagi faoliyatini kengaytirishga yana muhim rag'batlantiruvchi kuch yirik xarid bozorlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga xolis extiyojni o'sishidir. Bunda extiyoj tashqi iqtisodiy ekspansiya (bir davlatdan yangi territoriyalarini bosib olishga intilishi) yoki yoyilishi (tarqalishi, kengayishi)ni kuchaytiradi, bojaxona va boshqa bar'erlardan o'tish xohishini paydo qiladi va boshqa mamlakat bozorida o'z pozitsiyasini kengaytirishga intiladi. Bu bilan talabni to'laroq qondirishga harakat qilinadi. Ana shu kabilar TNK ning xalqaro faoliyatidagi tegishli shakllarini paydo bo'lishi va taraqqiy etishini keltirib chiqaradi.

Ishlab chiqaruvchi chet eldag'i filiallar va sho'ba kompaniyalar yig'ma korxonalar ko'rinishida, yoki to'liq ishlab chiqarish siklli (davri) korxonalar ko'rinishida yaratiladi. Bazi bir davlatlarda yig'ma korxonalarini bunyod etishga turli imtiyozlar beradi (masalan, Belgiyada, Kanadada, hamda ko'pgina MDXda).

TNK ning yig'ma va ishlab chiqaruvchi sho'ba korxonalarini mashina va uskunalarini qismlarga ajratilgan ko'rinishda jo'natish asosiy va sho'ba kompaniyalar orasida to'g'ridan-to'g'ri kontraktlar yo'li bilan amalgalashadi va kompaniyaning balansida aksariyat ishlab chiqaruvchi davlatdan eksport deb ko'rsatiladi. Tayyor mashina va buyumlarni sho'ba kompaniya joylashgan mamlakat bozorida yoki uchinchi bir mamlakat bozorida sotish kompaniyaning tashqi operatsiyalari hisoblanadi va o'zining xususiy sotish kanali, xuddi shuningdek vositachi (o'rtada turuvchi) orqali amalgalashadi.

TNK lar chet ellarda juda ko'p filial tarmoqlari va sho'ba kompaniyalarini bunyod etganlar. Bunday tashkiliy shakllar uchun quyidagilar tavsifli: ishlab chiqarish faoliyati yirik tijorat operatsiyalarini takomillashtirish bilan; o'rtada mahsulotni bir mamlakatda ishlab chiqaruvchidan, to iste'molchigacha yetishtiriladigan maydon (plantasiya)dan to tijorat magaziniga o'rta savdo vositasini to'liq qatnashmasligiga

erishish; ishlab chiqarish, savdo va transport funksiyalarini birlashishi; sho''ba shaklidagi sotish (o'tkazish) kompaniyalarida maxsus savdo apparatini tashkil etish; mahsulotni yetishtiriladigan (olinadigan) shaxsiy plantasiya (maydon) va rudniklarning mamlakatlar idan sotib olish operatsiyalarini almashtirish.

Demak, bunday tashkiliy shaklni qo'llash birlamchi xom-ashyoni ishlab chiqaruvchi bilan mahsulotni pirovard iste'molchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa bog'lanishga olib keladi. Yirik kompaniyalar, o'z tarkibida keng tarqalgan tarmoq chet eldag'i kompaniyalar sanoat hom-ashyolarini ishlab chiqishda shu hom-ashyoni ichki korporasion taminlash hisobiga o'z iste'molchilarini qondiradi. Chet eldag'i nazorat qilinadigan korxonalar hisobiga AQSh, Angliya va boshqa davlatlarni xom-ashyo tovarlari import tovarining salmoqli qismini tashkil etadi. Masalan, AQShda 1G'10 neft' importi va neft' mahsulotlari, 9G'10 alyuminiya va boksidlar, nikelni va temir rudalarini 3G'4 qismi, qo'rg'oshin, sink, mislarni 3G'4 qismi, asbestni 1G'3 qismi nazorat qilinuvchi korxonalar orqali keltiriladi. Umuman AQSh bunday mahsulot importi 32 % gacha yetadi, rivojlanayotgan mamlakatlarda 35% gacha yetdi, shu jumladan, Lotin Amerikasida 41% gacha va Osiyo va Afrikada-32% gacha yetdi. Yaponianing TNKsida nazorat qilinuvchi korxonalar orqali Yaponiyaga import qilinadigan mis rudasini 25%, ko'mir, temir rудаси, никел ва нефти 10-15%, boksitlar, qo'rg'oshin va ruxlarni 5-10% yetkazib beriladi.

TNKlarni ko'pgina mamlakatlar bozorida ustunlik qilishi chet elda ishlab chiqaruvchi sho''ba korxonalarni paydo bo'lishiga yoki bunyod qilinishiga muxim tashkiliy shakl bo'lib hizmat qilmoqda.

### **O'zini o'zi sinab ko'rish uchun savollar.**

1. Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi nima uchun menejmentning mustaqil ob'ekti bo'lib qoldi?
2. Nima uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalari marketingi xo'jalik yuritish amaliyotiga aylanib bormoqda?
3. Firmada tashkiliy boshqarishni tashkil etishni belgilovchi nuqtasiga tushuntirish bering?
4. Zamonaviy boshqarish muammosini xal etish qanday faoliyatlar bilan bog'liq ?
5. Xo'jalik hayotini transmilliy lashtirish qanday talablarni xal etish bilan bog'liq?
6. Chet ellarda ishlab chiqarish faoliyati qanday tashkil etilmoqda?

## **4 - mavzu. Zamonaviy ishlab chiqarish menejmentining uslubiy asoslari.**

### **4.1. Xususiy lashtirish strategiyasi**

Har qanday xususiy firma bo'ladimi yoki turli mulkchilikka asoslangan tashkilot bo'ladimi u yaxlit ochiq tizimdir. Uning taqdiri ichki va tashqi muhitga bog'liq. Tashkilotning har bir qismi-undagi hodisa, shaxs, vosita, voqelik, moddiy dunyo, mavjud bo'lgan borliq, resurslar bilan ta'minlovchilar va texnologiya, iqtisodiyot va raqobatlar, qonunchilik va siyosat, ijtimoiy va madaniy omillar yaxlit tizim deb atalmish tashkilot (korxona, firma) ning o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi.

Tashkilotning ichki va tashqi muhitlari, yani maqsad (lar)i, vazifalari, xodimlari, tashkiliy tuzilmalari, texnologiya, qonunchilik va siyosat, iqtisodiyot va raqobatlar va shu kabilarni bilish, o'rganish, ulardagi masalalarni yechishning yo'llari va usullari, hodisa va jarayonlarda yaxshi natijalarga erishish uchun usullarni qanday ishlatish va ishlash kerakligi uslubiy asoslarda o'z ifodasini topadi. Menejmentning uslubiy asoslari ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) usullari, qonunlari, tamoyillari, nazariyalaridan bahs yuritishga poydevor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yigirma yil ichida menejmentning obekti va subektlari, qonunlari (ayniqsa, iqtisodiy, xuquqiy, tashkilotni boshqarish qonunlari) va tamoyillari, hududiy boshqarishlarida katta o'zgarishlarga erishildi. Nodavlat sektorining ulushi yildan yilga o'sib bormoqda. Ko'plab davlat tashkilotlari negizida hissadorlik jamiyatlari paydo bo'lmoqda.

Mulkni xususiy lashtirish – bu iqtisodiy omil yoki tasnifdir. Firma yoki tashkilotlar kimlar tomonidan boshqarilishiga qarab faol rivojlanishi mumkin. Bunda davlat bozor munosabatiga o'tishda qatnashadi. Mulkchilikni amalga oshirish murakkab jarayon va bosqichdir.

O'zbekistonda davlat mulklarini xususiy lashtirish sohasida usullar, uslublar va uslubiyatlar takomillashtirilmoqda. Bunday usul va uslublar qatoriga aksiyalar savdosini o'tkazish, xususiy mablag' kiritish, mulknii sotish, fermer (korxona, tashkilot) rahbarlari va jamiyatlari tomonidan sotib olish, ijara ga berish kabilalar kiradi.

Strategik xususiy lashtirish borasida O'zbekistonda ishlab chiqarish huquqlari ta'limoti asosida tashkilotlar quyidagi tashkiliy-xuquqiy shakllarga ega: xususiy mulkchilik (xizmat ko'rsatish, fermer xo'jaligi, savdo korxonasi, firmalar, kartel, sindikat, sanoat xoldinglari, moliya guruhi, konsern, trest, dehqon xo'jaligi); jamoa mulkchiligi (oila xo'jaligi, shirkat xo'jaligi va shu kabilar); davlat mulki; aralash mulk; chet el fuqorolari, tashkilot, mulklari.

Tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishlaridagi tashkiliy va uslubiy o'zgarishlardan maqsad ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqarish jarayonlarini ma'muriy boshqarishdan ajratib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ko'chirishdir, barcha asosiy vazifalarni nazorat qilish davlat organlaridan tashkilot (firma, korxona) rahbarlariga o'tkazilishidir. Demak, xo'jalik yuritish sub'ektlarin ulushi ortib beradi.

YUqoridagi fikr va mulohazalar Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda [ Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom] umumiy qoidalar, moliyaviy natijalarni shakllantirish, mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, favqulotda zararlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlar ro'yxati, tovar-moddiy zahiralarni, tugallanmagan ishlab chiqarishlarni, shuningdek kelgusi davrlar xarajatlarini baholash, soliq solinadigan bazani aniqlash kabilar taqdim etilgan.

Respublika Prezidenti I.A. Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida [ Toshkent: "O'zbekiston", 1995, "O'zbekiston buyuk kelajak sari", Toshkent, "O'zbekiston", 2000 ] strategik xususiy lashtirishni quyidagicha ta'kidlaydi:

- davlat mulklarini xususiy lashtirish sohasida boshlangan ishlarni oxiriga yetkazish;
- ishlab chiqarishni pasayishiga barxam berish va mikroiqtisodiy barqarorlikni taminlash;
- milliy valyutani yana ham mustahkamlash;

- iqtisodiyotimiz tuzilmasini tubdan o'zgartirish, xom ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifatini va raqobatga bardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirilishiga ma'naviyatli va ma'rifatli xalqimiz, iqtisodiy o'zgarishlarga asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **4.2. O'zbekistonda tashkilotlar, firmalar, korxonalarning tashkiliy - huquqiy shakllari**

O'zbekistonda ishlab chiqarish huquqlar ta'limoti asosida korxonalar quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarga ega:

- xususiy mulkchilik;
- jamoa mulkchiligi;
- davlat mulki;
- chet el fuqarolari, tashkilotlari, mulki.

Shunga asosan ijara korxonasi, kichik korxona, xususiy korxona, hissadorlik jamiyati, qo'shma korxonalar va boshqalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ular "O'zbekiston Respublikasi korxonalar to'g'risida" gi qonunga binoan faoliyat ko'radilar.

O'zbekiston xalqi jonajon o'lkadagi beqiyos boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo'lib qoldi. Respublika o'z oltinini, boshqa nodir va qimmatbaxo metallarni mustaqil qazib chiqarib, qayta ishlamoqda va saqlamoqda. yer, yer osti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar va boshqa imkoniyatlar milliy boylik bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi vakolatlarini taqsimlash tamoyili izchillik bilan o'tkazilmoqda.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyat tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida ta'kidlanganlarga mosdir. Ushbu moddada aytiladiki, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligiga, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan

hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va halqaro huquqning umum etirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Malumki, mamlakatimizda chet elliq sarmoyadorlarning faoliyat ko'rsatishi uchun tegishli huquqiy zamin, qulay imtiyozlar tizimi yaratilgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy sarmoyadorlar uchun eng qulay investitsiya muhit barpo etilgan. Bu qulaylik o'z sarmoyasini bermoqda. Ko'plab chet el kompaniya va banklar respublikamiz bilan sheriklikda ishlash, o'z mablag'larini iqtisodiyotimizga yotqizish istagini bildirmoqda, bizni o'zlari uchun istiqbolli hamkor deb tan olmoqda.

#### **4.3.O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirligida zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti**

O'zbekiston Respublikasi keyingi yillarda erishgan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy yutuqlari benixoya ko'p.Ulardan biri mamlakatimizning Qishloq va Suv Xo'jaligi Vazirligi (QSXV) firmalari faoliyatidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshib borishida.

2011 yilning shu yanvar-dekabrida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 19633,6mlrd. So'mni yoki 2010 yilning shu davriga nisbatan 106,6 foizni tashkil etadi. Jumladan dehqonchilik mahsulotlari 11347,4 mlrd.so'mni (106,0 foiz), chorvachilik mahsulotlari 8286,2 mlrd.so'mni (107,6 foiz) tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiyligi hajmida dehqon xo'jaliklarining ulushi 63,7 foizni (2010 yilning yanvar-dekabrida 62,9 foizni ), fermer xo'jaliklarining ulushi 34,1 foizni, (35,0 foizni) qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi 2,2 foizni (2010 yilning shu yanvar-dekabrida 2,1 foizni) tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xajmining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha ifodalanadi (3-jadval) (umumiyligi hajmga nisbatan foiz hisobida):

### **3-jadval**

#### **Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushlari**

<b>Xo'jalik toifalari</b>	<b>2010-yilda</b>	<b>2011-yilda</b>
Fermer xo'jaliklari	<b>35,0</b>	<b>34,1</b>
Dehqon xo'jaliklari	<b>62,9</b>	<b>63,7</b>
Qishloq xo'jalik korxonalari	<b>2,1</b>	<b>2,2</b>

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 2011 yil hosili uchun ekilgan qishloq xo'jalik ekinlarining umumiy maydoni 3601,2 ming hektar maydonni tashkil qildi.

Bashoqli don ekinlari bilan band bo'lgan ekin maydoni 1607,4 ming hektarni yoki 2010 yil yanvar-dekabriga nisbatan 95,8 foizni, shu jumladan bug'doy ekin maydoni 1432,6 ming hektarni (97,7 foizni) tashkil qildi.

Paxta ekin maydoni 1329,2 ming hektarni yoki 2010 yil yanvar-dekabriga nisbatan 99,0 foizni tashkil etadi.

Kartoshka ekin maydonlari 4,1 foizga, sabzavot ekin maydonlari 1,4 foizga o'sdi, shu bilan birga poliz ekin maydoni 4,1 foizga, ozuqa ekinlari maydoni 1,9 foizga qisqaradi.

2011 yil yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7140,1 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarilib, shu jumladan 6703,1 ming tonna boshoqli don, shundan 6526,7 ming tonnasi bug'doyni tashkil etadi.

2011yilda 1862,4 ming tonna kartoshka (2010 yilga nisbatan 10,0 foizga ko'p), 6993,7 ming tonna sabzavot (10,2 foizga), 1294,7 ming tonna poliz ekinlari (9,5 foizga), 1871,1 ming tonna meva va rezavorlar (9,4 foizga) va 1090,2 ming tonna uzum (10,4 foizga) yig'ib olinadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,2 foizni tashkil etdi.

Respublikaning barcha hududlarida, barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha yirik shakli qoramollar, shundan sigirlar, qo'y va ekinlar, parrandalar soni oshdi.

Dexqon xo'jaliklarining ulushiga yirik shoxli qoramollar umumiy sonida 93,7 foizi, sigirlarning 94,7 foizi, qo'y va echkilarning 80,5 foizi, parrandalarning 11,6 foizi to'g'ri keladi.

2011 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 1564,2 ming tonna (tirik vazinda) go'sht (2010 yilga nisbatan 7,0 foizga ko'p), 6766,2 ming tonna sut (9,7 foizga ko'p), 3441,7 mln. dona tuxum (12,5 foizga ko'p), 28,7 ming tonna jun (8,2 foizga ko'p), 1022,3 ming dona qorako'l teri (9,3 foizga ko'p) yetishtiriladi.

Xo'jalik toifalar bo'yicha chorvachilikning asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish quyidagicha ifodalanadi:(4-jadval)

Dehqon xo'jaliklarining umumiy go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida 94,7 foizni, sut ishlab chiqarishda 96,0 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 54,5 foizini, jun ishlab chiqarishda 84,4 foizini, qorako'l terisi ishlab chiqarishda 63,0 foizni tashkil etdi.

2011 yilning yanvar- dekabrida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlari hajmi 6702,3 mlrd.so'mni yoki 2010 yilning yanvar- dekabriga nisbatan 104,4 foizini tashkil qiladi.

4-jadval

<b>Chorvachilik mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish xo'jalik toifalari</b>	<b>2010 yil yanvar-dekabr</b>	<b>2009 yil yanvar-dekabrga nisbatan foizga</b>
Go'sht (tirik vaznda, ming tn. Shu jumladan):	1564,2	107,0
Fermer xo'jaliklari	41,0	108,3
Dehqon xo'jaliklari	1481,6	106,7
Qishloq xo'jalik korxonalari	41,6	121,1
Sut, ming tn shu jumladan:	6766,2	109,7
Fermer xo'jaliklari	230,1	112,3
Dehqon xo'jaliklari	6494,6	109,6
Qishlok xo'jalik korxonalari	41,5	114,7
Tuxum, mln, dona	3441,7	112,7

Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	374,5	130,0
Dehqon xo'jaliklari	1875,5	105,6
Qishloq xo'jalik korxonalari	1191,7	119,8
Jun, tonna	28687,0	108,2
Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	1938,0	113,0
Dehqon xo'jaliklari	24198,0	110,2
Qishloq xo'jalik korxonalari	2551,0	89,7
Qorako'l teri, ming dona	1022,3	109,3
Shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklari	43,4	98,4
Dehqon xo'jaliklari	643,6	101,8
Qishloq xo'jalik korxonalari	335,3	129,6

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 34,1 foizini tashkil etdi.

Fermer xo'jaliklariga biriktirilgan umumiy yer maydoni 5841,0 ming gektarni tashkil qiladi.

2012 yilning 1 yanvar holatiga fermer xo'jaliklarida yirik qoramollar 507,2 ming boshni, shu jumladan sigirlar 174,0 ming boshni, qo'y va echkilar 1203,3 ming boshni, parrandalar 4974,2 ming boshni tashkil qildi.

2011 yilning 1 yanvariga nisbatan yirik shoxli qoramollar 5,5 ming boshga (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga), shu jumladan sigirlar 1,4 ming boshga (0,8 foizga), qo'y va echkilar 53,4 ming boshga (4,6 foizga, parrandalar 1015,6 ming boshga (25,7 foizga) ko'paydi.

Fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari va ularning umumiy ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi quyidagiCHA ifodalanadi:(5-jadval)

5-jadval

Mahsulotlar	2011yil		2010 yilga nisbatan foizda
	Ming tonna	Ishlab chiqarish umumiy xajmdagi ulushi, foizda	
Donli ekinlar	5752,2	80,6	94,8
Paxta	3483,5	99,5	102,9
Kartoshka	397,7	21,4	118,2
Sabzavotlar	2474,4	35,4	111,7
Poliz ekinlari	653,6	50,5	109,7
Mevalar	890,3	47,6	109,0
Uzum	608,0	55,8	109,2
Go'sht	41,0	2,6	108,3
Sut	230,1	3,4	112,3
Tuxum, mln.dona	374,5	10,9	130,0
Jun, tonna	1938,0	6,8	113,0
Qorako'l, ming dona	43,4	4,2	98,4

O'zbekiston Respublikasida viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish quyidagicha ifodalangan:(6-jadval)

6-jadval

Respublika viloyatlar	2011 yil yanvar-dekabrida qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish		2012 yil 1 yanvar xolatiga qishloq xo'jalik mahsulotining xo'jalik toifalari bo'yicha tarkibi, foizda		
	Mldr, so'm	2010 yilga nisbatan foizda	Fermer xo'jaliklari	Dehqon xo'jaliklari	Qishloq xo'jalik korxonalarini
O'zbekiston Respublikasi	19633,6	106,6	34,1	63,7	2,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	581,0	105,2	37,4	61,1	1,5
Viloyatlar:					

Andijon	19955,1	108,7	34,4	64,7	0,9
Bu xaro	1813,7	107,4	29,8	69,1	1,1
Jizzax	1031,8	105,3	37,0	62,4	0,6
Qashqadaryo	1587,0	102,5	35,5	63,4	1,1
Navoiy	881,2	108,2	26,7	69,0	4,3
Namangan	1428,6	107,0	30,3	69,0	0,7
Samarqand	2546,5	107,7	35,4	61,7	2,9
Surxandaryo	1598,7	108,6	34,5	64,2	1,3
Sirdaryo	764,8	108,4	44,5	53,1	2,4
Toshkent	2657,9	106,6	35,8	58,4	5,8
Farg'ona	1605,4	107,5	35,5	62,7	1,8
Xorazm	1181,9	101,8	29,3	69,3	1,4

### O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi.

#### 4.4.Qishloq xo'jalik mahsulotlari, seleksiya, urug'chilik va qishloq xo'jaligini kimiylashda bozorlar taraqqiyotini ta'minlash

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti (shu jumladan, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti)ni boshqarishdagi islohatning asosiy ustuvor yo'naliishlaridan biri ayniqsa, korxonalar, uyushmalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik yurituvchi tuzilmalar miqyosidir amaliy faoliyatimizda qo'llanilayotgan firmanın egası, rahbari, boshqaruv xodimi, mutaxassisı, ijrochisi ilg'or tajriba va fan - texnika yutuqlaridan, ijtimoiy va iqtisodiy omillardan, texnologik va boshqaruv yutuqlaridan aql-idrokka asoslangan xolda foydalanishi maqsadga muvofiq.

Xalq xo'jaligida takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlovchi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, ya'ni infratuzilmalar (xizmat bozori, maxsus xizmatlar bozori, moliya-kredit tizimi (tuzilma), birjalar, ulgurji birjalar, qurilish va boshqalar) firma yoki tashkilotning miyasi (bosh vazifasi, shu bilan

birga u tarmoqning har bir bo'g'inning mustaqil xo'jalik sub'ekti) bo'lgani uchun ham ularning maqsadi bu moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi ulgurji va birja savdosi infratuzilmasidir. Ximiyaviy ulgurji savdo infratuzilmasi markaziy respublika aksionerlik va birja savdosi bo'lish "O'zulgurjibirjasavdo" sining bo'g'inlaridan biri bo'lib tashkil etilmog'i darkor.

Ulgurji-birja savdosi faoliyatida tadbirkorlarga tijorat vositachilik, savdo, ishlab chiqarish, transport, moliya, audit, axborot xizmatlari ko'rsatish, ulgurji, birja, yarmarka, kim-audit savdosini tashkil etish hamda barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tovar xom-ashyo resurslari bozorida savdo bitimlari tuzish uchun qulay sharoit yaratadi, kontrakt-shartnoma asosida davlat extiyojlari, mamlakatimiz va xorijiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar, tijorat firmalar, korporatsiya va biznesmenlar uchun hukumat buyurtmalari bo'yicha mahsulot sotib olish, mahsulotni iste'molchilarga sotish kabi vazifalar bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham infratuzilma rahbari o'zining ustuvor rejasini ishlab chiqarish va uni amalga oshirish davomida atrof muhitni tahlil qilish, firmaning ichki muhitidagi kuchli va zaif tomonlarini boshqaruvli tizimdan o'tkazish, ustuvor muqobilni tanlash, tanlangan ustuvor rejaning ro'yobga chiqarilishini rejalashtirish, barcha jarayonlarni amalga oshirish va ularni nazorat qilingach, ustuvor rejaga baho berishi lozim.

Agroximiyasining ulgurji birja savdo infratuzilmasi tarkibida tezkor, analitik, chorvachilikni ximiyasi, atrof muhitni muhofaza qilish guruxlaridan tashkil topishi mumkin.

Tezkor guruh dalaga agroximiya xizmati ko'rsatish, kartografiya tuzish, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, tuproqni o'g'itlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqarish kabi omillar bilan shug'ullanadi.

Analitik guruh tuproqni tahlil qilish va o'g'itlarni tahlil qilish bilan mashhg'ul bo'ladi.

Chorvachilikni ximoyalash guruhi chorvalar va o'simliklarni tahlil qilish, ozuqalarni yaxshilash va foydalanish bo'yicha namuna va tavsiyalarni tanlash

kabilarni amalga oshirsa, ximoyaviy taksikologiya va radiologiya bilan atrof muhitini muhofaza qiluvchi guruh shug'ullanadi.

Ulgurji birja savdo infratuzilmasi mineral o'g'itlarni yetkazib berish va o'simliklarni ximoya qilish uchun qo'llaniladigan ximoyaviy vositalar bo'yicha bajariladigan ishlarni bajarish uchun zarur texnikalar bilan ta'minlaydi.

Davlat va nodavlat sektorlaridagi infratuzilmalar faoliyati yildan-yilga taraqqiy etishi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi tabiiy holatdir. Shu bois qishloq xo'jalik mahsulotlari, urug'chilik va qishloq xo'jaligini ximoya (kimyo)lashning ulgurji birja savdo infratuzilma (magazinlar, konsignalizatsiya, ombori, maxsus qishloq xo'jalik bozori, O'zulgurjisavdo va boshqalar) larini taraqqiy etishi davr talabi deb o'ylaymiz.

Ulgurji birja savdo infratuzilmalari mintaqaga bo'yicha aniqlanib, xizmat ko'rsatadilar. Bunda mineral o'g'itlar saqlanadigan omborlarda yuklash-tushirish vositalaridan aniqlana foydalanish, mineral o'g'itlarning turi, xajmi va yetkaziladigan joyi (masofasi)ga qarab, stellajlari kod bilan belgilash (kodlash), tezkor hisobga olish va tahlil qilish, o'z vaqtida o'g'itlarni turi bo'yicha iste'molchilarga yetkazib berish, qisqa muddatli, uzoq muddatli saqlash, jarayonlarni avtomatik boshqarish kabilar davr talabidir. Chunki qishloq xo'jalik korxonalarini mineral o'g'itlar bilan yil davomida bir tekis ta'minlanishida ulgurji birja savdo bozorlarining ahamiyati yuqori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 18 fevraldag'i majlisida ta'kidlaganidek, qishloq xo'jalik sohasida islohotlar bo'lyapti, lekin bu sohada ham turli kamchiliklar, salbiy holatlar uchrayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Aytaylik, bir fermer majburiyatini bajarib, o'z daromadidan ortirib, maktab yoki bog'cha qurayapti, ba'zi fermerlar esa zimmasiga olgan shartnoma rejasini ham bajarmayapti. Holbuki, ular uchun urug'lik, yoqilg'i, o'g'it va kredit mablag'lari o'z vaqtida yetkazib berilmoqda.

Har bir fermer avvalo men qaysi bozor guruhiga kuchni yo'naltirishim kerak? Har bir hududda qaysi bozor ulushi mos keladi? Nima uchun aynan

bizning mahsulotni xarid qilishi kerak? Mahsulotimiz yoki xizmatimiz turlari yoki navi va sifati qanday bo'lishi kerak? Mahsulotni xarid qilish, tashish va reklama bosqichlari orasida vositalarni qanday bo'lishi kerak ? va shu kabi qator savollarga javob topa olishi kerak.

Mamlakatimizning barcha viloyatlari (12ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi va ularning tumanlar (162ta)da qishloq xo'jaligini jadallashtirishni belgilovchi omillar orasida himoyalashtirish, urug'chilik, seleksiya (chatishtirish yo'li bilan yangi navni chiqarish) kabilarning ahamiyati mavjud. Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, agrofirmalar va boshqa korxonalar texnik vositalar mavjud (7169 purkagichlar, changlatgichlar, gerbesid sepish moslamalari, mineral o'g'it sepish mashinalari va boshqalar), hamda xo'jaliklarni himoyalash vositalari bilan ta'minlash vazifalarini bajaruvchilar ulgurji birja savdosidan sotib oladilar. Ularda xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar, mashina-traktor park (MTP)lari mavjud (7-jadval).

#### **7-jadval**

#### **QSXV ixtiyoridagi asosiy ximiyalash texnik vositalarning xo'jaliklar bo'yicha taqsimlanishi**

Texnikalarning nomlari	Jami, soni			Shu jumladan								
				Xo'jaliklar			Fermer xo'jaliklari			Muqobil MTPlarida		
	2005	2006	2007	2005	2006	2007	2005	2006	2007	2005	2006	2007
1.Purkagichlar, chan glat gichlar .	4193	4042	3822	1896	718	79	350	393	511	1118	1765	1911
2.mineral o'g'it sepish mashinalari	2536	2450	2455	1213	464	49	221	233	343	899	1525	1769
3.Organik o'g'it sepish mashinalari	418	320	233	202	89	14	9	12	8	140	170	155
4.suyuq o'g'it sepish	260	151	150	176	28	1	0	0	0	69	111	135

mashinalari											
5.Gerbesid sepish moslamalari	247	206	183	231	121	0	0	0	0	11	81
Jami:	7654	7169	6867	3718	1419	143	580	638	862	2237	3652
											179

### **Manba: QSXV ning ma'lumotlari asosida ishlangan**

Respublikamizning ma'lum xududlarida mineral o'g'itlar saqlanadigan omborxonalar mavjud. O'simliklarni himoya qilish vositalarini saqlash omborxonalari ixtisoslashtirilgan. Do'stlik, Paxtakor, Mirzacho'l tumanlarda va Jizzax shahar temir-yo'l stansiyalarida nozimlik -taqsimlash punktlari uskunalangan bo'lib, ular respublika va mamlakat ximiya zavodlaridan olib kelinadigan mineral o'g'itlarni xo'jaliklarga taqsimlashga xizmat qiladi. Infratuzilmalar kabi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ulgurji birja savdo infratuzilmasi ixtisoslashtirilsa mineral o'g'itlar va uniyuproqqa soladigan texnika orqali iste'mol qilish joylariga yetkazadilar. So'ng ular ximiyalashtirish vositalarini yetkazib berish uchun ajratilgan fondga binoan xo'jalik (korxona, firma va b.)lar bilan shartnomalar tuzadi, yetkazib beruvchi zavoddan olib kelinadigan ximiyalashtirish vositalarini qabul qilib olishni, ularni nazorat qilishni, saqlashni, temir yo'l vagonlari yoki avtopoezdlardan tushirib olishni ta'minlaydi, ximiya mahsulotini iste'molchining shartlari bo'yicha o'z transporti bilan tashib beradi. Bunda yetkazib beruvchi korxonalar, xo'jaliklar va tijorat banki bilan mineral o'g'itlar hamda oziq fosfatlarning sanoat va qishloq xo'jalik narxlari o'rtasidagi tafofutlarning o'rmini to'ldirish bo'yicha o'zaro hisob-kitob qilishni tashkil etadi.

Tumanlararo tuzilishi mumkin bo'lgan ulgurji birja savdo infratuzilmasi xuzurida tuziladigan unumdoorlik mexanizatsiyalashgan guruhlar qishloq xo'jalik xizmatining moddiy negizi vazifasini bajaradi. Ularga traktor yoki avtomobil' tirkamalari va osiladigan qurollari bilan birqalikda MTP biriktirib qo'yilishi mumkin.

Mexanizatsiyalashgan guruhlar odatda ixtisoslashgan brigada (guruhcha)larga bo'linadi. Birjadagi guruhda osma bul'dozerlari va yuklovchi traktor va har xil markadagi traktorlar bilan ta'minlanadi.

Ulgurji birjada quruq o'g'it,ximiyaviy moddalar va gerbesidlar saqlanadigan omborxonaga ega bo'ladi. Ishlab chiqish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalari (tizimi) dan kelib chiqib, firmalar, shirkatlar, dehqon xo'jaliklarining pirovard mahsulotlariga resurslarni uning asosiy guruhlari bo'yicha (mineral o'g'itlar, gerbesidlar va boshqa ximiyalashtirish vositalari, texnika, yoqilg'i, hamda moylash materiallari, qurilish materiallari va hakazolar) sarflarning narx normativ (me'yorlash)lari tizimiga o'tish bozor munosabatining talablariga moslashtirilishi kerak.

Ximiyalashtirish ishini keng miqyosda amalga oshirishdan oldin agroximiklar korxona, tashkilot, firma, xo'jaliklarning dalalarini, qo'llaniladigan maxalliy o'g'itlarning tarkibini, mineral va organik o'g'itlarni solishning turli tlg'or va samarali usullari sarasini o'rganishadi, tajribalar o'tkazadilar. Natijada, xo'jalikning muayyan sharoitida turli xil o'g'itlarni qo'llash samaradorligi aniqlanadi.

Ulgurji birja savdo infratuzilmasi o'zining imkoniyatlardan butun ish majmuida eng ko'p darajada foydalanish, tumandagi firma, shirkat va dehqon xo'jaliklarining tuproqning unumdonligini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini viloyatda qo'llaniladigan dehqonchilik tizimining xususiyati bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi asosiy bo'g'in ijobiy faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bozor munosabati sharoitida tuzilgan shartnomalar bo'yicha xo'jaliklar iqtisodiy munosabat ko'rsatadilar. Shartnoma mineral o'g'itlar va boshqa ximiya vositalari yetkazib berish, turli xil agroximiya ishlari va xizmatlarini bajarish jarayonida tomonlarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi asosiy hujjatdir. Lekin tajribalarning natijalariga ko'ra, infratuzilma bajarilgan ishning hajmi va shu bosqichda olingan foyda bir-biriga uyg'unlashib ketadi. U firma yoki korxona ishlab chiqarishning pirovard- natijasiga, olingan mahsulotning miqdori va sifatiga bog'liq emas. Bu hosilning taqdirini belgilovchi agroximiya ishlarini yetarli

ravishda o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishga rag'batlantirmaydi. Shunga qaramasdan, ish hajmi bajarilganligi uchun agroximiya ko'p mukofat oladi, agroximiya ishlarining rentabelligi darajasi shundan dalolat beradi.

Ko'pgina xo'jaliklarda o'g'itlarni qo'llanishning mufassal ishlab chiqilgan tizimi yo'q. U bo'lganida ekinlarni almashtirish va almashlab ekishga, ularning bialogik xususiyatlariga, shuninigdek o'g'itlarning xususiyati hamda tuproq-iqlim sharoitiga qarab faqat o'g'it solishning miqdorigina emas, balki muddati ham, usuli ham hisobiga olingan bo'lardi. O'g'itlarni qo'llashning iqtisodiy jihatdan eng ko'p asoslangan me'yorini belgilash uchun har bir xo'jalik bo'yicha tuzilgan va fosforli hamda kaliyli o'g'itlarning eriydigan shakllari mavjudligi hisobga olingan agroximiya kartogrammasi asos bo'lishi lozim. Mutaxassislarning fikricha, solinadigan azotli o'g'itning miqdorini azotning fosforli va kaliliy o'g'itlar bilan zarur nisbatini hamda olinadigan paxta hosilini hisobga olib belgilash mumkin. Bunday kartogrammalar o'g'itlarni dalalarga taqsimlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mineral o'g'itlarni tashish, yuklash, tushirish, saqlash, tayyorlash, yerga solish kabi ishlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning hajmi ancha salmoqli. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, barcha sarf-xarajatlarning 30-40% mineral o'g'itlarga to'g'ri keladi, chunki o'g'itlarni ishlab chiqarish bilan iste'mol qilish arafasidagi masofa sezilarli darajada. Bundan tashqari, uzoq masofaga tashiganda o'g'itning sifati pasayadi. Natijada o'g'itni tuproqqa solish uchun tayyorlashga qo'shimcha sarf-xarajat qilishni talab etadi. Bu jarayonlar kam mexanizatsiyalashgan, ko'p mehnat va material sarflashni talab qiladi.

Qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirishning texnologik jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi mexanizatsiyalashgan guruhlar bajaradigan ishlar tuproq unumdorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ta'minot yoki iste'molchining omboriga mineral o'g'itni yetkazib berish bu jarayonga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Sarf-xarajatlar va xodimlarni ishlab chiqarish infratuzilmalariga taqsimlash tuzilmasining tahlili shuni ko'rsatadiki, mexanizatsiyalashgan guruhlar mahsulot yetishtirish, ishlar va boshqa xizmatlarga yeng ko'p hissa qo'shadi. Ular ishlab chiqarishning xajmi sarf-xarajatlar salmog'i bo'yicha 60%ga teng. Ta'minot

bo'linmalarida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 35-40%ni tashkil etadi. Mexanizatsiyalashgan guruhlarning asosiy kampost tayyorlashga, organik va mineral o'g'itlarni dalaga tashib chiqarish hamda tuproqqa solishga, ximiyalash vositalarini qo'llanishga qaratilgan.

Shunday qilib, ishlab chiqarish ishlari va xizmatlarning asosiy hajmi to'g'ri keladigan mexanizatsiyalashgan guruhning xo'jaliklar bilan munosabatlarini takomillashtirish bozor munosabatlarini qishloq xo'jalik ulgurji birja savdo infratuzilmalarining ishini firmalar, shirkatlar, dehqon xo'jaliklari, agrofirmalar, shaxsiy dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarishning pirovard natijalari bilan, bozor munosabati asosida yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Aynan ular qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlar yetishtirish jarayonida qatnashib, tuproq unumдорлиги ошишига бевосита та'sир ко'rsatadi. Tashkil etilishi lozim bo'lgan qishloq xo'jaligini ximiyalash bo'yicha ulgurji birja savdo infratuzilmasining bozor munosabatlari asosida faoliyat ko'rsatishi firma, shirkat va boshqa korxonalar faoliyatiga tizimli yondoshish mumkin.

Bu bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi jarayonining asosiy qismidan iborat ishlari va xizmatlar (organik va mineral o'g'itlarni dalaga tashib chiqarish hamda tuproqqa solish, qishloq xo'jalik ekinlarining zararkunandalari hamda kasalliklariga qarshi kurashish va shu kabilar) bo'yicha bozor munosabatlariga asoslanadi.

Yana u yoki bu ishlab chiqarish texnologiyasini qo'llanish imkoniyatini tayyorlovchi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ximiyalashtirish uchun materiallarni yetkazib berish bo'yicha ta'minot, ishlari va xizmatlar sohasidagi ishlab chiqarish aloqalaridan iborat. Bu yerda pirovard mahsulotni yetishtirishga asoslangan ximiyalashtirish vositalarining o'zi ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tizimining pirovard natijalariga aloqador ishlari va xizmatlarning bu guruhi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ximiyalashtirishning yuqori sifatli vositalari va materiallari o'z vaqtida yetkazib berish orqali ta'sir ko'rsatadi.

Lekin shuni aytish lozimki, ximiyalashtirilgan infratuzilmaning guruhida band bo'lgan xodimlar xo'jaliklarining ximiyalash vositalari yetkazib berish yuzasidan

tushgan buyurtmalarni to'plash va umumlashtirish, ularni asoslash hajmida korxonalarga o'z vaqtida yetkazish yuzasidan ma'suliyatli vazifani bajarishadi. Ular faoliyatini ham optimallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, yetkazib beruvchi zavodlar mineral o'g'itlarni yil davomida asosan bir me'yorda ishlab chiqaradi va taqsimlaydi. O'g'itlardan qishloq xo'jaligida foydalanish esa mavsumiy tavsifga ega. O'zbekiston qishloq xo'javligi uchun o'g'itlardan foydalanishning juda xilma-xil agrotexnika sharoitlari xarakterli. Lekin ko'pincha qishloq xo'jalik mintaqalari uchun o'g'itni solishning ma'lum davrlari bor:

- bahorda kuzgi g'alla, ko'p yil o'tlar bilan oziqlantirish, makkajo'xori, kartoshka va boshqa ekinlarga ham solinadi (30-35%);
- yozda xaydaladigan ekinlar, g'o'za, makkajo'xori va boshqa ekinlar oziqlantiriladi (10%);
- yozning oxiri va kuzda o'g'itlar kuzgi ekinlarga yerni shudgorlash oldidan solinadi (55-60%).

Bunday xulosalarga qishloq joylarida yashaydigan mutaxassis, ijrochilar shubha qilishmasalar kerak. Ko'pincha tumanllar va korxonalarda mineral o'g'itlar xo'jaliklarga va dalaga olib boriladigan mahalliy (avtomobil') yo'llari qoniqarsiz ahvolda.

Shulardan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligini ximiyalash bo'yicha ulgurji birja savdo infratuzilmalarini maxsus tashish va saqlash vositalari bilan ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, xulosamizdagи ushbu tavsiyalar ximiyalash bo'yicha ulgurji birja savdo infratuzilmasini yaratishiga uslubiy asos yaratiladi deb o'ylaymiz.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar.**

1. Tashkilotning ichki va tashqi muhitlaridagi muammo va masalalarni yechish uchun uslubiy asoslarni bilih zarurmi?
2. Menejmentning uslubiy asoslariga tushuntirib bering.
3. O'zbekistonda strategik xususiyashtirish kimlar tomonidan va va qanday mezonlarga asoslanib boshqariladi?

4. Strategik xususiyashtirish qanday tashkiliy-huquqiy shakllarga ega?
5. O'zbekiston Respublikasida strategik xususiyashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. O'zbekistonning korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllariga izoh bering.
7. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati nimalardan iborat?
8. Qishloq xo'jalik mahsulotining ulgurji bozorini mukammallashtirish uchun nimalar qilmoq lozim?
9. Qishloq xo'jalik sohasida bo'layotgan islohatlarga izoh berilsin?
10. Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyoridagi texnik vositalarni taqsimlanishi tushuntiring?
11. Qishloq xo'jaliklarida o'g'itlarni tayyorlash, tashish yerga solish kabi ishlarning xarajatlarini kamaytirish uchun nimalar mukammallashtirilmoqda?.

## **5– mavzu. Boshqaruv – jamiyatning rivojlanish tizimidir.**

### **5.1. Boshqaruv – rivojlanish tizimidir**

Boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini o’rganishda ui, tizimli, tarkibiy, vaziyatli integrasion yondashuvlar, andozalash, iqtisodiy-matematik usullar, kuzatish, tajriba, ijtimoiy kuzatish kabilardan foydalaniladi, voqeа va xodisalar, munosabat va rivojlanish (dialektika) ning asosiy qonunlari tahlil qilinadi.

Boshqaruv yuqori saviyada olib boriladigan firma va tashkilotlarda bajariladigan ishlarning hajmi, mahsulot yoki xizmat ko’rsatishning turlari, sarf xarajatlari va daromadlarini aniqlash, xodimlar o’rtasida mehnatni taqsimlash, resurslarni yetkazib berish, hisob-kitob va moliyaviy natijalarni shakllantirish, ulardan foydalanish darajasini kuzatib borish va nazorat qilish kabilar aniq bajariladi. Shuning uchun ham boshqaruvga jiddiy ahamiyat beriladi.

Boshqaruv kishilarning ijtimoiy harakatiga tasir ko’rsatib turadi, chunki ular hamisha ijtimoiy tizimdir, jamoalar sharoitida harakat qiladilar va tizimlar, jamoalar ular oldida muayyan talablar (huquqiy, axloqiy va shu kabi talablar) qo’yadi.

Har qanday ishlab chiqarish, bajariladigan ish, xizmat ko’rsatish negizlari bajariladigan obekt va boshqariluvchi sub’ekt tizimlaridan tashkil topadi.

Boshqariladigan va boshqaruvchi tizimlar o’rtasidagi aloqa xodimlarning bir-biri bilan o’zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Ular doimo iqtisodiy va ijtimoiy, texnik va texnologik rivojlanishdadir. Fan-texnika va tadbirkorliklarning rivojlanish darajasini hisobga olish, ularning rivojlanish qonunlarini o’rganish muhim mano kasb etadi.

Boshqarish tizimi boshqariladigan o’zaro bog’liqlikni muayyan ifodalovchi shaklidir. U esa boshqarish vazifalarini amaliy ro’yogga chiqishida substansiya (bo’lakchasi) bo’lib xizmat qiladi. Shu bois boshqarish tizimi kichik tizimlarga ajraladi:

- tuzilmali funksional (vazifaviy) tizim (boshqarish g’oyasi va boshqarish tizimining maqsadli qarashi; boshqarish faoliyatining jarayonlarida

qatnashuvchilarning me'yoriy manfaat va hulqlari; boshqarish tizimida kommunikasiya yoki bog'lanishni axborot va axborotlar bilan taminlash);

- axborotli-hulqiy kichik tizim (uning shakllari - boshqarish nazariyasi va boshqarish obektining xodimlari, tashqi o'rabi turgan vakillar orasidagi rasmiy va norasmiy munosabatlar; tashkiliy taraqqiy etganlik saviyasi, hamda boshqarish jamoasining alohida har bir azosining yetuklik darajasi; xodimlarning axborot, axborot tashuvchi, axborotlarni tarqatish shakllari va usullari bilan taminlanishi);
- boshqarish tizimining o'zini-o'zi taraqqiy ettirish kichik tizimi. Bu tizim boshqarish tizimining yaxshilash yo'nalishidagi o'zgarishlarga talab (ehtiyoj) va doimiy yangilanib turishga ehtiyojlarni qondirish ko'rinishidagi o'zini-o'zi rivojlantiradigan kichik tizimdir.

YAxshi tashkilot o'zining xodimlarining salohiyatidan samarali foydalanadi, ular salohiyatidan jadal rivojlanish uchun ularga imkoniyat yaratadi. Ko'pgina insonlar o'zlarining ongli hayotini tashkilotda o'tkazadilar. Shuning uchun tashkilotning muvaffaqiyatiga befarq bo'lishlari mumkin emas. Tashkilotning tarkibida mehnat qiluvchi xodimlarning umumiy maqsadlarining qondirilishiga muvaffaqiyatli tasir ko'rsatadi. Tashkilotda inson eng qimmatli "resurs" dir.

## **5.2. Inson ishini bajarishga tayyorligi, xohishi va ishbilarmonligi-menejment asosidir**

Jamiyat hayotida qatnashuvchi korxona (firma, tashkilot) lar shahar obodonchiligiga katta sarmoya sarflamoqdlar, nogironlarga yordam ko'rsatmoqdalar, xalq san'atini va sportni qo'llab-quvvat lamoqdalar.

O'zbekistondagi aloqa tarmoqlarini rivojlanishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarni uzatish vazifasini bajaradigan ko'pgina korxonalarining har biri boshqalardan ma'lumotlarni uzatib turish turi, miqdori, tarkibi, vositalarining tavsifi, o'zlarining faoliyatidagi iqtisodiy natijalari bilan farqlanadilar. Aloqaning foydali samarasini iste'mol qilishga kelganda bu borada mahsulotlar boshqalardan farqlanmaydilar.

Aloqa obekt tarzida qaralsa-ko'ptarmoqli xo'jalik, elektrik aloqaning tarmoqlaridan tashkil topadi-telefon (qishloq, shahar, xalqaro) va telegrafli, mobil aloqa, radioaloqalar tarmog'i, radioeshittirish va televideniyalar, komp'yuter texnikasi va telekommunikatsiya tizimi, kosmik, pochtali aloqalar.

Tashkiliy va texnik munosabat tomonidan esa har bir aloqa tarmog'i yagona majmua butun mamlakat miqyosida yagona majmuani tashkil etadi, boshqa tarmoqlarning aloqalari bilan o'zaro birgalikda ishlab turadi.

Axborotni tizimlashtirish mashina orqali amalga oshirish tobora kuchayib bormoqda. Mashina bilan inson o'rtasida axborot almashuvining umumlashishiga va oson yo'llarini ishlab chiqish vazifasi ko'ndalang qo'yilmoqda. Masalan, raqamli traktorlarni tuzilmalari har doim parametrlarning qanday ishlab turish va ularni qurish usuli ishlab chiqilgan.

Raqamli uzatish tizimlarining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri – bu axborotni ishonchli uzatish hisoblanadi. Axborotni sifatli uzatish uchun avvalambor, axborotni uzatayotgan traktorning sifatini baholash kerak bo'ladi. Buning uchun har xil simvollardan tashkil topgan sinov signallarini butun trakt bo'ylab, uzatish kerak bo'ladi.

Mobil aloqa turi bugungi kunda keng tarqalgan aloqa turi hisoblanadi. O'zbekiston aholisining deyarli yarmi ushbu aloqa turidan foydalanmoqdalar deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Shu bois respublikamizda mobil aloqaning turli shahobchalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Har bir shahobchalar, mijozlarga o'z xizmatlarini ko'rsatmoqdalar. Hozirgi kunda butun dunyo Internet tarmog'i barcha sohalarda keng qo'llanilmoqda.

Prezident I.Karimov ta'kidlashicha, ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qiyomatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalashga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi.

Firmalar o'z ixtiyorlari bilan jamiyat hayotida qatnashishini maql ko'rmoqdalar.

So'rov o'tkazilgan rahbarlarning fikriga ko'ra 500 dan ziyod firmalar 10 yil avvalgiga qaraganda xodimlariga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyati sezilarli ortdi. Masalan "Ford Motor" kompaniyasi bu ishda deyarli o'zini boshqacha tuta boshladi.

Ijtimoiy mas'uliyat muammosining markazida shaxsiy qadriyat, ma'naviyat, axloq, xulq va ularning qoidalarini bajarilishida inson ishini bajarishga tayyorligi, xohishi va bilarmonligi yotadi.

Zamonaviy boshqarish marifatli bo'lishni, o'z kasbini keng va chuqur egallashni, yuqori axloq me'yorlariga amal qilishni talab etadi. Marifat, axloq, inson ishini bajarishga tayyorligi, xohishi va bilarmonligi orqali insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va firma faoliyatida qo'llash katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Malumki, har qanday firma, korxona, tashkilot, muassasa, kompaniya va boshqalar tirik, nafas oluvchi organizmdir. Organizm esa kichik to'qimalardan tuzilgan, ular uchun "shaxs" deb nom berilgan. Tashkilot emas insonlar ishlaydi. Shu bois tashkilotdagi rahbar va menejerlar samarali ijro etishga erishmoq uchun tayyorgarlik, xohish va bilarmonlik formulasidan to'g'ri foydalanishlari kerak. Muvaffaqiyat formulasini quyidagilardan iborat: tayyorgarlik yoki zarur vositalar (T); xohish yoki kutilayotgan oqibatning muvozanati (X); ishbilarmonlik yoki mahorat (nima qilish kerak bo'lsa bilish, ishonch, nimani bilasiz, qanday bajarasiz) (B). Bajariladigan ish, daromad yoki unumdorlik, tashkilot rentabelligi (M). Muvaffaqiyatning formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$MqT \cdot X \cdot B$$

Tashkilotning pirovard maqsadi foydani ko'paytirishdan iborat. Buning uchun menejmentning uslubiy asoslari xizmat qiladi.

Haqiqiy menejer insonlarni kamolatga yetkazish uchun o'z mahoratini ishga soladi. Menejer har biri xodimi bilan o'zaro tasir etgach xodim nimadir, foyda olishi kerak, har biri ishdan qaytganda odamlar biroz bo'lsa ham aqlliyoq, ishiga, o'ziga ishonchliyoq, o'z kasbida san'atkorroq bo'lib uyiga qaytsin. Mana shunda menejerning tasiri qoniqarli bo'ladi va menejmentning asosini tashkil etadi.

### **5.3.Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ta'minlash logistikasi (tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, realizasiya qilish)**

Transport –yuklarini tashishda bo'ladigan, moddiy ishlab chiqarishning tarmog'idir. Ijtimoiy ishlab chiqarish strukturasida moddiy xizmatlar ishlab chiqarishga kiradi.

Transport logistikasining vazifalari quyidagilar:

- transport tizimlarini, jumladan transport qoidalari va transport zanjirlarini tashkil etish: transport jarayonlarini turli xildagi transport birligi faoliyatini rejashtirish;
- transport-ombor jarayonlarining texnologik birligini ta'minlash;
- transport jarayonini ombor va ishlab chiqarish bilan muvofiqlashtirilgan holda rejashtirish;
- transport vositasi turini tanlash;
- etkazishning optimal marshrutlarini aniqlash;
- mahsulotlarni tashish va saqlash uchun agrosanoat majmuini refrijerator transporti va konteynerlar bilan to'liq ta'minlash va boshqalar.

Xo'jaliklarda keng ko'lamda nonvoyxonalar, sabzavotlarni tuzlash punktlari, turli xil konservalar tayyorlaydigan kichik va o'rta korxonalar, meva va uzumlarni quritish maydonchalari tashkil etilayapti. Don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash uni saqlash bilan uzviy chambarchas bog'langandir. Korxonalarni muntazam ishlashi uchun xom-ashyo, yarim fabrikalar va tayyor mahsulotlar saqlanadigan omborlar bo'lishi kerak.

Qishloq xo'jaligida mahsulotlarni saqlash hosilot, iqtisodchi va zoomuxandis larga bog'liq. Ularga va boshqa qishloq xo'jalik xodimlariga mahsulotlarni saqlashda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- *mahsulotoarni va urug'lik fondini imkoniyati boricha isrof qilmasdan hamda sifatini tushirmsadan saqlash;*
- *mahsulotlarni saqlayotgan paytda tegishli texnologik usul va rejimlar qo'llab ularning sifatini yanada oshirish;*

-oz mehnat sarf-xarajat qilib, mahsulotlarni rentabel holda saqlash.

Mahsulotlarni saqlash muammosi juda muximdir, chunki ba'zi mahsulotlarni saqlashdagi xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishdagi qiymatidan ham ortib ketadi. Xarajatlarni qaytarish urug'lik, ozuqa-em va boshqa mahsulotlarning tannarxini pasaytirishga hamda uni sotib foyda olishga olib keladi. Xo'jaliklar tarkibidagi texnika bazasini korxonalarining rivojlanish yo'nalishiga, u joylashgan yerning ob-havo sharoitiga qarab qurish, jihozlari va texnik hamda iqtisodiy tomonidan unumli foydalanish zarur.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan har bir xom-ashyoning sifati qator omillarga bog'liq. Don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining oziq-ovqat va texnologik qiymati to'g'ridan-to'g'ri nav, agrotexnik tadbir, ob-havo, yetishtirish sharoiti, hosilni yig'ib olish usuli va muddati, hosil yig'ib olinadigan keyingi tayyorlashda, tashish va saqlashga uzviy bog'liqdir. Mahsulotlarni unumli saqlash nafaqat mavjud texnik bazasi, ombor, turli mashina va uskunalardan foydalanishga, saqlanadigan mahsulotlarning chidamliligiga ham chambarchas bog'liqdir.

Transport turini tanlash masalasi logistikani zaxiralarining optimal darajasini tashkil qilish va ushlab turish, qadoqlash va o'rash turini tanlash va boshqa shu kabi masalalari bilan bog'liq holda yechiladi.

Ushbu bo'limda transport vositalarining unumdorligi asosiy hisoblanadi. Transport vositalari ish unumdorligi va unga texnik-ekspluatasion ko'rsatkichlarning ta'sirini o'rganish va tahlil qilishda quyidagi formuladan foydalanish lozim bo'ladi.

Transport vositasining kunlik ish unumdorligi, bu bir qatnovda tashilgan yuk hajmi (t) va bajarilgan transport ishi (yuk oboroti) (tkm). Ular quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_{\text{hajmi}} = \frac{T_{\text{ish}} \cdot q_H \cdot \gamma_{CT} \cdot \beta \cdot V_T \cdot t}{l_{\text{yuk}} Q \beta + V_T \cdot t_{0-T}}$$

$$R_{\text{yuk}} = \frac{T_{\text{ish}} \cdot q_H \cdot \gamma_{CT} \cdot \beta \cdot V_T \cdot l_{\text{yuk}}}{l_{\text{yuk}} Q \beta + V_T \cdot t_{0-T}}, \text{tkm}$$

*Bunda:*

**Ч** -nominal yuk ko'taruvchanligi;

**T** - naryad vaqt;

**V** - o'rtacha texnik tezlik;

**$\beta$** -bosib o'tilgan yo'ldan foydalanish koeffitsienti;

**V<sub>st</sub>** -yuk ko'taruvchanlikdan statik foydalanish koeffitsienti;

**V<sub>o-t</sub>**-yuk ortish-tushirishda bo'sh turish vaqt.

Misol 1.KrAZ-256B1avtomobili (q-12 t) paxta tozalash zavodga yuk tashiydi. Tashish masofasi 20km. Marshrutdagi masofadan foydalanish koeffitsienti 0,5. Texnik tezlik 25 kmG'soat. Avtomobilning liniyadagi ish vaqt 17 soat. Bir qatnovdagi ortish- tushirish vaqt 0,5 soat. Bir kunlik no'linchi masofa 5km. Avtomobilning t va tkm dagi kunlik ish unumдорлиgi hisoblansin.

Misol 2 O'zbekistonda paxta tashish logistikasi bo'yicha sarf-harajatlar. Toshkent-Poti, Toshkent-Riga, Toshkent-Brest marshrutlari orqali paxtani konteynerda va yopiq vagonlarda tashishidagi harajat va foydalar aniqlansin. Konteynerli marshrutli poezd 28-50 vagondan iborat yukni tashiydi. Yigirma futli konteynerlar 22-24 tonnani sig'diradi. YOpiq vagonga 40-51,6 tonnani joylashtiradi. (8-jadval)

Topshiriq:

- 1.YUklarni xom-ashyodan mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste'molchigacha transportda tashish ishlarini bajaruvchi transport firmasi ko'rsatilsin.

8-jadval

Yo'naliш	Masofa km.	Konteynerli vagonga yuk tashish baxosi	YOpiq vagonda yuk tashish bahosi	TG'km
Toshkent-Brest	4236			0,016

Toshkent -Riga	4286			0,017
Toshkent-Poti	3017			0,020
yo'nalish	Konteynerli tashishda masofaga yetgan xarajatlar	Odatdagi yuk tashish masofaga ketgan xarajatlar	Konteynerli yuk tashishda sotuvdan tushgan foydalar	Odatdagи yuk tashishda sotuvdan tushgan foydalar
Toshkent -Brest				
Toshkent-Riga				
Toshkent-Poti				

Brest orqali yo'li cheklangan hajmi 28 vagondan, Riga orqali 35 vagondan, Poti orqali 50 vagondan iborat.

2.Sxemada ko'rsatilgan transport xizmati turlardan transport firmasi bajariladigani tanlansin.

3.Transport xizmatiga tavsifnomा berilsin.

Misol Z.ZIL-130avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati t, avtomobilning yukli masofasi 90km, bir qatnovdagи masofadan foydalanish koeffitsienti -0,5 texnik tezlik 30kmG'soat, ish vaqtı-8 soat, qatnovlar soni-5, bir qatnovdagи ortish-tushirish vaqtı-0,5 soat. bir kunlik no'linchi masofa 5km. Avtomobilning t va tkm dagi kunlik ish unumдорлиgi hisoblansin.

Misol 4. Tanqidli N-firmasiga 100000 tonna paxta berish kerak. Agar marshrutli poezdnинг yuki 2500 tonna paxtani tashkil etsa, firma ehtiyojini qondirish uchun necha kun kerak bo'ladi?

Yukni jo'natuvchidan N-firmasiga yetkazish uchun 30 kun ketadi.

Agar jo'natish tezligi bir oyda bir tarkibli qismga to'g'ri kelsa 100000 tonna paxtani yetkazish uchun qancha vaqt ketishi aniqlansin.

Misol 5. Amerika tipidagi paxtaning bir funti 77,50-86,75 sent., Meksikaniki 79,00 sent, Argentinaniki 72,50-74,50, Turkiyaniki- 73,00 sent Markaziy Osiyoniki 71,00. Transport xarajatlari: O'zbek paxtasini transportda tashish bahosi paxta

tozalash zavodidan yuk ortish portigacha tonnasiga 75-100 AQSh dollarini va ohirgi iste'molchiga yetkazish tonnasiga 100-120 AQSh dollarini tashkil etadi.

YOpiq vagonlarga 51,6 tonnali paxtani joylashtirish mumkin.

Qirq futli konteynerlar 11,5-142 tonna joylaydi. Markaziy Osiyoda toyning standart o'lchovi bo'yicha 40-futli konteynerga 105 tadan 120 ta toygacha joylash imkonini beradi, bu esa o'rtacha 22-25 tonnali yuklash imkonini beradi. Amerika toyлari 40 futli konteynerga 80 ta toy, yani 18 tonna yukni joylashdi, demak Markaziy Osiyodagi yuk AQSh dagi yukka nisbattan 25% ga arzondir. O'rta Osiyodagi vagonlarga va Amerika vagonlariga 5.000.000 tonna paxtani yetkazish uchun nechta tarkibli qism talab etilishi.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar.**

1. Transport logistikasining vazifasi nimalardan iborat?
2. Transport jarayonini ombor va ishlab chiqarish bilan birgalikda rejalashtirish uchun nima qilish lozim?
3. Transport vositalari turlariga misol keltirilsin.
4. Transport vositalarining ish ko'rsatkichlari nimalar?

## **6-mavzu. Ijtimoiy omillar va menejmentning ahloqi.**

### **6.1. Ijtimoiy omillar haqida tushuncha**

Ijtimoiy sohaning barcha imkoniyatlari, to'plangan tajribalar, milliy xodimlarimizning tafakkuri, ma'naviyat, milliy etiqod kabi omillar mamlakat boyligida katta o'rinn tutadi. Chunki kishilik jamiyatni rivojlanib borar ekan, odamlarning ma'naviy nematlarga, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari to'xtovsiz ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi uning fuqarolariga inson erkinligi huquqlaridan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Ayniqsa, ijodkorlarga, ixtirochilarga, intellektual aqliy mulk egalariga qulay sharoitlar yaratdi. Ular o'z intellektual aql-zakovat mulkini: ixtirolari, ilmiy kashfiyotlari, texnologik yangiliklari, uslubiy ishlanmalarini tovar sifatida erkin sotish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu, bir tomonidan, xalqimiz ichidan yangi ixtirochilar, ijodkorlarning yetishib chiqishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, ma'naviyat, ma'rifat, ilm-fan kabilarning o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish firmalarining iqtisodiyotiga o'zları faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat asta-sekin bo'lsa ham tasir qiladi. Shuning uchun firma (korxona, tashkilot) lar jamoatchilik muhiti bilan qanday munosabatda bo'lishi kerak, o'zlarini ijtimoiy javobgar hisoblashlari kerakmi? Albatta, qonunlarni va davlat tomonidan boshqariladigan me'yorlarni buzmagan holda foydalanish firmalarning ijtimoiy javobgarligida ifodalanadi. Bu tomonidan firmalar iqtisodiy maqsadlarini ko'zlashlari kerak. Shu bilan birga firmalar iqtisodiy javobgarliklariga qo'shimcha faoliyatlarida insoniy va ijtimoiy yo'naliishlarni xisobga olib firma jamoasiga, jamiyatga tasirlarini his etishlari lozim, oqibatda ijtimoiy muammolarning yechilishiga ijobjiy hissa qo'sishlari maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy javobgarlik deganda firma tomonidan ijtimoiy muammolarga javoban ixtiyoriy harakatning malum darajasi tushuniladi. Bu harakat qonun bilan belgilangan va organlar tomonidan boshqariladigan talablardan tashqarisini yoki bu talablar

me'yordan yuqori bajarilishi nazarda tutiladi. Firmalarda har xil yordam jamg'armalari, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy ofatlarda ko'rsatiladigan yordamlar, obodonlashtirishga ajratmalar va shu kabilar ijtimoiy javobgarlikka kiradi.

Ijtimoiy javobgarlikning xarajatlari jamiyatning guruhlarini takomillashtirish, tashkilotga jamiyat munosabatlarini yaxshilash kabilarda o'z ifodasini topadi va shular orqali qoplanadi.

Javobgarlik ijtimoiy-iqtisodiy munosabat ifodasida o'z obektiv mazmuni va turli ifodalanish shakllariga ega. Masalan, tashkilotlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun ma'muriy, huquqiy, axloqiy (estetik) mas'uliyatlar mavjud. Ma'muriy, huquqiy va ahloqiy mas'uliyatlar orqali firmalar bir-birlari bilan o'zaro bog'liqdirlar.

Ijtimoiy tarmoqlar taraqqiyoti inson madaniyatining olg'a qarab rivojlanishining moddiy asosidir. Endilikda inson g'oyat nozik operatsiyalarni bajarishni taminlayotgan g'oyat murakkab texnik va texnologik tizimlar, ixcham, tezda qayta ishga solib yuboriladigan avtomatlashtirilgan majmualar, moddalar tuzilishining o'zini molekulyar va atom darajasida o'zgartirib yuboradigan eng yangi texnologiya bilan qurollangan IKT va Internet xodimning intellektual imkoniyatlarini ko'p marta kengaytirib yuboradi.

O'zbekiston mustaqil rivojlanishda xalq manfaatlariga katta e'tibor bilan qaramoqda. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darjasini bilan belgilanadi. "O'zbek modeli", yani ta'limning modeli xalqaro miqyosda obro'li mutaxassislar tomonidan tan olinmoqda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari: ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik tavsifda ekanligi; ta'limning uzlucksizligi va izchilligi; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi va majburiyligi; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish va shu kabilar.

## **6.2. Ijtimoiy - texnik yondashuv**

Firmalar samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun inson markaziy omil bo'lsa, uning ijtimoiy imkoniyatini yaxshilash uchun har bir ishlab chiqaruvchi yoki xizmat

ko'rsatuvchining xo'jalik ehtiyojlarini qondirish va sanoat korxonalari, assotsiyalari, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa qator tashkilotlar ixtiyoriga beriladigan ne'matlardan samarali foydalanish zarur.

Malumki, robot va nazoratchi komp'yuterlardan foydalanuvchi moslashuvchan ishlab chiqarish tizimi mahsulotdag'i, shuningdek ishlab chiqarishda davom etadigan o'zgarishni ham dasturlashtirib berishi mumkin. Ammo zamonaviy avtomatlashtirish ishlab chiqarishning asosiy o'zagi bo'lgan kishilarni ham inkor qilmay, ularning o'zaro harakatini yanada samarali qilish imkoniga ahamiyat berish lozim.

Xodimlar tayyorlash milliy dasturi "ta'lim to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan. Milliy dasturning maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimni yaratishdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan firma o'zining samaradorligini ta'minlash bilan birga jamiyat oldida qonunni buzmaslikka javobgar. Shuning uchun firma o'zining ma'lum ne'matlari va kuchlarini ijtimoiy kanallar bo'yicha yo'naltirishga majbur. Firma sog'liqni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashga, fuqorolar xuquqini, iste'molchilar manfaatini himoya qilishga javobgar.

### **6.3. Firmalar amaliyotidagi mas'uliyat**

Raxbar xodimlarning hissadorlik jamiyatida ishtimoiy javobgarligi masalasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarga binoan, aytish mumkinki, uning ijobiy tomonga o'zgarishi yaqqol sezilmoqda. So'rov o'tkazilgan raxbarlarning fikriga ko'ra, biznesning ishtimoiy javobgarligini oshishi yo'nalishidagi ta'siri katta axamiyatga ega va u davom etadi.

Jamiyat xayotida qatnashuvchi korporatsiya (firma, tashkilot, korxona) lar shaxar obodonchiligiga katta sarmoya sarflamoqdalar, nogironlarga yordam

ko'rsatmoqdalar, halq san'atini va sportini qo'llab-quvvatlamoqdalar. Foyda va daromadlarni ko'paytirishga intilish boshqaruvchilarni o'z resurslarini qismini ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgan dasturga o'tkazishni maqul ko'rmoqdalar. Jamiat hayotida qatnashishni maqul ko'rmoqdalar. Aytish kerakki bu yechim ixtiyoriy ravishda bajariladi.

Maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'i (maishiy xizmat ko'rsatish uyi, kombinat, korxonalar, ustaxona, salonlar va boshqalar) aholiga juda ko'p sohalar bo'yicha xizmat ko'rsatadi. Kir yuvish punktlari, kiyimlarni kimyoviy tozalash korxonalar, avtomobilarga texnik xizmati ko'rsatish punktlari va yoqilg'i quyish shahobchalari va boshqa maxsus jihozlar bilan maxsus texnologiya jarayonlarini amalga oshiradilar.

Mamlakatimizda maishiy xizmat ko'rsatish tizimida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari va ixtisoslashgan o'rta maxsus kasb – hunar talimlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

#### **6.4. Zamonaviy boshqarish, ma'rifat va axloq**

Zamonaviy boshqarish ma'rifatli bo'lishni, o'z kasbini keng va chuqr egallashni, yuqori axloq me'yorlariga amal qilishni talab etadi. Ma'rifat va axloq orqali kishilarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini, xulqini o'rganish va tashkilot faoliyatida qo'llash katta muvaffaqqiyatlarga olib keladi. Shuni takidlash lozimki, mas'uliyat hamisha ham mavhum bo'lib qolmaydi. U buyurtmachi bilan ishlab-chiqaruvchi o'rtasida bog'liq bo'lim va bo'linmalar, bozor infrastrukturalari o'rtasidagi munosabatlarda nomoyon bo'ladi.

Ijtimoiy mas'uliyat muammosini markazida shaxsiy qadriyat, ma'naviyat, axloq, xulq va ularning qoidalarini bajarishi yotadi.

Qonunga riosa qilib, tashkilot foydasini maksimallashtirishga erishish kerak degan kishilar aksariyat foydani oshirish, qonunga qattiq riosa qilib samaradorlikka erishish mumkinligini tushunadilar. Bunday kishilar tashkilot o'zini to'g'ri olib boryapti va ijtimoiy javobgar deb hisoblaydilar. Ularning ishdagi hamkasblari bilan madaniyatli muomalada bo'lishi, bo'ysunuvchilari bilan sizlab gaplashishi, mehnat

intizomini saqlashi, boshqalarni diqqat bilan eshitishi o'zgalar tomonidan bildirilgan takliflarni rad qilmasligi, luqma tashlamasligi, yig' ilishlarda faollikni rag'batlantirish, bo'ysunuvchilarga topshiriq berayotganda hushmuomala bo'lishi, bo'ysunuvchilarga nisbatan etiborli bo'lishi, ular muvaffaqiyatini o'z vaqtida taqdirlashi, jazoga tortilishda uning yoshi, jinsi, mijoziga e'tibor berishi, suxbatdoshlariga odil bo'lishi, tanqid qilishda ustalik va extiyotkorlik bilan foydalanishi, o'ziga va aqliy qobilyatiga mustaqil kishilarni qadirlashi, laganbardorlar hizmatidan uzoqroq bo'lishi, yakka hokimlik xuquqidan ortiqcha foydalanmasligi, boshqa ilg'or g'oyalarni hurmat qilishi kabilar axloq me'yorlari hisoblanadi.

Odamlar harakatining to'g'ri ekanligini tanlashda axloq haqidagi tushunchani ko'ra bilish muhimdir. Sharqona urf-odat, an'ana, xulq-atvorini boshqarishga tayyorligi, mexribon va hushmuomalaligi, og'ir sharoitda ham o'zini tuta bilishi, nimani qilish mumkin, nimani qilmaslik kerak degan savollarga ijtimoiy nuqtaviy nazardan yondasha olish kabilar axloq me'yorlari hisoblanadi. Axloq jamiyat tomonidan boshqariladi. U orqali kishilarning ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarini, xulqini o'rghanish va firma faoliyatida qo'llash jamoani katta muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Xulq-shaxsning faoliyat va muammolarda tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi. Xulq davlat organlari tomonidan boshqariladi va tartibga solinadi. Kishining xulqini irodasi (dadillik, ishonchsizlik, qo'r quoqlik), his-tuyg'ulari (xushchaqchaqlik, ruxan, siqilganlik), aqlilik, yengiltaklik, emosiya, shubxalilik, oliy - ximmatlilik, saxovatlichkeit, kek saqlash kabilar belgilaydi.

### **O'zini-o'zi sinash uchun savollar.**

1. Sharqona axloq zamonaviy boshqarishda qanday ifodasini topmoqda?
2. Ma'rifatning zamonaviy boshqarishga qanday tasiri bor?
3. Nima uchun tashkilot yoki firma jamoalarini jamoatchilik muxitida o'zlarni ijtimoiy javobgar hisoblaydilar?

4. Ijtimoiy javobgarlikka tarif berilsin.
5. Nima sababdan ta'limotlar, tavsiyalarni hozirgi taraqqiyotda aynan ko'chirib ishlatib bo'lmaydi?
6. Ijtimoiy-texnik yondashish deganda nimalarni anglaysiz?
7. Nima uchun firma raxbarlarining xodimlariga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyati ortib bormoqda?

## **7-mavzu. Firma strategiyasi va uni ishlab chiqish.**

### **7. 1. Biznesning strategik turlari**

Firma deganda savdo-sotiq tashkiloti yoki ishlab chiqarish birlashmasi tushunilib, biznes va mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Firma uchun strategiyani aniqlash firma faoliyat ko'rsatayotgan muayyan holatga o'ta bog'liq. Ammo strategiyani ifodalashga ba'zi umumiy yondashishlar mavjud.

Firma strategiyasini aniqlashda rahbariyat bozordagi firmanın holati bilan bog'liq bo'lgan uchta masalalarga duch keladilar: qaysi biznesni tugatish; qaysi biznesni davom ettirish; qaysi biznesga o'tish.

Firmanın faoliyat ko'rish strategiyasini uchta asosiy ishlab chiqarish sohasi bor: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda rahnamolik qilish; mahsulot ishlab chiqarishda ixtisoslashtirilish; firmani bozorning malum guruhiga qayd qilinishi va tanlangan bozor guruhiga firma imkonini yo'naltirish.

Amaliyotda o'ta tarqalgan biznesning strategik taraqqiyoti odatda etalon (asosiy) deb ataladi. Etalonli strategiyaning birinchi guruh yondashishi jamlangan o'sish strategiyasi deb ataladi. Bu guruhga quyidagilar kiradi: bozordagi nuqtai nazarni kuchaytirish strategiyasi; bozorni taraqqiy ettirish strategiyasi; mahsulotni taraqqiy ettirish strategiyasi.

Etalonli strategiyaning ikkinchi guruhiga yangi tashkiliy tuzilmani qo'shilish yo'li bilan firmani kengaytirishga qaratilgan biznesning strategiyalari kiradi. Bu strategiyalarni yaxlitlashtirilgan o'sish strategiyasi deb ataladi va uning ikki toifasi mavjud: teskari vertikal yaxlitlanish strategiyasi; oldinga yo'naluvchi vertikal yaxlitlanish strategiyasi.

Biznesning taraqqiy etishdagি etalonli strategiyaning uchinchi guruhi –bu bundan buyon o'sa olmaslik (diversifikasiya) strategiyasi. Masalan, markaziy biznes qolgan holda yangi ishlab chiqarish o'zlashtirilgan bozorga mo'ljallab pasayish yoki

o'sa olmaslik strategiyasi; gorizontal o'sa olmaslik strategiyasi; konglomerativ (shaxsning, menejerning omilkorligi...) o'sa olmaslik strategiyasi.

Biznesning taraqqiy etishdagi etalonli strategiyaning to'rtinchi toifasiga qisqartirish strategiyasi kiradi va quyidagi strategiyalardan iborat: bartaraf qilish; qisqartirish; xarajatlarni qisqartirish.

## **7.2. Firma strategiyasini ishlab chiqish**

Strategiyani tanlash jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: joriy strategiyani aniq bilib olish; mahsulot portfeli (xajmi)ni tahlil qilish; firma strategiyasini tanlash va tanlangan strategiyani boholash.

Joriy strategiyani aniq bilib olish tashqi (firma faoliyatining ko'lami va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har xilligi, firmani o'sa olmasligi, firmaning umumiy tavsifi, tashqi havflarga munosabati,...) va ichki omillar (firma maqsadlari, ishlab chiqarish bo'yicha sarmoya qo'yish, resurslarni taqsimlash mezonlari, ilmiy tadqiqot, tajriba, konstruktorlik ishlari,...)dan iborat.

Mahsulot portfelini tahlil qilish esa biznesning tavakkallik, pulni kelib tushishi, yangilanish va eskirish kabi muhim omillardan iborat. Mahsulot portfelini tahlil qilish bosqichlari: mahsulot portfelini tahlil qilish uchun firmada pog'ona yoki bosqichlarni tanlash; biznesning strategik birligini belgilash; mahsulot portfelini tahlil qilish qolipining parametrlarini aniqlash va o'zgaruvchanlarini tanlash; biznesning kuchini o'lchamoq uchun bozorning hissasi, uni o'sishi yetakchi markaga nisbatan bozorning nisbiy hissasi kabi o'zgaruvchilardan foydalanish; soha o'ziga jalb qila olishi, firmaning raqobatbardoshligi, firmaga havf soluvchilar va imkoniyatlar, resurslar va xodimlarning malakasi kabi yo'naliishlarni o'rganish; mahsulot portfelining qolipini tuzish va tahlil qilish.

Firmaning holatini tahlil qilish asosida rahbariyat strategiyani tanlaydi. Uning muhim omillari: firmaning o'sish strategiyasini tanlashda sohaning kuchli tomonlari, firmaning kuchli tomonlarini hisobga olish; firmaning maqsadlari; rahbariyatning qiziqishlari va munosabatlari; firmaning moliyaviy resurslari; firmaning

majburiyatlar; tashqi muhitdan bog'liqlik darajasi; vaqtli omil; tanlangan strategiyani baholash; tanlangan strategiyaning holati va atrofidagi qurshov talablariga mos kelishi; tanlangan strategiyani firma salohiyati va imkoniyatiga mos kelishi; strategiyada qo'llaniladigan tavakkallikni yaroqlilikligi.

### **7. 3. Strategiyani bajarilishi**

Strategiyani bajarilishi uchta masalani yechish bilan bog'liq: ma'muriy masalalar orasida ustunligini o'rnatish; tanlangan strategiya bilan firma ichidagi jarayonlar orasida moslik o'rnatish; firmani boshqarishda rahnamoning uslubi va yondashishi strategiyani amalga oshirish bilan tanlash va keltirishda mosligi. Barcha uchchala masala o'zgarishlar orqali yechiladi.

Strategik o'zgarishlar, agarda ular to'g'ri o'tkazilsa, tizimli tavsifga ega bo'ladi. Bunda ular tashkilotning barcha tomonlariga taalluqlidir.

Strategiyani bajarish bilan zarur o'zgarishlar o'tkazish ko'zda tutiladi. Strategiyani bajarilishi uchun salohiyatni jalb etish zarur. Bu borada inson salohiyatidan foydalanish uchun firma a'zolari strategiyani amalga oshirishga tarafdir bo'lishlari kerak. Shu bilan birga resurslar salohiyatidan to'g'ri foydalanish lozim.

### **7. 4. Xodimlarning vazifasi va ular tashkilotining loyihalanishi**

Ushbu mavzu firma (tashkilot) ni boshqarish vazifalari, ishlarni loyihalash va ishni loyihalash andozalariga bag'ishlanadi. Loyixa-bu masalalar va omillar yig'indisi, ular orqali maqsadga erishiladi.

Firma (tashkilot)ni boshqarish vazifalari firmanın umumiyyat vazifalari, ma'muriy boshqarish vazifalari, boshqarish vazifalari nima degan savollarga javob beradi.

Firma (tashkilot, korxona)ning umumiyyat vazifalari: rejalashtirish (vaqt), marketing (iste'molchi), tadbirkorlik, moliya (pul), xodim, ishlab chiqarish (texnologiya), innovasiya (g'oya), ma'lumotlar (dalillar), ijtimoiy taraqqiyot

(madaniyat) kabilardan iborat. Har bir keltirilgan umumiy vazifalar tashkilotni boshqarish bo'yicha ma'lum ishlarning ko'rishidir. Boshqarishda mehnatni taqsimlash, ixtisoslashtirish va har xilini kombinasiya qilish-bu doimiy jarayondir.

Ma'muriy vazifalar g'oyasi tashkilotni boshqarish bo'yicha mehnat faoliyatining bir ko'rinishidir. Tashkilotni umumiy boshqarishda ma'muriy boshqarishning ahamiyati quyidagilardan kelib chiqqan; ko'ra bilish, tashkil eta bilish, rahbarlik qila bilish, muvofiqlashtirish, nazorat qila bilish.

Boshqarish vazifalari-bu boshqarish faoliyatining nisbatan erkin, ixtisoslashtirilgan va alohida qismidir. Bunday boshqarish vazifalari bilan hisoblashmoq uchun aniq ifodalangan mazmun lozim.

Ishni loyihalash masalasi iga kelganda ishlarni loyixalashdagi g'oyalarga, ishning tahlili, ishning parametrlari, ishning mazmunini idrok qilish, ishning texnologiyasi va uni loyihalash kabi savollarga etibor beriladi.

"Ish" tushunchasi faoliyatning amalga oshirishning tashkiliy tomonini, shaxs bajaradigan ishini ham o'z ichiga oladi, yani qanday bajarmoq va kimga bajartirmoq kerak degan savolga javob beradi. Bularning hammasi bir bo'lib u yoki bu qismning ishini aniq ajratish va tariflash imkonini beradi. Bu jarayonni firma (tashkilot, korxona) da ishni loyihalash deb ataladi.

## **7. 5. Tashkilotni qurish**

Tashkilotni qurish (tuzish) to'rt bosqichdan iborat: tashkilotning tuzilmasini tanlash, departamentlashtirish, moslashtirilgan tashkiliy tuzilmani tanlash, markazlashgan va nomarkazlashgan tashkilotlarni aniq ajratish.

Tashkilotning tuzilmasini tanlashda tashkiliy loyihalashning bosqichlariga, amaldorlikka etibor berish lozim.

Amaldorli tashkiliy tuzilma mehnatni yuqori darajada bo'lishi bilan tavsifli, xodimlar hulqining ko'pdan ko'p qoida va me'yorini borligi, xodimlarni ularning ishbilarmonlik va kasbning sifatiga qarab tanlash kabilar bilan tavsiflandi.

Keng tarqalgarlaridan biri boshqarishni amaldorli (funksional) tashkiliy tuzilmasi, yirik tashkilotlarda esa bo'linmali (devizionli) tuzilma, xalqaro bozorlarda faoliyat ko'radigan firmanın tashkiliy tuzilmasi, moslashtirilgan tashkiliy tuzilma, markazlashtirilgan va nomarkazlashtirilgan tashkilotdir.

Amaldorli tuzilmaning ba'zi-bir muammolari uzbek ravishda yoki moslashtirilgan tashkiliy tuzilmalarni kiritish bilan yechilishlari mumkin. Moslashtirilgan tuzilmalarni asosiy turlari loyihalash tashkiloti, matritsali tuzilmadagi tashkilot, muayyan vaziyatga mos keladigan tashkilot turlari kerak.

Tashkilotning barcha masalalari va rejalaridagi tafovutlarini hisobga olish va ifodalamoq maqsadida korxona rahbari departamentlashtirishning har xil tizimlaridan foydalanadi, yani boshqarishning amaldorlik andozasini ijobiy xususiyatlaridan, tashkilotni alohida bo'limlarga bo'lish jarayonidan foydalanadi. Bunda bo'linmali tuzilish bo'lishi mumkin: mahsulotli tuzilish, mahsulotli tuzilishga mo'ljallangan tashkiliy tuzilma, mintaqali tashkiliy tuzilma, mo'ljallangan bo'linmalarni tanlash.

Tashkilot qurilishi (tuzilishi) ni tanlashda mahsulotli ishlab chiqarish muhim o'rinn tutsa, u holda boshqarish bo'yicha vakolat o'sha mahsulot rahbariga beriladi, u esa ushbu mahsulot uchun javobgardir. Qolgan ikkinchi funksional bo'linma rahbari (ishlab chiqarish, texnik, tijorat va boshqa bo'lim) shu mahsulot bo'yicha boshqarma boshlig'i oldida hisobot beradilar.

## **7. 6. Ishlab chiqarish jarayonini tezkor boshqarish**

### **7.6.1. Korxonani baholash**

Korxona to'g'risidagi axborot investorlar korxonaning ishonchliligi, uning bozordagi holati barqarorligiga ishonch hosil qilishlari uchun iloji boricha to'liq bo'lishi lozim. Korxonani tavsiflash uning yaratilish tarixi, tashkiliy-huquqiy shakli, davlat idoralarida ro'yxatdan o'tishi, xo'jalik aloqalari, eng yirik foydali loyihalari, menejmentning samaradorligi haqidagi ma'lumotlar va boshqalarni qamrab olishi lozim.

Korxona tavsifnomasi quyidagi savollarga to’liq javob berishi zarur:

- korxona tarixi, o’tgan davr mobaynida uning rivojlanishi;
- korxonaning asosiy egalari ro’yxati, ulardan har birining korxonaning asos topishi va faoliyat ko’rsatishidagi roli;
- korxona rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan hodisalar;
- korxonaning tashkiliy tuzilmasi va xodimlar haqidagi ma’lumotlar;
- mahsulotni sotishda tarixiy va joriy tendensiyalar;
- so’nggi uch yil mobaynida korxonaning texnik-iqtisodiy va moliyaviy ko’rsatkichlari;
- korxonaning asosiy yutuq va ustunliklari;
- sotuv hajmi dinamikasi;
- korxonaning bozordagi ulushi va uning tendensiyalari;
- korxona reklamasi va reklama imkoniyatlaridan foydalanish darajasi;
- korxonaning tashkiliy-huquqiy darajasi;
- korxona xarajatlari;
- moliyaviy-xo’jalik faoliyatida korxona oldida vujudga keluvchi muammolar;
- korxonaning kuchli va zaif tomonlarini baholash (mahsulot yoki xizmat sifati, sotuv imkoniyatlari, ishlab chiqarish xarajatlari darjasи, xodimlar malakasi va tajribasi, texnologiyalar darjasи, materiallar va butlovchi qismlarni yetkazib berish sharoitlari, menejment darjasи).

### **Marketing<sup>3</sup> konsepsiysi**

Marketing konsepsiysi yuqorida 24 ta “P” harfi bilan boshlanuvchi so’zlardan tashkil topgan. Odatda avvallari adabiyotlarda 4 R tushunchasi bilan atalardi, hozirgi kunga kelib bu tushuncha o’z mazmun va mohiyatini kengaytirgan bo’lib 24 taga oshgan.

---

3. G’ulomov S.S. Marketing asoslari. T: “Sharq”, 2002

4.

№	“R”	
1	<b>Product</b>	<b>Mahsulot</b>
2	<b>Price</b>	<b>Narx</b>
3	<b>Promotion</b>	<b>Mahsulotni harakatlantirish</b>
4	<b>Place</b>	<b>Joy</b>
5	<b>People</b>	<b>Sotuvchi va xaridorlar</b>
6	<b>Package</b>	<b>Qadoqlash</b>
7	<b>Purchase</b>	<b>Xarid</b>
8	<b>Personal</b>	<b>Personal</b>
9	<b>Process</b>	<b>Jarayon</b>
10	<b>Politics</b>	<b>Kompaniya siyosati</b>
11	<b>Public relation's</b>	<b>Ommalashhtirish</b>
12	<b>Plan</b>	<b>Rejalashhtirish</b>
13	<b>Power</b>	<b>Hukmronlik</b>
14	<b>Position</b>	<b>Joylashhtirish</b>
15	<b>Press</b>	<b>Pressa, OAV</b>
16	<b>Psychology</b>	<b>Psixologiya</b>
17	<b>Prestige</b>	<b>Prestij</b>
18	<b>Purpose</b>	<b>Maqsad</b>
19	<b>Presentation</b>	<b>Prezentatsiya</b>
20	<b>Provider's</b>	<b>Etkazib beruvchilar</b>
21	<b>Presage</b>	<b>Intuitsiya</b>
22	<b>Potential</b>	<b>Imkoniyatlar</b>
23	<b>Progress</b>	<b>Rivojlanish, yuksalish</b>
24	<b>Probe</b>	<b>Tadqiqot</b>

### **Talab elastikligi**

Ma'lumki, tovarga bo'lgan talab, uning narxiga, iste'molchi daromadiga va boshqa tovarlar narxiga bog'liqdir. Xuddi shunday, taklif tovar narxiga va tovarni ishlab chiqarish xarajatiga bog'liq.

Masalan, limonning narxi oshsa, unga talab kamayadi. Lekin, biz shu tovarga talabni yoki taklifini miqdoriy jihatdan o'sishi yoki kamayishini bilmoqchimiz. Agar limon narxi 15% ga oshsa, unga bo'lgan talab qanchaga o'zgaradi? YOki daromad

10% ga oshgandagi talab qanchaga o'zgaradi? Bunday savolga javob berish uchun, elastiklik tushunchasidan foydalanamiz.

Elastiklik - bir o'zgaruvchining boshqa bir o'zgaruvchi ta'siri ostida o'zgarishini o'lchaydigan o'lchov; aniqroq qilib aytganda, biror o'zgaruvchining bir foizga o'zgarishini natijasida boshqa bir o'zgaruvchining ma'lum foiz miqdorga o'zgarishini ko'rsatadigan sondir.

Bunga eng muhim misollardan biri bo'lib, narxga bog'liq bo'lgan talab elastikligidir. Bu elastiklik tovar narxining bir foizga o'zgarishi, unga bo'lgan talabning necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

Bu ko'rsatkichni to'liqroq ko'rib chiqamiz. Narxga bog'liq talab elastikligini quyidagiicha yozamiz:

$$E_p^D = \frac{(\Delta Q\%) }{(\Delta P\%)}, \quad (1)$$

bu yerda  $\Delta Q\%$  -  $Q$  ning foiz bo'yicha o'zgarishi;  $\Delta P\%$  -  $P$  ning foiz o'zgarishi.

Shuni eslatish lozimki, foiz o'zgarish, o'zgaruvchining absolyut o'zgarishini, o'zgaruvchining oldingi darajasiga nisbatidir, ya'ni:

$$\Delta Q\% = \frac{\Delta Q}{Q} \cdot 100\%; \quad \Delta P\% = \frac{\Delta P}{P} \cdot 100\%.$$

Demak,

$$E_p = \frac{\frac{\Delta Q}{Q} \cdot 100\%}{\frac{\Delta P}{P} \cdot 100\%} = \frac{P}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta P}. \quad (2)$$

Agar talab uzluksiz funksiya sifatida, ya'ni  $Q^D = f(P)$  ko'rinishida berilgan bo'lsa, uning elastiklik koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_p = \frac{\Delta Q}{\Delta P} \cdot \frac{P}{Q} = f'(P) \cdot \frac{P}{Q}.$$

Narxga bog'liq talab elastikligi manfiydir, ya'ni  $E_p < 0$ . Tovar narxi oshganda, unga talab kamayadi, shuning uchun  $\frac{\Delta Q}{\Delta P} < 0$ . (2) tenglamadan kelib chiqadiki, narxga bog'liq talab elastikligi, narxning tovar miqdoriga nisbatining  $\left(\frac{P}{Q}\right)$  birlik narxga

bog'liq talab elastikligi, narxning tovar miqdoriga nisbatining  $\left(\frac{P}{Q}\right)$  birlik narxga

to'g'ri keladigan tovar birligi o'zgarishiga  $\left(\frac{\Delta Q}{\Delta P}\right)$  ko'paytirishdan hosil bo'ladigan miqdorga teng. Lekin, talab egri chizig'i bo'yicha yurganda  $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$  o'zgarishi yoki o'zgarmasligi mumkin, narx va tovar miqdori esa har doim o'zgarib boradi. Demak, narxga bog'liq talab elastikligi talab chizig'ining alohida nuqtasida o'lchanadi va egri chiziq bo'yicha siljiganimizda, u o'zgarib boradi.

Real statistik ma'lumotlarga ko'ra, nuqtaviy va yoysimon elastiklik koeffitsientlarini aniqlash mumkin, **nuqtaviy elastiklik**

Talabning narxga ko'ra elastiklik koeffitsientini hisoblash formulasi:

$$E_D = \frac{\frac{Q_2^D - Q_1^D}{Q_1^D}}{\frac{P_2 - P_1}{P_1}}.$$

Taklifning narxga ko'ra elastiklik koeffitsientini hisoblash formulasi:

$$E_S = \frac{\frac{Q_2^S - Q_1^S}{Q_1^S}}{\frac{P_2 - P_1}{P_1}}.$$

Talabning narxga ko'ra yoysimon elastikligini hisoblash formulasi:

$$E_D = \frac{\left( \frac{(Q_2^D - Q_1^D)}{(Q_1^D + Q_2^D)/2} \right)}{\left( \frac{(P_2 - P_1)}{(P_1 + P_2)/2} \right)}.$$

Bu yerda  $Q_1^D$  va  $P_1$  talabning va tovar narxinining boshlang'ich qiymatlari,  $Q_2^D$  va  $P_2$  - talabning va tovar narxinining o'zgargan qiymatlari.

Yoysimon elastiklik hisoblanganda,  $Q^D$  va  $P$  larning bazis ko'rsatkichlari sifatida, ularning boshlang'ich va o'zgargan qiymatlarining o'rtacha qiymatlari olinadi.

*Misol.* Limonga bo'lgan talab 100 dona bo'lganda, har bir limon narxi 21 so'mni tashkil qiladi, talab 200 dona bo'lganda bir dona limon 180 so'm bo'ladi. Yoysimon elastiklik koeffitsientini hisoblaymiz.

$$Q_1^D = 100; \quad P_1 = 21; \quad Q_2^D = 200; \quad P_2 = 18.$$

$$E_D = \frac{\left( \frac{(200-100)}{(100+200)/2} \right)}{\left( \frac{(18-21)}{(21+18)/2} \right)} = -\frac{100}{150} = -\frac{0,67}{0,15} \approx -4,33,$$

demak, bitta limon narxi bir foizga tushganda, unga bo'lgan talab 4,33 foizga o'sadi.

Elastiklik koeffitsienti qiyatiga qarab talabni elastik, noelastik va birlik elastiklikka ega bo'lgan talablarga ajratish mumkin.

Agar talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti  $|E_D| > 1$  bo'lsa, talab elastik deyiladi.


Agar talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti  $|E_D| < 1$  bo'lsa, talab noelastik deyiladi.

Agar talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti  $|E_D| = 1$  bo'lsa, talab birlik elastiklikka ega deyiladi.

Misol tariqasida chiziqli talab funksiyasini qaraylik:

$$Q = a - b \cdot P.$$

Bu chiziqli funksiya uchun  $\frac{\Delta Q}{\Delta P} = -b$  bo'lib, u o'zgarmasdir. Lekin bu chiziq o'zgarmas elastiklik koeffitsientiga ega emas. 4.1-rasmdan ko'rinish turibdiki, agar biz chiziq bo'yicha pastga qarab yursak  $\frac{P}{Q}$  miqdor kamayib boradi, natijada elastiklik miqdori ham kamayadi.



**4.1-rasm. Chiziqli talab chizig'i.**

Chiziqli talab funksiyasining elastiklik koeffitsienti quyidagi teng:

$$E_p = -b \cdot \frac{P}{Q}.$$

Talab chizig'i narx o'qi bilan kesishganda  $Q \rightarrow 0$  va  $E_p = -\infty$  bo'ladi,  $Q = \frac{a}{2}$ ;


$P = \frac{a}{2b}$  da  $E_p = -b \cdot \left( \frac{\frac{a}{2b}}{\frac{a}{2}} \right) = -1$ . Talab chizig'i tovar miqdori o'qi bilan kesishganda

$P = 0$  va  $E_p = 0$ .


$\frac{\Delta Q}{\Delta P}$  - chiziqning tangens burchak yotiqligini beradi. Shu sababli, talab chizig'i

qancha tik bo'lsa, talab elastikligi shuncha kichik bo'ladi.

Quyidagi 4.2, 4.3-rasmlarda elastiklikning o'ziga xos alohida ko'rinishlari keltirilgan.



**4.2rasm. Talab absolyut elastik,  
elastikligi cheksiz bo'lganda  
talab chizig'i**



**4.3-rasm. Elastik bo'limgan  
talab chizig'i**

4.2-rasmda elastikligi cheksiz bo'lgan talab chizig'i keltirilgan. Bu holda yagona narx  $P^*$  bo'lib, iste'molchilar shu narxda mahsulot sotib olishadi. Narxni har qanday

kichik oshishi, talabni nolga tushiradi va narxning  $P^*$  darajadan har qanday kamayishi, talabni cheksiz oshib ketishiga olib keladi.

4.3-rasmdagi talab chizig'i mutlaqo elastik emas. Iste'molchilar narxdan qat'iy nazar belgilangan miqdorda  $Q$  tovar sotib olishadi.

*Misol.* Talabning daromadga ko'ra chiziqli funksiyasi berilgan bo'lsin:

$$Q^D = -30 + 3 \cdot R,$$

daromad  $R = 120$  bo'lganda, talabning daromadga bog'liq elastiklik koeffitsientini aniqlang.

Chiziqli funksianing elastiklik koeffitsientini aniqlash formulasiga ko'ra yozamiz:

$$E_D = \frac{dQ^D}{dR} \cdot \frac{P}{Q^D} = 3 \cdot \frac{120}{330} = 1,1.$$

Demak, daromad bir foizga oshganda, talab miqdori 1,1% ga oshadi.

*Misol.* Talabning chiziqli funksiyasi  $Q^D = 28 - 3 \cdot P$  ko'rinishga ega. Talab miqdori  $Q^D = 16$  bo'lganda, talab elastikligi koeffitsienti nechaga tengligini quyidagi tartibda aniqlaymiz, taklif  $Q^D = 16$  bo'lganda, narx darajasini aniqlaymiz,

$$16 = 28 - 3 \cdot P, \text{ bundan } P = 4.$$

Endi chiziqli funksianing elastiklik koeffitsientini aniqlash formulasiga ko'ra

$$E_D = \frac{dQ^D}{dP} \cdot \frac{P}{Q^D} = -3 \cdot \frac{4}{16} = -0,75$$

Demak, narx bir foizga oshsa, talab miqdori 0,75 foizga kamayadi.

Talab elastikligi narxdan tashqari, daromadga ham bog'liqdir. Ko'pgina tovarlarga talab, iste'molchilar daromadi oshganda oshadi. Daromad bo'yicha elastiklik, bu daromad  $R$  (*Revenue*)ni bir foizga o'zgarishi talab qilingan tovar  $Q$  ni necha foizga o'zgarishini bildiradi:

$$E_R^D = \frac{\Delta Q/Q}{\Delta R/R} = \frac{R}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta R}. \quad (3)$$

Tovarlar daromadga bog'liq talab elastikligiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: normal tovarlar, agar  $E_R > 0$  bo'lsa; yuqori kategoriyalı tovarlar, agar  $E_R > 1$  bo'lsa; quyi kategoriyalı tovarlar, agar  $E_R < 1$  bo'lsa.

### **Kesishgan talab elastikligi**

Bitta tovarga bo'lgan talabga boshqa bir tovarning narxi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pivo bilan vino ma'lum ma'noda bir birini o'rnini bosadi, agar vinoning narxi oshsa pivoga bo'lgan talab oshadi. Bunday bog'liqlikda talab o'zgarishiga narxga bog'liq kesishgan talab elastikligi deyiladi. Kesishgan talab elastikligi - bu boshqa tovarlar narxi bir foizga o'zgarganda, talab qilinadigan tovarga talabning necha foizga o'zgarishini bildiradi:

$$E_{Q_1/P_2} = \frac{\Delta Q_1/Q_1}{\Delta P_2/P_2} = \frac{P_2}{Q_1} \cdot \frac{\Delta Q_1}{\Delta P_2}, \quad (4)$$

bu yerda  $Q_1$  - birinchi tovar miqdori;

$P_2$  - ikkinchi tovar narxi.

Pivoning vino narxi  $P_b$  bo'yicha kesishgan elastikligi  $E_{Q_n/P_b}$  quyidagicha:

$$E_{Q_n/P_b} = \frac{\Delta Q_n/Q_n}{\Delta P_b/P_b} = \frac{P_b}{Q_n} \cdot \frac{\Delta Q_n}{\Delta P_b}$$

$Q_n$  - pivo miqdori; (vino narxi oshganda pivoga talab oshadi, demak pivoning talab chizig'i o'ngga siljiydi).

YUqorida keltirilgan misolda pivo bilan vino o'zaro bir-birini o'rnini bosadigan tovarlar bo'lgani uchun, narx bo'yicha kesishgan elastiklik musbatdir, ya'ni bittasining narxini oshishi ikkinchisiga talabni oshiradi. Lekin, har doim ham shunday bo'lavermaydi.

Ba'zi bir tovarlar, *to'ldiruvchi* tovarlar hisoblanadi va ular bиргаликда ishlataladi, shu sababli birortasining narxini o'sishi, ikkinchi tovar iste'molini kamaytiradi. Bunga

misol tariqasida benzin bilan avtomobil motori yog'ini olish mumkin. Agar benzin narxi oshsa, benzin iste'moli kamayadi, nima uchun deganda, avtomobil haydovchilar mashinada kamroq yura boshlaydi. Ammo, motor moyiga ham talab kamayadi (Motor moyiga talab egri chizig'i chap tomonga siljiydi). Shunday qilib, motor moyining benzinga nisbatan elastikligi manfiydir. Yana bir eslatib o'tamiz, bozor talabining asosiy determinantlari, ya'ni talab chizig'i holatini o'zgartiruvchi, yoki talabdagi o'zgarishni keltirib chiqaruvchi determinantlar quyidagilar: iste'molchining didi va afzal ko'rishi; bozordagi iste'molchilar soni; iste'molchilar daromadi; bir-birini o'rnini bosuvchi, to'ldiruvchi tovarlar; keljakda bo'ladigan narx va daromadlarga nisbatan iste'molchining kutishi.

### **Taklif elastikligi**

Taklifning narx bo'yicha elastikligi - bu narxning bir foiz o'zgarishiga javoban, taklif qilinadigan tovarning miqdorini foiz bo'yicha o'zgarishini bildiradi. Bunday elastiklikning qiymati musbat bo'ladi, nima uchun deganda, ishlab chiqaruvchilar uchun yuqori narx, ularni ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga rag'batlantiradi.

$$E_p^T = \frac{\Delta Q^S / Q^S}{\Delta P / P} = \frac{P}{Q^S} \cdot \frac{\Delta Q^S}{\Delta P},$$

bu yerda  $Q^S$  - tovar taklifi;  $P$  - tovar narxi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra taklif elastikligi quyidagicha hisoblanadi:

$$E_p^T = \frac{Q_2^S - Q_1^S}{Q_1^S} : \frac{P_2 - P_1}{P_1}.$$

Bu yerda ham, taklif elastikligi ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha qaralishi mumkin: foiz stavkasi; ish haqi; xom ashyo, yarimfabrikatlar narxi. Masalan, ko'pgina sanoat mahsulotlari uchun xom ashyo, yarim fabrikatlar narxiga nisbatan taklif elastikligi manfiydir. Xom ashyo narxining oshishi firmalar xarajatlarining oshishini bildiradi, shu sababli boshqa shart-sharoitlar o'zgarmaganda taklif qilinadigan mahsulot miqdori kamayadi.

Taklif chizig'i holatini siljishiga olib keladigan determinantlar quyidagilar: resurslar narxi; ishlab chiqarish texnologiyasi; soliq va dotatsiyalar; boshqa tovarlar narxi; narx o'zgarishini kutish; bozordagi sotuvchilar soni.

### **Bozor sharoiti o'zgarishlarining oqibatlarini baholash va prognoz qilish**

Bu yerda chiziqli taklif va talab chiziqlari yordamida qanday qilib oddiy hisob-kitoblar qilinishini qarab chiqamiz. Buning uchun, bozor ma'lumotlariga muvofiq talab va taklifning chiziqli grafiklarini chizishni qarab chiqishimiz kerak. (Biz hozir, statistik usullar orqali quriladigan chiziqli regressiya, tenglamalarni hisoblashni qaramaymiz.) Faraz qilaylik, biror tovar uchun ikkita miqdor berilgan bo'lsin: tovar narxi va uning miqdori, bu ko'rsatkichlar bozorda muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi (bu ko'rsatkichlar bozorda o'rtacha ko'rsatkich bo'lib, bozordagi muvozanatlik holatida aniqlangan, yoki bozordagi shart-sharoitlar turg'unlashgan davrdagi ko'rsatkichlar bo'lsin). Bu ko'rsatkichlarni muvozanat ko'rsatkichlar deb qaraymiz va quyidagicha belgilaymiz: muvozanat narx  $P^*$ , muvozanat tovar miqdori  $Q^*$ . Berilgan tovarning muvozanat nuqta yoki uning atrofidagi narx bo'yicha taklif va talab elastikligini mos ravishda  $E_s$  va  $E_D$  harflari bilan belgilaymiz.

Bu ko'rsatkichlarning, ya'ni  $P^*, Q^*, E_s$  va  $E_D$  son miqdori, faraz qilaylik, statistik hisob-kitoblar orqali aniqlangan va ular asoslangan bo'lsin. Berilgan ma'lumotlar asosida taklif va talab chiziqlarini quramiz. Taklif va talab chiziqlari yordamida, talab va taklif miqdorining siljishlarini, narxning o'zgarishini, berilgan tovar miqdorining boshqa tovar narxiga nisbatan o'zgarishini va hokazolarni hisoblash mumkin.


Talab va taklifning grafigini chizamiz (4.4-rasm).

Talab va taklif tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$\text{Talab: } Q^D = b_0 - b_1 \cdot P \quad (5)$$

Taklif:  $Q^S = a_0 + a_1 \cdot P$  (6)

Asosiy muammo, berilgan tenglamalardagi o'zgarmaslar  $a_0, a_1, b_0, b_1$  qiymatlarini aniqlashdan iborat. Bu o'zgarmaslarni tanlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.



**4.4-rasm. Talab va taklifning eksperimental yo'l bilan chizilgan grafigi.**

Birinchi bosqich. Talab va taklifning narx bo'yicha elastikligini eslaymiz:

$$E = \frac{P}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta P},$$

bu yerda  $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$  - narxning bir birlik o'zgarishiga to'g'ri keladigan talab yoki taklifning miqdoriy o'zgarishi. Chiziqli bog'lanishlarda  $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$  nisbat o'zgarmas miqdor bo'ladi. (5)

va (6) tenglamalardan ko'rinish turibdiki, taklif uchun bu nisbat  $\frac{\Delta Q}{\Delta P} = a_1$ , talab uchun esa  $\frac{\Delta Q}{\Delta P} = -b_1$ . Endi bu qiymatlarni, ya'ni  $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$  ni elastiklik formulasiga qo'yamiz:

$$\text{Taklif: } E_S = a_1 \cdot \left( \frac{P^*}{Q^*} \right) \quad (7)$$

$$\text{Talab: } E_S = -b_1 \cdot \left( \frac{P^*}{Q^*} \right). \quad (8)$$

Bu yerda  $P^*$  va  $Q^*$  lar muvozanat narx va muvozanat tovar miqdori bo'lib, ular berilgan. Biz  $E_s, E_d, P^*, Q^*$  ko'rsatkichlarning qiymatlariga ega bo'lганимиз учун, уларни (7) ва (8) tenglamalarga qo'yishimiz mumkin. Demak, biz shu yo'l bilan  $a_1$  va  $b_1$  larning qiymatlarini hisoblaymiz.

Ikkinchi bosqich. Endi  $a_1$  va  $b_1$  larning qiymatlarini va  $P^*$  va  $Q^*$  larni (5) ва (6) tenglamalarga qo'yib  $a_0$  va  $b_0$  larning qiymatini topamiz:

$$a_0 = Q^* - a_1 \cdot P^*; \quad b_0 = Q^* + b_1 \cdot P^*.$$

*Misol.* Apelsinning narx bo'yicha taklif va talab elastiklik koeffitsientlari  $E_s$  va  $E_d$  berilgan. Apelsinning bozordagi ko'rsatkichlari quyidagiicha:

$$Q^* = 7,5 \text{ т/йил}, \quad P^* = 75 \text{ со'm (1kg)}, \quad E_s = 1,6; \quad E_d = -0,8$$

Birinchi bosqich. Berilgancharni (7) tenglamaga qo'yib  $a_1$  ni topamiz.

$$1,6 = a_1 \cdot \left( \frac{75}{7500} \right) = 0,01 \cdot a_1, \quad \text{бундан } a_1 = \frac{1,6}{0,01} = 160.$$

Ikkinchi bosqich.  $a_1$  ning qiymatini  $P^*$  va  $Q^*$  larning qiymati bilan birga (5) tenglamaga qo'yib,  $a_0$  ni aniqlaymiz:

$$7500 = a_0 + 160 \cdot 75 = a_0 + 12000,$$

бундан,  $a_0 = 7500 - 12000 = -4500$ . Biz aniqlangan  $a_0$  va  $a_1$  larning qiymatini taklif tenglamasiga qo'yib, taklifning aniq tenglamasini topamiz:

$$\text{Taklif: } Q_s = -4500 + 160 \cdot P.$$

Xuddi shu yo'l bilan talab tenglamasini aniqlaymiz:

$$-0,8 = -b_1 \cdot \left( \frac{75}{7500} \right) = -0,01 \cdot b_1,$$

демак,  $b_1 = \frac{0,8}{0,01} = 80$ .  $b_1$ ,  $P^*$ ,  $Q^*$  larning qiymatlarini (6) tenglamaga qo'yamiz va  $b_0$  ni aniqlaymiz:

$$7500 = b_0 - 80 \cdot 75 = b_0 - 6000, \quad \text{yoki } b_0 = 7500 + 6000 = 13500.$$

Shunday qilib, talab chizig'i quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\text{Talab: } Q_d = 13500 - 80 \cdot P.$$

Xatoga yo'l qo'yilmaganligini tekshirish uchun talab bilan taklifni tenglashtirib, muvozanat narxni aniqlaymiz:

$$Q_s = Q_D, \quad 4500 + 160 \cdot P = 13500 - 80 \cdot P,$$

$$240 \cdot P = 18000, \text{ bundan } P = \frac{18000}{240} = 75, \quad P = 75,$$

demak, tenglamalar to'g'ri aniqlangan, nima uchun deganda, 75 so'm berilgan muvozanat narx.

Endi biz bozorda apelsin narxi o'zgarganda unga bo'lgan talabni yoki taklifni o'zgarishini yoki bo'lmasa unga bo'lgan talab yoki uni taklifi o'zgarganda apelsin narxini qanchaga o'zgarishini prognoz qilishimiz mumkin bo'ladi.


Masalan, apelsinga bo'lgan talab 40 foizga oshdi deylik, unda talab miqdori 7800 kg teng bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilar qaysi narxda ushbu talabni qondirishi mumkinligini aniqlaymiz.

Muvozanatlik shartiga ko'ra quyidagini yozamiz:

$$7800 - 4500 - 160 * P,$$

$$P \approx 76,875.$$

Demak, bir kilogramm apelsin narxi 76 so'm 90 tiyin bo'lsa, talab qondirilishi mumkin.



**Talabning narx bo'yicha elastikligi yordamida daromadlarni tahlil qilish.**

Tahlilni chiziqli talab funksiyasi yordamida ko'rib chiqamiz.

Umumiy holdagi talab chiziqli funksiyasi berilgan bo'lsin (4.5-rasm).

$$Q^D = a - b \cdot P \quad (1)$$

Elastiklikning ta'rifiga ko'ra:

$$E_p = Q_p \cdot \frac{P}{Q} = -b \cdot \frac{P}{a - b \cdot P} = -\frac{P}{\frac{a}{b} - P} = -\frac{LG}{AF} = -\frac{LC}{AL}.$$

Shunday qilib,  $L$  nuqta talab chizig'i bo'yicha  $A$  nuqtadan  $C$  nuqtaga harakat qilganda, talab elastikligi kamayadi. U har doim manfiy, absolyut qiymati bo'yicha  $LC$  kesmaning  $AL$  kesmaga nisbatiga teng va  $AC$  chiziqning o'rtasida birga teng.

4.6-rasmning pastki qismida daromadning narxga bog'liqligi ko'rsatilgan.

$$R = Q \cdot P(Q). \quad (2)$$

Bu funksiya kvadratik funksiya bo'lib, u o'zining maksimumiga [0C] kesmaning o'rtasida erishadi:

$Q^D = a - b \cdot P$  funksiyadan  $P$  ni topsak,  $P = \frac{a - Q^D}{b}$  bo'ladi va  $P$  ni (2) formulaga qo'yamiz. Natijada ishlab chiqarish hajmi  $Q$  dan bog'liq daromad funksiyasini olamiz:

$$R = Q \cdot \frac{a - Q^D}{b} = \frac{Q \cdot a}{b} - \frac{Q^2}{b}.$$

Bu funksiyaning kritik nuqtasini topamiz, ya'ni daromadni maksimal qiladigan  $Q$  ni topamiz (buning uchun daromad funksiyasidan  $Q$  bo'yicha hosila olib nolga tenglashtirib,  $Q$  ga nisbatan yechib, daromadni maksimallashtiradigan  $Q^*$  ni topamiz):

$$\frac{dR}{dQ} = \frac{a}{b} - 2Q \cdot \frac{1}{b} = 0,$$

yoki  $Q^* = \frac{a}{2}$  da daromad maksimal qiymatga erishishga ishonch hosil qilamiz.

Haqiqatdan ham 4.6-rasmida, talab  $AB$  oraliqda elastik ( $E_D > 0$ ) va bu oraliqda talab miqdorining oshishi va narxning kamayishi daromadni oshib borishiga, talab elastik bo'limgan  $BC$  oraliqda daromad miqdorining kamayib borishiga olib keladi.

Shunday qilib, agar talab elastik bo'lmasa, narxning o'sishi daromadni o'sishiga, kamayishi, daromadni kamayishiga olib keladi va bunday xolda sotuvchilar faqat narxni oshirish orqali daromadni oshirishi mumkin. Talab elastik bo'lganda, daromadning o'zgarishi narxning o'zgarishiga teskari bo'ladi va sotuvchilar bu holda narxni pasaytirish orqali daromadni oshirishlari mumkin. Talab elastik bo'lganda, narxning pasayish sur'atidan talabni oshish sur'ati yuqori bo'ladi, natijada daromad oshadi. Talab elastik bo'limganda ( $E_D < 1$ ) narxning pasayish sur'ati, talabning o'sish sur'atidan yuqori bo'ladi, bu o'z navbatida daromadni pasayishiga olib keladi.

Masalan, yil yaxshi kelib fermerlar yuqori hosil olganda, ularning daromadi kamayib ketadi, nima uchun deganda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab elastikligi ancha past.

Xuddi shunday, byudjet daromadini oshirish maqsadida, davlat korxonalarini mahsulotlarining narxi oshirilsa, agar ushbu mahsulotlarga talab elastik bo'lmasa, davlat byudjetiga tushadigan mablag' kamayishi mumkin. Temir yo'l transporti chiptalari narxi oshirilsa, chiptalarga bo'lgan talabni kamaytiradi. (Ma'lumki, temir yo'l chiptalariga bo'lgan talab elastik emas.)

**Misol.** Faraz qilaylik, bug'doyga bo'lgan talab funksiyasi quyidagi ko'rinishda berilgan bo'lsin:

$$Q_D = 4000 - 250 \cdot P,$$

bu yerda  $P$  - bir pud bug'doy narxi;

$Q_D$  - bug'doyga bulgan talab hajmi, mln. pud.

- a) sotuvchi daromadini maksimallashtiruvchi sotiladigan bug'doy hajmi  $Q$  aniqlansin.

Echish. Masalani yechish uchun teskari talab funksiyasini aniqlaymiz:

$$P = 16 - Q \frac{1}{250}.$$

Sotuvchining daromad funksiyasini tuzamiz:

$$R = P \cdot Q = \left( 16 - Q \frac{1}{250} \right) \cdot Q = 16Q - \frac{Q^2}{250}.$$

Daromad funksiyasidan  $Q$  bo'yicha hosila olib, natijani nolga tenglashtirib yechamiz.

$$\frac{dR}{dQ} = 16 - \frac{2Q}{250} = 0.$$

$$Q^* = 4000 : 2 = 2000 \text{ mln. pud.}$$

Demak, sotuvchi daromadini maksimallashtiruvchi sotiladigan bug'doy hajmi  $Q^* = 2000$  mln. pudga teng ekan.

Bir pud bug'doy narxi:

$$P = 16 - 8 = 8 \text{ pul birligiga teng.}$$

Umumiy daromad  $R = 2000 \cdot 8 = 16000$  pul bir ligi.

Faraz qilaylik, sotuvchi sotiladigan bug'doy hajmini 250 mln. pudga oshirdi deylik. Uning daromadi qanday bo'lishini hisoblaymiz.

Sotiladigan bug'doy hajmi 2250 mln. pud. U holda bir pud bug'doy narxi

$$P = 16 - \frac{2250}{250} = 7$$

pul birligiga teng.

Umumiy daromad

$$R = 2250 \cdot 7 = 15750 \text{ pul birligiga teng.}$$

Ko'riniib turibdiki, sotuvchi sotiladigan bug'doy hajmini optimal hajmdan oshirsa, uning daromadi maksimal daromaddan past bo'ladi.

Xuddiy shunday, sotuvchi optimal hajmdan kamroq hajmda bug'doy sotsa ham, uning umumiy daromadi kamayadi. Bu holni o'quvchi tekshirib ko'rib ishonch hosil qilishi mumkin.

Tashqi muxitga munosabati nuqtai nazaridan korxona tahlilini amalga oshirish uchun samarali vosita sifatida SWOT - tahlilini amalga oshirishni tavsiya etish mumkin.

SWOT -quyidagi larni bildiradi: S - **Strength** (kuchli tomonlar); W-  
**Weakness** (zaif tomonlar); O - **Opportunities** (imkoniyatlari); T- **Threats** (xavflar).

SWOT -tahlili korxonaning kuchli va zaif tomonlari tahlilini, mumkin bo'lgan xavf-xatarlar muxitini o'rganish va bashorat qilishni (prognozlash), zararni oldini olish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishni, korxonaning strategik va joriy (taktik) imkoniyatlari tahlilini, xavflarni oldini olish, zaif tomonlarni qisqartirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqishni, korxonaning kuchli tomonlarini mustahkamlash va imkoniyatlarni kengaytirishni ko'zda tutadi. Baholashning mukammalligi va uning biznes-rejada detallashtirish darajasi tahlilning yo'naltirilishiga (kimga va nima uchun) va maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

SWOT -tahlilning asosiy g'oyalarini tushunarli bo'lishi uchun olingan natijalarni jadval shaklidá aks ettirish maqsadga muvofiq.

SWOT -tahlilning mazmunini quyidagi 7.6.2-rasmida ko'rish mumkin.

S - strength. Kuchli tomonlar	W - Weakness. Zaif tomonlar
Sizda hamma narsadan ham yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan barcha tomonlarni o'z ichiga oladi. Masalan: sizning mahsulotingiz raqobatchilarниidan yaxshi va do'konining qulay joyda joylashgan. Ayni vaqtida sizning ishchi va xizmatchilaringizning malakasi yuqoridir.	Sizning biznesingizning zaif tomonlarini aks ettiradi. Masalan: sizning mahsulotlaringiz raqobatchilarниiga nisbatan qimmatroq, mahsulotingizni reklama qilish uchun etarli mablag'ingiz yo'q yoki raqobatchilaringiz ko'rsatayotgan xizmatlardek xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega emassiz

O - Opportunities. Imkoniyatlar	T - Threats. Xavflar
<p>Sizning xududingizda joylashgan va biznesingizga xizmat qilishi mumkin bo'lgan barcha omillar imkoniyatlarni tashkil etadi. Masalan: Sizni do'konningizga o'xshagan do'kon tumaningizda boshqa bo'limganligi sababli sizning mahsulotningiz tobora ommalashib bormoqda yoki yangi firmalar ko'plab ochilganligi uchun mijozlaringiz soni ortishi mumkin.</p>	<p>Sizning atrofingizda joylashib, sizni biznesingiz rivojiga salbiy ta'sir o'tkazayotgan barcha omil va vositalar-xavflardir.</p> <p>Masalan: xuddi shunday mahsulot chiqarayotgan firmalar mavjudligi yoki savdo bo'yicha soliqlar oshirilishi mumkin, unda mahsulotningiz narxi ko'tariladi, siz esa mahsulotningiz qachongacha ommabop bo'lib turishini bilasiz.</p>

***Marketing<sup>4</sup> asosida tuzilgan biznes reja quyidagilarni o'z ichiga olishi shart.***

**S-(spesific)- maqsad aniq, konkret bo'lishi lozim**

**M-(measure)- o'lchanishi mumkin bo'lgan**

**A-(achievable)- erishish imkoniyati chegarasida**

**R-(realistic)- eng muhim, zarur ehtiyojlar**

**T-(Time bound)- davr talabiga mos**

**Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish va SWOT xamda PEST taxlilini ishlab chiqish.**

Marketing tadqiqotlari turli xil marketing muammolari, shu jumladan, bozor rivojlanishining o'lchamlari va tendensiyalari, u yoki bu marketing holatlariga javob reaksiyalari, shuningdek, fermer xo'jalikning bozor rivojlanishi va marketingni boshqarish haqidagi ma'lumotlarni sistemali yig'ish, tartibga solish va tahlil qilish tushuniladi. Tadqiqotlarning yo'nalishlari doim kengayib boradi. Biroq quyidagi yo'nalishlardagi tadqiqotlar eng muhim bo'lib hisoblanadi:

---

5. G'ulomov S.S. Marketing asoslari. T: "Sharq", 2002

6.

- 1. Bozor sig'imi va uning potensiali.*
- 2. Aholi daromadlari.*
- 3. Iste'molchilarning xatti-harakatlari va motivatsiyasi.*
- 4. Bozor ulushlarining fermer xo'jaliklar o'rtasida taqsimlanishi.*
- 5. Reklama, uning samaradorligi.*
- 6. Narx siyosati va narx egiluvchanligi.*
- 7. Axborot oqimlari.*
- 8. Tovar harakati kanallari.*
- 9. Ishfaolligining tendensiyalari.*
- 10. Qonunchilik tomonidan tartiblashtirish va cheklashlar.*
- 11. O'tkaziladigan tadqiqotlarning uslubiyatlari.*
- 12. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalari.*
- 13. Mahsulot va fermer xo'jaliklarning raqobatbardoshligi.*
- 14. Jamoat ahamiyatliligi va aloqalari.*
- 15. Marketing infrastrukturasi.*

Ko'rinib turibdiki, bozor rivojlanishining tendensiyalari va jarayonlari, uning sig'imi, sotilishlar dinamikasi, raqobatchilar faoliyatni, ijobiy tomonlari va xavf-xatarlar tadqiq qilinadi. Iste'molchilarni o'rganish ular xatti-harakatlarining sabablarini aniqlashga imkon beradi. Tovar tadqiqotlari korxona mahsulotining raqobatbardoshligini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, rag'batlantirish va reklamaning samaradorligi, taqsimlash kanallarining harakatchanligi o'rganiladi. Fermer xo'jaligining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash marketing tadqiqotlarining muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda. (1-jadval)

**“Istiqlol-Shukurova G.N.” fermer xo’jaligining SWOT taxlili**

<b>S</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xududi va yer fondi katta</li> <li>- Shaxarga yaqin va qulay joyda joylashgan</li> <li>- Rivojlanishi uchun barcha sharoitlar mavjud</li> </ul>
<b>W</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Maxsulot turi kam</li> <li>- YAngi tashkil etilgan fermer xo’jalik</li> <li>- Moddiy texnika bazasi yetarli darajada emas</li> </ul>
<b>O</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Katta texnikalarni sotib olish imkoniyati bor</li> <li>- Imkoniyatlari xar tomonlama keng</li> <li>- Ishchilarini malakasini oshirishga yuborish imkoniyati bor</li> </ul>
<b>T</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Mineral o’g’itlarni vaqtida yetkazib berilmasligi</li> <li>- Chorva mollariga kasalliklar tarqalishi</li> <li>- Tabiiy ofatlar</li> </ul>

Ma’lumki, har qanday fermer xo’jaligining faoliyati tashqi muhit omillari ta’sirida amalga oshiriladi. Bu omillar ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, siyosiy omillarga bo’linadi. (2-jadval)

### **“Istiqlol Shukurova G.N.” fermer xo’jaligining PEST taxlili**

<b>P</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Fermer xo’jaligini rivojlantirishda joriy qilinayotgan qonunlar</li> <li>- Kelajakdag'i qonunlarning o'zgarishlari bo'lish extimoli</li> <li>- Davlat tomonidan fermer xo’jaligini nazorat qilinishi</li> <li>- Fermer xo’jaliklarini davlat tomonidan optimallashtirilishi va kengaytirilishi</li> </ul>
<b>E</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- fermer xo’jaligining iqtisodiy xolati</li> <li>- xo’jalikning davlat tomonidan imtiyozli kreditlar bilan ta’milanishi</li> <li>- fermer xo’jaliklar bilan iqtisodiy aloqasi</li> <li>- fermerning rentabelligi oshishi</li> </ul>
<b>S</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- fermer xo’jalikning ijtimoiy fondlarni tashkil qilishi</li> <li>- jamoatchilik bilan aloqasi</li> <li>- xayriya jamg’ armalarini tashkil etishi</li> </ul>
<b>T</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- fermer xo’jaligining lizingdan foydalanish imkoniyati</li> <li>- yangi texnologiyalarni joriy etishi</li> <li>- tadqiqotlarni moliyalashtirishi</li> <li>- maxsulotlarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etishi</li> </ul>

Yig’indida ularning tijorat faoliyati natijalariga ta’sir etib, ko’p jihatdan kelajakdag'i istiqbolini belgilaydi.

#### **7.6.2. Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish**

Ishlab chiqarishni boshqarish-xodimlarni boshqarishdir, ular o’z navbatida mehnat vositalarini boshqaradilar. Xodimlarni boshqarish-kishilarning o’zini boshqarishgina emas, balki ularning ishlab chiqarish (transport xizmati ko’rsatish) dagi munosabatlariga tasir etish hamdir.

Ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) ni tezkor boshqarish biznes-rejaning ichki taktik rejaning organik qismi va yakunlovchi bosqichi bo'lib, strategik rejani uzil-kesil aniqlashtiradi va uni oylik, haftalik, kunlik yoki smenali topshirig'i sifatida har bir bajaruvchiga yetkazib beradi.

Ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning muhim vazifasi barcha bo'linmalarning muntazam ishlashini taminlash maqsadida kundalik hisoblab borishdan, olingan axborotlarning tahlili natijalariga qarab ish joylarining faoliyatini tezkor boshqarishdan iborat.

Ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning bir necha tizimlari bor: bo'linmalararo va bo'linmalar ichida ishlab chiqarishni tezkor boshqarishdir. Ularning faoliyati tashkil etiladi, rejalashtiriladi, o'zaro ta'sirlari muvofiqlashtiriladi, nazorat qilinadi.

Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish tashkilotning ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qilishning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Uning asosiy element (unsur)lari: nematlar,boshqarish ob'ekti, ishlab chiqarish mahsuloti, javob qaytarish ma'lumoti, solishtirish, tuzatish kiritish omili.

### **7.6.3. Mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni rejalashtirish**

Agar ishlab chiqarish deganda mahsulotlar chiqarishni va xom-ashyoni qayta ishlashni tushunilsa, "operasiya" deganda kengroq, yani "ishlab chiqarish" va plyus xizmat ko'rsatish tushuniladi. Shuning uchun ishlab chiqarishni rejalashtirganda barcha ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmini o'zgarishi operasion tizim hajmini ham o'zgartiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasidagi ishlab chiqarish xarakatlaring barcha turining qiymatiga ta'sir etadi: saqlash, mahsulot portfeli (hajmi), bekor turib qolish, subpodryad.

Ishlab chiqarishni yiriklashtirilgan rejalashtirishning maqsadi operasion tizimdagagi mahsulotlar va xizmat ko'rsatishlarga bo'lgan barcha talablarni umumiy yig'indisi minimal holda qondirishdir. Optimal strategiya muayyan operasion tizim uchun uning tavsifi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning umumiy hajmini strategik rejalashtirishda uchga bo'lib qaraladi: o'zgarmas ishchi kuchida o'zgarmas ishlab chiqarish hajmi; o'zgarmas ishchi kuchida o'zgaruvchan hajmda mahsulot ishlab chiqarish; o'zgaruvchan ishchi kuchida o'zgaruvchan hajmda mahsulot ishlab chiqarish.

#### **7.6.4. Zahiradagi materiallarni boshqarish**

Zahiradagi materiallar barcha mahsulot ishlab chiqarish operasiyali tizimlarda va ko'pgina xizmat ko'rsatadigan sohalarning tizimlarida malum kafolat (zahira) uchun ne'matlar bo'ladi. Masalan, elektrolampochka.

Kafolatda materialni saqlashdan maqsad-ne'matlarni jo'natuvchidan yetkazib berish oralig'ida uzilish darajasini kamaytirish va muntazam ishlashni taminlash.

Zahirani boshqarishdan maqsad-xarajatlarni kamaytirish. Masalan, sotib olinadigan materiallar qiymati, buyurtmalarini rasmiylashtirishdagi xarajatlar, saqlash xarajatlari, uzilishdan kelib chiqadigan xarajatlar.

#### **7.6.5. Loyihalarni boshqarish**

Loyihalashning bajarilishida loyixa (bu masalalar va omillar yig'indisi, ular orqali maqsadga erishiladi) larning mezonlari va tanlov jarayonlariga, ishlab chiqarish tizimining zamонави rivojlanish darajasiga katta ahamiyat berilishi lozim.

Buyumlarni loyihalash mezonlari: qiymat, foydalanishning foydaliligi, sifat, o'lcham, quvvat, xizmat muddati, foydalanishda ishonchlilik, xizmat ko'rsatishga talablari, uni qulayligi, foydalanishda havfsizligi.

Loyixalash variantlarini tanlash: o'lchamlari va shakllari, materiallari, havfsiz unsurlari va hokazolar.

Ishlab chiqarish jarayonini loyihalash mezoni: unumdorlik, ishonchlilik, tamirlashga yaroqlilik, ishchilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish va shu kabilar.

Ishlab chiqarish jarayonlarining variantlarini tanlash: qayta ishlash tizimining turlari (loyixalash tizimi, kichik hajmda ishlab chiqarish, ommoviy ishlab chiqarish,

muntazam ishlab chiqarish, kombinasiyalari); o'zi ishlab chiqarishi yoki buyumlarini tashqaridan olib to'ldirish; qayta ishlash usullari; mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi; ishchi joyini ixtisoslanishi.

#### **7.6.6. Loyihalarni boshqarish usullari**

Loyihalarni boshqarish usullari quyidagilar: tanglik yo'li, ishni bajarilishini nazorat qilish, loyihalash an'analari. Tanglik usulida alohida hodisa va ish tarmog'i sifatida qaraladi. Bu tizimda ishlar loyihaning har qanday unsuri bo'lib, uni bajarilishiga vaqt talab qiladi. "PERT" usuli operatsiyalarning davom etish muddatiga no'malumlikka imkon beradi va butun loyixa bo'yicha ishlarning davom etishida bu noaniqlikning ta'sir etishi tahlil qilinadi.

Ishni bajarilishini nazorat qilishda ishning rejasiga suyaladi. Bunda ish yo'nalishi, xarajatlar va sifatning xususiyatlari hisobga olinadi. Loyihaning amalga oshirilishini tezkor boshqarishdagi muhim tamoyili, bu loyiha bo'yicha ishni bajarilishini samarali nazorat qilish uchun uning to'liq rejasini kerak.

Loyihalarni boshqarish usullarini loyihalashtirishdagi an'analardan biri loyihalarni boshqarishda EHM va Internetlardan foydalanishdir.

#### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar.**

1. Biznesning strategik turlariga tushuntirish berilsin.
2. Firmaning xo'jalik yuritishdagi tamoyillari sanab o'tilsin.
3. Firmaning strategiyasini aniqlash sohalari tushuntirilsin.
4. Etalonli strategiyaning birinchi guruh yondashishi nimalarni anglatadi?
5. Firmaning etalonli strategiyasining ikkinchi guruh yondashishi nimalarni bildiradi?
6. Biznesning diversifikasiya qilingan strategiyasiga nimalar kiradi?
7. Firma strategiyasini aniqlash bosqichlari nimalardan iborat?
8. Firma strategiyasini tanlash qanday amalga oshiriladi?
9. Firma strategiyasining bajarilishida inson salohiyatining tutgan o'rni qanday?

10. Zamonaviy korxonaning foydalaniladigan asosiy resurslari va vazifalari sanab o'ting.
11. Tashkilotni boshqarishda mehnatni taqsimlash jarayoni qanday kechadi?
12. Tashkilotni boshqarish vazifalarining tarkibi keltirib o'ting.
13. Tashkilotdagi ishni loyixalashning vazifalarini o'zaro bog'liqligi uning tuzilishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
14. Tashkilotdagi ishni loyihalashda nimalarga rioya qiladilar?
15. Tashkilotdagi ishni qurish deganda nimalar anglanadi?
16. Ishlab chiqarish jarayonini tezkor boshqarish mavzusi nima maqsadda menejment fani tarkibiga kiritilgan?
17. Tashkilotdagi mahsulotni ishlab chiqarish faoliyatining to'la tizimi tushuntirilsin, yani operatsiyali tizimga tavsif bering.
18. Tashkilotdagi loyihalarni boshqarish deganda nimani anglaysiz?
19. Tashkilotdagi loyihalarni boshqarish usullariga tavsif bering.
20. Ishlab chiqarishni boshqarishda sifatni taminlash nima uchun zarur?

## **8-mavzu. Ishlab chiqarishni boshqarishda kafolat va sifatni taminlash.**

### **8.1. Kafolatdagi materiallarni boshqarish**

Kafolatdagi materiallar barcha mahsulot ishlab chiqaradigan operatsiyali tizimlarda va ko'pgina xizmat ko'rsatadigan sohalarning tizimlarida ma'lum kafolatlangan ne'matlar bo'ladi. Masalan, elektr lampochkalari kafolatda bo'lishi kerak.

Kafolatdagi materiallarni tayinlash asosan uch toyifaga bo'linadi:

- boshlang'ich materiallarning kafolati;
- tugallanmagan ishlab chiqarishning kafolati;
- tayyor mahsulotlarning kafolati. Bular tezkor eguluvchan boshqarishni ta'minlaydilar. Kafolatlarning borligi iqtisodiy jihatdan qulay hajmda mahsulotlarni xarid qilish yoki tovar ishlab chiqarish imkonini beradi.

**b.** Kafolatlarni va xarajatlarni boshqarishdagi yechimlar, ya'ni boshqarishda qabul qilinadigan yechimlar ishlab chiqarish xarajatlarining to'rt turiga aynan ta'sir ko'rsatadi:

- buyurtmalarning muddati va miqdori sotib olinadigan buyumlarning qiymatiga ta'sir qiladi;
- buyurtmalarni rasmiy lashtirishdagi xarajatlar;
- moddiy – texnik kafolatlarni saqlashdagi xarajatlar;
- kafolatlarning yo'qligidagi kelib chiqadigan xarajatlar.

Korxona uchun moddiy – texnik kafolatlarni boshqarish benihoya muhim axamiyat kasb etadi.

### **8.2. Ishlab chiqarishni boshqarishda sifatni ta'minlash**

Ishlab chiqarishni boshqarishda sifatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari:

- iste'molchining talabi – mahsulot – ishlab chiqarish jarayoni;

- sifatning faoliyat ko'rsatishi – mahsulot (yoki xizmat ko'rsatish)ning sifati – texnik sharoitlarga mos ravishda sifat.

Sifatni tashkiliy ta'minlashda maqsadlarni aniqlash muhimdir. Bunda sifatning standartlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sifatni nazorat qilishda tanlov nazorat o'tkazish va texnologik jarayonning nazorat xaritasi qo'llaniladi. Sifatni boshqarishda dempingning yondashuvi, sifat to'garagi, "sifat uchun to'lanmaydi" kabi yuqori samarali dasturlar qo'llaniladi.

Dempingning dasturida jo'natuvchi, qabul qiluvchi, investorlarning kuchi doimo sifatni oshirishga qaratiladi.

Sifat to'garagi - bu ishlab chiqarish bo'limmalarining xodimlar guruhi bo'lib, ular ixtiyorlari bilan sifat masalasini hal qilish uchun to'planadilar, sifatni oshirish bo'yicha g'oyalari va takliflarini muxokamada olib boradilar.

"Sifat uchun to'lanmaydi" degan g'oyada sifat uchun to'lanmasa ham sifatdagi nuqsonlarning yo'qligi uchun pul to'lanadi.

### **8.3.Ishlab chiqarishni boshqarishda zamonaviy bozor munosabatini yaratish**

Qishloq xo'jalik korxonalarining texnik xizmat ko'rsatish bo'g'lnlari ishiga bo'lган ehtiyojni ta'minlashdagi rivojlantirish qator omillar bilan uzviy bog'liq (2-chizma). Bozor iqtisodiyotida umuminsoniy nazariyalar asos qilib olinganligi sababli transport infratuzilmasi faoliyatini baholashda ko'rsatkichga aniq chegara qo'yish qiyin. Iqtisodiy qonunlarning ta'siri iqtisodiy nazariyalarning taraqqiyoti xukumronlik ko'rinishida, iqtisodiy qarama-qarshilikda, qaysi jamiyat taraqqiyoti davomida hal qilinadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda iste'molchiga yetkazish jarayonlarida markaziy nazorat va tartibga solish tizimi (dispatchirlashtirish yoki nozimlashtirish) muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun aloqaning texnik vositalari, telefon, internet va signallashtirish, telemexanika, avtomatika, tashkiliy va hisoblash texnikalaridan foydalaniladi. Bajariladigan vazifalar, holatlar,

masalalarining har xilligi va ko'p sonligi xodimlardan tashkilotning va boshqaruv qobiliyatlarini talab etadi (2-chizma).

Qishloq ho'jaligida traktor, avtomobil' va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanishning samaradorligini oshirish yillik mehnat sig'imi bilan aniqlanadi.

Texnik vositalardan foydalanish xizmati bo'linmasi rahbarlari va xodimlari qator masalalarga (hudud iqtisodiyotini o'rghanishga, bajariladigan ishlarning tasnifiga va miqdorini aniqlashga, ish rejasini va shartnomalarni bajarilishini tahlil qilishga, mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etishni doimiy yaxshilashga, vositalarni samaradorligini oshirishga va hakozolarga) katta e'tibor berishlari lozim.

### **Kichik va o'rta xususiy korxonalar faoliyatini boshqaruvchi ba'zi bir zamonaviy iqtisodiy - ijtimoiy fanlari**

O'zRda biznesning xuquqiy asoslari: Tadbirkor, menejerlar, uchun xuquqiy qo'llanmalar. Litsenziyalash; Manevr uchun imkoniyat. Firmaning asosiy xo'jalik jarayonlari.	Tashkiliy menejment Korxona faoliyatini boshqarishning tashkiliy mexanizmi. Tashkiliy tuzilmasi va axborot almashish. Korxonalarni markazlash tirish vanomarkazlashtirish bo'linmalarida tadbirkorlik. Maqsad korxona funksiyasini oshirishga qaratish
Marketing va baxoni shakillantirish Marketing reja: Marketing bo'linmasini tashkiliy tuzilmasi. Baxo, baxo siyosati, baxoni shakillantirish. Maqsilot-maxsulot va xizmat bozorida keng ko'lamli faoliyatga erishish va rag'batlantirishga qaratish.	Ustuvor menejment. Tashqi muxitni o'zgartirishdan kelib chiqqan xolda korxona bo'yicha uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun soxa va tizimlarni taminlash. Tadbirkorlieni rejalashtirish. Menejerlar xarakatini yuqori masuliyatda ustuvor rejalashtirish
Korxonaning milliy madaniyati. Firmadagi ijtimoiy madaniy muxit. Inson	Nazorat va kontiroling korxona faoliyatini natijasini baxolash va

<p>resurslarini boshqarishni mukammallashtirish orqali korxona foydasini taminlash. Inson xulqining iqtisodiy otga tasiri. Milliy madaniyat tizimi, qadiriyatlar. Antropologiyaning andozalari va firmadagi muayyan madaniyat</p>	<p>xisobga olish, xujjatlashtirish, xarakatga keltirish va tormozlash Kontrolning - bu menejment, ekkauntingning usullarining yig'indisi.</p>
<p>Zamonaviy menejer va uning qobilyatini shakillantirish Firmadagi milliy madaniyatni mukammallashtirish orqali; Malakani muntazam oshirish; Muayyan topshiriqlarni ijrochilarga topshira bilish; Rahbarlik odatini o'zida ishlab chiqish</p>	<p>Tashqi iqtisodiy menejment Tashqi bozorni tadqiq qilish. Boshqa mamlakatlardagi kompaniyalar bilan savdo, ilmiy -texnik, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik munosabatlari. Amaliy yondashuvlar va offshorli (soliqsiz) biznes.</p>
<p>Korxona moliyasiini boshqarish Byudjetlashtirish, soliq va xisobga olish tizimi. Firma portfeli.</p>	<p>Innovatsion menejment va reinjenering. G'oyalarni boshqarish va biznesni xarakatga keltirish. Reinjenering - firma faoliyatini yaxshilash uchun jarayonlarini qayta ishlab chiqarish.</p>
<p>Modenizatsiyalash, dizayin va maxsulot (xizmat ko'rsatish) tayyorlash texnologiyasini muntazam yangilash muammo lari</p>	<p>Tavakkalsiz tadbirkorlik bo'lmas: Tavakkallikni boshqarish tizimi; Investitsiya tavakkalligi va foizli qarz; YUqori tavakkallikdan saqlanish.</p>

## Tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyatlarini shakillantirish

Tashkilotchilik imkoniyatlari

Tashkilotchilik va boshqaruv (T va b) qobiliyatlarining individual diapazoni soxasi

T va B faoliyat faoliyatini amalga oshirishdagi individual uslublar.

shaxsning T va B qobiliyatini ishtiy oqi

Guruhalidagi shaxslar munosabatlarinin g tashkilotchiligin rivojlantirish

T va b faoliyatni va ularning ijtimoiy ruxiy tabiatni taj-ribasi aql-idrok xis- tuyg'u qobiliyat va sh.k

keng qamrovli individual diapazonning umumiyl qobiliyatlar bilan bog'liqligi A.Temur, Aristotel, A.Navoii, I.Sino, M.Ulugbek, GETE, Lamonosov, Pushkin, Talstoy.

Tashkilotchilik guru x azolariga tasir ko'rsatishning individual demokratik va liberal usullar.

ijtimoiy faoliyatni takomillash va uni boshqarish mativlari va motivatsiya tushunchasi. ijtimoiy va ijtimoiy ruxiy mativlar yuksak darajaga ko'tarilish mofoqiyatli erishish ijodiy

Gurux va jamoalarda muloqatga jamolarda muloqatga va o'zaro ta'siriga o'rgatishga shartli ekanligi.

Raxnomo va tashkilotchilik samarali raxbar M T\*X\*B

Tashkilotchilik orqali inson xuquqiga va boshqarish darajasini aniqlash

T va B qibiliyatlarining yoshga bog'liq tanlovchanligi va cheklanganligi boallik yoshi faollik emotsiyonalligi

Shaxsning tipologik fikrlovchi va o'rta togifalari va xarakteriologik. Frenologiya yoki Gall taminoti bo'yicha shaxsni sifatini aniqlandi bosh suyaklarni miya qavariqlariga mosligi va uni antropologik talimoti isbotlanmaganligi sifatlarning boshqaruv uslubiga

yigit va qizlarda ijodi tashkilotchilik qobiliyatini namoyon bo'lishi va ularni maqsadli

Guruxning ushbu jarayonga ijobiy va salbiy ta'sirlari fastilitatsiyalari (norasmiy guruxlar xavida)

Tashkilotchi shaxsning funksional tizimi va individual xususiyatlari

motivatsiyani maqsadga bo'y sindirishlik orqali tashkilotchilik faoliyatiga qiziqishni raxbatlantirish.

		aloqadorligi shaxsining		
Tashkilotchi va rahbar shaxsiyatlari: ruhiy tanlovchanlik, aqlning amaliy yo'nalganligi, pedagogik takt, jamoat faoliyatidagi jonbozligi, talabchanlik, tanqidiy munosabat, tashkilotchilikka moyillik			Faoliyat ko'rsatishning ijodiy xarakteri bajaruvchi uchun uning maqbuliligi va kenglik darajasi o'z faoliyatida boshqarishda va bu jarayonda	
Tashkilotchilikka no'noqlik: asab tizimining kuchi, nisbati, fiziologik xususiyatlari			Shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi	

## Chizma2

### **O'zini o'zi sinash uchun savollar.**

1. Kafolatlangan materiallarga tushuntirish bering.
2. Kafolatlarni va xarajatlarni boshqarishdagi yechimlarga tavsif bering.
3. Ishlab chiqarishni boshqarishda sifatni ta'minlashning yo'naliishlari keltiring.
4. Sifatni boshqarishda qanday dasturlar qo'llaniladi?

## **9-mavzu. Zamonaviy ishlab chiqarish menejmentida moyillik tushunchasi**

### **9.1.Moyillikning umumiy tavsifi va nazariyalari**

Kishining o’z ishiga tayyorligi, hohishi va bajara olishi korxonani muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatishi uchun muhim omil hisoblanadi. Kishini samarali boshqarishga uning moyilligi, ya’ni xush ko’rishi, ixlosi, rag’bati, yoqtirilishi, kayfiyati, hohishi, hafsalasini tushunish orqali erishiladi. Insonning faoliyatga moyilligi harakat kuchlar yig’indisi, ma’lum xarakatni amalgalashda kishini undash yoki majbur etish kabilar tushuniladi. Moyillik-bu kishini faoliyatga undovchi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yig’indisi, faoliyatga chegaralar va shakllar beradi va bu faoliyatiga yo’nalish ko’rsatadi, ma’lum maqsadlarga erishish yo’lini mo’ljallaydi. Moyillikning inson hulqiga ta’siri ko’p omillarga bog’liq, ko’p holatlarda inson faoliyatidan kelib chiqib ta’sirlar o’zgarishi mumkin.

Moyillik tavsifini tushunmoq uchun inson ehtiyoji, sababi, rag’batlantiruvchi omillar, urinish, halollik, biror maqsadga qaratilganlik kabi faoliyat tavsiflarini aniqlay bilish lozim.

Moyillik nazariyasining yo’nalishlari ichida “ichki moyillik” va “tashqi moyillik” larning munosabati haqidagi savollar yetaricha o’rganilmagan. Haqiqatda ham “ichki” va “tashqi” moyilliklar chegarasini aniq ajratib bo’lmaydi.

Moyillikning har xil nazariyalarini mazmuniy va jarayonga oid toifaga bo’lish mumkin.

Moyillik nazariyasi-ruhiy omil bo’lib, kishilar harakati maqsadli va aniq yo’nalishga egalik baxsh etishidir. Bu nazariyalar ehtiyojlarning tuzilmasini, ular mazmunini ifodalaydi va ehtiyojlar kishining moyilligi faoliyatini bilan bog’liqligini ko’rsatadi.

Moyillik mazmunining nazariyasi inson ko’nglini uning faoliyatiga majbur etishga qaratilgan.

## **9.2. Moyillik jarayonining nazariyasи**

Kishilar istalgan natijalariga erishishda moyillik jarayoni qanday tuziladi va dalillari qanday amalga oshirish haqida qator nazariyalar mavjud. Asosiy moyillik jarayoniga oid nazariyalarga kutish nazariyasи, maqsadlarni qo'yish nazariyasи, tenglik (adolat) nazariyasи, boshqarishining partisipativ g'oyasi (nazariyasи) kiradi.

Agar kishi korxonadagi har xil ichki tashkiliy faoliyatda qiziqib qatnashsa, o'zi bundan qoniqish olsa, katta foyda keltirib,yaxshiroq, sifatliroq va unumliroq ishlaydi. Boshqarishning partisipativ nazariyasи mana shu natijadan kelib chiqadi. Partisipativ boshqarish korxonada kishi bilan bog'liq bo'lgan savollarga yechim qabul qilishda qatnashishga yo'l ochadi, o'zining ishini yaxshi bajarishga imkon beradi. Korxona o'zining kishilarini salohiyatidan to'laroq foydalanishga erishadi.

### **O'zini o'zi sinash uchun savollar.**

1. Moyillikning umumiy tavsifi keltiring.
2. Moyillik nazariyasining yo'nalishlari sanab o'ting.
3. Moyillik jarayonning nazariyasining asosiyalariga tushuntirish bering.
4. Boshqarishning partisipativ nazariyasи nimalardan kelib chiqadi?

## **10–mavzu. Ishlab chiqarishda boshqaruv yechimi (qaror) ni qabul qilish**

### **10.1. Menejment jarayonlarida boshqaruv yechimini qabul qilish**

Bu “Markaz”, atrofida korxona xayoti aylanib turadi. yechim (qaror)ni boshqarish mehnatining mahsuloti deb qarash mumkin, uni qabul qilish esa ushbu mahsuloti deb qarash mumkin, uni qabul qilish esa ushbu mahsulotni yaratilishiga olib keluvchi jarayondir.

Kompyuterlar tarmog'ini yaratish AQShda Pentagon topshirig'i asosida 1969 yili boshlangan edi. O'sha vaqtda yaratilayotgan kompyuter tarmog'ining asosiy vazifasi bo'lib yadro urushida kommunikatsiya aloqalarini himoya qilish edi.

80 yillarda «Korvus» amerika kompaniyasi maktab tizimida «Eppl» kompyuterlar turini yaratishga kirishdi. Hozirgi vaqtda Respublikamizdagи barcha gimnaziya, litsey, kollej, universitetlarimiz kompyuterlar bilan jixozlangan. Ularning aksariyati internet tarmog'iga ulangan.

Birinchi kompyuter tarmog'ida magnitli qattiq disklar ishlatilgan bo'lsa, hozirgi hisoblash tarmoqlar sig'imi milliard baytli yig'uvchilar asosida qurilgandir. Lokal hisoblash tarmoq yuzaga kelgunga qadar axborot bilan almashish uchun fayllarni disketlarga ko'chirib uni boshqa iste'molchilarga berishga to'g'ri kelar edi. Iste'molchilar bir fayldan bir vaqtda foydalanish imkonini yo'q edi.

Bir necha kompyuterlarni hisoblash tarmogiga aylantirish katta iqtisodiy samara beradi. Barcha iste'molchilar bitta umumiy yiguvchidan, yuqori sifatli printerdan foydalanadi. Undan tashqari xodimlarning ishlab chiqarish vaqtini kamayishi tufayli iqtisodiy samaraga erishiladi. Lokal hisoblash tarmogi elektron pochtadan foydalanishda, majlis o'tkazishda, jamoa ishini tartibga solishda katta imkon yaratadi. Va, nixoyat, butun jahon tortanak (World Wide Web – WWW) juda keng tarqalib, internetning ajoyib imkoniyatlarini namoyish qilishi kompyuterlar tarmoqlarini birlashganligiga asoslangan (“internet” atamasi “tarmoqlar aro” degan ma’noni anglatadi). Kompyuter mahsus to’lov yordamida butun jahon internet tarmog’iga ulanadi va jahonning istalgan joyiga elektron pochtani (E-mail) yuborishga, uydan turib boshqa joydagi do’stlar bilan karta o’ynashga, matnli, ovozli, grafik fayllarni uzatishga imkoniyat beradi.

Internetda shartli belgilar (FAQ – “tez-tez beriladigan savollar”, AFAP – “imkoniboricha tezroq”, hatto xis hayajonlarni ifoda etuvchi ramzlar: :-D – men uchun kulgili, :-) – hazil, :-( – men xafaman va boshq.) ham qo’llaniladi. Elektron pochta axborotni bir zumda juda uzoq masofaga va birdan bir necha manzilga yuborish imkonini beradi.

Xatdan tashqari elektron pochta orqali grafik materiallar, audio fayllar va dasturlarni uzatish mumkindir.

1997 yilda axborotni elektr tarmoqlar yordamida uzatish mumkin, degan xabar tarqaldi. Buyuk Britaniya olimlarining fikricha, bu loyihami amalgaga oshirgandan keyin telefon kabeliga, televizor antenasiga hojat qolmaydi: axborot signallari qabul qiluvchi moslamalarga bevosita elektr tarmoqlari orqali uzatiladi.

Davlat muassasalari va tijorat korxonalarini Internet ikoniyatlaridan yaxshi foydalanmoqda. AQShda internetdan 1997 yilda 20 milliondan ortiq iste'molchi foydalangan edi. Hozirgi kunda bu ko’rsatkich yanada oshib ketgan. Masalan, internet tarmog’iga O’zbekistonning qator tijorat va notijorat tarmoq korxonalari ulangan.

Kompyuter tizimi bazasining rivojlanish jadalligi va doimiy takomillanishi xayratda qoldirmoqda. Kompyuter protsessorlarining samaradorligini oshishi mohiyatan yangi texnologiyalarga, kremniy kristalidan yasalgan tranzistorlar zichligini oshishiga asoslangandir.

Intel asoschilaridan biri Gordon Mur shunday degan edi: “Agar avtomobil’sozlik yarimo’tkazgich sanoati kabi rivojlanganda edi, bugungi kunda “Rols-Roys” bir gallon benzinda yarim million mil bosa olardi va avtomobil’ni saqlash uchun pul to’lashdan ko’ra tashlab yuborish arzonga tushar edi.”

**Tashkiliy texnika.** Davlat tashkilotlari, sanoat korxonalari, tijorat firmalari uchun matnli va grafik axborotlarni boshqaruv va qayta ishlash uchun juda kuchli vositalar taklif etilmoqda. Shaxsiy kompyuterlardan tashqari mikro-EHM o’rnatilgan nusxa ko’chiruvchi uskunalar, elektron yozuv mashinalari, turli xildagi aloqa vositalari, EHM xotirasidagi axborotni qayta ishlab beruvchi fototexnika, yuqori yoki ofset bosma uchun fotoformalar, mikrofilm lar uchun apparaturalar, qisqa muddat ichida aytib berilgan matnni yozma shaklida chiqaruvchi yoki bo’lmasa tarjima qiluvchi diktofon texnikalar mavjud.

Hatto oddiy telefon imkoniyatlari kengaydi. Berilgan raqamni avtomatik tarzda qayta terish, avtojavob qaytaruvchini uzoq masofadan boshqaradigan radiotelefondlar (bu moslama boshqa telefondan avtojavob qaytaruvchiga qoldirilgan axborotni eshitib olishga imkon beradi) keng tarqalmoqda.

Yaponiyada ish yuritishni keng avtomatlashtirish idora ishining samaradorligini bir necha bor oshirishga imkon tug’dirdi. YAngi xodim olmasdan ish sifati tubdan o’zgardi. Deyarli barcha firmalar shaxsiy kompyuterlar (100%), nusxa ko’chirish mashinalar (83%), faksimil apparatlar (98%), matnni qayta ishlash protsessorlari (89%) bilan jihozlangan.

Professional rahbar o’zining har kungi ish faoliyatida boshqaruvning kuchli texnik vositalaridan foydalanishi shart.

#### **12.4. Boshqaruv jarayoni va uning texnologiyasi**

*Har ish qilsang, aql farmoni bilan qilg’il  
va aqldan bemaslahat qilmag’il.*

*Qomusnomा.*

Boshqaruv jarayoni deganda biz boshqaruv apparati xizmatchilari tomonidan boshqariladigan turli-tuman takrorlanib turuvchi sıklarni birlashishini va o'zaro harakatda bo'lishini tushunamiz. Bu holat boshqaruv texnologiyasini tashkil qiladi.

YUqorida keltirilgan boshqaruv texnologiyasi tushunchasi bilan to'laroq tanishib chiqamiz. Boshqaruv texnologiyasining tarkibiy elementlarini masala, operatsiya, protsedura va element (element — bu operatsiyani bir qismi) tashkil qiladi. Ularni keyinroq ko'rib chiqamiz. Boshqaruv texnologiyasi kasb, vazifa, malaka, operatsiyalar, mehnat taqsimoti asosida amalga oshiriladi. Bu yerda jarayonning samarali boshqaruv shartlari haqida gap bormoqda.

Uning bir necha shartlari mavjud bo'lib ular qo'yidagilardir:

**Birinchi shart** — mehnatni kasb bo'yicha taqsimlash. Bu mehnatning kasb bo'yicha taqsimlanishi: buxgalter, iqtisodchi, inspektor, moliyachi.

**Ikkinci shart** — mehnatni funksional taqsimlash. U o'z mazmuni bilan birinchi shartga yaqinlashadi va har bir xizmatchi o'zining aniq ishini bajaradi. Masalan, bank boshqaruvchisi umumiy rahbarlikni bajaradi, bo'lim boshlig'i biri necha xodimlarning ishini boshqaradi, bo'lim inspektori o'z ob'ektida nazorat vazifasini bajaradi.

**Uchinchi shart** — boshqaruv mehnatini malaka asosida taqsimlash. Masalan, iqtisodchilar uchun uch-to'rtta lavozim mavjudligi – oddiy iqtisodchi, birinchi va ikkinchi toyifadagi iqtisodchilar (bosh iqtisodchilar), yetakchi iqtisodchi.

Va, nihoyat, boshqaruv mehnatining to'rtinchi taqsimot turi — texnologiyani operatsiyalari bo'yicha ajratishdir. Bu keng tushunchaga ega bo'lib, boshqaruvchi mehnatni aniq daqiqalar davomida aniq jarayonlarga taqsimlab berishi lozim.

Boshqaruv masalasi deganda biz aniq ish turini tushunamiz. Bu mehnat jarayonini bir qismi bo'lib, boshqaruv qarorini qabul qilish bilan bog'liq, bitta yoki bir necha xizmatchi tomonidan bajariladigan va ma'lum maqsadga erishishga ko'maklashadigan jarayondir.

**Boshqaruv operatsiyasi** — bu yechilayotgan masalani mantiqiy ajratilgan bir qismi bo'lib, bitta bajaruvchi orqali bajariladi va bo'laklarga bo'linadi. Boshqa so'z bilan aytganda bu masalani yechish harakatidir.

**Boshqaruv protsedurasi** — bu turli boshqaruv operatsiyalarini yig'indisi bo'lib, ma'lum chizma, ya'ni algoritm orqali bajariladi. Protsedura boshqaruv jarayonida ketma-ket yoki parallel keladigan operatsiyalarni bajarilishini tayyorlash, ko'rib chiqish, muhokama qilish va bajarilishini aks etadi.

**Element** — bu operatsiyani bir qismi bo'lib, yagona bajaruvchi tomonidan bajariladi va yagona maqsadli vazifaga ega.

Misol sifatida uncha katta bo'limgan vaziyatni ko'rib chiqamiz va unda biz bu yerda boshqaruv masalasi, operatsiyasi, protsedurasi va elementi nima ekanligini bilib olamiz. Dastgohlarni ishlab chiqaruvchi firma tijorat bankidan yangi qo'shimcha ishlab chiqarish maydonini bunyod qilish uchun ma'lum miqdorda ssuda so'raydi. Bank shunga o'z roziligini bildiradi. Bu holatda bankning bir qator harakatlarini ko'rib chiqamiz.

1. Bankning kredit bo'limi orqali firmaning to'lov qobiliyatini aniqlash — masala;
2. Kredit miqdorini hisoblash — operatsiya;
3. Firmanın kreditga bergen taklifini ko'rib chiqish va uni qondirish imkoniyatlarini mulohaza qilish — protsedura;
4. Firmaga so'rangan pul mablag'ini o'tkazish — element hisoblanadi.

Shunday qilib boshqaruv tizimida har bir funksional jarayonni tashkil qilish uchun, shu jarayonni tashkil etuvchi vazifa, operatsiya, protsedura va elementlarning miqdori, izchilligini aniqlash lozim. YUqorida berilganlarga asosan boshqaruvga tegishli usullarni, yo'llarni, uslublarni o'rghanishni qo'shimcha qilish mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda texnologik jarayonlarning sharoitlari, boshqaruv mehnatini uslublarini hisobga olishni ta'kidlash kerak.

## **12.5. Boshqaruv operatsiyalari va protseduralarining tasnifi**

Operatsiya va protseduralardan tashkil topgan boshqaruv jarayoni texnologiyasi bir-biridan qator belgilar bilan farq qiladilar.

Tasnifning birinchi ustuni boshqaruv operatsiyalari va protseduralarini lavozim kategoriyasiga qarab (rahbarlar, mutaxassislar, texnik ijrochilar) bo'linishini aks etadi. Boshqaruv operatsiyalari va protseduralari ijodiy, mantiqiy va texnik turlariga bo'linadi.

**Ijodiy operatsiyalarga** — tahlil, taqqoslash, tanlab olish, sintez, xulosa, hisoblar, oldindan bilib olish, qaror qabul qilish harakatlari kiradi. Ijodiy operatsiyalarni bajarish bilan rahbar va mutaxassislar band bo'ladi.

**Mantiqiy operatsiyalar** — avvaldan belgilangan tartibda, ya'ni ishlab chiqilgan algoritm bo'yicha bajariladi. Ular tavsiyanoma yoki me'yoriy hujjatlar bilan cheklangan bo'lishi mumkin. Masalan, buxgalterlik hisobotni tayyorlash, materialga bo'lgan talabni hisoblab chiqish. Bu operatsiyalar ijodiy operatsiyalarga qaraganda oddiyroq, ammo boshqaruv xodimlaridan maxsus tayyorgarlik talab qiladi. Bu ishlarni ko'proq mutaxassislar va ma'lum miqdorda rahbar xodimlar bajaradilar.

**Texnik operatsiyalar** — ko'proq takrorlanish bilan tavsiflanadi. Bajaralishi bo'yicha oddiy va xizmatchidan yuqori malaka talab qilmaydi. Bu hujjatlarni ko'paytirish, pochtani yetkazib berish, hujjatlarni imzolash, arifmetik hisoblar, hujjatlar bo'yicha ish yuritishdir. Shuning uchun ularni kotibalar, ish yurituvchilar, ijrochilar, arxiv xizmatchilar, ya'ni texnik xodimlar bajaradilar.

Ikkinchi ustunda boshqaruv operatsiyalar protseduralarining mazmuniga muvofiq tasnifi berilgan. Boshqaruv operatsiya va protseduralar o'z mazmuniga qarab qo'yidagicha bo'linishi mumkin.

- a) axborotli, ya'ni axborot bilan ishslash;
- b) mantiqiy — mushohadali — boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- s) tashkiliy — mehnat jarayonlarini tashkil qilish, ma'muriy farmon berish, dispatcherlik ishi, muvofiqlashtirish, bajarilishni nazorat qilish.

Tasnifning uchinchi belgisi bu boshqaruv operatsiya va protseduralarning murakkabliliga qarab taqsimlash. Murakkablik operatsiyadagi elementlar soniga qarab aniqlanadi. Oddiy operatsiyalar bir necha elementlardan tashkil topgan. Agar protsedura haqida gap ketsa 20 tagacha tashkil topadi. Shu bilan bir vaqtida boshqaruv texnologiyasida tez-tez o'ta murakkab operatsiyalar (20—30 elementli) va murakkab protseduralar (100 operatsiyagacha bo'ladi) uchrab turadi.

Keyingi to'rtinchi ustun harakatning takrorlanish omiliga asoslanadi. Bu yerda operatsiyalar va protseduralar takrorlanuvchi va takrorlanmaydigan turlarga bo'linadi.

**Takrorlanuvchi standart operatsiyalar** — ularni o'lchash, tahlil qilish, me'yorlash va loyihalash mumkin.

Takrorlanmaydigan operatsiyalar — bular ijodiy operatsiyalardir.

Tasnifning beshinchi ustuni — mexanik qurollanish darajasi bo'yicha bo'ladi. Bu yerda biz uchta turdag'i boshqaruv operatsiyasi va protsedurasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

- a) qo'lda bajariluvchi, tashkiliy texnika vositalar ishlatilmaydigan;
- b) mexanizatsiyalashgan;
- s) avtomatlashtirilgan, turli hisoblash texnikasi vositalari bilan bajariluvchi.

Oxirgi oltinchi ustun tasnifi — boshqaruv operatsiyalarni bir xil vaqtda birlashtirish va taqsimlash. Bu yerda biz uch xil boshqaruv operatsiya va protsedurasini ajratib ko'rsatamiz.


- a) ketma-ket;
- b) parallel bajariluvchi;
- s) ketma-ket parallel bajariluvchi.

1. Ketma-ket turdag'i boshqaruv operatsiyalarda har bir so'nggi operatsiya oldingisi tugagandan keyin bajariladi (birinchidan keyin ikkinchisi, ikkinchidan keyin uchinchisi bajariladi).




Bu kabi ketma-ket texnologiyada, masalan, bosh buxgalter farmoni qo'1 ostidagi hodimlarga uzatiladi.

2. Parallel turi bir vaqtning o'zida bir necha turdag'i operatsiyalar bajarilishi bilan tavsiflanadi. U jarayonlarni tezlashtirish maqsadida ishlatiladi. Masalan, korxonaning uch bo'limi zarur bo'lgan bitta buxgalterlik hisoboti ustida olib boradigan ishlar.



3. Ketma-ket parallel tur yondosh operatsiyalarni vaqt va makonda qisman bir bajarilishini ko'zda tutadi.



Keltirilgan chizmani muayyan misolda ko'rib chiqamiz; 1—raqam korxona rahbari ijtimoiy—iqtisodiy rejalashtirish masalasini joriy yilga belgilaydi.

Ushbu masala bir necha masalalarga taqsimlanadi, ular uchta bo'limgarda bir vaqtida bajariladi: 2-raqam reja—iqtisodiy bo'limi, 4—raqam mehnat va maosh bo'limi, 6—raqam, moddiy—texnika ta'minoti bo'limi.

Bu bo'limgar o'z operatsiyalari va protseduralarini bajarib bo'lganidan keyin, ular o'z natijalarini boshqa ish olib boruvchilarga beradilar (raqamlar 3, 5, 7) so'ngra axborot to'la to'kis holda reja-iqtisodiy bo'limi boshlig'iga uni yanada maromiga yetkazilishi uchun kelib tushadi. (8-raqam) undan iqtisod bo'yicha direktor o'rindbosariga (9-raqam) boradi. Shunday qilib boshqaruvni ketma-ket-parallel, ketma-ket yondoshish jarayoni kelib chiqadi.

Endi jadvalning oxirgi yettinchi punktini ko'rib chiqamiz — bu boshqaruv operatsiya va protseduralarning ishlab chiqarish sikli uzunligiga qarab bo'linishidir. Boshqaruv mehnatida boshqaruv jarayonining to'xtovsiz va siklli xususiyatini, ya'ni uni amalga oshirishdagi vaqt va makonni hisobga olish kerak. Vaqt o'lchovlari bo'yicha boshqaruv sikli (operatsiya, protseda) bir necha minutdan bir necha yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlarda o'lchanishi mumkin. Boshqaruv jarayonining davomiyligi quyidagi vaqtlardan tashkil topadi: axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatish; qarorni ishlab

chiqish va qabul qilish, qaror qabul qilinishini tashkil va nazorat qilish. Ko'rinib tur ibdiki, boshqaruvda vaqt omili muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir operatsiya bajariladigan vaqtni kamaytirish, tashkiliy va hujjat protseduralarini soddalashtirish, boshqaruv mehnatida kompyuterlashtirish ishlariga keng yo'l ochib berishi zarur.

Boshqaruv jarayoni makon jihatdan sathlarga bo'linadi, ya'ni eng quyi sathdan boshlab eng yuqori sathgacha bo'lgan boshqaruv mavjud. Masalan, kichik bo'limdag'i boshqaruv bu bitta kichik makon boshqaruvi, so'ngra korxona, firma, korporatsiya boshqaruvi va hokazolar.

## 12.6. Boshqaruv texnologik siklining tavsifi


Boshqaruv faoliyat o'zining texnologiyasiga ko'ra uchta asosiy siklga bo'linadi, ular doirasida turli operatsiyalar, masalalar va protseduralar bajariladi.

**Birinchi sikl** — boshqaruv tizimida — axborotli sikl. Bu ilmiy-texnik, iqtisodiy, hisob-kitob va boshqa axborotlarni jamlash, uzatish, qayta ishlash va uzatish. Bu siklni amalga oshirilishi bilan texnik bajaruvchilar va mutaxassislar shug'ullanadilar.

**Ikkinchi sikl** — mantiq-fikrlash sikli. Bu bosqichda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bajariladi. Bularga quyidagi boshqaruv operatsiyalari va protseduralari kiradi: izlanish, tahlil qilish, texnik-iqtisodiy hisoblar, ilmiy-texnik ishlar va istiqbollashtirish.

Bu siklni mutaxassis va rahbar xodimlar amalga oshiradilar.

**Uchinchi sikl** — tashkiliy sikl. Uning maqsadi boshqaruv masalalari yechimin i boshqaruv. Bu kadrlarni tanlash va joy joyiga qo'yish, vazifalarni bajaruvchilarga yetkazish, tavsiya suhbatini o'tkazish, boshqaruv xodimlarining mehnat jarayonlarini tashkil qilish, muvofiqlashtirish, bajarishni nazorat qilish. Bu sikl tarmoq rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.



## **5-rasm. Tashkiliy sikl**

Shuni aytish zarurki, sikl har qanday boshqaruv faoliyati, boshqaruv tizimining sathidan qat’iy nazar siklli xususiyatga egadir. Har qanday sathdagi boshqaruvda uch sikl bajariladi: axborot, mantiq-fikrlash va tashkiliy.

Operatsiya va protseduralarini bajarilishidagi tafovut barcha sathdagi mehnatni taqsim qilishda nomoyon bo’ladi. Masalan, quyi sathdagi boshqaruv rahbari har uch protsedura siklini bajaradi. «YUqori sathdagi rahbar ishiga», ikkinchi va uchinchi sikllar uchun ko’p vaqt ketadi. Axborotli protseduralarni ko’proq mutaxassislar va xizmatchilar bajaradilar.

Quyidagi jadvalni ko’rib chiqamiz. Unda boshqaruv operatsiya va protsedurasidagi har ikkala mehnat sarfini aks ettiruvchi raqamlar keltirilgan. Bu raqamlar uchta boshqaruv sikliga nisbatan keltirilgan.

*4-jadval*

### **Boshqaruv operatsiya va protseduralarining solishtirma og’irligi**

Operatsiya va protseduralar turi	Ish vaqtি sarfi umumiylar xarakatiga nisbatan % da		
	Rahbar	Mutaxassis	Texnik bajaruvchi
Axborotli	30	60	80

Boshqaruv qarorini tayyorlash va qabul qilish (qarorlani tayyorlashda va nazorat qilishda ishtirok etish)	<b>30</b>	<b>25</b>	<b>20</b>
Tashkiliy ish	<b>40</b>	<b>15</b>	-
Jami	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

## Boshqaruv operatsiyalari va protseduralarini tasnifi

*3-jadval*

I. Lavozim kategoriyasi (rahbar, mutaxassis, bajaruvchi)	II. Operats. va protsed. mazmuniga qarab	III. Operats. va protsedura soniga qarab	IV. Takrorlanish darajas iga qarab	V. Ìåõàíèê qóðîëëàíèø äàðàæàñèg a qàðàá	VI. Âàqòíè áèðlig iãà qàðàá	VII. Èøëàá ÷èqàðèø öèëëèíè óçóíëëæ Âàqò òàvñèôlari bo'yicha	Ôàçîâèé tàvñèflar bo'yicha
---	--	---	---	---	--------------------------------------	--	----------------------------------

1.Èæïäèé	1.Àõáîðîöëè (àõäîðîò äèëäí èøëàø)	1.Îääèé	1.Òàêðîðëäíóâ÷è ëàð (ñõðäíäàðð)	1.qçëäà ääæàðè- ladigan va- zifalar (òåõíèé)	1.Êåòìàëåò	Áèð ääqèqàäàí äèð íå÷à	Áçëèm bîøqàðó-âèäàí òàðìíq
2.Ìàíòèqèé	2.Ìàíòèqèé ôèêðëïâ÷è	2.Ìóðàëkàá	2.Òàêðîð-ëàñàé- äèäàíëàð (èæïäèé)	,ðäàìñèç ääæàð.)	2.Ïàðàllåë	éèëäà÷à	boshqaruviga cha
3.Òåõíèé	3.Òàøëëëéé			2.Ìåõà- íèçàöèý- ëàøäàí	3.Àðàëàø		
				3.Àâòñàò- ëàøäàí			

## **12.7. Boshqaruv operatsiyasi va protseduralarini loyihalashtirish**

*Rejasiz daraxtzor – changalzor*

*O’zbek xalq maqoli*

Bundan oldingi boblarda biz boshqaruv mehnati texnologiyasini, jumladan, masala, operatsiya, protsedura, element va boshqaruv sikllarini ko’rib chiqdik,. Bo’lim nihoyasida yana bir muhim masalani, ya’ni qanday usullar, uslublar, harakatlar hisobiga boshqaruv texnologiyasini samarali qilish mumkinligini ko’rib chiqamiz. Ularning barchasi boshqaruv texnologiyasini tashkiliy loyihalashtirish degan tushuncha bilan birlashishi mumkin, ya’ni boshqaruv ishining bajarilishini tartib va chizmalar orqali loyihalashtirish. Tashkiliy loyihalashtirishda bosh masala boshqaruv tizimi va uning elementlarining modelini bunyod etishdir. Model ishlab chiqiladi va u o’z aksini loyiha hujjatlari majmuasida topadi. Bu kabi modelni yaratilishida boshqaruv texnologiyasining sifatli tomonlarini aks ettirmoq kerak bo’ladi. Ular quyidagilardir:

1. Mehnatni funksional, kasb va malaka bo’yicha taqsimlash, shu jumladan masalani yechish uchun qanday va qancha miqdorda mutaxassislar zarur bo’lishini aniqlash.
2. Mehnatni operatsiya—texnologik xususiyatiga qarab taqsimlash, ya’ni qanday va qancha miqdorda boshqaruv operatsiyalar va protseduralar zarur bo’lishini aniqlash.
3. Mehnatni taqsimlanish va shirkat tizimini bunyod etish.
4. Boshqaruvni kichik tizimlarini loyihalash: boshqaruv apparati ishchilarini mehnatini hisoblash va baholash, ish vaqtini hisoblash, mehnat jarayonlarini tartibga solish va hokazolar.

Firma yangi ishlab chiqarish boshqaruv hizmatlarini bunyod etishda nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari, boshqaruv protseduralarini, balki butun boshqaruv texnologiya majmuasini loyihalashtirish muhimdir. Masalan, yangi korxona, tashkilot, firma bunyod qilindi. Bu yerda faqat ishlab chiqarish jarayonini bunyod

etish emas, balki boshqaruv jarayonini ham yuzaga keltirish katta ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy loyihalashtirish maxsusus loyiha hujjatlarini bunyod etish va ishlatalishni ko'zda tutadi. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin: boshqaruv operatsiyalari, protseduralar va uning elementlar ro'yxati, protsedura kartalari, texnologik chizmalar, vazifa tavsianomalari, bo'lim va xizmatlar haqidagi qoidalar, operogramma, xujjatgrammalar va andozalar.

**Operogramma** — bu texnologik jarayon elementlarini bitta bo'lim ichidagi xizmatchilar orasida taqsimlanishi.

**Xujjatgramma** — masalani yechishdagi lozim bo'lgan hujjatlarni turli xizmatlardan o'tishi. U yoki bu boshqaruv protsedurasi doirasida harakatlarni aniq ifodalanishi mohiyatlidir (operatsiya to'la ifodalangan bo'lmg'i kerak). Bu kabi ifodalanish bajaruvchilar uchun masalani tushinish va uni yechish imkonini yengillashtiradi va boshqaruv samaradorligining oshishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy bosqichda muhim va birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv mehnati kompyuterlashtirilmoqda, bu esa ishlab chiqarishni texnologik loyihalashtirishda yuqori shaklli tashkiliy loyihalashtirishni joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu protsedurogrammalar bilan bir qatorda texnologik kartalarni ham ishlab chiqishdir. Texnologik kartalar bajariladigan operatsiyalarni operatsiya bajaruvchilar tarkibini, operatsiya turini, ish mazmunini, tashkiliy texnika va materialga bo'lgan talabni, vaqt birligida operatsiyalarni bajarish uchun lozim bo'lgan mehnat hajmini belgilab beradi. Alovida boshqaruv operatsiyalari mehnat hajmining me'yori boshqaruv apparatida ish texnologiyasini loyihalashtirishda ilmiy asos bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, tashkiliy loyihalashtirish — bu boshqaruv operatsiyalari, protseduralar va elementlarning, bajarish usulini aniq ifodalash bilan birga boshqaruv mehnatini yaxshilanishiga imkon yaratadi.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar.**

1. Boshqaruv jarayonida axborot mavqeい va roli.

2. Analogli va boshqaruv hisoblash mashinalarning ishlash tamoyillari.
3. Zamonaviy kompyuterning ishlatish asosiy xususiyatlari.
4. Boshqaruv avtomatik tizimlarning asosiy bo'limlari.
5. Boshqaruv mehnatini takomillashtirishda tashkiliy texnika (orgtexnika) ning roli.
6. Internetning istiqboli.
7. Menejment texnologiyasi to'g'risida tushuncha bering, shuningdek boshqaruv texnologiyasi tuzilishi elementlarini misollar orqali ta'riflab bering.
8. Boshqaruv vazifalari, operatsiyalari, protseduralari, elementlari deganda nima tushuniladi?
9. Boshqaruv mehnatini malakaga asosan taqsimlash deganda nima tushuniladi?
10. Boshqaruv mehnatini vazifaviy taqsimlanishi deganda nima tushuniladi?
11. Boshqaruv mehnatini kasbga asosan taqsimlash deganda nima tushuniladi?
12. Boshqaruv mehnati texnologiyalari operatsiyalari bo'yicha taqsimlash deganda nima tushuniladi?
13. Boshqaruv operatsiyalari va protseduralari qaysi belgilari bilan sinflarga ajratiladi?
14. Boshqaruv texnologik sikli nima?
15. Tashkiliy loyhalashtirish va texnologik loyhalashtirish deganda nima tushuniladi?

### **13-mavzu. Firma jamoasini zamonaviy boshqarish**

#### **13.1. Menejment tizimida faoliyatni tartibga solish va nazorat qilish**

Xodimlar kelajakda firmadagi jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini boshqarish sirlarini egallab, uning bo'limi va bo'linmasida rahbar yoki menejer bo'lib ishlamasin, u samarali faoliyat ko'rsatishga yordam berishdir.

Zamonaviy menejment asoslari muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy fanlar - milliy xo'jalikni rejalashtirish, bashorat qilish, makro-mikroiqtisodiyot, statistika ,

buxgalteriya hisobi, moliya, kredit, rejalashtirishning ekonometrik usullari, psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot nazariyasi, huquqshunoslik, marketing kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Zamonaviy menejment asoslari boshqaruv tizimi va boshqarish ob'ekti orasidagi o'zaro munosabatdir. Har bir firmanın ichida o'ziga xos boshqarish nuqtai nazari bor. Ichki bo'lim va bo'linmalar idagi turli jarayonlar, me'yorlar yechim qabul qilish, kommunikatsiya, boshqaruv apparatiga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy firmalarning iqtisodiyotiga o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat astasekin bo'lsa ham ta'sir qiladi. YUqoridagilardan kelib chiqib, menejment tizimida faoliyatni tartibga solish (tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish jarayonini mukammallashtirish, firma xodimlari va mehnat jamoalarini samarali boshqarish, menejment vazifalarining tabiatini va tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, moyillik nazariyalariga rioya qilish, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish samaradorligini umumiy o'sishini ta'minlash kabilalar) muhim amaliy va nazariy muommodir.

Masalan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish quyidagilardan iborat: tadbirkorlar manfaa'tini ta'minlovchi qonunchilikni ishlab chiqish va nazorat qilish; davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish; firma faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri aralishishni pasaytirish; bozorda erkin va halol raqobat sharoitlarni yaratish; pul emissiyasini boshqarish orqali byudjet muvozanatini ta'minlash va shunga o'xshashlar.

Davlat tomonidan firmalar faoliyatini tartibga solish qonunchilik, ijrochilik organlari orqali amalga oshiriladi.

Agar tadbirkorlik faoliyati umuminsoniyligida faoliyat, qonunlarni buzmagan holda pul topish va daromad ortirish bo'lsa, uning tarkibiga kiruvchi tadbirkorlik faoliyati esa tavakkallik sharoitida ish ko'rishdir. Tadbirkorlik pul topishning, boylik toplashning yaratuvchanlik, boylikni ko'paytirish faoliyati, ya'ni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijodkorlik faoliyatidir. Tijorat, vositachilik qilish, tijorat milliy

bozorni mahsulot bilan to'ldirish, tovar keltirish va undan daromad olish tadbirkorlik jumlasiga kiradi.

Firma jamoasi faoliyatini boshqarish nazorati-bu menejmentning muhim vazifasidir. Uning mohiyati shundaki, nazorat havfli holat paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan aniqlash va yechimlarini topish, ular o'ta jiddiy bo'lib ketmasliklari uchun zarur va yana faoliyatni muvaffaqiyatli rag'batlantirish uchun ham qo'llanishi mumkin. Nazoratsiz o'ta tartibsizlik boshlanadi.

Firma faoliyati nazoratining asosiy ma'nosi-korxona (firma) faoliyatining haqiqiy natijalari haqida ma'lumotlarni yig'ish(to'plash), ishlov berish va tahlil qilish, ularnirejadagi ko'rsatkichlar bilan solishtirish, og'ishlarni aniqlash va bu og'ishlarning sabablarini tahlil qilish, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tadbirlar ishlab chiqish kabilardan iborat.

Nazorat qilish jarayonlarini uch bosqichdan o'tkazish maqsadga muvofiq, ya'ni nazorat oldi, joriy va yakuniy. Ularni o'tkazish tartibi ham uch bosqichdan iborat: ishlangan standartlardan va mezonlar, ular bilan muayyan natijalar va harakatlarga zarur o'zgartirishlar qabul qilishni solishtirib ko'rish. Har bir bosqichda ma'lum tadbirlar amalga oshiriladi.

Firmada standart o'rnatilsa, firma mahsulot (xizmat ko'rsatish) larini standartlarda ko'rsatilganlari bilan solishtirilsa bo'ladigan natijalar solishtirilsa, harakatlarni yoki natijalarni o'lchash imkonи bo'lsa nazorat qilishning jarayonlari to'liq bajarilishi mumkin.

Nazorat qilishdan asosiy maqsad xatolarga yoki yolg'onlarga yo'l qo'ymaslik. Xodimlar hulqiga ijobiy ta'sir etish uchun nazorat jarayonidan foydalanish kerak.

Samarali nazoratni ta'minlash uchun birnecha nazoratning ustivor yo'nalishligi, natijaga mo'ljal qilish, ishga mos kelishi, o'z vaqtida nazorat qilish, nazoratni egiluvchanligi, nazoratni oddiyligi, foydaliligi, xalqaro darajadagi nazoratga mosligi kabi omillarga e'tibor qaratiladi. Samarali nazorat o'tkazishning omillari: rasmiy ma'lumot tizimiga zarurat; komp'yuter, internet va axborotli

boshqarish tizimi, axborotli-boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, xodimlar malakasi ni zamonaviy boshqarishga mosligi kabi lar.

Axborotli-boshqarish tizimining samaradorligini oshirish uchun foydalanuvchilarni o'rganish, zarur ma'lumotlarni tanlab olish, xizmat ko'rsatuvchi shaxs va uskunalarni ajratish, tizimlar va boshlang'ich ma'lumotlarni zamonaviylashtirilishi maqsadga muvofiq.

### **13.2. Menejmentning strotegik vazifalarining tabiatи va tashkiliy tuzilmasи**

Menejmentning asosiy vazifalari firma faoliyatini tashkil eta bilish (qila olish), bozor talabi va an'anasini ko'ra bilish, chiziqli, amaldorli, chiziq-shtabli rahbarlik tuzilmasi, hududiy tuzilmasi, ishlab chiqarishning unsurlari (marketing, biznes-reja, tashkil etish, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, hisobga olish, moyillik, rejalashtirish), boshqarish san'ati va shu kabilia.

Menejment deb tashkil qila olish va tadbirkorlik xis-tuyg'usiga ega bo'lgan, kasbiy tayyorlangan mutaxasislarni aytish mumkin. Shu bilan birga u ko'pgina ilmiy usullarni amaliy faoliyatda ishlata bilishi kerak, ijodkor ham bo'lishi zarur.

Menejment jarayoni (tashkil etish, texnologiya, rejalashtirish) tashkil etishda biznes-reja, narxni shakllantirish va qarz olish va shu kabilarning vazifalashtirish, boshqaruv xodimlarini tayyorlash ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini amalda qo'llash kabilarni ta'minlashi lozim.

Bozor munosabati sharoitida zamonaviy firmalar (korxonalar, tashkilotlar) faoliyat ko'rsatishlari uchun mahsulot tanlashi va resurslarni sotib olishi kerak. Bozor iqtisodiyotida muommalarning barchasini bozor qonunlariga bo'y singan holda o'zi hal qiladi.

Menejer o'z ishini rejalashtirish va bajarishda har bir unsur kutilmagan qandaydir talablardan kelib chiqadi.

Menejar ishlab chiqariladigan yoki yetishtiriladigan mahsulot hajmini bashorat qilishga harakat qilganda, talab mexanizmida baho asosiy unsur ekanligini

unutmasligi kerak. Bozorda mahsulot talabdan ziyod bo'lishi mumkin, bu holda mahsulot hajmini oshirish uchun mahsulot narxini pasaytirish kerak. Bozor jarayonini karomat qilish qiyin. U talab va takliflarning o'zaro ta'sir etuvchi bozor mexanizmini, narxning shakllanishini va shu kabi an'analarni bilishi kerak. Bu yerda faqat mahsulot (xizmat ko'rsatish) emas, uni ishlab chiqarish (etishtirish, xizmat ko'rsatish)ga jalb qilingan xodimlarning mahoratlari ham muhim.

Firma ichidagi strategik boshqarish chiziqli, amaldorli, chiziq-shtabli, "mahsulot bo'yicha" tashkiliy tuzilma ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Chiziqli tashkiliy tuzilmadagi menejmentning hamma vazifalari bo'linma menejeri qo'lida (vazifasida, ixtiyorida) bo'ladi. Amaldorli tuzilmada menejer faoliyatining muayyan bir sohasiga ixtisoslashadi va unga javob beradi. Chiziqli-shtabli tashkiliy tuzilmada rejalashtirish, hisobga olish va nazorat masalalarini yanada malakaliroq hal qilinidi.

"Mahsulot bo'yicha" tashkiliy tuzilmada boshqarish ancha murakkab, u firmani boshqarishning avtomatik tizimi sharoitidagi an'anal chiziqli-funksional tuzilmaning rivojlangan shaklidir.

Menejmentning mazmuni uning vazifasini ochadi. Menejmentning strategik vazifasi: tarmoq iqtisodiyotining tuzilmasi; uning hududiy tuzilmasi; ishlab chiqarish(xizmat ko'rsatish)ning alohida unsurlari. Ularning o'ziga xos vazifalari: marketing, biznes-reja, tashkil etish, tartibga solish(sozlash), rag'batlantirish, nazorat, hisobga olish, moyillik, rejalashtirish, bashoratlash.

Menejmentning strategik vazifalariga zarur bo'lgan tarkibi va mazmuniga e'tibor (xolis) berilishi kerak, aks holda samara pasayadi.

Menejmentning mehnat faoliyati ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy, pedagogik, kasbiy va boshqa-boshqa fanlar bilan bog'liq. Ularning tavsiyalaridan foydalanish boshqarish san'atini oshiradi. Shunday qilib, menejment strategik vazifalarining tabiatini tushunish uchun uning tushunchalar toifalari bilan bo'ladigan munosabatlari birgalikda tasavvur qilish lozim. Bir tomondan iqtisod, bozor, tadbirkorlik, marketing kabilar faraz qilinsa, ikkinchi tomondan ushbu har bir tushunchalarning ko'rinishini

o'zi tanlash ifodasida menejment tizimiga unsur bo'lib kiradi, birlashib borib shakl ko'rinishini oladi. Oqibatda menejmentning tashkiliy tuzilmasi paydo bo'ladi.

### **13.3. Menejment tizimida guruhlarning o'zgarishi va rahnamolik**

Menejment tizimidagi guruh-bu ikki yoki undan ziyod insonlar bo'lib, ulardan har biri bir vaqtda boshqacha ta'sir ko'rsatadi, va uning ta'sirini o'zi ham xis qiladi.

Rahbariyat o'z ixtiyori bilan guruhlarni yaratadi, ya'ni firmadagi tashkiliy tuzilma bo'linmalaridir (hisobchilar, reja va boshqa bo'limlar). Bular rasmiy guruhlar.

Rasmiy firma (tashkilot, korxona, korporatsiya) va guruhlar yaratilishi bilanoq, u yana ijtimoiy muhit bo'lib qoladi, unda rahbar istamagan yo'l-yo'riqlar bo'yicha xodimlar o'zaro ta'sir ko'rsatadilar. Ijtimoiy o'zaro munosabatlardan ko'pgina do'stona guruxlar, norasmiy guruxlar paydo bo'la boshlaydi, bularning barchasi bir bo'lib norasmiy firma (tashkilot, korxona) ko'rinishini olodi.

Norasmiy firma-bu o'z-o'zidan yuzaga keladigan insonlar guruhi, bunda ma'lum maqsadlarga erishish muntazam o'zaro ta'sir etadi.

Rasmiy firmada biror o'zgarish o'tkaziladigan bo'lsa norasmiy firma qarshilik ko'rsatadi. Masalan, yangi texnologiyani joriy etish guruhlarga ta'sir ko'rsatadi, mansablari, holatlari o'zgaradi. Buni sezgan kishilar xolis (ob'ektiv) bo'ladigan o'zgarishlar guruhlarga xavf soladi. Rahbariyat qarshilikni pasaytirish uchun qabul qilingan yechimda qatnashuvchilarni rag'batlantiradilar.

Rasmiy firmadagi kabi norasmiy firmalarda ham o'z rahnamolari bo'ladi. Norasmiy rahnamo o'zining holatiga erishadi, ya'ni guruh a'zolariga o'zining munosabati

bo'yicha mansabga ega bo'ladi va qo'llaydi. Bu yerda norasmiy rahnamoni rasmiy firma rahnamosi kabi xodimlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Norasmiy rahnamo gurux maqsadiga erishishida yordam beradi, uni faoliyat ko'rsatishini qo'llaydi va mustahkamlaydi.

Norasmiy firmalar rasmiy firma bilan vaqt-i-vaqt bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar, rahbarlar buni tushunishlari muhim.

Norasmiy firmani boshqarish uchun norasmiy firmani mavjudligini tan olish va tushinib yetish kerak, ularni qo'rqitish o'rniga, ular bilan ishlash kerak. Norasmiy guruhlarning a'zolari va rahnomalari fikrini eshitish lozim, to'g'ri xulosa chiqarish foydali.

### **13.4. Firma xodimlari va mehnat jamoalarini boshqarish**

Firmadagi xodimlar va mehnat jamoalari o'zaro munosabatlardan tashkil topadi. Firma (tashkilot, korxona, korporatsiya) ni boshqarishdagi iqtisodiy tizimlar, tashkiliy tuzilmalar, ularning ish usullari, iqtisodiy mezonlar shaxslar bir-birlari bilan o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Firmadagi xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlari o'zaro bog'liq bo'ladi. O'zaro bog'liqlik muammoining mazmuni: hulqi qanday; firma qamroviga xodimning qo'shilishi.

Firmada xodimning ishi uning firma qamrovi bilan doimiy o'zaro ta'sir etuvchi jarayondir. Xodim firma qamrovidan ko'pgina ehtiyojlarini qondirishni kutsa, firma ham xodimdan ko'pgina ish kutadi.

Har bir xodim hayotida firma(korxona, tashkilot, korporatsiya) ga kirish jarayonini bir necha marta "boshidan" o'tkazishi mumkin. Firmada bo'lism, uning a'zosi bo'lism, va firmaga kirish, uning a'zosi bo'lib qolish bir xil narsa degani emas.

Firmaga yangi kelgan xodimning muvaffaqiyatli ishlab ketishiga muhim shartlardan biri ushbu firmaning qimmatli tizimini, qoida, me'yor va hulqiy tarzlarini o'rganishdir. Bularga: firmaning bosh maqsadlari; firmaning maqsadlariga erishish uchun afzal vositalarni ishlatalishi; firmaning nufuzi; firmaning bir butun organizm

bo'lib faoliyat ko'rsatishidagi tamoyillari, qoida va me'yorlar; xodim o'ziga oladigan majburiyatlari; xodim o'z burchini bajarishi uchun zarur bo'lgan hulqiy standartlar kiradi.

Ishga qabul qilingan xodim, firma uni nima uchun kerakligini va foyda bo'lishini, ma'lum ahamiyatini bilishi lozim.

Firmaga yangi a'zoni qo'shilishining yakuniy bosqichi uni firmaga to'la huquqli a'zo bo'lib o'tishi bilan yakunlanadi.

Firma qadriyatini va me'yorlarni xodim tomonidan qanchalar o'zlashtirilganligi va qabul qilinganligiga qarab xodimni firmaga qo'shilganlik darajasini belgilash mumkin.

Xodim firma faoliyatining ishtirokchisi, shuning uchun u firmaning ichki va tashqi muhitini idrok etishi zarur (his etishi, sezishi, ishonishi, qadriyati, imoni,...).

Yana shuni unutmaslik lozimki, barcha xodimlar birdek emaslar. Xodimning barcha tavsiflarida uning farqi namoyon bo'ladi. Xodimlarning bo'yi, vazni, yoshi, jinsi, ma'lumoti bilan farqlanadilar, har xil tilda so'zlashadi, bir xil harakatni turlicha bajaradi va o'xhash holatlarda o'zini turlicha tutadi. Bu turli-tumanlik xodimni xodim qiladi, mashina emas, firmanın imkoniyati va salohiyatini sezilarli kengaytiradi. Xuddi shu turli-tumanlik tashkil etishni boshqarishda muammolar, kelishmovchiliklar, ixtiloflar, nizolar, asab buzar holalar, qarama-qarshilik vaziyatlar paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Xodim hulqining boshlang'ich shaxsiyati bo'lib idrok qilish, mezonnning asosi va moyilliklar hisoblanadi.

Shaxs ijtimoiy faoliyatini tafsiflab bera oladigan alohida ta'rifga muxtoj. Inson hissiy (ya'ni sezgi a'zolari yordamida idrok etiladigan) xususiyatlarga- xulq-atvor, nutq, imo-ishora va xususiyatlarga egadir.

Idrok qilish- bu inson ichki va tashqi muhitda bo'layotgan voqeja, xodisa, jarayon va tizimni ongida aks ettirishi.

Xodim firmani idrok qilishi ichki jarayondan iborat: ma'lumotlarni tanlab olish va ma'lumotlarni tizimlash.

Ma'lumotlarni tanlashda har xil kanallardan ma'lumot olinadi. Olingan ma'lumotlar mantiqan ishlov berish usuli orqali, hissiyoti, sezgisi, ishonch orqali ma'lumotlarga ishlov beradi, ularni tizimlaydi.

Xodimlar jamoasini (ayniqsa mehnat jamoalarini) boshqarish keng qamrovli. Shuning uchun rahbar (menejment) ning vazifasi o'ta keng qamrovli (tashkil etish, rejalashtirish, bashoratlash,...). U unumdorlik va samaradorlik haqida ham o'ylashi kerak, boshqa firma (tashkilot, korxona,...) larga qaraganda uning firmasi unumliroq ishlashi lozim: mehnat resurslaridan samarali foydalanishi (mehnat resurslarini rejalashtirish, mehnat mahoratlarini ro'yxat qilish, mehnat operatsiyalarini tahlil qilish, ish(mehnat) haqi, qo'shimcha imtiyozlar, ishning mazmundorligi,...); mehnat resurslarini boshqarish (xodimlar bo'limi, mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyojini rejalashtirish va bashoratlash, ishga xodim qabul qilish, tanlab qabul qilish, ish haqi va imtiyozlarni aniqlash, kasb tanlash va moslashuv, ta'lim berish, mehnat faoliyatini baholash, rahbar xodimlarni tayyorlash, yuqori lavozimga ko'tarish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish).

Boshqaruvchi xodimlarni tayyorlash har xil kurslar, seminarlar yoki rotatsiya (almashlab, belgilangan tartibda almashib) tashkil qilish yo'llari bilan amalga oshirilishi mumkin.

### **13.5. Samarali boshqarish va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) samaradorligini umumiyl o'sishini ta'minlash**

Ishlab chiqarishni boshqarishda firmanın ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatları tizimini tuzish, ishlab chiqarishda operatsiya tizimini ishlab turishi va unumdorlikni boshqarishda majmui yo'l muhim ahamiyat kasb etadi.

Firmalarning ishlab chiqarish faoliyatlarini boshqarishga tizimli yondashish nima ekanligini tushunish uchun operatsiyali tizim, firma (tashkilot, korxona) larni boshqarishning mohiyati, operatsiyali tizimning toifvlari, operatsiyali vazifa bilan firmanın boshqa vazifalari orasidagi bog'liqlik, yuksak ishlab chiqarish va firma,

raqobatlasha olish qobiliyati, ishlab chiqarish sohasida bosh yechimlar, xalqaro bozor sharoitida ishlab chiqarishning bosh yo'nalishi kabi atamalarni bilish kerak.

Firmada operatsiyali vazifa – tashqi firmalarga yetkazib beriladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi va xizmatlar bajariladi.

Operatsiyali tizim qayta ishlanadigan kichik tizimlar, ta'minlash kichik tizimlari va rejalashtirish va nazorat kichik tizimlardan tashkil topgan. Operatsiyali tizimning asosiy maqsadi is'temolchilardagi ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot chiqarishda yoki xizmat ko'rsatishda ifodalanadi.

Firmalarning boshqarishning mohiyatiga ko'p sonli operatsiyali menejerlarning majburiyati kiradi.

Operatsiyali tizimning toifalari: qayta ishlanadigan tizimlarning turi-loyiha, kichik xajmdagi, ommaviy ishlab chiqarish, uzlucksiz jarayon, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hususiyati bo'yicha-mahsulot (qurilish pudratchisi, tipografiya, mahsulotni qayta ishslash), xizmat ko'rsatish (vrach-terapeft, transportni ta'minlash shahobchasi, aeroport, radiostansiya).

Operatsiyali vazifa bilan firmanın boshqa vazifalari orasidagi bog'liqlik- bu o'ta muhim va murakkab ishchi munosabatlari. Ushbu munosabatlardagi samarali boshqarishni ta'minlash zarur. Kelishmovchilik va to'qnashuvlarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Xalqaro raqobat ishlab chiqarish sohasidagi "ishlab chiqarish-is'temolchilarning ehtiyoji" zanjiriga e'tibor berishga majbur qilinmoqda, ya'ni "aniq vaqtda", sifatni majmui nazorat tamoyili, ta'mirlov-oldini olish xizmatining majmui tamoyili kabilarga rioya qilish samara beradi. Omilkorlik bilan ishslash samaradorlik garovi. Firmada operatsiyali tizimning ishlab turishi ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, bashoratlash va ularni borishini nazorat qilish muammolari va yechimini topilishi mutaxasisdan ko'p jarayonlarni bilishni talab qiladi. Masalan, ishlab chiqarishni tezkor boshqarish, mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish, zahirasidagi resurs (material) larni boshqarish, loyihalarni boshqarish, loyihalarni boshqarish usullari, sifatni ta'minlash kabi yo'nalishlarni yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish firmaning ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qilishning muhim ajralmas qismi hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda taqvumlm rejalashtirishning mazmuni va tavsifi muhim o'rin tutadi. Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish operatsiyali tizimni umumiy ehtiyojlarning o'zgarishini hisobga olgan holda, qanday foydalanishi haqida yechim qabul qilishni ko'zda tutadi. Umumiy ehtiyoj-bu operatsiya tizimi ishlab turganda barcha mahsulot yoki xizmat ko'rsatishlarga bo'lgan talablar yig'indisi. Umumiy talablar odatda tizimni ish bilan ta'minlanganlik birligida o'lchanadi.

Samaradorlik (unumdorlik) ka juda ko'p omillar (materiallar yoki resurslar, mehnat, sarmoya, energiya, texnika va transport, axborot va aloqa, energiya, rahbarlik, bashoratlash va rejalashtirish, tashkil etish, moyillik, yechim qabul qilish, nazorat va xokazolar) ta'sir qiladi. YUqori samaradorlikni bir-tekis ta'minlab turli boshqarish tizimining barcha vazifalariga va barcha bog'lovchi jarayonlarga taalluqli.

Butun firma (korxona, tashkilot, korporatsiya) samaradorligini oshirish uchun har bir bosqich rahbari o'zining har kunlik ishida rioya qilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Fan texnika taraqqiyotini boshqarishdagi yutuqlari, boshqaruv mehnatining samaradorligi, boshqaruv mehnati unumdorligi, egiluvchan tizim va hokazolar keng qo'llanishi samaradorlikni oshiradi.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar.**

1. Firma jamoasini zamonaviy boshqarish qanday fanlar bilan uzviy bog'liq?
2. Menejment tizimida faoliyatni tartibga solish qanday muammolarni ijobiy hal etishni talab etadi?
3. Davlat tomonidan firmalar faoliyatini tartibga solish kimlar orqali amalga oshiriladi?
4. Firma jamoasi faoliyatini boshqarish nazoratining mohiyati nimalardan iborat va nimada ifodalanadi?

5. Firma faoliyatini nazorat qilishdan nima maqsad?
6. Samarali nazorat o'tkazishga qanday erishiladi?
7. Menejmentning asosiy komponentlari nima o'zi?
8. Bozor talabi va an'anasini ko'ra bilish firma faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
9. Firma ichidagi chiziqli va funksional rahbarlik qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin?
10. Menejmentning vazifalari nimalardan iborat?
11. Menejmentni nima uchun boshqarish san'ati deb aytiladi?
12. Menejmentda moyillik faoliyati nimalardan iborat?
13. Moyillik jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
14. Menejment tizimida guruhlarning o'zgarishiga tavsif berilsin.
15. Firma xodimlarini boshqarish qanday munosabatlardan tashkil topgan?
16. Xodimni firmaga kirib kelishiga tavsif berilsin.
17. Firma faoliyatidagi tashkiliy o'zaro ta'sirida shaxsiyat yo'naliishlari (hissiy xususiyatlar, idrok qilish) nimalarda namoyon bo'ladi?
18. Firmada mehnat jamoalarini boshqarish kimning asosiy vazifasi?
19. Ishlab chiqarishni samarali boshqarishda firmanın ishlab chiqarish faoliyatları tizimini tuzishga ta'rif berilsin.
20. Ishlab chiqarishda operatsiya tizimini ishlab turishi umumiy ehtiyojlarning o'zgarishiga qanday ta'sir etadi?
21. Samaradorlikni boshqarishda qanday tadbirlarni amalga oshirishi lozim?

## **14-mavzu. Ishlab chiqarish boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari**

*Har bir san'at, har bir san'at tizimi qoidalar va shu qoidalarni himoya qiluvchi nazariy fikrlardan iborat*

**Dj. S. Mill**

### **14.1. Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning roli**

Tuzilma tizim qurilishining shakli, tizim unsurlarining muqim o'zaro aloqalarining yaxlitligidir. Tuzilma funksional munosabatlarining umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

Organik tuzilma – sodda xususiyatli bo'lib, keng axborot tarmog'iga ega. Organik tuzilma boshqaruvi markazlashtirilmagan.

Shunday qilib, mexanik tuzilma boshqaruvning qat'iy qonunlarga bo'ysunadi. Organik boshqaruvi esa egiluvchan, murosali boshqaruvdir. Organik boshqaruvda qoida va tavsiyanomalar kam bo'lib, qaror qabul qilishda quyi boshqaruv xalqalar keng huquqga ega. Organik boshqaruv tuzilmada muomilalar do'stona shakl va uslubda kechadi. Mexanik boshqaruvda esa munosabatlar buyruq va ko'rsatmalarga asoslanadi. Organik boshqaruv menejerlari yuqori malakaga ega bo'ladi.

Qattiq va bo'sh nazorat qilinayotgan tuzilmalarda rahbar va xodimlar o'zlarini qanday xis etib, harakat qiladi degan savol ham muhim ahamiyat kasb etadi. Menejment sohalarida olib borilgan tadqiqotlar quyidagilarni aniqladi:

Qo'l ostidagi xodimlar soni oshaversa rahbar-menejerning mehnatdan olayotgan qoniqish oshib boradi.

Har bir murakkab tizim bir-biriga bo'ysunish, ko'p sathli tamoyilarasi asosida shakllanadi. Boshqaruvning sifati tuzilmaning yuqori xalqasidan bir hil masofada uzoqlashgan va teng huquqga ega bo'lgan tizim unsurlari bilan belgilanadi. Tizim boshqaruvning funksiyasini amalga oshirish uchun maxsus apparat tashkil etiladi.

Uning tuzilmasi xalqalar va boshqaruvning bir-biriga tobe bo’lgan bosqichlar miqdori bilan belgilanadi.

Boshqaruv tuzilmaning shakllantiruvchi unsurlar aloqasini va butun tizim faoliyatini ta’milashi kerak. Bu qoida har bir ishlab chiqarish jamoa, har bir jamiyat, shu jumladan, oila munosabatlariga ham taa’luqlidir. Bundan tashqari bir-biriga tobeklik barcha jonzotlarga ham xosdir. To’da (poda, gala) bo’lib yashovchi hayvonlar tobeklik asosida tashkil etilgan. To’da bo’lib hayot kechirayotganligi ularni tirik qolishiga kafolat beradi va bu aloqalarni uzilishi naslini yo’q bo’lib ketishiga olib keladi. Tuzilmani bunday shakllanishi, uning vakillari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tartibga keltiradi, istiqomat joyiga, ovqatga, ovga, jinsiy aloqaga oid tartibni belgilaydi.

Boshqaruv tizimining oqilona tashkil etilgan tuzilmasi uning samaradorligini belgilab beradi, ya’ni boshqaruv ob’ektning ko’p sonli unsurlar aloqalari mustahkamligini va tizim yaxlitligini ta’minlaydi. Utizim unsurlarini bir butun holga keltiradi. Boshqaruv tizim shakli va tashkiliy tomonlariga, ishni tashkil qilish usullariga, muvofiq lashtirishga ta’sir qiladi, tizim faoliyati natijasini baholashga va qiyoslashga imkon beradi.

Tuzilma boshqaruv texnologiyasiga ta’sir ko’rsatadi, axborotni oqilona tarqatish, hodimlarni tanlash va lavozimiga qo’yishdagi boshqaruv texnikalarini ishlatish bilan bog’liq vazifalar qo’yadi. Tizimning “ichki muhitini” uning asosiy funksiyalari yordamida aniqlab olsa bo’ladi.

Murakkab tizimlarda butunlik o’z qismlarining yig’indisidan ko’p. Butunlik imkoniyati uning qismlari imkoniyatlaridan kengroqdir. Mashhur sinergiya qonuni (grek. Synergos) I.Ansoff tomonidan kiritilgan bo’lib, birgalikda kelishilgan ma’noni bildiradi. Bu tizim algebradagi yig’indilarni tashkil qiluvchi unsurlar tizimidan farqlanadi. Sinergiya o’ziga xos tomonlari 2q2q5 formulasi bilan ifodalanadi.

Ushbu formulani ishlab chiqarishga qo’llanganda yirik korxonaning daromadi unga qarashli filiallar daromadlarining yig’indisidan ko’ra ortiqchadir.

Birinchi ko'rinishda antiqa tuyulgan bu mavxumlikni real hayotdagি ishlab chiqarishga tadbiq etilsa katta korxona faoliyatidan olingan daromad yig'indisi har bir filialning daromad yig'indisi ko'rsatkichidan ancha oshiqchadir.

Shuni ta'kidlash joizki, tizim unsurlarining asosiy parametrlari ma'lum bo'lganda ham butun tizim xususiyati haqida hulosa chiqarish qiyin.

mexanizmlarni aniqlash va guruhlash (segmentatsiyalash) ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz. Chunki keyingi yillarda (O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra) 189235 xo'jalik mavjud bo'lib, ularning yer maydoni 4953 ming ga ni tashkil etadi, ushbu xo'jaliklardagi band bo'lган ishchilar soni 1397 ming kishidan iborat.

Shunday qilib, 1993-2006 yillar mobaynida respublikamizda fermer xo'jaliklari soni 26,1 marta, ularga ijara berilgan yer maydoni 70,1 marta (ya'ni bir xo'jalikka to'g'ri keladigan yer maydoni 2,7 marta), ularda band bo'lган ishchilar soni 48,2 marta (ya'ni bitta xo'jalikda band bo'lган ishchilar soni 1,9 marta) oshdi.

Tahlillar ko'rsatadiki, keyingi 6 yil mobaynida eng asosiy ekin turlari bo'yicha hosildorlik dehqon xo'jaliklarida fermer xo'jaliklariga nisbatan 1,2-1,9 marta, boshqa xo'jaliklarga nisbatan esa 1,2-2,2 marta yuqori bo'lib kelgan.

Turli toifadagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yer va mehnat resurslaridan foydalanish ko'asatkichlariga ko'ra kishi hisobiga don, bug'doy, sholi ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklarining ko'rsatkichlari yuqori.

YUqoridagi ilmiy tahlillar asosida shuni ta'kidlash lozimki, respublikada turli toifadagi xo'jaliklar sonini ko'payishi qishloq aholisining daromadi va ish bilan bandlik darajasini oshirmoqda. Bu esa agrosanoat korxonalarining o'z xo'jalik faoliyatini samarali va mustaqil yuritishdan manfaatdor bo'lismiga va shundan kelib chiqqan holda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshirish va oqibatda qishloq xo'jaligining yalpi mahsulot ishlab chiqarishida asosiy xo'jalik sub'ektlariga aylanishiga asos bo'ladi.

Agar agrosanoat korxonalarining har biri xo'jalikdag'i mehnat predmeti, quroli, vositasi, ijodiy mehnati va ilg'or tajriba, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish texnologiyalarini amalg'a oshirish, mehnatni oqilona tashkil etish va ularning tashkiliy samaradorligini oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatsalar, qancha qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishlari mumkin, uni tasavvur etish qiyin bo'lib qoladi.

Agrosanoat korxonalaridagi resurslardan yanada samarali foydalanish va ularni har tomonlama yuqori daraja rivojlantirish imkoniyatlari mavjud deb hisoblaymiz.

Ulardan biri agrosanoat firmalarida yangiliklarni qo'llash faoliyatini takomillashtirishdir.

Ko'pgina korxona rahbarlari va tadbirkorlar biznes muammolari va kundalik faoliyatlari bilan shunchalar band bo'ladi larki, hatto bozor munosabatlaridagi holatlarni baholashga vaqtlanini ajratishlari qiyin. Bozorshunoslik xizmatlar bozorini o'rghanish va tashkil qilish, ya'ni ixcham qilib ifodalanganda, marketingga tayanish zarurligini, busiz iqtisodiy maqsadga erishish gumanligini esa yuqori darajada xis etishlari lozim. Marketingning g'oyalari har bir mustaqil fikr yurituvchi inson yoki firma, dehqon, shaxsiy xo'jaliklari, korxona va boshqa muassalar faoliyatida qo'llaniladi.

Marketing korxona rahbarlariga o'z faoliyatini chuqur anglash, mijozlarga yaqinlashish, yangi bozorlarni zabit etgan holda muvaffaqiyatli raqobatlashish va rivojlanish uchun zarur. Lekin bu murakkab ko'prejali va o'zgaruvchan taraqqiy etuvchi xodisa. Shu nuqtai nazardan qaralganda qishloq xo'jaligida marketing xizmatini quyidagicha toifalash mumkin:

- mahsulot yetishtirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan marketing xizmati (texnikoviy xizmat, agrokimyo xizmati, melioratsiya va oqar suv bilan ta'minlash xizmati, urug'chilik xizmati, bular ko'proq dehqonchilik tarmog'iga xos bo'lsa, chorvachilik tarmog'iga xizmat ko'rsatuvchi marketing va ikkala tarmoq uchun xizmat ko'rsatuvchi marketing xizmatlari, ya'ni moddiy-materiallar bilan ta'minlash xizmati, transport xizmati, mahsulotlarni tayyorlash, saralash, saqlash, qayta ishslash xizmati kabilardir);
- mahsulot yetishtirish bilan bevosita bog'liq bo'limgan marketing (servis) xizmatlari, konsalting va axborot xizmati; qurilish xizmati; moliyaviy tahlil va auditorlik xizmati; bank xizmati; reinjering.

YUqorida qisqa qayd etilgan fikrlardan ma'lumki, marketing munosabatlarining mexanizmi o'ta keng qamrovli bo'lib, uning har bir yo'naliishi korxona faoliyatining sohalarida tadbirkorlikdan ijodkorlik, bunyodkorlik, mahsulot yoki xizmat ko'rsatish harakatining g'oyasini aniq ajrata olishini talab etadi. Shu bois

biz qishloq xo'jaligida marketing xizmatini tasniflashdan tashqari, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarini har bir sub'ekt va ob'ektga bog'liqligini e'tiborga olgan holda guruhlash agrosanoat firmalari faoliyatida marketingning mexanizmlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadilar:

- xizmat ko'rsatuvchi yoki ijrochilar faoliyatiga bog'liq omillar, ya'ni mahsulotga bo'lgan talablarni o'rghanish, talabga ta'sir etish va moslashish, buyurtmachilar uchun qulay va yaqin bo'lgan joyni tanlash, moliyalashtirishda ichki manbalardan foydalanish, mahsulotlaridan foydalanuvchilarni jalb etish va qiziqtirish, xizmatlarga baxo belgilash va shu kabilar;
- buyurtmachilarga bog'liq bo'lgan omillar-shug'ullanadigan faoliyat turi yetishtirilgan mahsulotdan foydalanidigan xizmat turi, moliyaviy imkoniyati mahsulotlarga bo'lgan ishonch va munosabat mahsulotlarga bo'lgan talab va takliflar va shu kabilar;
- tashqi muxitga bog'liq bo'lgan omillar, ya'ni mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ilmiy-texnik taraqqiyot, xududiy boshqaruv va xuquqni himoya qiluvchi organlar, raqobatchilar, xom-ashyo yetkazib beruvchi korxonalar;
- huquqiy, me'yoriy xujjatlar va davlat siyosatiga bog'liq bo'lgan omillar.

Qurib o'tilgan omillarni har bir sub'ekt va ob'ektlarga bog'liqligini hisobga olish lozim. Shu bilan birga qishloq xo'jaligida marketing xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarining tasniflari ham e'tiborga loyiq.

Yana bir muhim mexanizmi, bu marketing xizmati ko'rsatish korxonalari bilan buyurtmachilar yoki is'temolchilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar tizimidir:

- buyurtmachilarning daromadi, moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy xolat;
- xizmat baxolari, undan foydalanuvchilarning imkoniyatlari hisobga olinganligi;
- mahsulot, ish va xizmatlarning sifati va bajaruvchining texnik-texnalogik mahorat darajasi;

- etishtirilgan mahsulotlarning sifatini kafolatlanganlik darajasi;
- tomonlarning o'zaro moddiy manfaatdorligi;
- majburiyatni bajarmagan tomonlarning moddiy javobgarligi;
- tomonlarning huquqiy bilimi va qonunga rioya qilish madaniyati.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tashkiliy mexanizmlar va ularning mukammallashtirilishi natijasida mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari (fermer, dehqon va shaxsiy xo'jaliklar, muqobil mashina-traktor parklari, aksionerlik jamiyatlarining mashina-traktor parklari va boshqa infratuzilmalar) vujudga keldi va erkin raqobatchilik muhitini vujudga keltirib, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektni kam sarf-xarajat qilgan holda, sifatli va arzon mahsulot yetishtirishga undaydi. Mahsulot birligiga ketadigan xarajatlar kam, sifati yuqori bo'lishi esa, ko'p jihatdan xududda marketing xizmatlarining qanday tashkil etilganligiga, mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlarning qanchalik sifatli bajarilishiga, agrar sektorda ushbu tizimning qay darajada taraqqiy etganligiga va mukammallashtirilganlik darajasiga to'g'ri proporsionaldir.

Shunday qilib, agrosanoat korxonalari faoliyatida marketingning tashkiliy mexanizmini mukammallashtirish orqali qishloq xo'jaligida marketing xizmatlarini toifalashga, texnik servis xizmati ko'rsatish firmalarining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi va faoliyat yuritish mexanizmidan foydalanishga e'tiborni oshirish maqsadga muvofiqdir.

### **O'zini o'zi sinash uchun savollar.**

1. Nima uchun korxona faoliyatini tashkiliy boshqarish tuzilmasi korxonaga rahbarlik qilishning muhim manbai hisoblanadi?
2. Korxonada operatsiyali tizimga tavsif bering?
3. Operatsiyali tizim qanday toifalardan iborat?
4. Menejment va menejer larga izoh bering.
5. Fan-texnika taraqqiyotini boshqarishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

6. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish mutaxassisdan nimalarni bilishni talab qiladi?
7. Ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning muhim unsurlari nimalardan iborat?
8. Ishlab chiqarishda operatsiyali tizimning umumiy talablari nimalardan tashkil topadi?

## **16-mavzu. Zamonaviy ishlab chiqarishda unumdorlikni boshqarishda majmuaviy yo'l**

Ishlab chiqarishni samarali boshqarish uchun iqtisodiy izlanish, izlanishlarning ijobiliy tomonlari, xarajatlarni baholash usullari va uslublari, ishlab chiqarish va moddiy bazasini loyihalash, obektlarni guruhlash kabi muammolarni o'rganish va yechish maqsadlaridan iborat. Buning uchun siyosat, mo'ljal ishlab chiqishda iqtisodiy tamoyillar foydali. Chunki iqtisodiy tamoyillar biroz kam darajada aniqlik munosabatida bo'ladi.

Respublikamizda har yili dehqonchilikda 13-14 mln t o'simlmk mahsulotlari yetishtirilsa, chorvachilikda – 4 mln tonnadan ziyod sut, go'sht, pilla, jun ishlab chiqariladi, yana 2 mln donadan ortiq tuxum, qorako'l yetishtiriladi. Bu mahsulotlarni istemolchilarga yetkazgunga qadar qator texnik, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va boshqaruv jarayonlarini bosib o'tadi. Ularning har bir bosqichi (bo'g'ini) da inson, ijrochi, mutaxassis ishtirok etadi.

Qishloq xo'jaligidagi ilmiy izlanishning iqtisodiy tamoyillarini milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, u holda asosiy tamoyillardan deb quyidagilarni takidlash mumkin:

- fan-texnika va tadbirkorliklarning taraqqiyot darajasini hisobga olish, ularning ilmiyligi, ularga tizimli va majmui yondashilish, qishloq xo'jalik tizimida qatnashuvchi bo'g'inlarning bog'lab olib borilishi, interatsiya va nomarkazlashtirilgan jarayonlaridan oqilona foydalanish, resurslardan tejamli foydalanish, mahsulot (hizmat ko'rsatish, iqtisodiy izlanish mahsulotlari) sifati va samaradorligini oshirish, mulkchilik shakllari va xo'jalik hisobi, tijorat hisobi, reklama va marketinglardan unumli foydalanish, hududiy va tashkiliy tuzilmalari siyosatiga etiborni qaratish kabilar;
- iqtisodiy izlanishning miqyosi va hajmlarinig bajarilishini aniqlash;
- marketingning vazifasi va tavsiyalaridan unumli foydalanish;

- bashoratlash usullaridan zamonaviy kompyuter va Internet imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- bo'lim va bo'linmalar, firmalararo boshqarish tizimini davr taraqqiyotiga mos takomillashtirish;
- barkamol inson salohiyati va tadbirkor-ijodkorlik belgilardan oqilona foydalanish.

Agar korxonadagi borliqni 100% deb qabul qilinsa, uning 15% ini barcha moddiy mablag'ga, 5 % i moliya vositalariga to'g'ri keladi, qolgan 80 % xodimlar va ularning mehnati tashkil etadi. Shuni unutmagan holda mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga muhim etiborni oshirish shart va bu ayniqsa XXI asrda yanada faollashadi.

Birgina ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish unumdorlikni taminlamaydi va bunda sifat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun unumdorlikni boshqarishda majmua yo'lning asosiy tarkibiy unsurlari:

- unumdorlikka tizimli qarash;
- unumdorlikka sifatning tasir ko'rsatkichi;
- unumdorlik bilan mahsulot bahosi va sifatining bog'liqliklari;
- "kirish-chiqish" davri;
- unumdorlik va korxonalarining o'zaro bog'liqliklari;
- unumdorlik va tashqi muhit;
- unumdorlik va ichki muhit kabilarga etibor berilishi.

YUqori unumdorlikni bir tekis taminlab turish boshqarish tizimining barcha vazifalariga va barcha bog'lovchi jarayonlar –aloqa yo'li, yechim qabul qilish va rahnomalikni taminlash kabilarga taalluqli.

Xulosa qilib aytish mumkinki, moddiy boylik, mehnat hamda moliya nematlarini maksimal tejashda, asossiz xarajatlarga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega. Moddiy, iqtisodiy, ijtimoiy masuliyatlar hissalarini kuchaytirish, mehnat hamda ijrochilik intizomini mustahkamlash, barcha korxonalar masalalarini o'z vaqtida yechib berish talab etiladi. Korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga

doir ko'rsatkichlarni yaxshilash, rahbarlar, menejerlar, mutaxassislar, shuningdek boshqa xodimlarning malakasini tinmay oshirib borish yo'li bilan kam mexnat va kam mablag' sarflab, ko'p va sifatli mahsulot (ish, xizmat ko'rsatish) ishlab chiqarish lozim.

Agarda ishlab chiqarish jarayonida yangi yoki yanada mukammallashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etilsa zamonaviy korxonaning samaradorligi mavjud bo'ladi.

Unumdorlik mahsulotlari bozorida, birvaqt yangiliklar bozori va moliyaviy bozorda yaqqol namoyon bo'ladi.

YAngiliklar bozori innovatsion tadbirkorlik, mahsulot-yangiliklarni sotish sharoitlari va joy bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy shakllar va mexanizmlar tizimidek aniqlash mumkin.

Agarda yangilik moddiy ishlab chiqarishda aynan foydalanilsa, u holda baho kutiladigan iqtisodiy natijalarga bog'liq.

### **O'zini o'zi sinash uchun savollar**

1. Ishlab chiqarishni samarali boshqarish uchun nimalarni mukammal o'rganish zarur?
2. Qishloq xo'jaligida ilmiy izlanishning iqtisodiy tamoyillarining asosiyalariga tavsif berilsin?
3. Korxonalarda nima uchun xodimlarning mehnatiga etibor yuqori?
4. Ishlab chiqarishda unumdorlikni boshqarish majmuaviy yo'lining asosiy tarkibiy unsurlariga tushuntirish berilsin?
5. Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatiga doir ko'rsatkichlarni yaxshilashda qanday majmuaviy yo'lda borish lozim?

### **17-mavzu. Boshqaruvning psixologik jihatlari**

*Aql bilan ish tut, Naql bilan el kut.*

## **17.1. Eng asosiy va kamyob resurs**

Zamonaviy boshqaruv nazariyasining maktablari har qanday ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda insonga, shaxsning ustuvorligiga alohida diqqatni qaratadilar. Inson omilining roli zamonaviy olamda muhim hisoblanadi. Ilgari sovet tuzumi uchun jamiyatni qiyofasizlik, insonning o'ziga xosligi, mustaqilligini yetarlicha baholamaslik va yolg'on sotsialistik fikrlash inersiyasi xos edi.

Ijtimoiy ong uchun havfli bo'lган «sen ishlamasang, boshqasi ishlaydi», degan qoida ijtimoiy loqaydlik va shaxsiy ojiz tuyg'usini tug'dirdi. «Tashabbus jazolanadi!», «ko'p o'zingni ko'rsataverma!» – sovet davlat mashinasining mana shunday pozitsiyasi turmush uchun odatiy va qulay edi.

Yangi, original – o'ziga xos tashabbuslar shubhali ko'rindi va, albatta, unga mansabparastlik, tamagirlik, shaxsiy nokamtarlik va hatto revizionizm tamg'asi yopishtirilardi. Mustamlaka davrida boshqaruv qarorini qabul qilishdan o'zini chetga tortsa, kishining ishi barakali, havfsiz bo'lardi. Chunki har qanday tashabbus hamisha ma'lum havf tug'dirar va mas'uliyat yuklardi. Bundan ko'ra kollegial boshqaruv haqidagi fikrlar bilan o'z ma'naviy ojizligini yashirgan holda «yuqoridan» buyruqni bajarish osonroq edi: «Biz o'rtoqlar bilan maslahatlashdik, shunday fikr bor...»-deyilsa olam guliston.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy vazifalari bo'lib, inson imkoniyatlarini rivojlantirish, shaxsning qadr-qimmatiga yetish, erkini, ijodiy tashabbusini hamda ijtimoiy mas'uliyatini tiklash hisoblanadi. Biroq ayni vaqtida shuni aniq tushunish kerakki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronligi yillarida oyoq osti qilingan inson qadr-qimmatini, shaxsning yuksak ma'naviyatini tiklash jamiyatimiz oldida turgan murakkab ijtimoiy muammolardan biridir.

Rahbarlik mansabiga, ayniqsa erkin tadbirkorlik sharoitida hamma erishavermaydi: u kishidan ma'lum shaxsiy xususiyatlarni hamda jamoa bilan o'zaro

harakatda bo'lish kabi professional uquvni talab etadi, uning o'ziga xosliklarini, unga ta'sir qilish me'yorlari va usullarini bilish kerak bo'ladi. Ahir ishlab chiqarish tizimining samaradorligi nafaqat rahbar iste'dodigagina emas, balki mehnatni tashkil etishning jamoa shaklini muvaffaqiyatli bajarishga ham bog'liq. Jamoani boshqaruv – ijodiy jarayondir, chunki sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, jamoat ehtiyojlarini qondiruvchi yangi voqelik yaratish uning natijasi hisoblanadi.

Biroq hozirga qadar ijodning ruhiy-aqliy mexanizmi ravshan tushunilmayapti, chunki shaxsning xulq-atvori rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarining emotsiyal, psixologik va fiziologik asoslari juda murakkabdir. Har bir kishi, o'z fikrlash usuli qulay, deb o'laydi, chunki bu kutilgan natijani beradi, biroq mantiq va izlash algoritmini bilmaslik, soxta yo'llarning, cheklashlar va noto'g'ri tushunchalarning ko'pligi, yangilik yoki haddan ortiq qaltis dadillikdan qo'rqlar tufayli ijod samaradorligi pasayib ketadi.

Lekin inson qobiliyati zahiralari shunday kengki, boshqaruv va ijodiy faoliyat rivoji muammolarini hal qilish ko'p narsani va'da qiladiganga o'xshab tuyuladi. Kishilar har qanday ishlab chiqarish jarayonida murakkab va jumboq tabiatli bo'ladi, biz ular haqda juda oz nazariy tasavvurlarga egamiz.

Haqiqatan, inson, uning aqli, ruhiyati har qanday kompyuterdan, kosmik raketadan ham ko'ra murakkabroqdir. qadimda mutafakkirlar juda qiyin masalani shunday deb ta'riflaganlari bejiz emasdi: «O'zingni o'zing anglab ol». qadimda buyuk mutafakkir Suqrot hayotining oxirida qayg'u bilan shunday degandi: «Men hech nimani bilmashimni bilaman».

Tabiiyki, tashqi muhit rivojlangan intellekt qarshisiga doim yangidan-yangi masalalarni qo'yadiki, rivojlanmagan aql esa buni ko'rmaydi.

Menejer ko'pincha mashinalar bilan emas, aynan odamlar bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Amerikalik menejment ustasi A.Smit shunday degandi: «Temir yo'llarning 95% odamlar va faqat 5% iginan metalldan iboratdir». Agarda yaqin o'tmishda rahbar ortiqcha ish kuchiga ega bo'lib, dangasalarni ishdan bo'shatishni o'ziga ep ko'rgan bo'lsa, tajribali mutaxassislar ishchi resurslarining kamyob turiga

aylandilar, ularning mehnat haqi esa korxona xarajatlarining ancha qismini, ba'zida asosiy qismini tashkil qiladi.

Amerikalik mualliflar N.Dizel va U.Ranyan «Korxona va shaxs xulqi» kitobida shunday yozadilar: «...kishilarni boshqaruv san'ati korxonaning raqobatbardoshligini va rahbariyat ishlarining samaradorligini baholashda tanqidiy lahzalardan biri hisoblanardi. Boshqaruv sohasidagi har bir mutaxassis o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaning har bir unsurlari ishonchli emasligini tushunadi va hamisha jamoa ob-havosi barometri ko'rsatkichlarini va kayfiyatlarni kuzatib turishga majbur, zarur bo'lsa chora-tadbir ko'rishga to'g'ri kelishini juda yaxshi biladi.

Bunday masala ishonchsiz unsurlardan ko'ra mashinaning ishonchliligi bilan bog'liq muammosi paydo bo'lganda J. fon Neyman tomonidan tadqiq qilingan edi. Tadqiqotlardan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday tizimning ishonchliligi unsurlar harakatini, ularning o'zaro aloqalari va boshqaruv tizimini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Tizim unsurlarining o'ziga xos tomonlari kishilarni boshqaruvda doimo hisobga olinishi kerak bo'ladi.

## 17.2. Ruhiyat tahlili nazariyası

*Himmatsiz kishi er sonida emas,  
Va ruhsiz badanli kishi tirik demas.*

*Alisher Navoiy*

Hozirgi rahbarlar o'zlarining kundalik ishlarida favqulodda murakkab ob'ekt bo'lgan inson, shaxs, jamoa bilan ishlashda nima bilan va qanday qurollanganlar? Afsuski, ularning imkoniyat doirasasi faqat intuitsiya, «sinov va xatolar»dan iborat, maqtanishga ham arzimaydigan uslub bor, holos. Psixologiya fan sifatida hozircha o'zining katta kashfiyotlari va yutuqlari uncha ko'p bo'limgan boshqaruv psixologiyasi bilan qurollangandir.

Boshqaruv nazariyasining oliv bo'limi hisoblanmish – boshqaruv san'atining uslublarini asta-sekin o'rganishni davom etamiz. Lekin avval shaxs, jamoa, hokimiyat, mavqe kabi tushunchalar, shaxslar o'rtasidagi munosabatlar qanday yo'lga qo'yilganligini, rahbarlik uslubi qanday shakllanishini birinchi navbatda aniqlab olish kerak bo'ladi.

Psixologiya bu masalalarda rahbar faoliyatida asqotadigan salmoqli darajada nazariy bilimlar, amaliy tadqiqotlarni to'plagan. Haqiqatan, inson shaxsi, uning ichki olami, xulq-atvori juda murakkab va bir-biriga qarama-qarshidir. Har bir inson biosotsial mavjudot sifatida nafaqat o'zining individual xususiyatlariga ega, balki emotsiyal-hayajonlari, intellekti va psixologik betakrorligi bilan o'zi ishlayotgan, yashayotgan, o'qiyotgan jamoa uchun tipik bo'lgan xarakterli belgilari aks ettiradi.

Shaxsning biologik xususiyatlari asosida nasliy ma'lumot, uning genotipi yotadi. Shaxsning ijtimoiy xislatlari muhit, ijtimoiy tevarak-atrof ta'siri ostida shakllanadi.

Shaxs va inson xulq-atvori mavzuini birinchilardan avstriyalik vrach-psixiatr, psixoanaliz nazariyasining asoschisi Zigmund Freyd (1856-1939) tadqiq qilishga urindi. U har bir psixik-ruhiy hodisa negizida muayyan sabab yotadi va insonning o'zini tutishi ko'p jihatdan o'ylab ko'rilmagan, beixtiyor ro'y bergen jarayonlarga bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi. Insonning xulq-atvori ikki harakatchan kuch: seks instinkti hayot (eros) va agressiya instinkti buzilish, o'lim (tanatos) bilan belgilanadi.

Shaxsning psixik-ruhiy hayotida uchta asosiy kurash maydoni mavjud: «u» (id)- tezlikda qondirishni talab qiladigan seksual-shahvoniy va agressiv istaklar; «men» (ego) – haqiqiy tashqi olamga intilish hamda shu istakni qondirishning oqilona yo'llarini aniqlash; super MEN (superego) – axloqiy qoidalar, aslida inson ongidir.

Kishilarning xulq-atvor intilishlarini belgilab beradigan ongsiz harakati, g'oyasi ruhiyat tahlilining asosi bo'lib hisoblanadi va shaxs mohiyatini tushunish uchun o'zini-o'zi kodlashni talab qiladi. Ruhiyat tahlili nevroz va tushlarni shaxsning beixtiyor va ongli tarzdagi xulq-atvori o'rtasidagi nizo yoki murosa natijasi deb

tushuntirib berdi. Boshqaruv san'ati turlaridan biri sifatida Freydning ijod va fantaziya haqidagi fikrlari qiziqarlidir. U she'riy ijod zamirida «biz uyaladigan, o'zimizdan-o'zimiz yashirishimiz kerak bo'lgan va shu tufayli ham ongsizlik doirasiga surib chiqarilgan» seksual-shahvoniy istaklar ham yotadi, deb hisoblaydi.

Murakkab ijtimoiy faoliyatda ishtirok etayotgan kishida nevrotik (Edip tabiatituri) mayllardan tashqari uning xulq-atvorini belgilashi va hattoki uning ustidan hukm yurgizishga qodir shahvoniy mayllar, sabablar bo'lmasligiga qo'shilish qiyin. Agarda individual psixologiyadan ijtimoiy psixologiyaga o'tilsa, bu gumonlar ayniqsa ravshan bo'ladi.

Freyd nazariyasini ruhiyat tahlili maktabining boshqa bir vakili shveysariyalik psixolog, Syurix, so'ngra Bazel universitetlari professori, «jamoa beihtiyorligi» haqidagi ta'lim muallifi, analistik psixologiya asoschisi Karl Yung (1875-1961) rivojlantirdi va o'ziga xos to'ldirdi. U insonning xulq-atvori nafaqat uning istakxohishlari bilangina emas, balki uning tajribasi, turmushida ishlab chiqilgan maqsadlari tizimi bilan ham belgilanadi, deb ta'kidlaydi.

Yung shaxsnинг psixologik tipi («архетиплар» – об'ектнинг фармлешда руhiy tug'ma xususiyatlar), shuningdek, ekstravertlik (tashqi, haqiqiy olamga yo'naltirish) va introvertlik (ma'naviy, ichki olamga yo'naltirish) tushunchalarini ilgari surdi. Shuni qayd etish joizki, har bir inson ruhiyati ekstraversiyaga va introversiyaga bo'linadi.

Freyd, Yung va ularning davomchilari ilgari surgan g'oyalar, inson xulq-atvori haqidagi butun boshli fan (bixevoiristika ham boshqaruv mutaxassislariga hayotning hamma holatlariiga, hamkasabalarining noadekvat harakatlarini tushunish, kishilarning teran, ba'zida g'ayritabiyy qiliqlari sabablarini anglash uchun tayyor resept berolmaydi.

### **17.3. O'rgatish nazariyasи**

*O'rganish bir hunar, o'rgatish ikki hunar.*

I.P.Pavlov, D.B.Uotson, B.F.Skinner asarlarida rag'bat va jazo tizimi chuqur ilmiy asoslab beriladi, ijrochi faoliyatining mantiqiy doirasi uning qobiliyatiga qarab dalillar bilan aniqlab beriladi, rahbar va uning qo'l ostida ishlovchilar o'rtasida qarama-qarshi aloqa bo'lishi zarurligi asoslanadi.

O'qitish nazariyasi (shartli reflekslar nazariyasi) asosida refleks tushunchasi yotadi, ya'ni bunda organizm a'zolarining tashqi olam ta'siriga bo'lgan javobidir. Reflekslar tug'ma(shartsiz) va tajribada orttirilgan turlarga bo'linadi. Miyaning quyi bo'limlarida joylashgan asab tizimining tug'ma aloqalari avvalo ayrim beixtiyor harakatlarda, tuyg'ular, his-hayajonlar, istak-xohishlarning murakkab uyg'unligida sodir bo'ladi, iroda va qat'iyatni talab qiluvchi harakatlarni shakllantiradi.

Ongsiz reflekslar tarbiya, o'qish va ijtimoiy tajriba ta'siri ostida shaxsning sekinlashgan instinkтив xulq-atvorini belgilab beradi. Shartli refleks fikrlash va xulq-atvor stereotipini shakllantiradi hamda insonning sababiyat tizimining asosiy komponenti hisoblanadi.

I.P. Pavlovning nazariyasi bo'yicha, inson xulq-atvoring asoslaridan birini tug'ma reflekslar bilan bir sathda turadigan va qiziquvchanlik, yangilik tuyg'ularini shakllantiradigan hamda mehnatda muvaffaqiyat qozonish uchun zamin yaratadigan maqsad refleksi tashkil qiladi. Mana shu qudratli refleks kashfiyotchilar, turli kolleksiya yig'uvchilar va hatto sevishganlarning aql bovar qilmas ajoyib irodasi, sabotini tushuntirib beradi.

Maqsadga intilish ishlab chiqarish jamoalari rahbarlari va barcha ijodiy shaxslarga xosdir. Qiyinchiliklar esa oldinga qo'yilgan maqsadga yetish uchun faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi, holos. Boshqaruv amaliyoti insonning jamoaga moslashishi uchun o'rgatish nazariyasi uslublaridan keng foydalanadi, chunki sotsiumdagi shaxsning xulq-atvori va uning natijalari o'rtasidagi bog'liqlik juda ravshandir. Bu natijalar inson uchun ham, jamoa uchun ham foydali bo'lgani tufayli tartiblashtirib turiladi. Jamiyatda inson faoliyati hamisha baholanadi,

rag'batlantiriladi yoki muhokama qilinadi. Ijobiy yoki salbiy taqdirlash tizimi o'rnatilgan me'yorlar va qoidalarga asoslanadi va shaxsning jamoadagi o'zgaruvchan vaziyatiga tez moslashishiga yordam beradi.

Asab tizimining yana bir xususiyati – vaqt ni sezishdir. O'ziga xos taymer miyaning har bir markazida, har bir asab hujayrasida joylashgan va u kishi harakatlarini rejalashtirishga, vaqtida o'z ishlarini bajarishga imkon beradi. O'rgatish ishlab chiqarish jamoalari turmushida muhim rol o'ynashini boshqaruv amaliyoti isbotlab keldi.

Masalan, agarda boshliq oldiga borish odatda ko'ngilsiz gaplarga, hayfsan olishga aloqador bo'lsa, unda xodim o'z rahbaridan qochib yurishga harakat qiladi, ya'ni unda boshliq ko'ziga ko'rinnmaslik istagi bilan bog'liq shartli refleks paydo bo'ladi. Har qanday kishi atrofini qurshab turgan olam ta'sirida shakllanadi va ongli ravishda o'z xulq-atvorini tajriba, obro'li shaxslarning kuzatishlari asosida tartibga soladi.

Shu o'rinda barcha murakkab o'z-o'zini tartibga solib turadigan tizimlarga xos bo'lgan dinamik muvozanat holati gomeostaz kabi organizm va jamiyatning teskari aloqasiday muhim ko'rinishni kelitirish joizdir. Gomeostaz tizimni bir maromda ushlab turish uchun kerakli miqdordagi parametrlar bilan ta'minlaydi. Norbert Viner o'zining «Kibernetika yoki jonivor va mashinaning aloqasini boshqaruv» mumtoz asarida shunday deydi: «Teskari aloqa nafaqat fiziologik holatlarda qatnashibgina qolmay, balki hayotni davom ettirishda juda zarur hisoblanadi.

Selsiy bo'yicha kishi haroratining yarim darajaga o'zgarishi odatda kasallik belgisidan darak beradi, harorat uzoq paytgacha besh darajaga o'zgarib tursa hayot tugashi muqarrar. Organizm chiqindilari toksik kontsentratsiyani tashkil qilgunga qadar chiqarib tashlanishi darkor. Bularning bari bizning gomeostatik mexanizmini tashkil qiladi». Viner jamiyatdagi gomeostaz haqida gapirarkan, shunday deydi: «Anchadan buyon mavjud kichik qishloq jamoasida, bir xil tushunish va xulq-atvor shakllanishi uchun g'amxo'rlik qilish, yo'llar, jamoa mablag'larini boshqaruv, jamoat qonunlarini birichi marta buzgan shaxslarga sabrli bo'lish kabi barchaga ma'lum

me'yorlar mavjud. Bunday jamoada o'z qo'shnisidan ustunroq odamning o'zi bo'lmaydi. Unda hamisha jamoat fikri qudratini his qilishga majbur etadigan vositalar topiladi». Teskari aloqa boshqaruv tizimida axborotni aylanib turish hisobiga ijtimoiy turmushning rivojlanishini ta'minlaydi, rahbar va uning xodimlari o'rtasida aloqa o'rnatadigan muhim vosita hisoblanadi.

#### **17.4. Lombrozoning «jinoyatchi shaxsi»**

*Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama.*

*O'zbek xalq maqoli*

Shaxsga yana bir nuqtai nazar haqida eslatib o'tish joiz. Italiyalik sud psixiatri va kriminalisti, kriminologiya va jinoyat huquqida antropologik yo'nalish asoschisi Chezare Lombrozo (1835-1909) tomonidan shaxs tabiatini bilan bog'liq ta'limot taklif etildi. 1876 yilda Lombrozo o'zining katta shov-shuvlarga sabachi bo'lgan «Jinoyat odami» kitobini nashrdan chiqaradi. Bu kitobda ba'zi bir atavistik xususiyatlar (tug'ilganidayoq bo'lgan) kuchi ostida jinoyat qilishga moyilligi bor inson tipi haqida aytildi. Lombrozo Italiya qamoqxonalarida og'ir jinoyatlar sodir etgan salkam 400 ta mahbuslarni tadqiq etgan, ularning yarmidan ko'prog'ida jismoniy anomaliyalar – «stigmatlar», «tug'ma jinoyatchilar belgilari»ni topgan.

Bu belgilari: noto'g'ri shakldagi bosh chanog'i ( bosh chanog'i yuqoriga yoki pastki qismiga tomon torayib boradi, yonboshdan yassilangan), shalrang qulqoq, proporsional bo'limgan uzun qo'llar (maymun qo'llariga o'xshash), tepe jag'ning kattaligi, juda o'sib ketgan kamon qosh va boshqalar.

Lombrozo oqilonaga takliflarni ilgari surdi va rivojlantirdi: nima uchun sudni aldab, ovora qilib yurish kerak, aybdorning qilgan jinoyatini isbotlash uchun dalil izlab nima qiladi, ahir buning uchun vrachlar tuzgan xulosa yetarli-ku. Shunda asl jinoyatchi majburiy davolash uchun jo'natiladi yo sterilizatsiya qilinadi, yoki qatl

etiladi. “Jallod kundasi tabiatni tozalaydi va yuraklarni nurafshon qiladi», - deb xulosa qiladi bu «insoniyat mehriboni».

Tabiiyki, Lombrozo konsepsiyalardan biri – aybni isbotlash-isbotlamaslikdan qat’iy nazar, “jinoyat shaxsi”ga repressiyalarni qo’llash fikri natsizm uchun qo’l kelgan. Ular tomonidan faqat irqi, milliy xususiyatlari tufayligina millionlab begunoh kishilar yo’q qilib yuborildi. Konsentratsion lagerlar va gaz kameralarining qurbanlari sifati lo’lilar va yahudiylar bilan bir qatorda slavyanlar va boshqa “chala” milatgar ham bor edi.

YOt fikrli kishilarni dalil-isbotsiz hukm qilishdan inqilob tribunali raisi YA.X.Peters ham o’zini tiyolmadidi: ”Haqiqatan sovet hukumatiga qarshi chiqdimi-chiqmadimi, so’z yoki qurol bilan qarshi bo’ldimi, surishtirib, dalil axtarib o’tirmang.Dvoryanmi, savdogarmi, ofitsermi, rohibmi – bari otilsin! ».

Lombrozo nazariyasida ham qarashlar bir xil emas, uning ko’p yillik tadqiqotlarida qandaydir aqli jihatlar bor. Insonning tashqi qiyofasi ko’p narsalar haqida hikoya qilish mumkin, ahir baribir “libosga qarab” muomala qilish tayin-ku.

Shu muammo bilan bog’liq xalq yaratgan juda ko’p ibora, o’xshatishlar bor. Masalan, “turqi sovuq odam”, “xunuk bashara”, “uning kim ekanligi shundoq aftidan bilinib turibdi”, iboralar, oz bo’lsa-da, kishining kimligi haqida ma’lumot beradi. Hayotda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan bir hol. Mana, qarshingizda bir yigitcha kelib, ishga qabul qilishni so’rab turibdi: uning hammayog’i kir-chir, sochlari paxmaygan, og’zida saqich, qulqlari kir: “Men, hey, eshityapsanmi, savdoda ishlamoqchiman, men...” Ishga qabul qilasizmi? Yo’q? Sababi? Qandaydir sabablarga ko’ra uni ishga qabul qilmaysiz. Balki o’sha tushunarsiz antropologik belgilarga qarab xulosa chiqargansiz, shundaymi? Demak, siz Lombrozo ta’limoti taraforisiz. Haqiqatan, ko’pni ko’rgan odamga bu uchrashuv ko’p narsalar, ya’ni madaniyat, bilim, aql, farosat haqida hikoya qiladi.

## 17.5. Psixologik tiplar

*Har bir kishi o'zingday bo'lmaydi,  
begona va yaqinlar bir xil bo'lmaydi.  
«Devoni lug'atit turk»dan*

Har bir inson o'ziga xos betakror olamdir. Insonning o'ziga xosligi uning boshqa kishilar bilan munosabatlari, tashqi dunyoga nisbatan qarashlarida ifodalanadi. Bunday individual o'ziga xosliklar temperament deb ataladi va barcha kishilar to'rtta psixologik tipga bo'linadi: holeriklar (tashqi ta'sirga tezlikda munosabatini bildirish, tormozlanish tizimi zaif bo'ladi), sangviniklar (jonli, muomalasi yengil, ular boshlagan ishlarini oxirigacha yetkazolmaydilar, irodasi bo'sh); flegmatiklar (sekin qimirlaydigan, bosiq, shoshma-shosharlik unga yot, jiddiy asta harakat qiladi, o'rganib qolgan odatlarini tark etishni istamaydi), melanholiklar (hamma ham qo'shilib ketavermaydi, ta'sirchan, ko'pincha o'z kuchiga ishonmaydi, salga xafa bo'ladi). Temperament asab tizimining tipiga qarab belgilanadi, bu xususiyatlar tug'ma bo'lib, ular tarbiya ta'siri ostida ma'lum darajada o'zgarishi mumkin.

YUNG tipologiyasi bo'yicha inson ruhiyati fikrlash, mushohada qilish, ta'sirchanlik, sezgir va intuitiv kabi funksiyalarini bajarishiga qarab farqlanadi.

Tasniflash epidemiyasi hozirgacha davom etmoqda. Barcha mualliflar mavjud tipologiyalarning shartliligi haqida gapirib, insonning murakkab ekanligi, uning biror-bir tasnif yoki atamalarga mos tushmasligini ta'kidlaydilar. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: betakror hisoblanmish shaxsning tipologik belgilarga ko'ra ayovsiz tartibga solishning nima keragi bor?

Boshqaruv san'ati, kishilar muloqotining butun boshli tajribasi vaziyat o'zgarganda, stereotiplardan, bir xillilikdan voz kechishni maslahat beradi.

Vaziyat o'zgarishiga qarab, o'z xatti-harakatini boshqaruv kishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shu o'rinda Richard Feynmanning aqli bir gapini keltirish joiz: "Bizning cheklangan aqlimiz qulaylik uchun dunyoni fizika, biologiya, geologiya va boshqa qismlarga bo'lib tashlagan, lekin tabiatda bunday bo'linishlar yo'q-ku!" Lyus Kerrol bunga qo'shimcha qiladi:" Tasniflash jarayoni kishi miyasida sodir bo'lishiga sabab, ushbu xususiyatga ega bo'lgan jismning bor-yo'qligiga qaramasdan tasnifni amalga oshirish mumkin".

Psixologiyada inson shaxsini tug'ma psixologik xususiyatlar yoki tevarak-atrof ta'siri belgilab beradimi? mavzudagi munozaralar ko'p vaqtlardan buyon olib borilmoqda. O'qish, tarbiya va barcha tevarak-atrof muhit shaxsning shakllanishiga katta ta'sir etadi. Har bir kishi jamiyat talabiga moslashish uchun doimo izlanish, harakatda bo'ladi, o'ziga xos turli xil ijtimoiy rollarni bajarib keladi. Bu rollar vaqt-vaqt bilan o'zaro konflikt-nizolarga duch keladi. Shunga qaramasdan har bir shaxs o'z rolini chuqr tushunib, anglab olsa, hayotda o'z o'rnini topib oladi.

Bu haqiqatni qadimiy san'at turlaridan birining vakillari – teatr akterlari sahnada mahorat bilan ijro etishadi. Bejiz emaski, lotincha persona (shaxs) so'zining lug'aviy ma'nosini ham niqob ma'nosini anglatadi.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar**

1. Boshqaruvning murakkabligi nimalar bilan izohlanadi?
2. Insonning ichki olami haqida tasavvurning shakllanishida ruhiyat tahvilining tutgan o'rni.
3. O'rgatish nazariyasining asosiy mazmuni.
4. Shaxslar o'rtasidagi munosabatlarda psixologik tiplarni hisobga olishning ahamiyati.

### **18-mavzu. Mehnat jamoasi boshqaruv ob'ekti sifatida**

*Bosh ishlovchi bo'lsa, bo'y o'sadi.*

*O'zbek xalq maqoli*

Kishining jamiyatda egallagan o'rni murakkabliklar bilan bog'liqdir. Agar shaharlik tabiatdan ajralib yashashga uringan bo'lsa (lekin har bir shaharlik keng dalalarga, ko'kalamzorga, daryo sohillariga chiqib, hordiq chiqarib kelish orzu-havasi bilan yashab keladi), unda u jamiyatsiz yashay olmaydi. Hozirgi paytgacha murakkab, sirli atavistik qonunlar kishi bir-biriga o'xshashligini, boshqa kishilar bilan qondoshligini «Men va sen qondoshmiz!» deya tasdiqlab kelmoqda.

Biroq inson shaxsi o'zini alohida ajratib ko'rsatish, o'zining betakrorligini, sotsiumdagi boshqa barcha kishilardan individual farq qilishini isbot qilish ehtiyojiga egadir. Jamiyatning har bir a'zosiga qo'yilgan talablarni tushunib, ijtimoiy axloq va etika qoidalariga rioya qilgan holda shaxs ba'zi hollarda jamiyat tamoyillariga qarshi turishi mumkin. Shaxs va jamiyat, rahbar va ishchi, ota-onalar va bolalar – hayotning yanada murakkab va azaliy muammolarini tashkil qiladi. Mazkur muammolarni ijobiy tomonga hal etishda fan, din, axloq bilan bir qatorda boshqaruv san'ati ham hissa qo'shamoqda.

### **18.1. Rahbar mehnatining o'ziga xos xususiyatlari**

*Umrni zoe etma, mehnat qil,*

*Mehnatni saodatning kaliti bil.*

*Alisher Navoiy*

Rahbar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Bir qaraganda javob jo'n tuyulishi mumkin, ya'ni rahbar dono va ko'p narsalardan xabardor bo'lishi kerak. Shunday bo'lsa, nima uchun a'lo baholar bilan oliv o'quv yurtlarini tugattuvchilarning oz qismigina (o'zingizning hayotiy ku zatuv ingizni eslang) ishlab chiqarish, jamoa ishlarida muvaffaqiyatlarga erishadi? Buning aksi o'laroq, yirik korxona rahbarlarining o'qishlari ilgari unch a yaxshi bo'limgan.

Demak, rahbarning yaxshi ishlab ketishiga nimadir yetishmaydi. To'g'ri, rivojlangan intellekt va rahbarning umumiyligi bilimi maxsus soha bo'yicha bilimdan kengroq bo'lishi kerakligini hech kim inkor etmaydi.

Shaxs va rahbar mehnati kishilarini qadimdan qiziqtirib kelmoqda. 900 yilda Sharqning yirik allomasi Al Forobiyning mana shu masalaga bag'ishlangan mashhur ilmiy risolasi chop qilingan; fors ilohiyot olimi Al~azzoliy rahbarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun kerakli talablarni shakllantirib berdi.

Davlatni boshqaruv, jamoaga ta'sir etadigan uslublar Nikkolo Makiavellining «Podshoh» kitobida chuqur tadqiq etilgan. Uning antiqa, ba'zan paradoksal xulosalariga hozirgi zamon olimlari ham qiziqish bildirmoqda. Makiavellining zamondoshi, utopik sotsializm asoschilaridan biri Tomas Mor (1478-1535) samarasiz boshqaruv oqibatlarini o'rganib chiqib, o'z xulosalarining to'g'ri ekanligiga o'z hayotiy tajribasida ishonch hosil qiladi. U yuqori davlat lavozimidan chetlashtirilib, qirol tomonidan qatl etiladi.

«Shaxs» tushunchasi ko'p qirralidir. Odatda, hurmatga sazovor insonga nisbatan biz shaxs tushunchasini ishlatalamiz: kuchli shaxs, obro'li shaxs va h.k. Antik davrda esa «shaxs» tushunchasi keng ma'noni anglatgan, ya'ni shaxs tushunchasi kishining tashqi qiyofasi, ichki dunyosidan iborat bo'lib, unga nisbatan sifatiy baho berilmas edi.

Intellekt, ta'sirchanlik, iroda rahbar xodimning malakasi, iste'dodini belgilab beradi. yetakchi, ijodkor shaxs qator xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. O'z qadr-qimmatini saqlash, ma'naviy poklik, olijanoblik usutuvor xususiyatlarga ega bo'lib

qolishi kerak. Olijanoblik, ma'naviy tamoyillarga sodiqlik doimo odamlar tomonidan qadrlanib, hurmatga sazovor bo'lib kelgan. Bu chiqarilgan xulosalarning haqqoniyligini so'nggi yillarda aholi o'rtasida o'tkazilgan ko'p sonli so'rovlar isbotlamoqda. «Rahbarning qaysi bir xususiyatini ma'qullaysiz?» – degan savolga respondentlar quyidagi javoblarni bergan: haqqoniylilik – 75%; e'tiborlik, mehribonlik, insoniylik, insonparvarlik – 25%; texnikani bilish, ishni tashkil etish, bilimdonlik – 24%; talabchanlik – 4%.

Aksariyat rahbarlar majburiy xususiyatlar ustuvorligi ustida bosh qotirish lozim. Chunki ko'p hollarda ular malakali va ishbilarmonlik xususiyatlarini birinchi o'ringa qo'yib, insonparvarlik tamoyillariga nihoyatda kam e'tibor beradi. Xizmat lavozimida yuqoriga ko'tarilish bilan birga o'z nomiga aytildigan tanqidlar kamayib boraveradi, qo'l ostida ishlovchilar esa ko'proq tanqid qilinadi, xodimlarning individual xususiyatlari yuqori boshliqning kamroq qiziqtirib boradi.

Rahbar har tomonlama rivojlangan, katta hajmdagi faktlarni qabul qilib, umumlashtiradi va uning mohiyatiga qarab baho berish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Mayda-chuyda narsalarga o'ralashib qolmasdan istiqbolli qarorlarni qabul qilish o'ta muhim iste'doddan darak beradi. Bunday iste'dod keng bilimga, o'tkir zehnga, jasoratga borib taqaladi.

**Iste'dodli rahbar** qo'l ostida ishlovchi xodimlar, hamkasabali, hatto yuqori lavozimda ishlovchilar uchun ham o'rnak bo'luvchi shaxsga aylanadi.

Boshqaruvning o'ziga xos uslublari, axloqiy me'yorlarini suhbat orqali singdirish qiyin, ularni harakatda kuzatsa bo'ladi. Bu o'rinda U.Jeyms taklif etgan mashhur formula diqqatga sazovordir. Formula shaxsiy g'urur (Sh~), kishi erishgan muvaffaqiyat (M) va talablari (T) o'rtalarida mavjud bo'lган tobelikni belgilaydi.

$$\frac{Sh \sim q}{T} = M$$

Iste'dodli shaxs o'ziga xos mushohada qilish uslubiga ega bo'lib, qabul qilinayotgan axborotni tezda qayta ishlaydi, nostonart qarorlar qabul qiladi. Mushohada qilishning ushbu turi ijodiy mushohada (yana kreativ, lateral deb ham ataladi) deb ataladi.

Ijodiy mushohada intuitsiya, ya'ni ong chegarasida amalga oshiriladigan fikrlash faoliyatiga asoslanadi. YAxshi rivojlangan intuitsiya kishining hayotiy tajribasiga asoslanib, barcha sezgi a'zolaridan yetib keluvchi, lahzalar ichida saralanuvchi, tahlil qilinuvchi va qaror qabul qilish akti tarzida umumlashtirgan axborotdan shakllanadi.

Kishi «Bu odamga ishonish qiyin» yoki «Mana shu yerda tavakkal qilish kerak», degan intuitiv xulosaga kelishiga nima ta'sir qilgan, degan savolga javob berishga qiynaladi. Intutsiya boshqaruva tajribasida muhim tarkibiy qism bo'lib hisoblanadi, u hodisalarni taxmin qilishda, fikrlash jarayonida alohida o'rinn tutadi. Intutsiya bilan yana bir ancha ahamiyatga ega psixologik fenomen – refleksiya, o'zaro ta'sirlanish aloqadorki, u suhbatdoshining fikrlarini va hatto bir guruh shaxslar kayfiyatini tushunishdan iborat bo'ladi. Refleksiya rahbar, advokat, pedagog, sarkarda, notiq, ya'ni kommunikativ faoliyatni amalga oshiruvchi barcha malakali kishilar, professionallar uchun xosdir. Ijodiy mushohada etish rahbarga hamkasabalarini oldida ancha afzalliklar tug'diradi.

Jamoa bo'lib ijodiy mushohada qilish katta foyda keltirish mumkinki, u «miya hujumi» nomi ostida mashhur bo'lgan uslubdir. Unda asosiysi – maqsadga sira kutilmagan tartibsiz, «telbalarcha» g'oyalarni ilgari surish, o'z oldiga qo'yilgan yo'li bilan maqsadga erishish hisoblanadi. Bu uslub variantlarining ba'zilari dastlab mutlaqo fantastik-xayolparstlik bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lsa-da, muammoni hal qilishning bir necha varinatini ishlatishga imkon beradi.

Odatda ijodiy mushohadali maslakdoshlar jamoasi bir yarim-ikki soat izlanish davomida yuzga yaqin masalani hal qilishning alternativ variantlarini taklif etishi mumkin va rahbar ularni baholash va orasidan eng qulayini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z jamoasi a'zolarining intellektual imkoniyalarini ochish uquvi boshqaruva

mahoratining oliv ko'rsatkichi hisoblanadi. Agarda rahbar rahbarlikni yaxshi eplaydigan bo'lsa, korxona ishining samaradorligi nafaqat rabbarga, balki xodimlarga ham bog'liq bo'ladi.

Mehnat sababiyatini oshirishda yana bir muhim jihat – maqsadni aniq tushunish, hayotiy dasturlar va uni amalga oshirishda taktik variantlarni ishlab chiqish sanaladi. Nima qilishlarini, o'zini nimalarga bag' ishlashni, maqsadga qanday yetishni bilmaydigan kishilar oz emas. Shunday odamlar ham borki, ular o'z taqdiriga beixtiyor itoat qiladi, oqimga qarab jimgina suzadi, balki yillab «boshqa odamlarga» o'xshab yashaydi.

Faol, iste'dodli va izzattalab kishi majburiyatlar qarshisida itoat qilib o'tirmaydi, uning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadlari bor va u qanday qilib bo'lmasin unga yetishishga intiladi. «Tavakkal qilmay baribir afsuslanib yurgandan ko'ra, yaxshisi tavakkal qilib afsus chekkan ma'qulroq», degandi mashhur «Dekameron» asarining muallifi.

Ko'zda tutilgan aniq maqsad, albatta, o'z kuchi, aqlini jamlab erishilgan muhim natijadir. Maqsadning o'zi esa muhim hayotiy stimul sanaladi (aytmoqchi, qadimiyl Rimda «stimul» deb otlarni haydovchi tayokni bildirgan). Maqsadni hamisha bashorat qilish, keljakni oldindan payqash hamda unga erishishning uslublari bor. Bu haqda buyuk frorensiyalik Nikkolo Makiavellining shunday aqli gapi bor: «Kichikka erishish uchun niyatni katta qilish kerak. Kamonchi odatda shunday qiladi: nishon joyining olisligini, yoyining qanchalik uzoqqa otilishini bila turib, o'q nishonga urishi uchun qulochni katta oladi».

Maqsadlar tizimida insonning rela-haqiqiy imkoniyatlarni hisobga olish zarur (muvofiglik tizimi). Maqsadlar nafaqat yo'naltirilgan, balki erishiladigan bo'lishi ham kerak. Agarda inson qiyin, erishib bo'lmaydigan maqsadni ko'zda tutdi deylik. Bu yo'lda qoqilsa, maqsadiga erisha olmasa, u ruhan cho'kib, ezilib yuradi, hafsalasi pir bo'ladi.

Masalan, sportchi 2 metrlik balandlikni zabt etishni orzu qiladi-yu, ammo barcha musobaqalarda bu balandlikni sira ololmaydi, chunki unda buning uchun

kerakli jismoniy jihatlar yetishmaydi! Ruhan cho'kish shunday azoblikni, ba'zida butun umr kishini qiyinab qo'yishi mumkin. Agarda o'sha sportchi 1,8 metrga sakrashni orzu qilsa, unga erishadi! Bu esa kishiga qancha quvonch, bahtli soniyalarni keltiradi.

Rahbar muvaffaqiyatida maqsadning muhimligi haqida ajoyib fikr bor: «Maqsad kelajakka nigoh tashlashni bildiradi. Maqsad jamoa kuchlarini birlashtiradi. Maqsad so'nggi natijani bayon etadi. Baholash mezonlari maqsadsiz bo'lmaydi. Maqsadni qo'yish san'ati – bu boshqaruv san'atidir. Maqsadsiz jarayon ustidan nazorat qilib bo'lmaydi. Agar maqsad bo'lmasa, xodimning mehnat faoliyatiga baho berish qiyin bo'ladi». Shu yerda Sizifning achchiq taqdirini eslash kifoya – ma'nosiz qilingan uning mehnati eng og'ir jazolardan birini o'zida aks ettiradi!

Agarda strategiya aniqlab olinmasa, yirik masshtabli masalalar qo'yilmasa, boshqaruv samarasiz bo'ladi, bu xuddi kemaning kompassiz ochiq dengizda suzishiga o'xshaydi. Lekin har qanday faoliyatda muammollarni hal qilish yo'lini izlash kerak bo'ladi. Boshqaruv san'ati ko'p muhim masalalar ichidan eng ahamiyatga ega bo'lganini tanlab olib, aynan shunga diqqatni qaratadi. Ko'p eski, qoloq jarayonlarni takomillashtirishdan ko'ra, butun ishni orqaga surishga va mehnat unumdorligini pasayishiga sabab bo'lgan jihatni aniqlash muhimroqdir.

Agarda quvurning juda bo'limganda bitta toraygan joyi bo'lsa, unda aynan shu joy butun bir tizimning unumdorligini belgilab berishi mumkin; agarda restoran oshxonasida ma'lum vaqt ichida qanchadir kotleta pishirilishi kerak bo'lsa, go'sht qiymalagich, sekin ishlay boshlaydi va oqibatda restoran tez vaqt ichida mijozsiz qolish havfi ostida qoladi; agarda ota, ona va qizlari teatrga otlanishsa, agarda qizi ko'zgu qarshisida hammadan ko'proq qolib ketishini oldindan o'ylamagan bo'lishsa, tomoshaga, albatta, kech qolishadi. Afsuski, ko'pincha kichkina, hattoki arzimas taktik maqsad muhim, mas'uliyatli dasturni buzib qo'yadi.

U yoki bu masalani hal qilish zarurligini aniqlovchi rahbar muayyan ma'noda dangasa odam bo'lishi kerak: u masalani amalga oshirishga kirishidan avval «agarda

shunday qilmasam nima bo'ladi», deya bosh qotirish lozim. Bunday o'ylov ko'pincha ish rejasini oqilona qisqartirishga va konkretlashtirishga olib keladi.

Garchand mana shu odantni turli vaj-korsonlarga o'rab, yashirishga intilsalar-da, yalqovlikka moyillik kuzatuvlariga ko'ra aksariyat kishilarga xosdir (Duglas Makgregorning «X nazariyasi»ni yodga olaylik).

Knorrin sindromi deb atalmish umumiy patogenezga ega, inson tabiat – naturasining mana shu asl xossalari belgilaring turli darajada qo'shilishi o'ziga xos aktiv va dangasa simbioziga yanada qiziqish uyg'otadi – aynan shunday g'alati, jonga tekkan, eski masalalardan «o'zini chetga olish» muhim kashfiyotlarga va hatto asosiy ixtiolar yaratilishiga olib kelganligi haqida juda ko'p misollar keltirish mumkin.

«Mehnatga qovushmaslik sindromi» tezroq kitob o'qish yoki sevgilisi, yo do'stlar bilan uchrashishga bo'sh vaqt qoldirish uchun xizmat vazifalarini tez va soz bajarishga majbur qiladi. Biroq bunday, yumshoqroq qilib aytganda, mehnatga o'ziga xos munosabatda bo'lish hamisha ham boshliqda hayratlanish tuyg'usini uyg'otavermaydi (hattoki uning o'zi shunday bo'lgan taqdirda ham), lekin shaxsning bunday g'alati, hech kimga o'xshamaydigan xususiyatlarini nazarda tutish zarur.

Ayniqsa har qanday boshqaruvning markaziy masalasi – maqsadga erishish ekanligini yodda tutish kerak.

Maqsad xuddi uning bajarilishga berilgan baho kabi aniq va ravshan bo'lishi kerak. Boshqa bir boshliq «Ha-a, bo'shroq. Nimadir maromiga yetkazilmapti. Boshqatdan qilish kerak!» degan qisqacha buyruq bilan kifoyalanadi. Nima bo'shroq? Nima joyida emas? Nimaniboshqatdan qilish kerak? Uzangidan tushib, qarang ahir, boyvachcha, qilingan ishga aniq baho bering-da, keyin qanday xatoga yo'1 qo'yilganligini ayting! Gapning po'stkallasni, ahir o'zingiz, boshliq janobalri, hech nimani bilmaysiz, to'nkasiz, vassalom!

Xuddi shunday istehzoli savol ham bor: «Nima, dangasalikni bas qildingmi?» Bunga o'xshash savolga tasdiq bilan ham, salbiy ham javob berolmaysiz-har qanaqasiga javob qaytarsangiz ham mehnatga bo'lgan munosabatingiz shubhali

ko'rinaveradi. YOki bo'lmasa, to'ralarcha buyruqning boshqa ko'rinishi kelitarylik: «O'zingizni odamday tutasizmiyo'qmi?»

Rahbarlar orasida (xodimlar orasida ham) ijodiy tasavvuri sust rivojlangan, biroq qudratli analitik va tanqidiy intellektga ega shaxslar ayniqsa diqqatni jalb qiladiki, ularni «g'oyalar qotili» deb atash mumkin. Ko'pincha ishlab chiqarish masalasini hal qilish variantlarini muhokama qilish vaqtida kimdir qo'rqa-pisa qabul qilingan usullarga mutlaqo zid dadil, original fikrni bildiradi.

Rahbar mana shu «ohori to'kilmagan g'oya»ga ichida iqror bo'lib, yangi fikr unga – aqlii, tajribali odamda tug'ilganligiga g'ashi keladi, «osoyishtalik buzg'unchisiga» kinoyalar va shamalar bilan o't ochadi. Bunday tanqid yengil va jo'n, ahir yangi g'oya zo'rg'a-zo'rg'a oyoqda turibdi, u darrov baquvvat, dalillangan bo'lavermaydi-da.

~oyani muallifi bilan birga qo'shmozor qilish – g'oyalar qotilining sevimli odati. Rahbar shaxsi – «g'oyalar qotili»ning xulq-atvorining o'ziga xosligi va ajoyib tarzda betakrorligi tobora tadqiqotchilarni qiziqtirib bormoqda, chunki bunday tipdag'i boshliqlar undagi eng qimmatli jihat – omilkorlik hamda ijodni bo'g'ib, jamiyat uchun ayniqsa katta havf tug'diradi. Bu haqda hattoki – «terminator menejmenti» yoki buzuvchi boshqaruv degan maxsus atama ham paydo bo'lган.

Bunday shaxsdagi murakkablik hamda ma'naviy qiyofasidagi bir-biriga zidlik, harakatlarning yashirinligi hamda, yuksak intellektual imkoniyatlari psixologlarga qiziqtiradi. Boshqarmadagi mutaxassislar terminator menejmentining og'ir oqibatlariga duchor bo'ladi, u buzg'unchilikka, jamoaning buzilishiga va ijodiy tashabbusning bo'g'ilishiga olib keladi.

Mana shu intellektual sadizm – aqliy zo'ravonlik, ko'rolmaslik, ma'naviy shabko'rlikka olib boruvchi patologik moyillik – oliv va o'rta bosqichdagi rahbarlar orasida ancha ko'p tarqalgan. Bu holni aniqlash murakkabligi va belgilarning sezilarli emasligi, hayotiy tajriba va favqulodda aqliy qobiliyatları «g'oyalar qotil»ga iflos ko'nglini oljanoblik, holislik, professionallik niqobiga yashirishga imkon beradi. Buzuvchi boshliq o'z tushunchasi zamirida harakat qiladi va atrofida o'ziga xos

intellektual vakuum yaratadi – asta-sekin qobiliyatli shaxslar surib chiqariladi, ularning o’rnini o’rtamiyona iste’dodsiz kishilar egallaydi va ular orasida rahbar o’rin almashtirib bo’lmaydigan mavqeni egallaydi. To’g’ri, buzuvchi boshqaruvning ba’zi belgilari aniqlangan: omilkor mutaxassislarning qo’nimsizligi, jamoa faoliyatining past ko’rsatkichlari, xodimlar orasida nervozlik, mutaxassislarni malakalarini oshirishda tadbirlar yo’qligi kabilar.

Amaliy munosabatlarning muhim usuli bo’lim xodimlari bilan yuzma-yuz uchrashuvlari hisoblanadi. Bunday uchrashuvlarni uyuştirish va o’tkazish ham o’ziga xos san’at. Uchrashuvlarni kim o’tkazish kerak? Shunisi ravshanki, shaxs yetarli tajribaga ega bo’lmasa bunday uchrashuvlar juda asqotadi va ularni tez-tez o’tkazib turish kerak bo’ladi. Tajribali veteran bilan bir necha haftada bir marta uchrashib turish mumkin. Bunday uchrashuvlarni qanday o’tkazish kerak?

Afsuski, juda ko’p boshliqlar, yangi xodimni o’qitish, yo’l-yo’riq ko’rsatish va, albatta, otalarcha kojish ham kerakligiga amindirlar. Natijada xodimlar boshliq bilan uchrashgisi kelmaydi, undan qo’rqadi. Uchrashuv bo’lganda ham hech bir naf chiqmaydi. Uchrashuvni xodim o’ziga xos imtihon deb tushunmog’i lozim. Xodim bu uchrashuvga oldindan tayyorgarlik ko’rishi, suhbat rejasini tuzib olishi, nimalarни bilishi kerak. Barcha masala va talablarga javob olish lozim. Agar uchrashuvni boshliq uyushtiradigan bo’lsa, uchrashuvga taklif qilingan o’nta xodimga o’n xil muomala qilish kerak bo’ladi, xodim esa – faqat bir kishi, ya’ni rahbar bilan uchrashib, muomala qiladi.

Boshliq qo’l ostidagi xodim bilan uchrashuvga o’zi ham nimalarни o’rganish hamda o’zining kichik hamkasabasing ustoz bo’lishi uchun boradi. Uchrashuvda o’zini aqlona tutish rahbarga juda ko’p narsa berishi mumkin: hodisalarga ichkaridan nazar solishga, qimmatbaho xabarni qo’lga kiritishiga imkon beradi. Xodimning gapini tinglay bilish, savollar berish, suhbatga erkin tus berish, xodimning shubha-gumonlari, muammolari haqida gapirishga unday bilish kerak bo’ladi.

Uchrashuv natijasi faqat bitta – uchrashuvning ikkala tomon uchun foydaligini anglashdir. Ana shunda bunday uchrashuvlar azobli majburiyat bo’lmay, istalgan, barakali hodisaga aylanadi.

Ba’zan boshliq xodim fikrlash qobiliyati va mustaqil harakat qilish nimaligini bilmaydi deb jo’rttaga ularning mustaqilligini cheklab qo’yadi (Pigmalion effekti). Natijada bunday rahbar qo’l ostida ishlayotgan xodimlar o’sishdan va mustaqil harakat qilishdan rivojlanishdan to’xtaydi va haqiqatan ham qo’lidan hech bir ish kelmaydigan boqimandalarga aylanadilar.

Endryu Grouv boshqaruv san’ati uslubining universalligi haqidagi g’oyalarini dalillash maqsadida ota bilan bolaning yuzma-yuz uchrashishi juda mazmumnlidir bo’lishi mumkin va bunday oilaviy suhbat «yuzma-yuz bo’lib o’tgan amaliy uchrashuvni yodga soladi» – deydi.

Kishilarni faqat tashqi qiyofalariga qarab ularga baho berish kabi keng tarqalgan xatodan rahbarlar, albatta, qochish zarur. Sohibjamol qiz go’zaldir. Bu hammaga yaxshi ma’lum va birinchi navbatda o’z chiroylilagini qizning o’zi ham biladi. Lev Tolstoy o’z davrida shunday fikrni bildirgan edi, go’zallik – ezgulik degani emas, bunga yana shuni ham qo’shimcha qilish mumkinki, chiroyli kishi hamisha aqli va xush xulqli bo’lavermaydi. Aksincha, ko’pincha iste’dodli, hech kimga o’xshamagan g’ayritabiyy odamning qiyofasi unchalik ham ko’zga tashlanmaydi, ko’rinishdan parishonxotir, uyatchan, xunukkina xodim ehtimol olajanob, halol va aqli bo’lishi mumkirlar. Shaxsga munosabat bildirishda odamga hamma go’zal fazilatlarni yopishtirish yoki buning aksini qilish psixologiyada «oreolyorug’lik effekti» deb atalidi.

Boshliq bo’lishni orzu qilgan kishi, rahbar zimasiga tushgan mas’uliyat, uning faoliyati ssenariysi bilan belgilanadigan murakkab rollarning ko’pligi haqida bosh qotirishga to’g’ri keladi. To’g’ri, boshliq katta maosh oladi, uning kabinetini keng, hashamatli, kotibasi, uni olib yuradigan yengil mashinasi bo’ladi, hay’atning baland kursisida lunjlarini shishirgancha o’tiradi. U yanada martabali rahbariyat bilan muloqot tarzini belgilab oluvchi, qabul qilingan qarorlarning maqsad va taktikasi

amalga oshiruvchi ustasi farang diplomat; ijrochilar va ishlarni bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi koordinator; buxgalterilk hisobining butun sir-asrorlaridan, mahsulot bozori va uning sotilishining nozik tomonlarini biluvchi mohir tijoratchi va moliyachi; g'oyalar generatori, odil hakam, ekspert, masalahat va yordam olish mumkin bo'lgan odam, tarbiyachi-ustoz va, nihoyat, yakka o'zi zARBani ham, o'pkagina, shikoyatlar, do'q-po'pisalar va ishda uzilish bo'lib qolsa, hayfsanni ham oluvchi kishi. Bu borada yaxshilab o'ylab ko'rish kerak...

Hasad hamisha jamiyatda bor bo'lib, kishilarga umr davomida hamroh bo'lib yuradi. Ojiz kishi o'zidan kuchli odamga, tajribasizlik – tajribaga, yoshlik – kamolotga hasad qiladi. qarilik yoshlikka, uning beg'uborligiga g'araz qiladi! Martaba bilan bog'liq jihatlar, ayniqsa, katta g'arazga sabab bo'ladi. Martaba, hokimyatiga chiqish yo'li yam-yashil maysazorda sayr qilish emas, sirpanchiq tog' yon bag'rilaridan cho'qqiga chiqishdir.

YUqorida aytilganlarga shuni ham qo'shish kerakki, ishlab chiqarishda erishilgan muvaffaqiyatlar ison hayotidagi yagona maqsad bo'lishi kerak emas. Ma'naviy hayot quvonchlari, oila, do'st-birodarlar, musiqa, adabiyot, ko'rmagan mamlakatlarga sayohat degan narsalar ham bor-ku. Biz nima uchun yashaymiz? Ishlash uchun yashaymizmi yoki yashash uchun ishlaymizmi?

Rahbar mehnati haqida gapirganda, uning sadoqatli yordamchisi, uning «o'ng qo'li» – kotib-ma'mur haqida bir necha so'z aytmasa bo'lmaydi. Lekin hamma boshliqlar ham yordamchining ahamiyatini tushunmaydi, u haqda g'amxo'rlik qilmaydi, yaxshi kotibani qadr lamaydilar. Ko'pgina rahbarlar tushunchasida kotiba – bu yaxshigina, ko'zlari ravshan, qabulxona bezagi, bossning shahvoniyl talablari ob'ektidir. Shunday «boshliqlar» borki, o'zining rahbarlik davrida himoyasiz, itoatkor kotibalarning butun bir galasini «kabinetidan o'tkazadi» va o'z «g'alabalar» bilan juda faxrlanadi. Bu nafaqat jirkanch ish, balki ojizlar va qaramlar ustidan zo'ravonlikdir. Boyvachalarcha bema'nilik va erkaklar hafsalasizligi tufayli necha-necha mavqelar obro'sizlandi, (bu borada AqShning sobiq prezidenti mavqeini olsak yoki shu tufayli necha-necha oilaviy mojarolar ro'y bermoqda!).

Tajribali va ishonchli kotiba – bu rahbarning xotirasi (nima ishlarni qilish kerak, kimga qo'ng'iroq qilish, kim bilan uchrashish kerak), kelaverib bezor qiladigan kishilardan to'suvchi filtr, og'aynilaringiz bilan qandaydir sanani nishonlaydigan bo'lsangiz, ishonchli g'ov, himoya va nihoyat umumiylar ish kyunadigan hamda hamisha qiziqarli norasmiy himoyaga ega safdoshdir.

Kotiba bilan ishlashning bir necha usullari bor. Mana, ulardan biri, qo'lida qog'oz bilan huzuringizda paydo bo'ladi. Kotiba har tong stolingizga ahamiyatli va tez qilinishi kerak bo'lgan xatlar, qog'ozlarni qo'yadi; ba'zi bir uncha murakkab bo'lmanan xatlar an'anaviy javob berilgan bo'ladi.

Telegramma, hukumat xatlari, shikoyatlarga javob berish uchun me'yoriy vaqt mavjud. Bu me'yoriy muhlatlarga rioya qilsa ham bo'ladi, yaxshisi, hamma hujjatalrga birdan javob bergen ma'qul – ahir baribir ularga javob berish kerak. Bu holda hech bir hujjat stolda yotmasligi kerak, yana o'sha qayyoqda, nima bo'ldi, degan bahslar ko'tarilmaydi. Ma'lum vaqtida, aytaylik, soat 12.00 da kotiba jimgina sizning kabinetningizga kiradi va kompyuterga o'tiradi va siz hujjatlarga javobni unga ayta boshlaysiz. Ba'zi tekshiruvlar, mutaxiassilar xulosasi kerak bo'lgan xatlarga tegishli rezolyutsiya qo'yasiz.

Sizning ishingiz shu bilan tugaydi, keyin faqat kotiba ishlaydi. U monitorda matnni tekshiradi, printerdan chiqaradi, kerakli kelishuvlar, vizalarni ish kuni oxirida tayyor, butunlay rasmiylashtirilgan hujjatlarni sizga imzo chekish uchun olib kiradi. Shunday qilib, kun sayin aniq, yaxshi tizim ishga tushadi. Agarda sizning kotibangiz tajribali va chindan ham uning puxtaligiga, aniqligiga sizning shubhangiz bo'lmanan safdoshingiz bo'lsa bu tizim buzilmay ishlayveradi.

Shuni qayd etish kerakki, boshqaruv san'atiga xizmat qilishga o'z hayotini bag'ishlagan kishilar ko'pincha bu san'atga o'z sog'lig'ini bag'ishlaydi. Faol aqliy mehnat organizmning barcha resurslarni safarbar qilishni talab qiladi, miya qanchalik ko'p faoliyat ko'rsatsa, shuncha asab tizimi ko'p energiya sarflaydi. Ortiqcha ishlar, topshirilgan ish muvaffaqiyati, kishilar taqdiri uchun javobgarlik, o'z his-hayajonini tutib turish, o'z xatti-harakatlari va har bir so'zi, ohangini nazorat qilib turish

zarurligi, albatta, ruhiy zARBalar va sog'liqning yo'qolishiga olib keladi. Shunday ma'lumotlar bor: parashyutda sakragan desantchi 0,5 kg vazn yo'qotadi va buning o'rnini birnichi ovqatlangandayoq tiklab oladi. yerda desantlarni nazorat qiluvchi ofitser 2 kg dan ortiq vazn yo'qotadi va oldingi vaznni ikki sutkadan keyingina tiklab oladi.

Polsha prakseologiya instituti bergen ma'lumotlarga ko'ra yirik korxonalar rahbarlarining faktik ish vaqtি belgilangan me'yordan 60% atrofida oshadi, ularning ish kunlari 9-12 soatni, mahalliy boshqaruv idoralarida esa 12-14 soatni tashkil qiladi. Hayotning bu tarzda aylanib turishi har kuni inson ruhiyatiga muntazam ravishda ta'sir qilib boradi. Ayniqsa xizmat ko'rsatish jabahlarida bu hol yaqqol ko'rindi. Transportdagi aytishuvlar, piyanista va shilqimlarning har xil qiliqlari, ko'chalarda mast-alastlar, radio-televideni lardagi konsertlar, bari-bari asablarni tamom qilib, «eb qo'yadi». Estrada konsertiga tomoshaga borish yana ruhiyatga zarba beradi – odatdagи rok-orkestr shovqini 110 desibelga yaqin, shahar chorrahasida shovqin kunduzlari 70 desibelni tashkil qiladi.

Salomatlikka boshqa havf solib turuvchi jihatlardan biri boshqaruv hayotiga yashiringan – xizmat kabineti bilan kifoyalanib, kun-bo'yi o'tirib ishlash bunga misol bo'la oladi. Jismoniy harakatlarning kamligi, gipodinamiya organizmning zaiflashuviga olib keladi. Statistikaning ma'lumot berishicha, oxir-oqibat o'limga olib boruvchi yurak xurujlari rahbarlarda jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilarga nisbatan 80% ko'proqdir.

Aqliy mehnat bilan ishlaydigan har bir xodim o'z kasbi korining mana shu havfli tomonlari haqida o'ylashi hamda yaxshi hordiq chiqarish imkoniyatini qo'ldan chiqarmasligi kerak, kuch-quvvatini yig'ib olishi, har kuni bir necha daqiqa jismoniy mashqlarga bag'ishlashi zarur.

Tibbiyot quyidagi tadbirlar amalga oshirilsagina bunday turmush tarzini kechirishni maslahat beradi:

- jismoniy, mushaklar faolligiga erishish, doimo toza havoda bo'lish (jumladan, yotoq joyida va xizmat kabinetida deraza darchasini ochib qo'yish) organizmni

oqillik bilan yoshga qarab chiniqtirib borish. Jismoniy faollikni tiklash tadbirlarini shartli ravishda rekreatsiya deb ataladi (lotinchadan recreatio – tiklash);

- psixik – ruhiy o’zini qo’yib yuborish va ijobjiy his-hayajon uyg’atuvchi fikrlarga o’ylashga miyani undash. Bu ruhiy o’zgartirish holati ko’pincha relaksatsiya deb ataladi (lotinchadan relaxatio – bo’shashish) va unga qisqa muddatli dam olish, yangi latifa eshitish, yaxshi uyqu, oilaviy davrada televizor ko’rish yo’llari bilan oson erishiladi;

- axloqiy ideallar bilan o’z tuyg’ulari va fikrlarini ma’naviy jihatdan nazorat qilish va ularni qiylash, ko’tarinkilik va go’zallikka ruhan intilishi, bu negadir boshqaruv etikasida katarsis deb ataladi (yunonchadan katharsis – tozalash). Agarda vijdon qiynalmasa, kishining har bir qilmishi oqlanaveradi hamda katarsisning istalgan holatiga osongina erishiladi. Hattoki «salomatlik formulasi» ham bor:

$$B = \frac{T_{a\backslash \xi} + T_{a\backslash \xi + i_{wa}}}{i_{aaa} - i_{aOw}}, \quad |$$

formulada rekreatsiyada, relaksatsiya va katarsisda ishlatilgan vaqt; maxrajda esa – sutkadagi soatlar soni uyqu vaqtiga minus qo’yilgan. Mazkur formula uyqu va ko’ngilli ishlardan vaqtni qizg’anmaslik kerak, deb ikkilanganlarni ishontiradi, buyuk Norbert Viner, stressga qarshi kurashda oqilona resept beradi: «Og’ir xavotir yoki aqliy chalkashlikdan qutulish yo’li – uyqudir».

Mansab pog’onalaridan ko’tarilish hayotdagi muvaffaqiyatning shubhasiz ko’rsatkichi degan ishonch shakllanib qolgan. Biroq bu hamisha ham shunday bo’lavermaydi, ahir yaxshi vrach sog’liqni saqlash bo’limini boshqarsa yoki mashhur olim instituti direktori etib tayinlansa, unda tibbiyat fani qobiliyatli vrachdan, fan esa – olimdan judo bo’ladi, davolash va ilmiy ish uchun vaqt boshqa narsaga sarflansa, sira uning o’rnini tiklab bo’lmaydi. Ierarxik byurokratik tizim doimo yaxshi mutaxassislarni olib qo’yadi va ularni kasbkor – professional faoliyatidan chetga uloqtirib tashlaydi. Iste’dodli olim hamisha ham boshqaruv borasida obro’-e’tibor qozonolmaydi.

Turli rahbarlar faoliyatini ko'p yillab kuzatish va boshqaruvning turli uslublarini solishtirishi bo'sh rahbarga xos bo'lgan belgilar va xarakterli chizgilarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Balki o'quvchilar mana bu belgilar ustida o'yab ko'rsalar, foydadan holi bo'lmasdi:

- bunday rahbarning rejalarini buzuvchi tasodifiy holatlarning haddan ortiq ko'pligi. Aynan mana shu «tasodiflar», «shunday kunning peshonaga yozilganligi» bilan rahbar o'zining xatolarini boshqaraolmaydi. U buni aslo voqeа-hodisalarni oldindan ko'ra olmaslik hamda mavjud axborotdan tegishli xulosa chiqara olmaslik deb bilmaydi;

- «ochiq eshiklar» usuli bo'yicha ishslash. Bunday ishslash payti boshliq kabinetiga har qanday kishi istagan masalasi bilan kiraveradi. Bunday rahbar stoli odatda qog'ozlarga ko'milib tashlangan bo'lib, kerakli hujjatni topa olish amri maholdir;

- uzundan-uzoq nutqlarga hamda cho'zilib ketadigan yig'ilishlarga, pand-nasihatlarga moyillik, xodimlarga takallufsizlik, o'zining benuqsonligiga va hamma ishni boshqalardan ko'ra qotirib tashlashiga bo'lgan ishonch;

- erta tongdan qora kechgacha ishslashga qodirlik, tezda qilinadigan ishlarni uyda bajarish, umumiyladaniyat saviyasi va intellekt darajasining pastligi;

- bir qolipda fikrlashga moyillik («professional deformatsiya»): xodimning amaliy xislatlariga barqaror baho berish shakllanadi, tirishqoq, laganbardor odamning basharasi yaratiladi va bunday bahoning o'zgartirish juda qiyin bo'ladi.

Yillar o'tgan sayin rahbarga qo'yilgan talablar qanday o'zgarganligini qiyoslash qiziqlarlidir:

7-jadval

#### Rahbarga qo'yilgan talablar dinamikasi

1975 yil	1985 yil	1995 yil
- Shaxsiy yutuqlar	- Uddaburonlik	- Peshqadamlik
- Shaxsiy aloqalar	- Omilkorlik	- Rahbarlik samaras

- To'g'rilik, holislik - Peshqadamlik - Istiqbolni ko'ra bilish
- Tashabbuskorlik - Rahbarlik samarasi - Rizolikka erishish
- Etakchilik - Moslashuv - Uddaburonlik
- Tahlil qilish - Tahlil qilish qobiliyati - Rol almashinuvida  
qobiliyati moslashuvchanlik
- qat'iyat - Zehni o'tkirlik - Zehni o'tkirlik
- Rahbarlik samarasi - Istiqbolni ko'ra bilish - O'zgaruvchan uslub
- Istiqbolni ko'ra bilish - Muammoni hal qilish - Tahlil qilish  
qobiliyati
- Zehni o'tkirlik - Ijtimoiy moyillik - Muammoni hal qilish

Rahbar shaxsiga doir fikr-mulohazalarga yakun yasasak, albatta, iste'dodli, malakali, ijodiy imkoniyatlari, intellekti jihatidan o'ziga xos shaxsga ijtimoiy tabaqaning diqqatini qaratish kerak bo'ladi. Bundan asrlar davomida o'zbek diyori ajoyib boylikka – yuksak ma'naviyatga hamda ko'pdan-ko'p juda qobiliyatli kishilarga ega edi.

Mana shu milliy elita nafaqt yuksak ma'lumotli vakillaridangina emas, balki dehqon, savdogar va oddiy kishilardan ham tashkil topgan edi.

Bu qismni tugallarkanmiz, xodimlarga o'zlarining aqli boshliqlari o'rtasida o'zaro munosabatlarida ko'maklashishi mumkin bo'lgan foydali maslahatlarni keltirishni lozim topdik:

- Boshliq hamisha haq.
- Boshliq uxlamaydi, boshliq dam oladi.
- Boshliq ichmaydi, boshliq tatib ko'radi.
- Boshliq tegishmaydi, boshliq kadrlarni o'qitadi.
- Boshliq baqirmaydi, boshliq ishonch bilan o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.
- Boshliq chakkasini qashimaydi, boshliq qarorni o'ylab oladi.
- Boshliq qiyshanglamaydi, boshliq ishtyoqsiz iljayadi.

- Boshliq qo'rqaq emas, boshliq ketini o'ylab ish qiladi.
- Boshliq bilimsiz emas, boshliq natijasiz nazariyadan ko'ra ijodiy tajribani ma'qul ko'radi.
- Boshliq pora olmaydi, boshliq minttadorchilik ramzini qabul qiladi.
- Boshliq g'iybatni yaxshi ko'rmaydi, boshliq xodimlarining fikrlarini diqqat bilan tinglaydi.
- Boshliq lattachaynarlik qilmaydi, boshliq o'z fikr-mulohazalarini bilan o'rtoqlashadi.
- Boshliq yolg'on gapirmaydi, boshliq diplomat.
- Boshliq o'jar emas, boshliq izchil.
- Boshliq xushomadgo'ylarni yaxshi ko'rmaydi, boshliq holis xodimlarni mukofotlaydi.
- Boshliq fitnani hazm qilolmaydi, boshliq jips jamoani hurmat qiladi.
- Boshliq xotiniga xiyonat qilmaydi, boshliq xizmat safariga boradi
- Boshliq kechikmaydi, boshliq muhim ishlar bilan ushlanib qoladi.
- Kimki o'z fikrlari bilan boshliq oldiga kirsa, qaytishda esa boshliq fikrlari bilan chiqadi.
- Kimning fikrlari boshliqni kiga to'qnash kelsa, o'sha odamning maratabasi ko'tariladi.
- Har bir xodimning fikri boshliqning fikriga muvofiq kelsagina o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishga haqlidir.
- Agarda tinch yashab, ishlayman desang, boshliqdan taraqqiyotda ilgarilab ketma.
- O'z boshlig'ingni hurmat qil, ahir bundan yomonrog'i bo'lishi ham mumkin-ku.
- Agarda boshliq haq emas deb hisoblasang, yana boshqatdan o'ylab ko'r.

## **18.2. Aholi<sup>5</sup> farovonligini oshirishning muhim yo'nalishlari**

Mahruzada “Obod turmush yili” Davlat dasturining ikkinchi yo’nalishi sifatida aholi farovonligini oshirish masalasi belgilangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi isloxoatlarning bosh maqsadi iqtisodiyotni yuksaltirishning barqaror sur’atlarini oshirish orqali aholining turmush farovonligini yuksaltirishdir.

Prezidentimiz aholi farovonligini oshirishning asosiy yo’nalishlarini belgilab berdi.

**1. Aholining real daromadlarini oshirish.** Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotlarning yuqori sur’atlarda barqaror o’sib borishi, byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa stipendiyalar miqdorining muntazam qayta qurib chiqilishi, ta’lim, sog’liqni saqlash va ilm – fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag’batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora – tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning hayot sifati izchil yuklanib borishini ta’minlamoqda.

Аҳолининг реал даромадларини ошириш

Иш билан бандлик масаласини ечиш

Аҳоли  
фаровонлигини  
оширишнинг муҳим  
йўналишлари

Кичик бизнес ва хусусий  
тадбиркорлик, фермерлик харакатини  
янада қўллаб - қувватлаш

5. INSON MANFAATI, HUQUQ VA ERKINLIKARINI TA'MINLASH, HAYOTIMIZNING YANADA ERKIN VA OBOD BO'LISHIGA ERISHISH – BIZNING BOSH MAQSADIMZDIR. President Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'iishlangan tantanali marosimdag'i ma'nuzasi, "O'qituvchi", Toshkent-2013.

Давлат томонидан бериладиган аниқ  
манзилли ижтимоий ёрдам тизимини  
такомиллаштириш

### **(18- rasm) Aholi farovonligini oshirishning muhim yo'nalishlari.**

YUrtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag' lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda.




### **19- rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, XQP bo'yicha AQSh dollari hisobida (yil boshiga nisbatan).**

19- rasmdan ko'riniib turganidek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblanganda, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 2017 dollarni tashkil etdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qibiliyati pariteti asosida hisoblanganda, 2011 yilning yanvar oyida 1162,6 dollarga yetdi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma – bosqich amalgalashishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo'llab – quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora – tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni 2011 yilda 1991 yilga nisbatan AQSh dollari qiymatiga 2,7 barobar, o'rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta'minladi. Pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan

ijtimoiy qo' llab – quvvatlash bo'yicha amalg'a oshirilayotgan chora – tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'ldi. Bunda aholining turli guruhlari daromadlari darajasidagi tafovutni aks ettiradigan Jini koeffitsienti 1991 – 2011 yillarda 0,40 dan 0,29 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi o'rtacha ko'rsatkichiga mos keladi (20-rasm)



**20- rasm. Aholi pul daromadadlari differensiyasi darajasi.**

**2. Ish bilan bandlik masalasini yechish.** Axoli farovonligini oshirishda bandlik masalasining o'rni katta. Bugungi kunda mehnatga layoqatli axolining bandligin ta'minlash maqsadida yangi ish o'rnlari yaryatayotgan ish beruvchilarni rag'batlantirilmoqda, ularga soliq, kredit va boshqa masalalarda imtiyozlar berilmoqda; mexnat bozorida ishchi kuchi xizmati va raqobatbardoshltgtn oshirish chora-tadbirlari qo'yilmoqda; axolini ish bilan ta'minlashning eng samarali vositalari bilan bo'lган kichik biznes, xususiy tadbirkorlik kasanachilik, xizmat ko'rsatish va servis sohasi yanada jadal sur'atlada rivojlantirilmoqda; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lган toifalari moddiy qo' llab – quvvatlanmoqda, ular uchun ish o'rnlarini kvotalash tartibi yo'lga qo'yiladi; davlat va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat illarini tashkil etmoqda; tashqi va ichki migratsiyani tartbga solishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash maqsadida har yili yangi ish o'rnlari yaratilmoqda. Jumladan, 2013 yilda 972,7 mingta yangi ish o'rni tashkil etish nazarda tutilmoqda. Bu ish o'rnlari yangi yirik sanoat ob'ektlarini

ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirishni bundan buyon ham rag'batlantirsh, kasanachilik imkoniyatlarini, shu jumladan, yirik korxonalar bilan kooperachiyalashgan kasanachilik imkoniyatlarini kuchaytirish hisobidan tashkil etiladi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan, ishsizlik darajasini nisbatan yuqori bo'lgan tog'li, chegara hududlarda joylashgan 28 ta olib tumanga alohida e'tibor beriladi. 2013 yilbu hududlarda kamida 126 mingta yangi ish o'rni yoki 2012 yilda qidagan besh foiz ko'p ish o'rni tashkil etish nazarda tutlmoqda.

8-jadval  
**O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining istiqbol  
ko'rsatkiyalarini, ming kishi**

<b>TG'r</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2013 yil</b>	<b>2014 yil</b>	<b>2015 yil</b>
1.	Mehnat resurslari soni	17365,5	17841,0	18329,5
2.	Iqtisodiy faol aholi soni	12929,9	13275,8	13658,0
3.	Ish bilan band aholi soni	12303,1	12644,2	13014,1
4.	Ishsizlar soni	626,8	631,6	643,9
5.	Ishsizlik darajasi, foizda	4,8	4,8	4,7

2013 yilda ish o'rnlariiga bo'ladigan ehtiyoj parametrlari mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif balansiga, shu jumladan, demografik vaziyatga, migratsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish omillari va tamoyillarini, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, sanoat, infratuzilma, investitsiya monetar va fiskal siyosat chora – tadbirlari ta'sirini taxlil qilish asosida belgilangan.

9-jadval

**O'zbekiston Respublikasida yangi ish o'rinalarini yaratishga bo'lган ehtiyoj prognozi, ming kishi.**

TG 'r	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
<b>I</b>	<b>YAngi ish o'rinalariga ehtiyoj, jami</b>	<b>1215,6</b>	<b>1222,6</b>	<b>1275,4</b>
1.1.	Mehnat bozorida ilk bor ishtirok etadigan shaxslar soni	575,8	573,3	613,7
	Shulardan bitiruvchilar:			
	- akademik litseylar	17,8	13,4	13,1
	- kasb – hunar kollejlari	493,3	501,1	540,6
	- oliy o'quv yurtlari	58,3	58,8	60,0
1.2.	Ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo'lмаган аholi soni	622,0	631,6	643,9
	Shundan qaytib kelgan mehnat migrantlari soni	37,3	36,5	35,8
1.3.	Boshqalar (muddatli harbiy xizmatdan qaytganlar, jazoni o'tishdan ozod etilganlar)	17,8	17,7	17,8
<b>II.</b>	<b>Ish o'rinalariga ehtiyoj, jami</b>	<b>1215,6</b>	<b>1222,6</b>	<b>1275,4</b>
	Shu jumladan:			
2.1.	Xodimlarning tabiiy ishdan ketishi (pensiyaga chiqish, o'lim va h.k.) natijasida ish o'rinalining paydo bo'lishi	150,0	161,0	173,0
2.2.	Mehnat muassasalariga ish beruvchilar tomonidan berilgan bo'sh ish o'rinalari soni	73,0	75,0	78,0
2.3.	<b>YAngi tashkil qilinadigan ish o'rinalari soni</b>	<b>992,6</b>	<b>986,6</b>	<b>1024,4</b>

Ish o'rinalariga bo'lган ehtiyojga demografik omil sezilarli va bevosita ta'sir o'tkazishni davom ettirmoqda. 1985 – 1990 yillarda tug'ilish yuqori darajada bo'lib, o'sha davrda 37 promilleni tashkil etgani, ya'ni hozirgi vaqttagiga nisbatan 1,7 barobar ko'p bo'lgani natijasida mehnatga layoqatli yoshga kirayotgan aholining ildam o'tish sur'atlari saqlanib qolmoqda. (9-jadval).

Jadvaldan ko'rinish turganidek, 2013 – 2015 yillarda mehnat resurslari soni 17365,5 ming kishidan 18329,5 ming kishiga ko'payadi. Bu davrda iqtisodiy faol aholi soni 6,1 foizga ko'payadi va prognoz qilayotgan davrda uning mehnat resurslari tarkibidagi ulushi 74,3 foizdan 74,5 foizga ortadi.

Istiqlolda ish bilan band bo'lган aholi sonining ham ko'payishi kuzatilib, 2015 yilga kelib 13014,1 ming kishiga yetadi. Shu bilan birga, prognoz qilinayotgan davrda ishsizlar soni 626,8 ming kishidan 643,9 ming kishiga ortadi. Biroq ishsizlik darajasini 2013 yildagi 4,8 foizdan 2015 yilda 4,7 foizga tushib, uning kamayishi kuzatiladi.

Demografik rivojlanishning prognoz ma'lumolariga ko'ra, mamlakatimiz mehnat bozorida yangi ish o'rinxarini yaratishga bo'lган ehtiyoj ortib boradi. (9-jadval)

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2013 yilda mamlakatimiz mehnat bozorida ish bilan band bo'lish ehtiyoji prognoz bo'yicha 1 million 215 ming 600 ta ish o'rnini tashkil etadi, shundan 575,8 mingtasi – ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun, 622 mingtasi – prognoz davrining boshida band bo'limgan va ishga joylashishga muhtoj bo'lган ishsiz aholi uchun. Bunda 150 ming xodim tabiiy ravishda chiqib ketishi (pensiyaga chiqishi va h.k.) munosabati bilan bo'shatilishi, shuningdek, prognoz davrining boshida taqdim etilgan 73 mingta bo'sh ish o'rnidan foydalanilishi kutilmoqda.

### **18.3. Jamoa a'zolarining ijtimoiy-psixologik maqomi**

*Toyni eplagan, otni ham eplaydi*

***Amir Temur***

Inson ijtimoiy mavjudot ekanligi tushunarli, u muayyan muhitda yashaydi va ishlaydi, uning jamoadan tashqaridagi turmushi to'laqonli bo'lishi mumkin emas (19-rasm). Inson va muhit, shaxs va jamoa, insonning jamiyatdagi o'rni muammolari


zamonaviy menejer har kuni to'qash keladigan va o'zining doimiy ish faoliyatida hisoblashishi kerak bo'ladigan jiddiy ijtimoiy-falsafiy muammolardir.

Shaxs individuallik, intellektual va psixologik xususiyatlar bilan ta'riflanadi. Bular insonga ota-bobolari tomonidan o'tgan yoki boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatlari ta'sirida olingandir. Individual xususiyatlar va tashqi tevarak olam birgalikda shaxsning xulq-atvorini shakllantiradi, biroq vaziyatlar, ayniqsa, hayotiy sharoitlar insonga uning individual xususiyatlaridan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi.

Tashkilot faoliyatining yutug'i ko'p jihatdan jamoa a'zolarining o'zaro aloqalariga, atrofdagilar bilan ishchonchli aloqa o'rnatish, imkoniyatlariga berilgan bahodir.

Yangi iqtisodiy sharoitlarda raqobat kurashi nafaqat korxonalar orasidagi emas, balki ish joylaridagi kishilar orasida kuchaydi. Hozirda o'zining potensial raqiblaridan yaxshiroq ishslashga qodir minglab bilimdon va halol mutaxassislar bor va ularning har biri o'zining yangi vazifasini – o'z individual raqobatga bardoshliligin saqlab turishga layoqatini aniq-ravshan tushunib olishi kerak.

Har bir kishi o'z ish joyida yangi usullar, yangi g'oyalar va yangi texnologiyalarni izlashi va ularni tadbiq qilishga intilishi zarur. Yo'qsa sizni boshqa bir yanada tashabbuskorroq va omilkorroq kishiga almashtirishadi.



**19-rasm.** Shaxs xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillar.

Ma'mur xodimlar o'zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishlari uchun vazifa, majburiyat, huquq, vakolat va mas'uliyat o'lochvlarini aniq belgilab olishi tabiiydir. Ayniqsa xizmat majburiyatlari xodimning imkoniyatlariga muvofiq kelishi muhimdir

(uning tajribasi, bilimi, layoqati), zero boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri – muvofiqlik tamoyiliga rioya qilinish kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pincha oddiy hisobchi yoki kanselyariya ishida oliv ma'lumotli mutaxassilar, ayniqsa ayollar mehnatidan foydalaniadi.

Shaxs va jamiyat – ko'hna ijtimoiy-falsafiy muammodir. Aflatun va Arastu shaxs manfaatlarining davlat manfaatlariga bo'ysundirish zarurligini asoslab beriganlar. Epikurchilar va skeptiklar maktabi davlat hokimiyati jamiyatni, shaxsni ezib turadi, degan fikrda qat'iy turganlar.

Bu muammoga yuqorida gapirliganday, har bir jamiyatining o'ziga xos qarashlari bo'lган. Barcha falsafiy maktab va ta'llimotlarning umumiy vazifasi shaxs sotsium o'rtasidagi azaliy metafizik ziddiyatni yengish yo'llarini izlash bo'lган. Bu muammoning murakkabligi, ziddiyati boshqaruv nazariyasida ham garchand skepsis uyg'otsa-da, dolzarb hisoblanadi. qanday qilib inson tashqi muxit ta'sirini oldindan payqash mumkin? Boshqaruv ta'sirini amalga oshirishini qanday ta'minlash va qanday qilib unga muqobil ta'sirni rejalashtirish mumkin? Bu o'rinda boshqaruv san'ati va uning qoidalarini biluvchi psixologlar tavsiyalariga umid qilsa bo'ladi.

Shunisi ajablanarliki, biz shaxs va insoninng xatti-harakatlarini o'ziga xos baholashga odatlanganmiz. YAxshi odamning o'zi yaxshi odam, nega u shunday ajoyib – bu unchalik ham muhim emas, degan fikrga boramiz (ehtimol, aynan mana shu shaxsning ijobiy belgilarini chuqurroq o'rganish va bu bilimlarni tarbiya asosi sifatida olish kerakdir?). YOmon odam hamisha pedagog, psixolog va rahabarlar diqqat markazida bo'ladi – chunki yomon odam jamiyatda noqulaylik tug'dirishi tabiiy.

## Мешнат унумдорлиги



## **21-rasm. Xodimning ish bilan bandligi samarasiga bog'liqlik**

Ishga salbiy ta'sir qiluvchi, jamoa va oilada stress vaziyatiga sabab bo'lувчи shaxsiy muammolar haqida rahbar batafsilroq bilish foydalidir. Jamoaning har bir a'zosiga individual tarzda qo'yiladigan ish hajmi va talablarni aniqlash rahbarning «insoniy injenerlik» tajaribalari va bilimlariga bog'liqdir. Mehnat faoliyati samarasini xodimning ish bilan ta'minlanganlik samarasiga bog'liqligini mana bu oddiy jadval ifodalab beradi (optimal ish bilan ta'minlanganlik nuqta bilan belgilanadi. OPT absissa o'qida).

Hozirgi zamonning muhim muammosi, u ham bo'lsa, spirtli ichimliklarni suiste'mol qilishdir. Mana shu «yashil ilon»ning yaqinda kenja singlisi, yanada faolroq singlisi – giyohvandlik paydo bo'ldi. Bizga odat bo'lib qolgan piyanistani shundoq bilamiz, biroq «ko'knorixo'r»larni aniqlash juda qiyin. Bunday kishilarga kayfiyatning keskin o'zgarishi, xulq-atvorning ta'rif qilib bo'lmas darajada namoyon bo'lishi, ish faoliyatning keskin tushib ketishi xosdir. Ma'lumotlarga ko'ra giyohvandlar o'z hamkasabalaridan uch marta ko'proq ishga kechikadi, 2 marta ko'p ishdan javob oladi, 2,5 marta ko'proq uzoq muddat mobaynida ishda bo'lmaydi, 3 marta ko'p kasal bo'ladi hamda 3,6 marta ortiqroq halokatlarga uchraydi.

Oilaviy nizolar – inson zimmasiga tushadigan og'ir sinovlardan biridir. Kishilarning ma'lum qismi ajralish jarayonidan o'tgan. Biroq ajralishlar uzoq muddatli azobli «munosabatlarni oydinlashtirib olish» davrini o'z ichiga qamrab oladi, buning orasida bolalarni, mol-mulkni olish bahslari yotadiki, bunday o'ta ruhiy parokandlik davri, albatta, ishslashga xalaqit beradi. Rahbarning burchi obro' saqlab, qo'lidan kelgancha turmushning mushtiga duch kelgan hamkasabasiga yordam bermog'i darkor. Biroq buni qanday silliqqina, azob bermasdan qilish mumkin?

Boshliqning o'z xodimining ruxsat berilgan chegaraga qadar shaxsiy hayotiga aralashuvi juda nozik ish, shu o'rinda partiya va kasaba uyushmalarida, ayollar kengashlarida bo'lib o'tgan majlislar, o'rtoqlik sudlarining «ayolga nisbatan axloqsizlik bilan va o'rtoqlarcha munosabatda bo'lmaslik» tufayli bo'lib o'tgan o'rtoqlik sudlari dahshatini eslaylik. Biroq agarda shaxsiy muammolar ishga salbiy ta'sirini ko'rsatsa, boshliq o'z hamkasabasiga mohirlik bilan yordam qo'lini cho'zishi kerakligini inkor etib bo'lmaydi.

Bunday vaziyatda oddiygina zanjir paydo bo'ladi: oilaviy kelishmovchiliklar – kayfiyat tushkun bo'ladi, asabiylik, jizzakilik – ishda xato bo'lishiga, jamoada janjal chiqishiga olib keladi. Bu yerda qonun mantiqi nuqtai nazaridan tushuntirib bo'lmaydigan harakat kuchga kiradi: ayrim unsurlarning ancha kuchli hissalarini butun bo'ladi. Inson hamisha paydo bo'ladigan ishdagi muammolarni oson hal qiladi, lekin agarda boshiga yana oilaviy nizolar tushsa bormi, bu muammolar borib-borib kattaradi va bu mushkul chigallikdan kamdan-kam kishi bunday zarbaga dosh bera oladi.

Garchand oilaviy janjallar to'riga ilingan har qanday kishiga u chekkan azoblar hech kimnikiga o'xshamas, o'ziga xos va ayniqsa azobli bo'lib tuyuladi, biroq ularning sabablari juda betayin bo'ladi: xotini (eri) uni yomon ko'rib qolgan va shuning uchun ham o'zini chidab bo'lmas darajada tutmoqda yoki o'smir bolalarning yengiltaklarcha jinoyatchilik xatti-harakatlarini olaylik. Ko'pincha kasallik darajasiga borib yetgan rashk «yashil ilon» bilan birga o'ynashadi, ustiga-ustak erkaklarning ko'ngillari o'ta nozik bo'ladi – ularda rashk tuyg'usi nafaqat shubha-gumon va xotinining xiyonati bilangina cheklanmaydi, balki uning go'yoki erkaklik or-nomusi toptaladi, tajribali va oqil ma'mur xodimiga uning boshiga tushgan kulfatga aniq yordam bera oladi, u bilan maxfiy gaplashadi, uning dardlarini his qilib tinglay biladi va bo'lib o'tgan hodisa uning xizmat mavqeiga sira ta'sir etmasligiga va uning xizmat vazifalarini bir qadar yengillashtirishiga xodimini ishontiradi- bularning bari hamkasabasining ruhini ko'taradi.

Oiladagi nosozliklar, ishdan ko'ngilning sovishi, jamiyatda o'z o'rnini topa bilmaslik kishida ezgin holatni keltiradi, hayotdan ko'ngli qolib, maqsadlarini yo'qotishga olib keladi. Bu frustratsiya (lotinchadan frustratio – aldov, omadsizlik) deb ataladigan ruhiy holat juda individual bo'lib, ta'rifga ojiz zARBANI keltirib chiqarishi mumkin. Kutilmaganda paydo bo'lgan to'siq, qo'yilgan maqsadlar amalgamoshishida buzilishi, qandaydir ehtiyojlarning qoniqtirmaslik o'ta asabiylik, xavotir, alamlar va vaziyatdan chiqib keta olmaslik tuyg'ularda aks etadi. Frustratsiya juda keng miqyosda – xayolot va xulq-atvorda darg'azablikkacha borib, olamga g'arq bo'lishida ham aks etishi mumkin.

Odatda agressiv ta'siri omadsizliklar manbaiga emas, balki beayb, begona kishilarga yoki hatto jonsiz jismlarga ham qaratilishi mumkin. Ko'pincha kishi o'z tashvishlari asossizligini tushunadi, ammo ulardan qutulolmaydi va ilohiyotdan o'ziga panoh axtaradi, o'zini «yomon ko'zlar»dan asrash uchun ekstrasenslarga, astroglarga, folbinlarga zuv qatnay boshlaydi. Bunday xodimlar aqli va obro'li mutaxassislar bilan muloqotda bo'lsa, bu har qanday folbin va afsungarlardan ko'ra ko'proq foydalidir.

Ishda yana nosog'lom holatni yaratuvchi sabablardan biri – xodim shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, uning fe'l-atvori, aqliy qobilyati, madaniy saviyasidir. Beaqlo, ruhsiz odam – bu kulfat demak, biroq aqlsiz va ayni paytda o'z da'vosida turib oladigan jizzaki bo'lsa-chi, – ana bu haqiqiy baxtsizlikning o'zginasi. Oxiri yo'q, yetib bo'lmas orzularga samarasiz intilish davrlari darg'azablik yoki depressiya bilan o'rin almashadi; hammasidan ma'quli oqillik bilan ish tutish, vaziyatga tushunib yetish; bunda bari mantiqiy dalil-isbotlar inkor etiladi, hatto rozilik alomati ham inkor orqali ifodalanadi: «Yo'q, siz, albatta, haqsiz, ammo...» Psixiatrga borib, maslahat so'rang, deb taklif etish – haqorat kabi qabul qilinadi. Bunday baxtsiz, ruhi cho'kkani kishini nima qilish kerak? Ishdan bo'shatish kerakmi? Agarda ahmoqsiz yashayman desangiz, unda hammayoqni ishsizlar tutib ketgan bo'lardi.

Jamiyat rag'batlash va jazolash tizimini ishlatgan holda shaxs xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Bu choralarining samara berishi va saqlanishi madaniy an'analar,

ma'naviy va diniy me'yollar, jamiyatning huquqiy va siyosiy konsepsiyanining o'ziga xos tomonlariga bog'liqdir.

Agarda huquqiy sanksiyalar aniq tartibga solingan bo'lsa, unda ma'naviy choralar rasmiy bo'lmaydi va jamiyatda quyidagi shaklda keng qo'llaniladi: tanqid, tanbeh, yomon qarash, muhokama qilish, jilmayish, qo'l qisish va h.k.lar. YAxshi do'st haqiqatni yuzga aytadi, deb qanchalik uqtirmasinalar, hech kim tanqidni yaxshi ko'rmaydi va uni hech qachon suiste'mol qilish kerak emas. Eng nozik tanqid, tanbeh ham shaxs qadr-qimmatini tushirish kabi baholanishi mumkin va unga munosabat hamisha salbiy bo'ladi.

Har qanday tanqid, tanbeh, dashnom ham har qanday harakat kabi bir maqsadga ega bo'lishi lozim. Tanqid qiluvchi faqatgina kishini yerga urish, xafa qilish maqsadida dashnom berishi kamdan-kam bo'ladi, hammadan ko'ra bunda ishni yaxshilash, qilingan ishni to'ldirish, unga tuzatishlar kiritish maqsadi qo'yiladi. Shu maqsadni yodda tutgan holda (hattoki dilda beparvo yoki noshud hamksabani muhokama qilib), suhbatdoshda salbiy hayajonga sabab tug'dirmaydigan do'stona ohangda gap boshlash kerak bo'ladi. So'ngra azob bermasdan, odatda qarama-qarshi fikrdagi kishida ma'qullash va hattoki minntadorchilik tuyg'usini uyg'otadigan muammoni hal qilishning boshqa bir yo'lini taklif etish (ana, shu maqsadning o'zi!) mumkin. Agarda bu hol sodir bo'lmasa, unda shunga o'xshash vaziyatni keltirish, qandaydir mavhum shaxsni qattiq tanqid ostiga olish, ayni paytda suhbatdoshingizda ijobiy hayajonlarni qo'llash kerak bo'ladi.

**Jazo** – insonga ta'sir ko'rsatishning yanada ta'sirliroq usullaridan biri, inson faoliyatini pozitiv faollashtirish hamda ayni vaqtida bir butun olganda jamoani ko'zda tutgan holda profilaktik, tarbiyaviy tabiatga ega tadbir.

Insoniyat o'zining ming yillik tarixida jazoga nisbatan o'z munosabatni aniq belgilab oldi: jazo, shubhasiz, zarur, sodir etilgan harakatga proporsional ravishda ob'ektiv bo'lishi, ya'ni xodimlar bir xilda qilmishlari uchun bir xilad jazolanishlari kerakki, toki bir-birlaridan o'pka-gina bo'lmasin.

Jazoning xulq-atvor muammolari, shakllari va tadbirlariga ko'plab jildli tadqiqotlar bag'ishlangan. Faraz qilaylik, maslan, ota-onalardan biri, eringiz (yoki bolangiz) sizni uryapti deylik. Ba'zilar bundan o'sha odamni yo'q qilish kabi xulosa chiqarishadi, favqulod hollarda, o'znini-o'zi himoya qilish oqlanishi mumkin.

Bu fikrlar amerikalik psixolog ayol K.Prayorga tegishli va u matnda amerikaning inson huquqi haqidagi demokratiyasi va o'lim jazosini taqiqlashning shubhasiz zarurligi haqidagi istalgan mavzusi bilan bellasha oladi. Haqiqatda bu muammo isonni jazo bilan yo'lga solish muammosi juda murakkab bo'lib, psixologiya ko'pdan-ko'p nazariyalar, takliflar, bir-biriga zid fikrlarni taklif etadi. Boshqaruv jabhasidagi mutaxassislar qayta-qayta bu tajribaga ishonch keltirdilar, yaxshi ishlar uchun mukofotlash va yomon ishlar uchun jazolash hamisha ham maqsadga erishib bo'lmaydi, doimo vaziyat va shaxsning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

R.Yerks – I.Dodsonning mashhur qonuni xatti-harkatning og'irligiga qarab jazoning qat'iyligiga optimal bog'liqlikni belgilab beradi, hamda jazoning qat'iyligi shaxsning muayyan o'ziga xosligiga bog'liq psixologik jihatlarni nazarda tutish ma'qulligini ko'rsatadi.

**Oqilona jazo** ko'p omillarga bog'liq, ularning orasida avvalo vazifaning murakkabligi, xuddi shu vazifa tufayli xatoga yo'l qo'yilganligi, xatti-harakatning surunkali yuz berishi va og'irligi, jamoaning aybdor shaxsiga va qilmishiga munosabati, shuningdek, uning ruhiy va aqliy qobiliyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Shunisi ravshanki, bajarilayotgan topshiriq qanchalik mas'uliyatli, murakkab bo'lmasin, jazo ham shunchalik qattiq bo'ladi – ahir ijrochining ham xato qilishga haqqi bor-ku, ayniqsa bu topshiriq yovuz niyatda yoki mansab kursisi suiiste'mol qilingan holda bajarilgan bo'lsa.

**Boshliqning stereotip negativ munosabati** intizomning muntazam buzilishi yoki xodimning takrorlanib turgan xatolari (kechikish, ishga mast bo'lib kelish, ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashish va boshqalar) borib-borib, ko'p martalik

jazolanishga olib keladi. Ingliz maktablarining qayg'uli bir tajribasi bor, unga ko'ra yaqin-yaqingacha aybdor o'quvchilarni savalash usuli qo'llanib kelgan va ma'lum bo'lishicha, jazoga ko'pincha o'sha, bir xil bolalar duchor bo'lganlar.

Shuni qayd etish zarurki, jazo faqat boshliqning xodim qilgan xatosiga munosabati emas, undan ham muhim bir jihat borki, u ham bo'lsa, agarda qabul qilingan odob qoidalari hamda jamoada xulqi salbiy bo'lsa, aybdorni jamoada muhokama qilish tadbiri ko'proq ta'sir qiladi.

Agarda jamoa boshliq qabul qilgan kuchli ta'sir qilish chora-tadbirlarini tushunib, qo'llab-quvvatlaydigan bo'lsa, unda jazo kelgusida bunday qiliqlar takrorlanmasligiga ogohlantirish bo'lib yangraydi, aynan shundagina jazo kerakli tarbiyaviy va profilaktik vazifasini o'taydi.

Bordi-yu, jamoa qandaydir sabablarga ko'ra tartib buzuvchini qo'llab-quvvatlasa, unda ma'quli yuzaga kelgan vaziyatni diqqat bilan tahlil qilish, jamoaning ushbu mojaroga bo'lgan bunday munosabat sabablarini aniqlash, rahbar sifatida o'z xatolarini belgilab olish va jazodan o'zini tiyish kerak bo'ladi. Biroq mana shu liberallarcha harakatlar kishilarga talabchanlik darajasini tushirib qo'yishi, salbiy harakatlarni jazosiz qoldirish oxir-oqibat jamoada ma'naviy muhitning nosog'lomlashishiga olib keladi. Jazosiz qoldirish esa tartib buzarning o'ziga qarshi bo'lib chiqishi, ma'naviy mezonlarga hurmatsizligini isbot qilib qo'yishi mumkin. qadimgi Rim arbobi Publiy Sir, insonni qutqarmoq uchun unga ba'zida azob berish ham kerak, degan edi.

Boshqaruv ilmi va san'atida mana shunday murakkab psixologik va boshqaruv muammosini hal qilish yuzasidan amaliy tavsiyonomalar ishlab chiqildi. Jazoni qanday qo'llashda hamisha jazo – birinchi navbatda tarbiyalash va jamoani jipslashtirish tadbiri ekanligini esda tutish ana shu jumladandir. Jazolash haqidagiadolatli qarorning jamoa tomonidan tushunilishi va qo'llab-quvvatlanishi juda muhimdir.

Jazosini berish haqidagi qaror jamoa diqqatiga yetkazilishi zarur, biroq bu qaror bo'yicha aybdor bilan suhbatlashib olish kerak. Suhbatda aybdor shaxsi emas,

balki sodir etilgan qilmish muhokama qilinishi darkor. Bunday suhbatni darhol emas, bir necha vaqtdan keyin o'tkazish kerak, chunki bu payt ichida kishi o'z xulq-atvorini o'ylab ko'rishi, tinchlanishi mumkin. O'z jazosini kutish esa jazoning o'zidan ko'ra og'irroq kechadi.

Topshiriq bajarishda, ayniqsa bu topshiriq qiyin va boshqacha bo'lganligi tufayli yo'l qo'yilgan xatoni intizomsizlik, dangasalik va mas'uliyatsizlikda bajarilgan xatodan farqlay bilish ahamiyatga egadir. Axloqizlik, g'irromlik, nopolikl kabi ijtimoiy havf soluvchi xatti-harakatlarga ayniqsa ahamiyat berish zarur. Sodir etilgan har qanday qilmishga aybdor shaxsi, uning madaniy va aqliy saviyasini nazarda tutgan holda yondashmoq kerak.

**Jazoning qattiqligi** turli xodimlar uchun turlicha bo'lishi kerak – ba'zilar uchun do'stona, yuzma-yuz turib haqli ishni muhokama qilish boshqa har qanday buyruq bilan jiddiy hayfsan e'lon qilgandan ortiqroq ta'sir qiladi.

**Ishdan bo'shatish** – ishdan bo'shayotgan kishi uchun ham, rahbar uchun ham va butun jaoma uchun ham qayg'uli holdir. Ishdan bo'shatish o'zining orqaga yo'l yo'qligi va beshafqatligi bilan o'limni eslatadi va kishida achinish uyg'otmasdan qolmaydi (ba'zida yengillik ham). Ko'pincha xodimning ishdan ketishiga uning rahbar bilan, vazifalari hamda korxona talablariga bo'lgan munosabatlari tufayli kelib chiqqan nizo sabab bo'ladi.

Ba'zan nizo asosida rahbarning mana shu lavozimga da'vogar bo'lgan birinchi suhbat yotadi. Suhbatda ishga tushayotgan xodimga rahbar shavq-zavq bilan ish sharoitlari, korxona oldiga qo'yilgan maqsadlar haqida hikoya qilgan va bu orada vaziyatni birmuncha ko'prtirgan bo'ladi. Xodim ishga tushib, haqiqiy vaziyatni ko'radi-da, hafsalasi pir bo'ladi va o'zini aldangan (frustratsiya) his qiladi va bariga aybdor sifatida ko'ngilchan va betayin boshliqni ko'radi. Jamoa hayotida hech bir kishini ishdan bo'shashi hayajonga soladi. Kimni, nima uchun va qanday qilib ishdan bo'shatilganligi har xil nuqtai nazarlardan muhokama qilinadi va hech kimni loqayd qoldirmaydi. Hamisha ko'ngilchanlar, ayniqsa hayajoni oshib-toshib ketgan ayollar orasida kuyunchaklar topila qoladi va ular hech nimani chuqr surishtirib o'tirmay

ishdan ketayotgan kishiga achinadilar, ko'ngillarining tubida uning o'rniga beixtiyor o'zlarini qo'yib ko'rib, rahbarni muhokama qiladilar.

Mana shu ko'pchilikning ranjigan ko'ngillarini yumshatish uchun («mana, bizning birimizni ishdan bo'shatishdi. Balki ertaga meni ham bo'shatishar...») shunday qilish kerakki, ishdan bo'shayotgan kishi va jamoa a'zolarining salbiy his-hayajonlari rahbarga emas, balki jazoning mana shunday qattiq (oliy) turiga mubtalo qilgan harakatga qaratilsin. Ishdan bo'shatishning psixologik mexanizmiga oid bir qancha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mana ulardan biri. Rahbarning o'z aybini bo'yniga olgan va ishdan ketish havfi ostida turgan xodim o'rtasida og'ir suhbat ketmoqda. «Sizga bir yo'l bilangina yordam berishim mumkin. U ham bo'lsa, «o'z ixtiyorizingizga ko'ra» ishdan bo'shatish. YOzing arizani». Rahbar sana qo'yilmagan, imzo chekilgan bunday arizani qo'liga olarkan, kutilmaganda, men so'nggi narsani qilishga, sizni ishda olib qolishga tayyorman, deydi. «Ishingizga boravering. Agar kerak bo'lsa, menga masalahat soling. Agarda siz ishga munosabatingizni o'zgartirmasangiz va shunga o'xhash ishni yana takrorlasangiz, unda men arizangizni buyruq chiqarishga beraman», deb qo'shib qo'yadi. Shunisi aniqki, bu holda xodim o'zining ishga munosabatini o'zgartirishga yana bir imkoniyat berilganidan shod bo'ladi, jamoa esa rahbarning insonparvarligini tegishli baholaydi va nima qilib bo'lsa ham o'z hamkasabalariga yordam berishga harakat qiladi.

Afsuslar bo'lsinki, ishdan ketishga ko'p hollarda ichkilik sabab bo'ladi: tinimsiz ish qoldirishlar, ishda va ko'chada janjal ko'tarish va h.k. Ichkilikni kasal deb qarash, bu dardga yo'liqqan kimsaga davolanishi uchun muhlat berish kerak, degan fikr tarqalgan. Bunga albatta majburiy usullar ham kiradi. Biroq shuni qayd etish kerakki, agar aroqxo'r odamning o'zi boshqa ichmaslikka ahd qilmasa, uni ekstrasens, folbin, mulla yoki malakali vrachga olib borishni xojati yo'qdir. Aroqxo'r kishining ichmaslikka qaror qilishida – vrachlar. qarindosh-urug'lar va do'st-birodarlar yordam berishlari mumkin, bu holda har qanday korxona amaliy ko'mak berishi qiyin.

Aybdor, nohalol va jamoani orqaga sudragan kishining ishdan bo'shatilishi haqida qaror qabul qilinganda yuzaga kelgan vaziyatga e'tibor beraylik. Rahbar bunday ayovsiz, biroq haqli hukm chiqararkan, avvalo bunday qarorning jamoaga ko'rsatadigan tarbiyaviy ahamiyatini o'ylashi darkor: jamoaning ko'pgina a'zolari beixtiyor halollik, xulq, jazoning qaytarilmasligi haqida o'ylay boshladilar.

Ishdan bo'shatish kabi ko'ngilsiz hodisa ham rahbar uchun foydadan holi bo'lmaydi. Bo'shayotgan kishi bilan so'nggi suhbat ishdan bo'shashning haqiqiy sababi haqida qiziqarli ma'lumot berishi, korxonadagi vaziyatga yangicha qarashni taklif etishi va unga baho berishi, rahbar faoliyatidagi kamchiliklarni ochishi mumkin. Sotsiologlarning quyidagi ma'lumotlari kishining diqqatini o'ziga tortadi: ish vaqtida rahbardan tushayotgan xabar faqatgina 10% gina ob'ektiv va to'g'ri bo'ladi. Gorizontal bo'yicha esa, bir-biriga aloqasi bo'limgan kishilar orasida bu 90%ni tashkil qiladi.

Xodimlarning shaxsiy munosabatlariga asoslangan norasmiy, «gorizontal» axborot haqida bir necha og'iz so'z. Bu axborotning sub'ektiv ekanligiga shubha bo'lmaydi, biroq bunda jamoadagi asosiy tendensiyalar bayon etiladiki, teng xodimlar fikri ko'proq bir-biriga to'g'ri keladi va axborot bo'rtirilmaydi, bu xabar hammaga tez va birday yetib keladi. Xodimlar orasidagi shaxsiy aloqalar ishlab chiqarishning ko'p masalalarini tezda hal qilishga yordam beradi, harakatlarni birlashtiradi.

Biroq har xil g'iybatlar tarzidagi norasmiy axborot ishlab chiqarish nizolari va og'ir ruhiy zARBALAR manbai bo'lishi ham mumkin. Inson muntazam ravishda jamoa a'zolari haqida yangi ma'lumotlar olib turadi va o'zini o'rab turgan kishilarni ta'riflashda, baholashda tuzatishlar kiritib turadi. Lekin uning uchun muhim va qiziqarli bo'lgan ob'ekt haqida – o'zi haqida axborot juda tanqis bo'ladi. Ko'pincha biz bunday habarlarni ko'zgu qarshisida labga bo'yoq surtgan yoki soqol olgan paytlarda olamiz. Biz shunday tarzda o'z tashqi qiyofamiz haqida ma'lumot olamiz, ammo ichimizdagи «MEN» haqida kamdan-kam hollarda yangi gaplarni bilamiz. Har bir odamda o'z shaxsiga nisbatan bahoning aniq qolipi shakllangan bo'ladi (odatda

juda ko'ngilli). O'z kamchiliklarini holis, haya jonsiz baholash – ajoyib hodisa bo'lib, qoida bo'yicha, inson o'z xatolari va yanglishishlarini aql bovar qilmas darajada oqlay biladi

Bunday hollarda o'z vaqtida Freyd tomonidan aytilgan psixologik muhofaza mexanizmi ishlay boshlaydi. Eng ayanchli, shafqatsiz jinoyatlar sodir etgan ming lab jinoyatchilar so'roq qilinganda, ularning bari, deyarli hammalari o'z qilmishlarini u yoki bu vaziyatning kelib chiqishi bilan yoki bu jinoyatlar ularning xohish-irodalariga qarshi o'laroq, sodir etilganini tushuntirib, o'zlarini oqlaganlar.

Ahmoqona harakatlardan hayron bo'lib, o'z hamkasabasiga bunday xulq-atvorga chidab bo'lmasligini tushuntirib, mana shu g'alati inson shaxsiyatining o'ziga xos jihatlarini yodda tutish kerak. Uning ich-ichidan pushaymon bo'lganiga uncha ishonish kerak emas: chunki psixologik himoya mexanizmi baribir ishlayveradi va kishi ko'nglining tub-tubida o'zini oqlash vajini topadi. Inson shunday, biz ham siz bilan xuddi shundaymiz.

Shunisi ajablanarlik, ba'zan kishining jamoada o'zini tutishini ta'riflab bo'lmaydi. Jamoaning o'zi ham juda murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi hamda juda murakab va paradoksal qonunlar bo'yicha rivojlanadi. Ko'p hollarda jamoa mustahkamligini uning faoliyatining yuqori samaradorligi belgilaydi.

Xodimlar jipsashishi umumiy manfaatlar, axloqiy me'yorlar, psixologik, intellektual, ishchanlik bir bo'lsagina o'zaro bir-birini tushunish va norasmiy muloqot jarayonlari samarali bo'ladi. Birgalikda ishlash, jamoat aloqasining o'zi beixtiyor musobaqani keltirib chiqaradi, o'ziga xos hayotiy kuch asosiy rol o'ynaydi («animal spirits»). Aytaylik, besh kishidan iborat bir guruh ish kunida alohida-alohida ishlaydigan besh kishidan ko'ra ko'proq ish qiladi – bu yerda jipslik, integratsiyaning murakkab qonuni ishga tushadi.

Ha, bu, shubhasiz, to'g'ri, biroq juda jipslik ham shunday «tuhfalar» qilish mumkinki, u konformizm fenomeni va psixologik asosga yaqin «yakdillik effekti»ni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga ko'ra inson jamoa bilan nizoga borishdan yoki

ular bilan uyg'un munosabatlarga putur yetkazishdan qo'rqib, o'z noroziligi ni bildirishdan, qandaydir masalalarda bahslashishdan o'zini olib qochadi. Bularning bari ko'pchilikning shaxs ustidan qilgan tazyiqi, zo'rлиgining o'ziga xos ko'rinishi bo'ladi. Aytgancha, harbiy kengashlarda kichik ofitserlarga birinchi bo'lib so'z beriladi, chunki bunday hollarda kattalar fikri kengash a'zolarining tashabbusi va ijodiy faolligini bo'g'maydi.

Jamoada shakllangan xulq-atvor me'yorlari, o'zaro munosabatlar etikasi, mezonlar birligi beixtiyor alohida shaxsga guruh bo'lib tazyiq o'tkazish holatini keltirib chiqaradi va inson fikri va qadr-qimmatiga juda kuchli ta'sir qilishi mumkin. Jipslik natijasi o'laroq, «yakdillik effektini» rivojlantirish mumkin. Unda kishi umumiylaholarga itoat qilgan va jamoa uyg'unligini buzishdan qo'rqib, o'z fikrini bildirishdan qochadi.

**Konformizm** (lotinchadan conformis – o'xshash, muvofiqlik) tarbiya tizimi hamda jamiyatning shaxsga qilgan g'oyaviy ta'siri ostida shakllanadi va jamoada hukmron fikrning qabul qilish passivligi, o'z pozitsiyasining bo'lmasligi, har qanday namuna, stereotipga tanqidiy munosabatning bo'lmasligi bilan ifodalanadi. Natijada inson sotsiumda yashashning qulay va oson usuli sifatida laganbardorlik, moslashuvchanlikning barqaror shakli ishlab chiqiladi.

Agarda insonga o'zini istaganiday tutish imkoniyati berilsa, u boshqalarga taqlid qila boshlaydi, degan hazil ham bor. Bolalik va o'smirlikda unga ota-onasi, o'qituvchisi, obro'li do'stlari, kinodagi qahramon yoki adabiy personaj namuna bo'ladi. Inson kamolga yetgach esa o'zini qobiliyatli ota, iste'dodli hamkasaba yoki yanada jiddiyroq qilib aytsak, daho, yetakchi bilan tenglashtirish xos bo'ladi.

O'zini mutlaq idealga o'xshatish insonga qadim davrlardan boshlab hamma zamonlarda xos bo'lgan. Natsistlarning mashhur da'volarini, Ustoz va Dohiyni dafn etish marosimidagi ommaviy azani eslang, «leninchasiga yashaymiz va ishlaymiz» degan yaqin-yaqindagi shiorlarni es lang. Tarix hammavaqt «daholik»ning dahshatli oqibatları haqida eslatib turadi. Diniy kitoblar, jumladan, Bibliya, «o'zingga-o'zing sajda qilma», deya o'git bersa-da, jamiyat bu saboqni juda yomon o'zlashtiradi.

Moslashuv, ilgari sovet psixologlari uqtirganiday, jamoaning muhim belgilardan biri hisoblanadi. Ularning fikricha, xodimni tarbiyalash shunday holatga yetkazilishi kerakki, toki inson o'zini jamoadan tashqarida tasavvur qila olmasin. O'tmish mafkurachilar jamoaning bunday tarzda moslashtirish amalga oshirishga ulgurolmay qoldi, ularga buning uchun yana 35-40 yillar kerak bo'lar edi. To'laqonli moslashtirish uch avlod mobaynida sodir bo'lib inson o'zining individualligini yo'qotadi va tom ma'noda robotga aylanadi: u dohiy qarshisida ta'zim qiladi, yakdillikni taqsimlaydi, o'zida qattiq qo'lga ehtiyoj sezadi.

Rahbar qo'l osti vositalardan shaxsga hamda jamoaga kuchli ta'sir ko'rsatish zaruriyati tug'ilsa, undan foydalanishi mumkin. Ijrochi nuqtai nazaridan bir xillikning psixologik fenomeni muhim, deyarli maqsadga muvofiq oqibati bor. Qanday qilib umumiyl ish va o'z foydang uchun boshliq bilan munosabatlarni oqilona qursa bo'ladi? Agarda boshliqning omilkor emasligi va axloqsizligi kabi (afsuski, shunday hollar ham uchrab turadi) jihatlarni bir chekkaga qo'yib tursak, bunday munosabatlarni turlicha asosiy pozitsiyalarda – g'ururdan tortib laganbardorlikkacha o'rnatish mumkin. Agarda o'z rahbaringizning amaliy va ma'naviy maslagini tushunishga urinadigan, o'zingizni u bilan tenglashtirishga intiladigan bo'lsangiz-chi? Shunda boshlig'ingiz, u qaysi o'lchov bilan jamoa faoliyati natijalariga baho beradi, u qanday ta'sir choralarini ko'radi? Balki qarashlaringiz to'g'ri kelib qolar, unda o'z rahbaringizni sidqidildan qo'llab-quvvatlashingiz kerak? Aytgancha, mutlaqo ishonch bilan qiling – ahir sizning muvaffaqiyatga erishishingiz, mansab pog'onasiga ko'tarilishingiz boshliqqa bog'liq emasmi?

Siz barcha aytilganlarni o'ylab ko'rib, boshliq bilan ruhan birliginingizni, uning asosiy prinsiplari, boshqaruv mezonlari aytarli darajada sizning fikringizga to'g'ri kelishiga ishonch hosil qilasiz, shunda mashhur «Fuller formulasi» kuchga kiradi.

Mazkur formula, qanday qilib muvaffaqiyat qozonishni, xizmat lavozimidan ko'tarilishingizda qanday strategiya yordam berishi haqida oqilona tavsiyalar beradi. Shaxsiy martabangiz haqida judayam tashvish chekmang, yaxshisi o'zingizning bor

kuchingiz, aql va iste'dodingizni o'z korxonangizning muhim masalalarini hal qilishga sarflang, iloji boricha boshlig'ingizning lavozimi ko'tarilishiga yordam bering, «shundagina siz o'zingizning yordamingiz bilan bo'shab qolgan yangi o'rinni kamtarlik bilan egallaysiz».

O'zingizdan mansabi yuqori bo'lgan amaldor manfaatlarini himoya qilish, o'zingizni emas, uni olamda eng yaxshi deb ko'rsatishga harakat qilish uchun ikkinchi darajali rollarda birinchi bo'lishga tirishish zarur. Bu ozgina pastkashlik bo'lib ko'rindi, shunday emasmi? Lekin bu pragmatik yo'l to'g'rimi? Vijdon bilan ishlashga da'vat qilish, boshlig'ingizni qo'llab-quvvatlashishingiz oxir-oqibat sizning xizmat pog'onalaridan ko'tarilishingizga turtki bo'ladi va umuman, bu sizning ma'naviy-axloqiy aqidalaringizga putur yetkazmaydi. U formulaning ayovsiz va ochiqdan-ochiq pragmatikligi bir qadar g'ayritabiyy ko'rindi, biroq bunday holda formula xizmat pog'onasidan ko'tarilishida katta yordam beradi.

Haqiqatan, «Fuller formulasi» ijrochining izzattalab rejalarini amalgalashirishda dastur bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshliq hamkasabasi uning rejalarini amalgalashirishda sidqidildan unumli ishlayotganligiga ishonch hosil qilarkan, unga ko'proq erk beradi, asta-sekin unga o'zining ba'zi bir majburiyatlarini berib, nazoratini susaytiradi.

Rahbarga xodimning shunday qo'llab-quvvatlashi ma'qul keladi. Xodimga esa boshliqning ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish asosiga qurilgan yaxshi munosabatlar natijasi, korxonaga, umumiylashga foyda keltiradi. Ijrochiga, ayniqsa yosh mutaxassisiga bu tavsiyalarni o'ylab ko'rishi va mavridi kelganda unga amal qilish kerak bo'ladi.

Yana «muvaffaqiyat formulasi» ham bor. Agarda siz martabangiz ko'tarilishini istasangiz, unda imkon boricha tezroq o'zingizga o'rindosh izlang. Agarda sizning o'rningizga mutaxassis tayyorlanmagan bo'lsa, unda sizning xizmat lavozimining ko'tarilishi korxonani zaiflashtiradi va yuqori lavozimga sizni tanlashmaydi – «Ahir sizning o'rningizga hech kim tayyor emas-ku!» Biroq olisni

ko'rolmaydigan ko'p kishilar o'z o'rnini, ishini qizg'anib o'ziga o'rindosh tayyorlashdan cho'chiydarlar.

Bir xillashtirish fenomeniga ingliz fiziologi nomi bilan atalgan Karpenter effekti mohiyatan yaqindir. Biz kundalik turmushimizda mazkur effektni tez-tez kuzatib turamiz: agarda yoningizda turgan kishi qandaydir harakat qilsa – homuza tortsa, bu sizga ham yuqadi, beixtiyor siz ham homuza torta boshlaysiz.

Ehtirosga to'lgan sport ishqibozlarini bir kuzating-da, ularning mushaklari taranglashadi, ular joylaridan sakrab turib ketadilar, qichqiradilar. YOKi latifasevarlarning yalpi «yuqumli» kulgesi, estrada jinnilari darajasiga yetgan muxlislarning hushtakbozliklari, faryodlarini olaylik. Agarda bahslashuvchilardan biri ovozini balandlatsa, undagi hayajon odatda muholifiga ham o'tadi va munozaradagi jizzakilik muntazam ravishda o'sib boradi. Ko'pgina oilaviy sahnalar asosida aynan Karpenter effekti yotadi. Bu o'rinda mashhur ezgu taklif kiritiladi: «Esing bo'lsa, olishma».

Ba'zan yovuz taqdir rahbarni og'ir sinovlar iskanjasiga tashlaydi, tabiatan ezma kishining gaplarini sabr-toqat bilan tinglash ham shular jumlasidandir (masalan, boshliqning xotini yoki xizmat ko'rsatgan faxriyning gaplarini). Bundan hamsuhbat uzoq va beto'xtov, savol yoki biron-bir luqma tashlanishini kutib o'tirmay, bir mavzudan ikkinchisiga osonlik bilan o'tishi, kutilmaganda arzimas mayda-chuydaga to'xtalib, yana gapirgan gaplarini qaytarishi ham mumkin. «Es imda, 65-yildamidi, yo'q-yo'q, 66-yilda, ha, ha, 66-yilda...» Psixologlar logorreya, deb atagan, betinim ezmalikday kulfat chog'i boshqaruv san'ati qanday yordam bera olishi mumkin? Xudo meni qaysi gunohlarim uchun bunday jazolaydi! – deb hazil aralash xo'rsinishdan boshqa iloj qolmaydi. Ezmalardan qo'rqing, ish qiluvchilarga ishoning!

Jamoaning har bir a'zosi betakrordir, buning nafaqat asosiy qiyin tomoni emas, balki rahbar mehnatining o'ziga jalb qiladigan tomoni ham bor. Har bir kun yangi da'vat, yangi kurashlar bilan kirib keladi, tajribali mutaxassis esa hamisha mana shu chaqiriqni qabul qilishi, muholifidan donoroq bo'lishi hamda axloq, qabul qilingan qaror uchun o'z javobgarligini esda tutgan holda hayotiy va xizmat kolliziyalarini hal

qilishga erishishi shart. Ahir har bir boshqaruv qarorining asosiy maqsadi o'z izzatnafsi qondirish emas, balki jamoa faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib borish va unda har bir a'zoning farovonligi uchun intilishi kerak.

So'nggi vaqtarda rahbarlarning sinchkov diqqatlarini jalgan yangi tipdagi xodimlar paydo bo'ldi. Bu, yaxshigina bilimli, zakovatli, biroq juda surbet, hatto axloqsiz shaxslar bo'lgan yoshlardir. Durustgina asosiy bilimga ega bo'lgan, Angliya yoki Fransiyada malakasini oshirib qaytgan, moddiy jihatdan ta'minlangan, bir necha xorijiy tillarni egallagan, hayot haqida, uning salbiy tomonlariyu jozibasi haqida hamma narsalarni biluvchi hamda uning hayotiy andazalariga muvofiq kelmaydigan, unga soya tashlaydigan barcha narsalardan nafratlanuvchi, o'ziga ishonchi mustahkam yosh yigit.

Barnogina, qaddi-qomati kelishgan, «tanishlarining taklifi bilan» Rimda, Venesiyyada va Parijda bo'lgan qiz hayratdan lol qolgan dugonalarini qimmatbaho atir-upalari, kiyim-kechaklariga hasadini uyg'otadigan, «shirin turmush» haqida og'zini ko'prtirib hikoya qilgan qiz. Bunday yoshlар tobora ko'payib bormoqda, ular jamiyatda o'z o'rinalarini egallahsga da'vo qiladilar hamda jamoaning ma'naviy-psixologik iqlimiga tubdan ta'sir etadi. Ularning ma'naviy qadriyatlarg'a, or-nomus, muhabbat, qadr-qimmat kabi tushunchalarga o'z qarashlari bor, bu jamiyat uchun hamda ularning o'zлari uchun ham adolat va razolat, halol mehnat, oilaviy turmush uchun bunday qoidalar havflidir.

Jamoа va uning har a'zosining taqdiri uchun javobgar bo'lgan rahbar burchi loqaydlik, sinizm, egotsentrizm va ma'naviy sayozlik bilan «jangga» chiqishi kerak. U mana shu bellashuvda ma'naviy muholiflaridan kuchliroq bo'lishi kerak.

**Ishsizlik: ish izlash.** Mamlakat xalq xo'jaligini butun sohalarini qamrab olgan ishlab chiqarishning yalpisiga pasayib ketishi ishsizlikni tug'dirdiki, xalqimiz bu haqda sovet davrida kapitalistik jamiyatga xos bo'lgan kulfat deb eshitgan edi, holos. Bizni ishsizlik kapitalistik qarashlarning umumiy qonuni ta'siri ostida paydo bo'ladi, iqtisodiy inqirozlar va ishchi kuchiga talabning qisqarishida depressiya yuzaga kelishi bilan kuchayadi, deb o'qitishgan. Endilikda biz amalda bu nazariyaning haqligiga

ishonch hosil qildik. Nafaqat mamlakat qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishigina emas, balki yuksak texnologik va ilm-fan sohalari ham ishsizlikdan azob chekmoqda.

Nafaqat ishyoqmas, piyanista yoki professional jihatdan hech narsada yo'q odamgina emas, hattoki malakasi yuqori bo'lishiga qaramay qaysar xodim, nima uchundir katta boshliqqa yoqmay qolgan (yoki aksincha yoqib qolgan) juvon shafqatsizlarcha ishdan bo'shatilib, ortiqcha kishilar, ishsizlar armiyasi safiga qo'shilishi mumkin. Ishsizlik muammosi va ish izlash usullari yana ko'p vaqtlargacha dolzarb bo'lib turadiganga o'xshaydi.

Aksariyat, doimiy va durustgina moyana olib turgan ishlaridan ajralgan kishilar qalblarida chuqur alam paydo bo'ladi, ruhan cho'kadilar va g'azab otiga minadilar. Ba'zida kishi yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish yo'lini topolmay borgan sari ruhan cho'kaveradi, cho'kaveradi, hayotning qora gardishi chekkasiga borib qoladi. Bu baxtsizlikdan qutulish chorasi yo'q, ammo ba'zi bir amaliy tavsiyalar berish zarur.

Muhimi – umidsizlanmaslik, qo'l siltash kerak emas (keyinroq biz boshqaruv san'atining konkret uslublaridan biri – «sutga tushgan qurbaqa» usuli bilan tanishamiz. Uni shunday vaziyatda qo'llash juda kerak!), ahir boshimizga tushgan kulfatda faqat o'zimizni ayplashimiz noto'g'ri bo'ladi.

Ahir har xil ish joylari mavjud, doimo yangi bo'sh o'rinalar paydo bo'lib turibdi va mehnat turmushida yana o'z o'rnini egallashning ko'p usullari bor-ku. Bu barcha usullar bilan bir vaqtning o'zida, surunkali tarzda va xotirani kerakli yozuvlar to'ldirganiga ishonmasdan foydalanish zarur.

Bo'sh ish joylari haqida rasmiy axborot manbalari bor. Tuman va shahar ish bilan band qilish markazlari va mehnat birjalari (tezlikda ishsizlik bo'yicha nafaqa olish uchun uyoqqa murojaat qilish kerak), turli davlat va xususiy axborot banklari, gazeta-jurnallar, axborot taxtalari, maxsus byulletenlardagi e'lonlar, radio va TVdag'i targ'ibot shular jumlasidadir.

Shuni yodda tutish kerakki, axborotlarning ancha qismi to'g'ri chiqmasligi yoki ochiqdan-ochiq yolg'on bo'lib chiqishi ham mumkin. O'zingizning yozuv

daftarchangizda katta imkoniyatlar topiladi – sizning ko’p sonli tanish-bilishlaringiz orasidan 5-10% (afsuski, bundan oshiq emas!) sizning boshingizga tushgan savdoni samimiy tushunishi va ko’maklashishga harakat qilishi mumkin. Tanishlar bilan umidvor ohangda, yig’ lamsiramay, nolimay gaplashish kerak – shunda o’z qadr-qimmattingizni tushirmsaligingiz hamda suhbatdoshingizda kelgusida o’zingizning yordamingiz tegib qolishiga ishonch hosil qilishi mumkin. Har bir suhbat oxirida ish izlash natijalarini bilish uchun kelgusi qo’ng’iroqni kelishib olish kerak bo’ladi.

Ishni hudud taomili bo’yicha, yashash joyga yaqinroqdan izlagan va garchand ko’pincha ish beruvchi doimo ham taklif qilinayotgan ishning kamchiliklarini to’la ochmasa-da, takliflarni inkor qilishga shoshilmagan ma’qulroq. Hattoki vaqtinchalik ishga ham beparvo bo’lmaslik kerak, chunki so’nggi qarorni qabul qilish uchun qandaydir muhlat paydo bo’ladi. Albatta, har bir suhbatni kulib, ochiqko’ngillik bilan, yaldoqlanmasdan, bor erkaklik yoki ayollik jozibasini ishga solgan holda boshlash kerak (mazkur kitobda hikoya qilinganiday, M uslubiga muvofiq), «Ahir tashqi ko’rinishingizga qarab qarshi olishadi»... Biroq muhimi – o’zingizga hamda yaxshi kishilarga bo’lgan ishonchni saqlash, dadil, ozoda va oqko’ngil bo’lishdir.

#### **18.4. yetakchilik muammozi**

**Ming ko’yga bir kaltak**

*Alisher Navoiy*

Rahbarlik lavozimiga tayinlanish, tabiiyki, rahbarga hokimiyatni to’la topshirishni ko’za tutadi. Qo’lidagi hokimiyatni samarali boshqaruva uchun juda yetarli ta’sir vositasi bo’lgan o’z maqomini rahbar oqilonqa qo’llash mumkin. Rahbar o’ylab ko’rib, vaziyatni taroziga solib, donolik bilan buyruq chiqaradi, qo’l ostidagilar bu buyruqni bajarish natijasida ish ketadi. Kishining rahbarlik lavozimiga tayinlanishi vaqtidan boshlab kuzatish qiziqarli. Chunki shaxs uchun qator imkoniyatlar yaratiladi. yetakchi qanday yetishib chiqadi? Yangi rahbar lavozimga

tayinlanganidan so'ng juda murakkab, nozik vaziyatga tushib qoladi: ehtiyojkorlik qilish va o'ziga qolgan merosni o'rganib, kutish kerakmi? YOki kamchiliklarni tanqid qilib nuqsonlarni bartaraf qilishga qarshi hujum boshlagan ma'qulmi?

Ko'pincha sobiq rahbar yanada kattaroq lavozimga ko'tarilganda yangi rahbarning to'g'ridan-to'g'ri boshlig'i hisoblanadi. Shu tufayli korxona ishini tubdan o'zgartirish, o'z rahbari ishi samarasini tanqid qilishga teng.

Bu vaziyat haqiqatan nozik. Aksariyat yosh rahbarlar qiladigan ishlarining oqilona rejasini belgilashga va bajarishga ikkilanib, bir joydadepsinib turaveradilar.

Boshqaruv nazariyasi yangi rahbarga vaqtini bekor ketkazmaslikni, jamoada o'zining yangi mavqeiga moslashish jarayonida muhim muammolarni belgilab olishi kerakligini maslahat beradi, chunki bu masalalarni hal qilish ish samaradorligini ta'minlaydi. Amalga oshirilishi kerak bo'lган masalalar rahbar vazifasi doirasiga kiritilishi, qo'shimcha resurslar talab qilishi, qisqa muddatda sezilarli natijalar berishi va aniq ish rejasi bo'yicha bajarilgan bo'lishi kerak.

Reja bajarishini qattiq nazorat qilish ijrochilarda norozilik uyg'otishi mumkin, lekin rahbar faoliyati sezilarli natijalar bera boshlasa, mukofotlar bilan taqdirlash yo'lga qo'yilsa, jamoa bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi. Konkret ishlar orasida islohotlar o'tkazish strategiyasi rahbarga hech qanday qarshiliksiz jamoa bilan amaliy va ishonchli munosabatlar o'rnatishga, malakasini isbotlashga imkon beradi.

Rahbar o'zining kundalik ishida asta-sekinlik va qat'iyat bilan obro' qozonish, o'zining boshqaruv san'ati qoidalarini egallaganligini namoyish qilib borishi kerak. YAngi ma'mur dastlabki vaqtda obro'li manbalarga asoslanib, o'z takliflarini mustahkamlab borishi, dasturlarni ishlab chiqishi, masalalarni qo'yishda imkon qadar mutaxassislarni jalg' etishi zarur. chunki guruhning umumiy pozitsiyasi rahbar fikrlarining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Albatta, o'zi kiritgan yangiliklarga bevosita boshlig'i va hamkasabalarining diqqatlarini qaratishi lozim. Rahbar o'z ish uslubini ishlab chiqish va muntazam ravishda uni takomillashtirib borishi kerak. Tez-tez uchrab turadigan xatolardan saqlanish yo'llari:

- masalani hal qilishni ertangi kunga qoldirmang. Xatlarning muhlati bo'lishiga qaramasdan, ularga birdan, kelib tushgan kundayoq javob qaytargan ma'qul har qanday tezkor masalaga darhol e'tiborni qaratish zarur, uni qat'iyat bilan bajarish ma'qul;

- masalani darhol hal qilish yoki hal qilmaguncha uni diqqat markazidan qochirmslik kerak. Bunday ish uslubida zudlikda bajariladigan hujjatlarni chang bosmaydi, ular doimo amalda, kotibada, ijrochilarda bo'ladi.

- siz hamma masalalarni o'zim hal qilishim kerak, deb hisoblamang. Boshqaruv rahbariyat zimmasida maslahat berish hamda nazorat qilib borish funksiyalarinigina qoldirib, qator vakolatlarni omilkor ijrochiga topshirishni nazarda tutadi;

- siz o'zingiz hamma narsalarni hammadan ko'ra yaxshiroq bilaman, deb o'ylamang. Mutaxassislar sizdan ko'ra yaxshiroq tushunib, hal qiladigan masalalar ko'p. O'z obro'ingizni saqlang. Agarda siz mutaxassislarga murojaat qiladigan bo'lsangiz, savodli hamfikrlarga ega bo'lasiz;

- vazifangiz yo'riqnomalariga, ayniqsa texnika ishlatish va texnika havfsizligi qoidalari yo'riqnomalariga beparvo bo'lman (biz buni boshqaruv tamoyillari haqidagi bobda gapirgan edik);

- agar ishda omadingiz kelmasa, aybni boshqa odamdan qidirmang.

Rahbar tashkilotchilik qobiliyati va professional bilimlarni egallab, boshqaruv ilmiga doir oddiy va aniq-ravshan tavsiyalarni bajararkan, yetakchilik yo'lidan to'g'ri boradi. Agarda jamoa ixtiyoriy ravishda o'z rahbarining bebaholigini tan olsa, bo'yin tortmay unga ergashadi, uning omilkorligiga, bilimdonligiga, insoniyligiga, ma'naviyati yuksakligiga ishonadi. Shaxsiyatning bunday uyg'unlashuvi korxona maqsadlariga yo'naltiriladi.

Sotsiologik ma'lumotlarga ko'ra, agarda rasmiy rahbar ayni vaqtida norasmiy yetakchi ham bo'lsa, unda jamoa mehnati unumdorligi 20-30% ga oshadi.

Biroq kishilarning har qanday guruhida e'tiborli va umum tan olgan norasmiy yetakchi bo'ladi. Guruh yoki ma'muriyat bilan har xil nizolar chiqqandaadolatli hakam sifatida yetakchi kerak bo'ladi, u boshqaruv uchun muhim bo'lgan axborotga egadir.

Jamoaning bunday obro'-e'tiborli a'zosi odatda kishilarga kirishib keta olish, yaxshi muloqot qilish iste'dodiga ega bo'ladi – u oson va bemalol boshqa kishilar bilan munosabat o'rnata oladi va jamoaning ma'naviy iqlimiga tubdan ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday norasmiy yetakchi bilan albatta, hisoblashish zarur, chunki uning jamoaga ko'rsatadigan ta'siri faqat umumiyl maqsadlarga erishishga yo'naltiradigan ijobiygina bo'lmay, balki salbiy, buzuvchi bo'lishi ham mumkin.

Shunisi sir emaski, nafaqat rahbargina emas, balki uning qo'l ostida ishlovchilar ham hokimiyatga ega bo'ladi: ahir ular o'z vazifalarini ado etishlari ham, ishdan bo'yin tovashlari, oldindan bekinib yoki har xil vaj-korsonlar ko'rsatishi, boshliq va xodimlar o'rtasida norasmiy munosabatlar o'rnatilishiga xalaqit qilishlari ham mumkin.

Rahbar o'z korxonasing norasmiy yetakchilarini bilish va ular bilan oqilona amaliy va shaxsiy aloqa o'rnatilishi kerak. Guruhda odatda kim yetakchi bo'ladi va u qanday fe'l-atvorga, qanday intellekt xususiyatlariga ega?

Mana shu savolga javob rahbar uchun muhim ahamiyatga egadir, chunki o'z muholifini bilish, unga ta'sir ko'rsatish, uning xulq-atvori va jamoaga ta'sir usullarini tushuna bilishi kerak. Darvoqe, rahbarning o'zi ham yetakchi bo'lishga, o'z korxonasing haqiqiy va tan olingan e'tiborli kishisi bo'lishga intiladi. Bu kabi savollarga na psixologiya, na boshqaruv ilmi aniq javob bera olmasligi qiziq. Bu fanlarda olib borilgan ko'p tadqiqotlar natijalari esa bir-biriga zid natjalarni ko'rsatadi. yetakchi odam aqlii va bilimdon bo'lishi zarurligi shubhasiz. Ammo kuzatuvlar intellektning yuqori ko'rsatkichi, masalan, talaba, olim, ijodkor kishilarga hamisha ham ularning jamoada tutgan psixologik maqomiga to'g'ri kelmaydi. yetakchi uni boshqaruvga qodir qiladigan alohida individual xislatlarga ega bo'lishi kerak, degan fikr ham bor.

Etakchi ishontirish san'atini egallagan, olijanob, halol, bosiq, odil bo'lishi zarur. Biroq bunday ajoyib xislatlarning bari nafaqat sub'ektivgina emas, balki mavhum hisoblanadi. Agarda bunday xislatlarning mutlaqo kerakligi haqidagi fikrga tayanadigan bo'lsak, unda rahbarlik lavozimiga munosib odamni topish mumkin bo'lmay qolardi. Agar biz Sezar, Iskandar Zulqarnayn, Napoleon, Stalin kabi mashhur yo'lboshchilarni es laydigan bo'lsak, ularni yaxshi fazilatli kishilarga namuna qilib ko'ratish mushkul.

Etakchi boshqa bir muhim xususitlar: martabaga intilish ko'pincha mantiqqa emas, yuksak xizmat va intellektual maqomga, xarizmaga (yunonchadan charisma – in'om, xudoning in'omi), shaxsiy xislatlardan qobiliyat kuchiga, shaxslar aro yaxshi rivojlangan jamoa ehtiyojlari va ustunlik (ijtimoiy sanzitivlik), iroda va emotsional barqarorlikka qurilgan bo'ladi.

**Etakchi** auditoriya diqqat-e'tiborini boshqaruv qobiliyatiga ega bo'lishi hamda o'z his-hayajonlarini bosib olgan va o'ziga ishongan bo'lishi, ortiqcha gap gapirmasligi zarur – ahir aksariyat kishilar o'z vaqtida tilini tiya olmasligi tufayligina xato ustiga xato qiladilar, “so'z – kumush, sukunat – oltin” degan ibora bekorga kelib chiqmagan. yetakchi xislatlarni o'zida mujassam etgan kishi ustidan olib borilgan tadqiqotlar 8- jadvalda aks etgan.

#### 10-jadval

Xususiyatlar	Ta'rifi
Fiziologik xususiyatlar	YOqimtoy qiyofa (yuz, bo'y, qad-qomat), yaxshi sog'liq, nihoyatda ishchanlik, serg'ayratlik
Psixologik xususiyatlar	Hukmdorlik, jizzakilik, vazminlik, mustaqillik, ijodiy dadillik, o'z-o'zini ta'kidlash, o'jarlik, mardlik
Intellektual xususiyatlar	YUqori darajali intellekt: aql, mantiq, xotira, intuitivlik, qomusiy bilim, dunyoqarash kengligi, originallik, fikrlash tezligi hazilkashlikka moyillik

Amaliy xususiyatlar	Tashkilotchilik, kelishuvchanlik, ishonchlilik, uddaburonlik, bir so'zlilik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, mustaqillik, tavakkalchilik
Shaxsiy xususiyatlar	Hayrixohlik, odoblilik, rahmdillik. halollik, insoflilik, chiqishimlilik

Bu xislatlarning ba'zilari shaxsning irsiy asosda aniqlangan bo'lib, ularning aksariyati esa tarbiya bilan belgilanadi, hamda amaliy faoliyatda rivojlanadi. yetakchi nostenart fikrlashini, shaxsning xarizmatik xossalarni hamda muholif va jamoaga ta'sir qilish san'atini egallashi kerakligi ravshandir.

Mantiqiy fikrlash va boshqaruv san'atini egallash fazilati kishiga tabiatdan ato etilgan ne'matdir. Ular kelgusida rivojlanib tirishqoqlik, mehnat va o'z-o'zini kamol toptirish bilan takomillashib boradi. Xarizma esa – boshqa gap. Xarizmaning paydo bo'lishi va taraqqiyoti sirli bo'lib qolmoqda. Mana shu xunukkina ayol yoki o'rtamiyona aqliy qobiliyatiga ega ozg'in erkakning ta'riflab bo'lmas jozibasi nimadan iborat?

Butun mamlakat aholisiga yoqib qolgan shaxsning ajoyib va betakror tabassumining qudrati nimada ekan-a? Kishini o'zidan itaradigan tashqi qiyofa, oddiygina umumiy bilim, kalondimog'lik, shafqatsizlik Hitler, Mussolini kabi fashistlarga o'z mamlakatlarining "daholari"ga aylanishlariga xalaqit bergani yo'q.

Xarizma fenomeni ko'p masalalarni qo'yadi va ularga javob berishga shoshilmaydi. Aksariyat yetakchilar xarizmaday beba ho xususiyatga ega ekanliklariga shubha qilib bo'lmaydi. Aynan xarizma kishilar ustidan hukmdorlik qilishga imkon beradi. Izdoshliri bu shaxslarni behad yaxshi ko'rishadi, unga doimo ko'makdosh bo'lishga tayyor bo'ladi. Biroq xarizma faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanilsa, jamoada havfli tendensiyalar yuz berishi mumkin, qilingan harakatlar esa axloq me'yorlariga va yuksak ma'naviyat talablariga to'g'ri kelmaydi. Shubhasiz, Muhammad payg'ambar kishilarni mehr-muhabbatga, sabr-toqatga da'vat etib,

yuksak xarizmaga ega bo'lgan. Biroq jinoyatchilar yo'lboshchisi, o'z baxtini qon uzra qurgan "qonundagi o'g'ri", "otaxon"lar ham xarizmaga ega bo'ladilar.

### *11-jadval*

#### **Axloq va xarizma**

Axloqsiz xarizmatik yetakchi	Axloqli xarizmatik yetakchi
Hokimiyatdan faqat o'z shaxsiy maqsadlari yo'lida foydalanadi	Hokimiyatdan boshqalar manfaatlari uchun foydalanadi
O'z nomiga qaratilgan tanqidni ko'rgani ko'zi yo'q	Tanqid bilan hisoblashadi
O'z qarorlarini so'zsiz bajarilishini talab qiladi	Izdoshlarida ijodiy munosabat bo'lishiga yordam beradi
Faqat bir yo'nalishda: o'zidan pastga bo'lgan aloqani qo'llab-quvvatlaydi	Kashfiyotlarni va ikki tomonlama aloqalarni rag'batlantiradi
Izdoshlari ehtiyojlari va zaruratlarini his qilmaydi	Izdoshlarini o'qitadi, rivojlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi
O'z manfaatlarini qondirish uchun qulay axloqiy andazalarni yaratadi	Jamoat manfaatlarini qondiradigan axloqiy andazalar yaratadi

Atoqli amerika menejeri Stek Jek ("Menejment haqida afsonalar") kelgusida tashabbuskor xodimlar yetakchilarning paydo bo'lish usulini keltiradi: "...men talabalar sport komandalarining kapitanlari bo'lgan kishilarni izladim. Ahir kapitan bo'lish uchun o'z o'rtoqlarining hurmatlarini qozongan bo'lishi zarur edi-da. Bunday kishilar tug'ma yetakchi bo'lganliklari, qanday qilib "g'alaba qozonishni bilganlari" yaqqol ko'rinish turardi; boshqaruv san'ati rahbarning norasmiy yetakchilar bilan kerakli amaliy va emotsional aloqa o'rnatishni va ular faoliyatini zarur o'zanga burib yubora olish qobiliyatini nazarda tutatdi.

Boshqaruv san'atining oliv ko'rinishi sifatida yetakchilik nazariyasiga katta hissa qo'shgan va o'z ishlari uchun Nobel mukofotini olgan Ch.Bernard ("Bell" kompaniyasi prezidenti) va Gerbert Saymonlarning ishlari 30 yil o'tgach o'z bahosini oldi va munosib qadrlandi. Ular yetakchingning roli avvalo jamoada ijtimoiy kuchlarni egallash, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va yo'naltirish san'atidan iboratdir, deb ishonch bilan ta'kid lagan edilar.

Bu g'oyalar bir lahzalik natijalar uchun mukofotlar olish, qisqa muddatli samaradorlik konsepsiyalariga qarama-qarshi qo'yildi. Norasmiy yetakchi mulloqot ehtiyojini ko'pincha atrofdagilar bilan bo'lган suhbatdan qondirib keladi. Norasmiy yetakchi jamoaning mikroiqlimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va istalmagan muholif yuzaga kelish mumkinligiga tayyor bo'lib turish kerak. Bunday holda, ishontirishlar, oqilona murosaga kelish yo'llari natija bermasa va jamoada vaziyat nizogacha borib yetsa, nima qilish mumkin? Boshqaruv san'ati bu holda rahbarlikning yana bir usuli – adaptiv, ya'ni aniq vaziyatga mo'ljallangan uslubiga egadir.

Vaziyatdan chiqish yo'llaridan bir nechta mavjud: Masalan, rahbar bilan psixologik birga bo'lishga ega bo'lish uchun guruhlarni qayta tuzish, shaxslarning vazifa vakolatlarini o'zgartirish, hatto ba'zi masalalarga tuzatish kiritish, kerak bo'ladi.

Afsuski, yetakchi xarizmasi hiyla, sovuqqon, hisob-kitob bilan o'ylab ko'rilgan, ayovsiz xudbin va mansabparastning haqiqiy qiyofasini yashiruvchi niqob bo'lishi ham mumkin. Kishilar orasida bunday odam ochiqko'ngil, so'zamol, yuzidan mehr nuri ufurib turgan bo'lib ko'rindi, biroq u ekstremal vaziyatlarda yoki uyda sotqin va zolimga aylanadi. Bu holni erta bahor kuniga o'xshatish mumkin, go'yoki yorqin quyoshning zarrin nurlarida muz parchasi xuddi haqiqiy gavhar kabi jilvalanib, ichkaridan taft bilan yaltiray boshlaydi.

## 18.5. Rahbar almashinuvi

*Bir-biringiz bilan taraf bo'lmaning ikkingniz ham yutkazasiz*

Haqiqatan, ko'pincha muvaffaqiyat omili bo'lgan – yangi lavozimga kelish, vaziyatini tahlil qilish mushkul. Biz ko'pincha vaziyat rivojlanishiga ta'sir qiluvchi mezonlarning katta qismini bilmaymiz. Shu mezonlarni tashkil qiluvchi qisimlaridan biri shaxsdir.

Shaxslar yangi rahbar uchun fojiaga aylanishi mumkin. Bular, albatta, yangi rahbar tayinlanishi haqida qarorda ishtirok etgan tepadagi rahbariyat, hamkasabalar va xodimlardir. Jamoat tashkilotlari, mijozlar, bozordagi raqiblar. iste'molchilar, mol yetkazuvchilar, pudratchilar korxonaning tashqi muhitini tashkil qiladi.

Yana boshqaruv ilmi va san'atining universalligini ta'kidlagan holda, bu usullarni ishlab chiqarish jamoasidan to oilaviy va shaxs darajasidagi har qanday sotsiumda qo'llash imkoniyati bor. Yangi rahbar o'rniغا, masalan, yangi bo'lgan oilaga kelin bo'lib kelgan odamni qo'yib ko'rish mumkin. Bu holda "oliy rahbariyat"ning (erining ota-onasi) da'volari va kutgan umidlarini hisobga olish kerak bo'ladi, oilaning boshqa a'zolarining diqqat tayinlanishining o'zi yangi odamga berilgan yaxshi bahodan darak beradi, endi u "bildirilgan katta ishonchni oqlashi zarur". Yaxshi vaziyatda boshliq bilan aloqalar o'xshashlik jihatidan vrach va bemor orasidagi munosabatlar kabi o'rnatiladi: maslahat so'ragani (ba'zida!) murojaat qilish, o'z dardini xabar qilish, maslahat olish mumkin, unga bu maslahatga amal qiladimi-yo'qmi, davolash sxemasini qo'llaydimi-qo'llamaydimi yoki boshqa bir vrachgami, ekstrasensgami, folbinga boradimi – baribir bir qarorga kelish kerak va buning uchun butun mas'uliyat bemor zimmasiga tushadi.

## **18.6. Byurokratiyaning sirli ittifoqi**

*Biriksiz kuch bo'lmas*

*Amir Temur*

Barcha zamon va mamlakatlarda boylik ramzi bo'lgan mansab; cheklanmag'an hokimiyatga intilib, uni xayol qilgan kishilar topilgan. Bu kishilar kohinlar, faylasuflar, qudratli politsiya ayg'oqchilar, sekta va sirli ordenlar a'zolari edilar.

Dunyoda yagona, aniq nizomi hamda rahbarlik idorasi bo'lman kishilar bu byurokratlardir. Byurokratiya baynalmilal hodisadir u «bureau» – byuro va yunoncha «kratos» – kuch, hokimiyat, hukmdorlik so'zlari, kanselyariya, idora hukmdorligi ma'nolarini anglatadi.

Modomiki, biz boshqaruv haqida gapirmoqda ekanmiz, kamolga yetkazilgan boshqaruv qarorlarini ham bo'lak-bo'laklarga bo'lib tashlaydigan byurokratiyani chetlab o'tib bo'lmaydi. Byurokratiya – ierarxik tashkil topilgan, ko'p hollarda o'zining asosiy qonunlarigagina itoat qiladigan mustahkam boshqaruv tizimdir. O'z imtiyozlarini saqlash, hokimiyat hamda o'zining doimiy takror ishlab chiqarishini ta'minlash uning o'ziga xos ananaviy qoidalalaridir.

Byurokratiya optimal boshqaruvning antipodi va uning birinchi raqamli dushmani desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bizning vazifamiz dushmanimizning usullari va ishslash yo'llarini bilish va unga qarshi harakat qilishdan iborat; boshqaruv sohasidagi yirik obro' kishilardan biri Maks Veber byurokratiya hukmdorligi qudratini maxsus o'rganganligi beziz emas. Byurakratiya xuddi xalq afsonalaridagi singari ko'paygandan-ko'payib boradi: bitta kallasini uzib tashlasa, o'rnidan uchtasi o'sib chiqadigan ajdarhoni eslatadi. Mamlakatimizda jahonni hayratda qoldirgan g'aroyib voqealar qatorida ajablanarli tarzda "ma'muriy-boshqaruv tizimi ni qisqartirish to'g'risida vahimali farmonlar paydo bo'lmoqda, lekin juda qisqa muddatlar ichida bepoyon chinovniklik apparati bilan bирgalikda vazirlik va idoralar soni ko'paygandan-ko'paymoqda.

Rossiyada byurokratik apparat Pyotr Birinchi davrida o'sa boshladi. 1715 yilda markaziy apparat va mahalliy boshqaruv tizimi 5300 nafar kishini tashkil qilgan va ularni ta'minlash uchun har yili 100 ming rubl sarflangan; oradan besh yil o'tgach esa 1721 yilda amaldorlar soni ikki baravar oshadi. XX asr boshiga kelib esa byurokratiya soni yana ikki baravarga ko'payadi (395 ming kishi).

AQShda saksoninchi yillar davomida davlat xizmatchilari soni mamlakat aholisidan ham katta tezlikda ikki baravar ko'paydi. Illinoysda u to'rt marta tezroq, Massachusettsda – olti marta, Nyu-Yorkda – o'n to'rt marta oshgan.

Byurokratiyaning zamonaviy shtammalari erkinlik va demokratiyaning yangi sharoitlariga ajoyib tarzda moslashib oldilar.

Byurokrat – shaxsga ta'sir ko'rsatish san'atini mohirona egallagan iste'dodli konformist. Bu haqda AQShning sobiq prezidenti Reyganning yordamchisi Elizabeth Doul shunday degandi: Prezident tevaragida faqat bosh irg'ab, xushomadgo'ylik qilib turadigan xodimlar kerak emas. “Agarda u “yo'q”, dedimi, biz hammamiz “yo'q”, deymiz. Afsuski, bu qoida deyarli har qanday boshliq atrofiga tarqalib ketadi. Byurokratiya qonunlari xodimning o'rnatilgan qoidalar larga rioya qilishga qodirligi, ierarxik poydemorni avaylash hamda xizmat amaliyotining hamma hollarida status-kvo, ya'ni mavjud holatni saqlab, qo'llab-quvvatlashi kerakligi bilan belgilanadi.

Byurokratiyaning yana bir ajoyib ishlangan usullaridan biri shaxsiy javobgarlikdan qochish hisoblanadi. Uncha hiylasi yo'q bu usulda masalani hal qilish uchun kollegial idoraga, turli hay'atlar hamda yig'ilishlarga jo'natiladi – “hay'atga ushbu masalani chuqur va har tomonlama ko'rib chiqish topshirilsin” degan chaqiriq tajribali rahbarni ham hushyor torttiradi. Qadimgi rimliklarga ham ma'lum bo'lgan va asrlar mobaynida sayqallanib, misli ko'rilmagan darajada takomillashgan yana bir byurokratik usul bor, u ham bo'lsa, ishni so'z bilan alamashtirish. So'z bilan ish bajarish hisoblanadi (qui pro quo qoidasi – birining o'rniga boshqasi).

RF FA Davlat va huquq institutining tahliliy ma'lumotlari byurokratik ongning ahamiyatga molik belgilari ini aniqlashga imkon beradi:

- korxona maqsadlari va vazifalariga befarqlik; bu ishning mohiyatiga zarar yetkazuvchi shakl, jihatga haddan tashqari diqqatni qaratishda ko'rindi. Bunday loqaydlikning an'anaviy niqobi, ortiqcha sergaklik va xuddi rasmiy ko'rsatma, farmoyish, buyruqlarni bajarish zarurligi hisoblanadi (bemorni uyg'otgan hamshira haqidagi achchiq xandani eslaysizmi? “O'rningizdan turing, uyqu dorini ichib olishingiz kerak”);

- umumdavlat manfaatlarini tor idoravyi, korporativ va ayniqsa shaxsiy ishlarga almashtirish. Bunday amaldor asosan rasmiy ko'rsatmalar hamda mansab tushunchalariga tayanadi va bu azaldan ma'naviy jihatdan to'laqonli bo'lmay, balki professional jihatdan ham samarasizdir. Bunday amaldorning butun faoliyati juda pragmatik va ratsional bo'ladi – shaxsiy foyda keltiradigan faqat o'sha ish, faqat o'sha odamlar muhim;
- konservativm, o'zgarishlardan qo'rqish va uni istamaslik (ayniqsa bu o'zgarishlar amaldor manfaati doirasini qisqartiradigan bo'lsa), har qanday noaniqlik va tavakkalchilini qisqartirish. Bunday tendensiyalar turg'unlik, stagnatsiyaga olib borishi muqarrar;
- yuksak darajadagi byurokrat boshqaruv sohasining xodimi sifatida o'zicha iste'dodli; u mohir usta – qizg'in faoliyat taqlidchisi, safsatabozlikka ustasi farang bo'lib ketgan va ko'ngilsiz, og'ir va mas'uliyatli vazifalarni bajarishdan xamirdan qil sug'urgandek o'zini torta oladi, muhim axborotlarni yig'ishga yashirishga usta, o'z hamkasabalarining korporativ sirlariga mohirona yo'naltira oladi. Byurokratik ongning asosi – o'rtamiyonalik. Mashhur fransuz adibi Onore de Balzak: "pigmeylar, qo'lidan hech narsa kelmaydigan kishilar tomonidan boshqariladigan qudratli mashina bor, u ham bo'lsa, byurokratiyadir", deb to'g'ri ta'kidlagandi;
- "maxfiy" degan muhrni keng va mohirlik bilan qo'llash jamoa uchun muhim hisoblangan axborotni yashirishga va o'z mavqeini ishonchli, ehtiyojkor va hushyor xodim sifatida mustahkamlab olishiga imkon beradi. Ma'lumki, chinovniklik apparatining o'ta sergakligidan juda azob chekkan taniqli italyan fizigi E.Fermi bir maktub konverti ustiga shunday deb yozib qo'yadi: "Mutlaqo maxfiy, o'qiguncha yoqib yuboring".

Hamma davrlarda va hamma davlatlar uchun dolzarb hisoblanmish alohida bir muammo – u har qanday darajadagi ma'muriy boshqaruv apparatining mamlakat aholisi bilan o'zaro munosabatlari. Aksariyat fuqarolar davlat va ijtimoiy tuzimga baho berishda kimda-kim hokimiyatni o'zida mujassam etgan va hukumat siyosatini bajarayotgan kishilar bilan shaxsiy aloqalariga tayanadilar. Buning ustiga, fuqaro

ma'muriy muassasaga har gal kelganidan o'z xohish-irodasidan tashqari byurokratik apparatning qoidalariga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Odatda biron narsani so'rab keluvchi qonunlar va yo'riqnomalarni va o'zini qiziqtirayotgan masalani hal qilish imkoniyatlarini yaxshi bilmaydi va tomonlarning bunday notengligi vaziyatida hamma ustunlik amaldor qo'liga o'tadi, amaldor esa o'z imkoniyatlaridan qanday foydalanishni yaxshi biladi.

Byurokratiya bilan kurashning murakkabligi shundaki, ma'muriy tartib va korxonani volyuntarizm va alg'ov-dalg'ovdan saqlashga intilgan halollik niqobi ostida kim yashiringanini hamisha ham bilib bo'lmaydi. Boshqaruv apparatidagi har bir xodimni byurokrat deb qabul qilish, tashkilotchilik va jamoa mehnatini tasavvur qilish mushkul bo'lган tartib bilan byurokratizmni tenglashtirish xato bo'lardi.

Ahir byurokratiya qo'lidiagi hokimiyatni oqilona qoidalar zamirida aniq shakllangan asosda amalga oshiradi. Bu qoidalar to'g'riliqi esa xizmat yo'riqnomalari va qonunlarda yozib qo'yilgan. Shu tariqa byurokratiya oshkora hukmdorlikka o'tadi. Qattiq ierarxiya va boshqaruvning markazlashganligiga kafolat bo'ladi.

Axborotni kompyuter bilan ishslash usullari yil sayin byurokratiya asoslarini tubdan chok-chokidan so'kib yubormoqda, chunki bu jihat ob'ektiv va barcha foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Kompyuter sir saqlanadigan samolyotga bilet yoki mehmonxonada bo'sh o'rinalar borligi haqidagi sirlarni ham ochishga da'vo qilmoqda.

Bundan ikki asr muqaddam Rossiyada byurokratik boshqaruv havfini yaqqol tushunganlar. Buni o'ziga xos shaklda buyuk amerika adibi Edgar Po Vest-Poyntdag'i harbiy akademiyada qisqa muddatli o'qish chog'ida armiya rasmiyatchiligi va byurokratiyasiga o'z qarshiligi bildirgan.

1831 yili tinglovchilarga paradga "oq belbog", oq qo'lqop va qurol taqib kelish buyuriladi. U paradga buyruqqa muvofiq kiyinib keladi – uning butun kiyimi faqat oq belbog' va oq qo'lqopdan iborat va garchand o'zi qurol taqib kelgan bo'lsada, uni Vest-Poyntdan "harbiy burchni qo'pol ravishda buzganligi" uchun haydar yuboradilar. Armiya hayoti bugunda ham byurokratizm va unvonparastlik namunalariga boydir.

Byurokratiyaga nimani qarshi qo'ysa bo'ladi va uning zaif joyi qaerda? Shuni yodda tutish kerakki, byurokratlar tabaqasi yashirinishga, butun usullarini rang-barang qilishga urinsa-da, baribir uni bilib olsa bo'ladi va u o'z mohiyati jihatidan jamiyatga qarshidir. Byurokratiya doimiy qo'rquv vaziyatida, o'zining ijodiy va ma'naviy sayozligini fosh qilinishi havfi ostida harakat qiladi hamda jamiyatning kelgusida demokratiyalashtirish, o'z-o'zini boshqaruv rivojida bu qo'rquv borgan sari kuchayaveradi. Boshqaruv tizimining ochiq-oydinligi, oshkorlik, jamiyat madaniyati va ma'naviyatining o'sishi byurokratiyani o'limga mahkum etadi.

Albatta, hajv, kulgi – bizning rahbarlarimiz ko'pincha qo'llamaydigan qurol, uning qudrati barchaga ma'lumdir.

G'arbda S.Parkinsonning qonunlar nashri jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi, D.Piter va R.Xallning “Piter qoidasi” kitobi bestseller bo'ldi (bu qoida quyidagicha ifodalanadi: “Har bir xizmatchi o'z omilkor emasligi darajasiga yetishga intiladi”).

### **18.7. Nizolarni boshaqarish san'ati**

*Xaq bo'lmasang xaq dema*

*Amir Temur*

Ma'lumki, “qush parvoz uchun yaratilganiday, inson baxt uchun yaralgandir”. Biroq nega bo'lmasa, hayotda baxt, quvonch kam, bulutsiz, yorug' kunlar nega ba'zida bo'ladi, oljanob inson?

Insoniyat tarixi – bu qonli urushlar xronologiyasi, siyosatdonlar, zo'rlik, ko'rolmaslik, yovuzlik vasvasasidan iborat. Inson hayoti ko'pincha xizmat nizolari, oilaviy mojarolar, mayda uy-ro'zg'or janjallari, ichkilikbozliklardan va ojizlarni toptashdan tashkil topgan.

Balki insonda nizolarga bo'lgan ehtiyoj biologik jihatdan bordir va bular ortiqcha kuchni neytrallashtirish usulidir? Mana shu turmushning qayg'uli

mulonazalari tadqiq qilinayotgan mavzuning muhimligi bilan oqlanadi. Boshqaruv san'ati shaxs, jamiyat insoniyatning ko'p asrlik tarixini to'ldirdi, boyitdi va uni asoslangan tavsiyalarda aks ettirishi mumkin.

**Nizo** (lotinchadan *conflictus* – to'qnashuv) – qarama-qarshi pozitsiyalar, fikrlar, baholar, kishilarni ishontirish yoki hayajonlarini ko'rsatish harakatlari yordamida hal qilishga intiladigan g'oyalar to'qnashuvidir. Nizo – ikki yoki bir-biralariga qarama-qarshi, maqsadlarini inkor qiladigan, bir-birlarining zararlari hisobiga biron narsaga erishmoqchi bo'lган ko'p kishilarning to'qnashuvidir. Har qanday nizo to'planib qolgan ob'ektiv yoki sub'ektiv, haqqoniy yoki xayoliy ziddiyatlar to'qnashuvi asos bo'ladi. Nizo mana bu sxemaga asosan rivojlanadi:

### *Nizoli vaziyat q Bahona q Nizo*

Har qanday sport o'yini ham nizodir, biroq yutqazilgan o'yin yutish mumkin bo'lган keyingi o'ynlar natijalarida sira aks etmaydi. qoida bo'yicha, o'yin natijasi, garchand yutqazganlar norozi bo'lsalar-da, bahsga hojat qoldirmaydi – ularning shunchaki omadlari chopmadi, holos. Biroq oilaviy nizolarda xuddi radiatsiyadagi singari har bir to'qnashuvda negativ oqibatlar to'planib qoladi va teskari bosqichga o'tib ketish havfi ostida qoladi.

Yirik hududiy nizolar, sabab, g'oyalar, dunyoqarashlar konsepsiylaridagi farq, iqtisodiy manfaatlar, jamiyatni "biz" va "ular"ga, do'st dushmanlarga ajratish sabab bo'ladi. Tor dunyo qarash hamisha irqiy va milliy ayirmachiliklar oloviga kerosin sevadi (oqlar va qoralar, buyuk oriyalar irqi va h.k.), diniy ziddiyatlar (masalan, katoliklar va protestant nasroniylarning Irlandiyada to'qnashuvlari kishini o'ylantiradi), sport hayajonlari va bular arzimagan sabab bilan uchqundan alanga ko'tarilish mumkin.

Ishlab chiqarish jamoasida nizoning bir necha turlari bo'lishi mumkin: guruhi chidagi, guruhlardan hamda tashqi nizo (nizo sababi korxonadan tashqarida bo'ladiyu masalan, raqiblar yoki kasabalar uyushmasi). Nizoli vaziyat gorizontal bo'yicha

(nizoda bir-biriga qaram bo'limgan taxminan bir xizmat darajasidagi kishilar qatnashganlarida) yoki vertikal bo'yicha o'sishi mumkin.

Aksariyat nizolar – aynan gorizontal yoki aralash tipda bo'ladi (70-80%), bu nizolar zamirida ko'pincha havfli buzg'unchilik imkoniyatlari yotadi, ularda murakkab his-hayajonlar, ob'ektiv axborotni bo'yab ko'rsatish va agressiv aksiyalarni amalga oshirishga moyillik bor. Nizolarning anchagina qismi hayotiy ishkalliklar bilan bog'liq bo'lib, ularning ko'pchiligi jiddiy ruhiy zARBALARGA olib keladi. Xolms va Reyx inson organizmida patologik o'zgarishlarning paydo bo'lishi ehtimolida turli hayotiy vaziyatlarning ta'sirini tadqiq qilganlar.

Bu olimlar tomonidan turli nizoli va g'ayrioddiy vaziyatlar salbiy kuch sifatida salomatlikka salbiy ta'sir qilishi ta'siri alohida qayd qilingan.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda baholash ballari yuqori bo'lsa, unda kasallanish ehtimoli ham yuqori bo'lishi anglashiladi.

### **12-jadval**

Hayotiy hodisalar	Baho
Turmush o'rtog'ining o'limi	100
Nikohdan ajralishi	73
Er-xotinning ayri tomonlarga ketishi	65
Qamoqqa tushish	63
YAqin qarindosh o'limi	63
Jiddiy zarba olish yoki kasalga chalinish	53
Nikohdan o'tish	47
Turmush o'rtog'i bilan yarashish	45
Lavozimdan iste'foga chiqish yoki martabasining pastlashishi	45
Salomatlikda yoki oila-a'zolarining fe'l-atvorida jiddiy o'zgarishlar paydo bo'lishi	44
Homiladorlik	40
Shahvoniy qiyinchiliklar	39

---

Oilada yangi a'zoning paydo bo'lishi	38
Jiddiy amaliy o'zgarishlar (qayta tuzish, bankrotlik va boshqalar)	39
YAqin do'sting o'limi	37
Boshqa joyga ishga o'tish	36
Oilaviy nizolarning keskin kuchayib ketishi	35
Boshliq bilan nosozliklar	23
YAshash joyini o'zgartirish	20
Ovqatga oid odatlarni juda o'zgartirish	15

---

So'nggi yillar hayotda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarga berilgan ballar sonini hisoblab, shunday xulosa chiqarish mumkin: agarda ballar soni 150dan past bo'lsa, unda hayotda o'zgarishlar oz bo'lган va salomatlik buzilishi ehtimoli ham past bo'ladi; 300 balldan ortiq bo'lsa, unda migren (bosh og'rish), oshqozon yaralari va yurak kasalliklari dardlarga chalinish ehtimoli baland bo'ladi. Holms va Reyxning olib borgan tadqiqotlari tul erkak va ayollar o'rtasida o'lim xuddi shu yoshdagagi hayotida bunday yo'qotish bo'lмаган kishilarga nisbatan 10 marta yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Ajralishgan kishilar o'rtasida bir yil ichida kasallikka chalinish normal oilaviy turmush kechirayotgan kishilarga nisbatan 12 marta yuqori bo'lar ekan.

Odatda maqsadga yetishishda raqobat bo'lsa, turli kishilar yoki ijtimoiy guruhlar manfaatlari to'qnashadigan bo'lsa, nizolar kelib chiqadi. Nizo – umumiy bo'lган maqsadni o'zicha egallash uchun qarshilik ko'rsatish hisoblanadi va bu kurashda ishtirok etadigan har bir a'zo o'zining yakkahokimlik huquqiga egaligiga ishonchi komil bo'ladi. Agarda mana shu ezgu maqsadga erishi yo'li to'silgan ekan, unda inson yoki guruh qoniqmaslik, alam, frustratsiya tuyg'ularini chuqur his qiladi, so'ngra aggressiya yoki xo'rangan, tahqirlangan holatga tushadi.

Ayniqsa nizoli vaziyatlarda ijodiy mehnat kishilar, tarbiyalı, ta'sirchan va uyatchan odamlar juda iztirob chekadilar. Aynan bunday kishilar ko'pincha jamoaning qimmatli, o'zgartirib bo'lmas boyligi hisoblanadilar. O'z fikrini

bildirishdan qo’rqish, ko’pincha bu takliflar muhim va o’ziga xos bo’lsa-da, kulgiga qolmaslik va tushunmay, mana shu “bema’ni” takliflar tanqidga uchrashidan cho’chish, o’ziga yetarli darajada ishonmaslik borib-borib g’oyalar tug’ ilishi bilan o’ladi. Ijodkor, iste’dodli kishilarga xos bo’lgan aqliy mustaqillik, ko’pchilikning fikriga bo’lgan muayyan skeptitsizm jamoani bunday kishilarga qarshi qilib qo’yishi mumkin. Ichki emotsional nizolar ba’zan kishining butkul ma’naviy kuchini yemirib qo’yadi, uni yolg’izlikka mahkum etadi va uning jamiyatdan yakkalanib qolishiga sabab bo’ladi, ba’zida esa uni patologik apatiyagacha olib boradi (Rorshaxning siyoh dog’lari bilan qilingan mashhur testlari bu kuzatuvlarni tasdiqlaydi).

Bizga boshliq va xodim o’rtasidagi nizoli munosabatlarni tahlil qilish muhimdir, chunki bunday vaziyatlar tez-tez yuzaga kelib turadi hamda boshqaruv san’ati usullari bu o’rinda samarali qo’llanishi mumkin. Har qanday nizoning an’anaviy bosqichlari taraqqiyotini – oilaviy mojarolardan tortib to qurolli to’qnashuvlargacha kuzatib borish zarur. Uning darakchisi, portlash havfi belgilari – bahona, janjal chiqarishdan iborat.

Shaxslararo nizolar sabablari juda ko’p. Rahbar yoki xodimlarning noto’g’ri harakatlari yoki ayrim kishilarning kelishmasliklari nizoga sabab bo’ladi (xuddi ajralish chog’idagiday: “... xarakaterimiz kelishmadii”).

Keling, holisona bo’laylik. Ko’p hollarda nizo chiqishda rahbar aybdor bo’ladi, aynan u qo’l ostidagi xodimlarining xatolarini oqilona va ustalik bilan payqay bilishi kerak. Uning vazifasi bu xatolar oqibatlarini oldindan tasavvur etishi va ularni bartaraf qilishdan iborat. Afsuski, rahbarning juda jiddiy va ko’p tarqalgan xatosi – uning kalondimog’ligi, qo’polligi, boshqalarning fikriga betoqatligi, mansabi pastroq kishilarni pisand qilmasligi, xullas, xizmat odobi qoidalarini buzishidir.

Agarda rahbarda o’z faoliyatiga yuqori baho berish, o’z-o’zini ta’kidlash uchun qandaydir asos bo’ladigan bo’lsa, unda bu uning tashkilotchiligidagi ijobiy natijalar hisoblanadi. Sezilarli yutuqlarga faqatgina butun jamoa, yetakchi malakali mutaxassislar sa’yi harakatlari bilangina erishish mumkin. Erishilgan yutuqlarni o’z nomi bilan bog’lash, yordamchilar fikrini pisand qilmaslik, ularning umidlarini

puchga chiqarish, huquqlarini poymol qilish – bularning bari nizoga olib borishi muqarrardir.

Tug'ilayotgan nizolarini bilish qiyin. Jamoadagi muhit o'zgaradi, noqulaylik, asabiylik tuyg'usi paydo bo'ladi. Bichib-to'qilgan uydirmalar, kutilmaganda anglashilmovchiliklar, mayda-chuyda ko'ngilsizliklar paydo bo'ladi. «~isht qolipdan ko'chadi», biroq u hali nazorat ostidan chiqib ketmaydi.

Tajribali rahbar bo'ron bo'lishini barometrdan kam sezmaydi, diskomfort signallarini payqay biladi, ularga diqqatini qaratadi va ko'pincha yuzaga kelgan qaltslikni bartaraf qila oladi.

«Nizolarni hal qilish san'atida dastlabki qadam – nizoni xuddi ochilmagan imkoniyat sifatida qabul qila olish va nizo signallari paydo bo'lishini kuzatishdir», – deb yozadi konfliktologiya bo'yicha avstraliyalik mutaxassislar X.Kornelius va Sh.Feyr (biz mazkur “ochilmagan imkoniyatlar” haqida yana gapiramiz). Bu o'rinda yong'in o'chiruvchilarining iborasini unutmaslik darkor: yong'inni o'chirishdan oldini olgan osonroq.

Nizo boshida vaj-bahona tanlamaydi, bu narsa haqaqitan muhim hol yoki arzimagan gap bo'lsa ham: noo'rin aytilgan so'z, ersgersog Ferdinandning Saraevoda o'ldirilishi yoki sho'rvaning sho'r bo'lib qolganligi sabab bo'lishi mumkin. Ko'pincha nizo oldindan mo'ljallangan, ba'zida sinchiklab rejalashtirilgan ig'vodan boshlanadi, undan maqsad – nizoni chuqurlashtirish bo'ladi. Ig'vo qanchalik puxtalik bilan rejalashtirilgan bo'lmasin, nizo tez orada boshqarib bo'lmaydigan, buzish qudratiga ega bo'lishi mumkin. Ig'vogarning o'zi nizo qurboni bo'lishi mumkin.

qaltslikning paydo bo'lish yo'llari ko'p. His-hayajonni bosa olmaslik, haqoratlar, depressiyaga olib boruvchi jilovlab bo'lmaydigan harakatlar (bolalarcha xafa bo'lish, tundlik, jim qolish) shu jumladandir. Rahbar xodimlarining nohaqligidan, noto'g'ri xatti-harakatlaridan, ularning yaxshilikni bilmasliklaridan ranjiydi.

Nizo va uning kuchayib ketishida janjallahuvchilar yagona umumiyl belgiga ega: har bir kishi o'zini haq deb o'ylaydi, hattoki muholifining go'yoki foydasiga

dalil keltirilsa-da, o'zining holisonaligini, haqligini yana ham yaqqolroq ko'rsatish uchun qilmishlarini oqlaydi. Yillar o'tib, tajribalar boyigan sayin (hamma ham, hammavaqt emas) dilida yovuzlik sabablarini izlash va kechirimli bo'lish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Tadqiqotlar nizo vaqtida o'zini tutishning bir necha varinatlarini taklif etadi. Bu usullarni tanlashda nizo tabiatining va janjallashuvchilarning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish muhimdir.

Nizoli vaziyatni e'tiborga olmaslik, paydo bo'lgan muammolarni hal qilmasdan ketishga urinish mumkin. Agarda korxonaning prinsipial tomonlariga nizo taalluqli bo'lmasa, nizodan qochish siyosati oqil bo'ladi. Bu yo'l yaxshi munosabtlarni qanday qilib bo'lsa ham saqlab qolish muhim bo'lganda o'zaro munosabatlarda stress vaziyatiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, "gorizontal" bo'yicha nizolar ba'zida do'stona munosabatlarni saqlab qolish hisobigagina hal bo'ladi.

Nizoni hal qilishda murosaga kelish, o'z pozitsiyasini o'zgartirish, bir-biriga yon berishlar yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilish taktikasi yana bir variant bo'lib xizmat qiladi. Bu qaror odatda vaqt kamligi, muholiflarning dalillari ishonchliroq bo'lganida hamda hammasini yo'qotgandan ko'ra oziga chidash ma'qulroq tamoyiliga amal qilgan hollarda qabul qilinadi.

Boshqaruv san'ati, amalga oshirish qiyin, tajriba talab qiladigan, raqibni hamkorga, safdoshga aylantira olishning yana bir usulni qo'llashni tavsiya qiladi. Muholif bilan aloqa o'rnatish, ya'ni bosqichlarini o'ylab, amalga oshirish kerak bo'ladi: nizo sabablarini aniq va ob'ektivlik bilan o'rganish lozim (boshqa tomon harakatlari zamirida kim turgan ekan?) So'ngra ikkala tomonni qoniqtirishi mumkin bo'lgan qarorning yangi variantlarini ishlab chiqish zarur.

Nihoyat, muholif bilan bu qarorlarni tahlil qilib, boshqa tomonning fikrlariga hurmat bilan yondashib, siz unga raqib emas, hamkor ekanligingizni ko'rsatishni o'ylab olish kerak bo'ladi.

Afsuski, nizolar axloqsizlik, jamoada nojo'ya xatti-harakatlar (o'g'rilik, poraxo'rlik, ichimlik iste'mol qilish va h.k.) tufayli kelib chiqadi. Bu holda o'z prinsiplari uchun ochiqdan-ochiq kurashga o'tish, o'z fikrida qat'iyat bilan turib olish kerak bo'ladi. Rahbarning yuksak ma'naviyati, uning shubhasiz haqligi va mavqeい nizoli vaziyatni odilona va ko'pchilik foydasiga hal qilishga yordam beradi.

Shuni qayd etish zarurki, destrukтив, buzg'unchilik nizolaridan tashqari hosil qilingan funksional nizolar ham bo'ladi. Muholiflar bunday hollarda axloq-odob me'yorlaridan chiqmaydilar, birgalikda yuzaga kelgan muammoni hal qilish yo'lini axtaradilar hamda aqli dalillarni ko'rib chiqadilar. Buning ustiga nizolar korxona taraqqiyotida zarur shart bo'lib hisoblanadi va yangi g'oyalar faqatgina nizolar yo'lli bilangina hayotga joriy etiladi, degan fikr ham mavjud. Nizo turli nuqtai nazarlarni aniqlashga, yangi axborot olishga, paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda ko'pdan-ko'p muqobil variantlarni belgilashga yordam beradi. Bahsli masalalarni muhokama qilish kishilarga o'z nuqtai nazarini ifodalashga va bu bilan shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat yaratadi. Mollyuska chanog'iga uni seskantiradigan qum tushib qolgandagina marvarid dunyoga kelish hodisani shu holga o'xshatish mumkin.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar.**

1. Rahbarning mas'uliyati va uning jamoada tutgan o'rni nimadan iborat?
2. Shaxsning jamoada shakllanishi va rivojlanishi.
3. Intellektning shakllanishi shartlari hamda ma'lum xossalaringning roli va yetakchining ma'naviy qadriyatlarini shakllanishi tizimi.
4. Byurokratiyaning kuchi va zaif tomoni nimalardan iborat?
5. Nizoli vaziyatlarda rahbarning jamoadagi mehnatining o'ziga xos tomonlari.

## **19-mavzu. Menejment, notiqlik san'ati, nutq madaniyati**

### **19.1. Notiqlik sanati – mahorat cho'qqisi**

*Kishi suxandon, notiq bo'lishi kerak. Ammo, eyfarzand,  
sen suxanguy bo'lgil va lekin yolg'onchi bo'lmagil.*

*Qobusnama*

San'at inson faoliyatining har bir sohasidagi eng oliy mahoratdir. Bu esa adabiyot, musiqa, rassomchilik, raqs, me'morchilikda yorqin ro'yoblashadi. Odamlar muomalasidagi so'z san'ati nihoyatda murakkab va ma'suliyatlidir. So'z inson va jamiyatga hukmron bo'lib kelgan. Har bir so'z ortida qilingan ish, harakat bor ekanligini biz yoshimiz o'tib, ulg'ayganda tushunamiz. So'z ilhomlantiradi, jasoratlikka undaydi, hatto urushlarga sabab bo'ladi. Muhammad payg'ambarning mehr, muxabbat, sabr-qanoat, itoat haqidagi so'zлari jamiyat tinchligi, faravonligiga qaratilgan bo'lsa, oliy irq uchun kurash olib borgan fashistlar rahbarlarining so'zлari millionlab odamlar hayotiga zomin bo'lishiga sababchi bo'lgan.

Kishini ikki muammo – uning sog'lig'i va odamlar o'rtasidagi bo'lgan muammolar, yani odamlarga rahbarlik qilish masalalari qiziqtirayotganligi ko'p sonli test, sotsiologik so'rovlar tufayli ayon bo'ldi. Odamning sog'lig'еäà áûëäàí qèçèqèø ùàììàìèçää ðóðóíàðëè. Bó qæðøèñ ìóàììîè ðóðëè õèëäàæ foláèí, áàðøè, ýêñòðàñáñëäð óñòàììéè áèëàí á÷èøää èèðèøàdiëäð. Îäàìèäð ìóññàæàñè, ìóññàæàðëäðè ìóðàéèàároq, lekin shunga qaramasdan bu muammolarni yechishga ko'p odamlar ishtiyoq bildiradilar.

Har bir odam o'zining tashqi ko'rinishidan rozi bo'lmasa ham, o'z aql idrokidan mammundir. Odam aql, fikrlash qobiliyati tufayli boshqa odamga baho beradi, u haqida g'iybat qiladi. Istedodlarini rivojlantirish ustida ishlaydi. Bu esa o'zligini isbotlash uchun kerakdir (cogito, ergo sum – men fikrlayapmanmi, demak men yashayapman). Ammo, bu muammo murakkabroq bo'lib, odamni tushunish, uning harakatiga ta'sir ko'rsatish oson emas.

So'z hayotda katta kuchga egadir. U tufayli aksariyat voqealar sodir bo'ladi. Har soat, har kun odamlar bilan muomalada bo'lgan rahbarning so'z va boshqaruv san'atining tamoyil, uslublaridan boshqa quroli yo'q. Usta bo'lgan odamning qo'lida oddiy so'z kuchli qurol vositasiga aylanadi. D.Karnegining (AQSh) tadqiqot natijalari butun jahonni hayratda qoldirdi: ishlab chiqarish sohasida katta yutuqlarga erishgan

mutaxassis muvaffaqiyati 15% bilimga va 85% boshqaruv qobiliyati, rahbarlik iste'dodi, odamlarning ichki dunyosini bilishiga bog'liq ekan.

Rahbarning vazifasi jamoa yaxshi ishlashi uchun yanga yaxshi shart-sharoit yaratishdan iborat. Bunga erishish uchun moddiy rag'batlantirish eng oddiy usul bo'lib tuyular. Lekin ishga bo'lgan haqiqiy qiziqish murakkab hodisa bo'lib, uning sabablarini aniqlash ba'zida juda qiyin bo'ladi.

Boshqaruv sanati oddiy funksiyalar bilan cheklanib qolmaydi. Uning uslublarini oiladagi munosabatda, nutq so'zlaganda, tug'ëëäàí êóí áèëäàí òàáðèëëàøäà, áàùñ íëëå áîðèlganda, õïäèìíè, æàññàíè èøññòðèøäà, sevgan qèçäà øèðeí ñûç àéðèá, óíè ðñi qèëayotganda qûëëàñà áûëäàëè.

## 19.2. O'rta asr notiqlik san'ati va uning hozirgi zamon taraqqiyoti

*Qilichim o'tkir bo'lsa-da, o'ylab qinidan chiqardim, shirin so'z aytib, g'animning imon topmog'iga yo'l ochdim.*

*Amir Temur*

YUnioniston haqli ravishda notiqlik san'atining vatani hisoblanadi. Notiqlik san'atini qadim yunonlar «San'atlar shohi» deb ataganlar. Chunki notiqlik san'atining davlat ishlariga, ijtimoiy mafkura shakllanishiga ta'siri juda kuchli bo'lgan. Eramizdan oldingi III asrdayoq YUnioniston, keyinchalik Rimda notiqlik san'ati maktablari tashkil qilingan edi. Davlat ishlarida ishlamoqchi bo'lgan yoshlar notiqlik san'ati, mantiq, huquqshunoslik, falsafa, tarix va adabiyotni chuqur va puxta o'rganar

edilar. Qadimgi notiqlar nafaqat ishontirish san'ati, balki erkin, yangi fikrlari bilan tinglovchilarga yaxshi kayfiyat bag'ishlar, mehribonlikka, odillikka, fuqarolik va vatanparvarlik burchlarini bajarishga dav'at etar edi.

**Antik notiqlik** san'ati faqat chiroyli nutq maktabi emas, balki falsafa, tilshunoslik, mantiq, poetika asoslaridan tashkil topgan murakkab tizim bo'lган. Suxandonlikka o'rgatishda professional notiq, falsafa, notiqlik san'ati ustalari xizmati katta bo'lган.

Sofistlar a'lo darajada mantiq, isbotlash san'ati, bahs olib borish san'atini egallagan bo'lib, falsafiy muammolarni tadqiq etgan, falsafa va notiqlik san'atini bir-biriga yaqinlashtirgan. Biroq izlanayotgan haqiqat chetda qolib sofistika safsatabozlikka o'tib, mantiq qonunlarini buza boshladi. Sofistlar asosiy tushunchalar egiluvchanligini ustamona ishlatib, bir-biriga almashtirib, «adashtirish» san'atini joriy eta boshladi. Oqni qora, qorani oq deyish yo'liga o'tib oldilar.

**Antik madaniyat** jahon sivilizatsiyasining eng yorqin, ajoyib davrlaridan biri bo'lган edi. Insoniyat mana bir necha yuz yillab antik me'morchilik san'ati yodgorliklari, Luvr, Britaniya muzeyi, Ermitaj va boshqa yirik muzeylar bilan tanishib, hayratda qolib kelmoqda. Antik teatri namoyondalari Esxil, Sofokl, yevrepidlarning asarlari hozir ham tomoshabinlarni to'lqinlantirib kelmoqda. Demosfen, Suqrot, Aflatun, Demokrit, Arastu, Sitseron, Tatsit kabi zotlar nomi notiqlik san'ati bilan chambarchas bog'liqidir.

Yangi eraga qadam tashlab insoniyat notiqlik an'analarini yoddan chiqara boshladi. I asrga kelib yangi ma'naviy va ijtimoiy kuch – xristianlik, undan keyin islom dinlari yuzaga keldi. Xristian va islom namoyondalari suhandonlik san'atini tiklashga turtki berib, unga yangi mazmun kashf etdi.

Monastir, madrasalar uzoq vaqt davomida qadimgi qo'lyozma saqlanuvchi joy bo'lib, ma'rifat va bilim markaziga aylandi.

**Diniy-ahloqiy** notiqlik san'ati ahloqiy me'yorlarni shakllantirishga ko'mak berib, diniy qoida-qonunlarga bo'ysunish kerakligini tashviqot qilib keldi.

Diniy tashviqot sohasida yirik din allomalari faoliyat ko'rsatib, notiqlik san'atida katta yutuqlarga erishdi.

Notiqlar musulmon mamlakatlarida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Sharq notiqlik san'ati o'zining minglab yillik tarixi davrida professionallik darajasiga ko'tarilib, huquq, din va davlat munosabatlarini oydinlashtirishda katta yutuqlarga erishgan. Sharq notiqlik san'ati qonunlaridan birida haqiqiy notiq har qanday mavzuda fikr almashishni bilish kerakligi o'qtirilgan.

So'z san'atining buyuk allomalari Abu Abdulloh Al-Xorazmiy (783-yilda tug'ilgan), Imom Ismoil Al-Buxoriy (810-870), Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505), At-Termizi (824- yilda tug'ilgan), Ahmad YAssaviy (ma'lumotlarga qaraganda 125-133 yil umr ko'rgan), Xo'ja Abduholiq G'ijduvoniy (1103-1179) diniy-axloqiy me'yirlarni belgilashda katta xizmat ko'rsatganlar.

Bundan o'n asr ilgari xorazmlik buyuk yurtdoshimiz Mahmud Az-Zamahshariy (1075-1144) suhandonlik san'atining bilimdoni bo'lgan. Uning «Notiqlik asoslari», «Nafis iboralar» kitoblari suhandonlik san'atida ko'p qo'llanar edi.

Farg'onalik qozi Qozi Ushaniy (XV–XVI asrlar) ana shunday ajoyib suhandon edi. U «So'zlar kaliti» devonining muallifi bo'lib, kishi ruhiyatini yaxshi bilgan, har qanday sharoit va har qanday masalada odamlarni o'z so'ziga ishontira olgan.

Buyuk allomalar – Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy ham notiqlik san'atini yaxshi bilishgan. Ular nafaqat diniy, balki falsafiy, ahloqiy muammolar bo'yicha ham notiqlikda iste'dod sohibi bo'lganlar.

Vizantiyalik cherkov nutq ustasi Ioan Zlatoust (407 yilda vafot etgan), dominikalik rohib Foma Akvinskiy (1223–1274) alohida ajralib turadi. Avliyolar qatoridan joy olgan Foma Akvinskiy Arastu ta'limotini rivojlantirib, ibodat va aql barkamolligini tashviqot qilib kelgan. 1879 yili Foma Akvinskiyning falsafiy-diniy ta'limoti rasmiy ravishda katolitsizm falsafasining eng to'g'ri ta'limoti sifatida e'lon qilindi.

Tiklanish davri dunyoga Shekspir va Lope de Vega drammaturgiyasini, Rable va Servantes romanlarini, Rotterdamlik Erazmnning satirasini, Petrarka va Dante

lirikasini taqdim etdi. Nasr va poeziyaning ushbu bebaho asarlari nutq madaniyatining o'sishiga, estetik didni rivojlanishiga olib keldi, notiqlik uslubni taraqqiy ettirdi.

Fransiya inqilobi yirik siyosiy arboblar, iste'dodli notiqlar, ozodlik, tenglik va birodarlik g'oyalarini tashviqot etuvchi suhandonlarni yuzaga keltirdi: «Xalq do'sti» Jan-Pol Marat va advokat Maksimilyan Robesper ajoyib notiqlar bo'lib, inqilob dushmanlarini ayovsiz qirib tashlashga chaqirganlar.

Qadimgi mutaffakirlar nimani o'rgatar edi? Yangi va eng yangi davrning notiqlik san'ati ustalari bizga qanaqa foydali tavsiyalar berdi? Notiq, tarbiyachi, ustoz, rahbar so'zi qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Birinchi navbatda nutq mazmunli, axborotga to'yangan, ya'ni aqli bo'lishi kerak. O'ziga maftun bo'lган firibgarning silliq, ravon, shirin so'zini eshitishdan yomonroq ish bo'lmasa kerak.

Nutqning tushunarligi va aniqligi juda muhim rol o'ynaydi. YOzuvchi, shoirda so'z topish uchun vaqt bor, gapiruvchida esa bu imkoniyat yo'q. Fikr noaniqligi, so'z boyligi kamligi, umumiyligi madaniyat pastligi nutq buzilishiga, tushunmaslikka olib keladi. Agar oynai jahon jurnalistlariga, intervyu berayotgan ba'zi siyosat yoki madaniyat arbobi nutqiga e'tibor bersak, ular «Bilasizmi» so'zidan boshlaydi. Bu va boshqa shu kabi ortiqcha so'zlar ziyoli kishining nutqiga katta zarar yetkazadi. Antik Rim so'z ustasi Kvintilian bu haqda dono fikr bildirgan: «Shunday gapirki, seni tushunmaslikka o'rinnolmasin».

Nutq qisqa bo'lishi kerak, e'tiborni jalb qilibgina qolmay, uni (e'tiborni) o'ziga qaratib turishi kerak. Agar nutq qiziqarli bo'lsa u cho'ziq, zerikarli bo'lib tuyulmaydi. Shuning uchun qisqa nutqda ortiqcha, ikkinchi darajali axborotlardan voz kechish lozim. Qisqa gapirish va yozish katta iste'doddir. Fransuz olimi va faylasufi Blez Paskal o'zining «qishloqiga xati»da shunday yozgan edi: «Men uzun xat yozdim, chunki qisqa xat yozishga vaqtim yo'q edi».

Nutqdagi jo'shqinlik hayajonlantiradi, yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Tajribali notiq ta'sir etuvchi ovoz o'zgarishlarini sekin, yumshoq ovozdan otashin so'zga o'tish yo'llarni qo'llaydi. Aytilayotgan gapning mazmuni haqidada nafaqat o'ylash,

balki uni vujudi bilan sezish kerak. Og'zaki nutqda fikr va so'z deyarli bir vaqtida ro'yoblashadi.

Baqirishdan iborat «ko'tarinki» nutq yomon did va me'yordan oshib ketganlikdan dalolat beradi. Bunday notiq Sitseron gapi bilan aytganda «sog'larni ichidagi jinni, ichmaganlar orasidagi mast odamga o'xshaydi».

Suxandonlik iste'dod va ulkan ishni talab qiluvchi oliv san'atdir. «Mening iqtidorim yo'q, ko'rinishim va ovozim ham yomon», deb so'z san'atini egallashdan voz kechgan odamlar noto'g'ri yo'l tutadilar.

Sud tajribasidan bir voqeani misol tariqasida keltirsa bo'ladi. O'g'irlikda ayblanuvchi din peshvosi o'z ayibiga iqror bo'ladi. Uni sudda otasi bojxona xodimi, onasi savodsiz qirg'iz aralash kazak xotini bo'lgan oqlovchi himoya qiladi. Zamondoshlarining gapiga qaraganda «Burchaksimon suyakli qolmiq bashara yuzi, bir-biridan uzoqda joylashgan ko'zlari, uzun tikka qora sochi uni badbashara ko'rsatardi. Lekin undan taraladigan nur ma'naviy go'zalligidan dalolat berardi... Ba'zan noqulay harakatlari, advokat kamzuli yarashmaganligi, ovozining shivirlashi nutq ta'sirchanligini buzishi mumkin edi. Advokat sekin o'rnidan turib, hayajonlanib, faqat bir necha so'z aytdi va nutqini shunday tugalladi: «Qarshingizda o'ttiz yil maboynida sizlarning gunohlaringizni kechirgan odam o'tiribdi va endi u gunohini kechirishingizni sizdan kutib turibdi». Otashin va ta'sirchan nutqdan keyin qozilar ayblanuvchini oqlab yubordilar». Ayblanuvchining advokati buyuk so'z ustasi F.N.Plevako edi. «Pravo» jurnali 1908 yilda «A.Pushkin she'riyatda daxo bo'lsa, F.Plevako notiqlik san'atida daxodir», deb yozgan edi. Har bir kishi o'ziga ishonishi kerak, nima deyishni va qanday deyishni bilishi kerak.

### **19.3. Ish muomalasining muammosi va shakli**

*Hech kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb.*

*Amir Temur*

Îääìëàð ûððàñèäà àðáîðîò àëïàøèíèø, àëïqäëàð ûðnàðèëèøè ìóðàkêàá âà ïàúñóëèýöèè æàðà, í. Áó jarayon õàáàð yeðêàçèø ,êè àëïqà øàêëè (òðàíñiðò êññóíèëàöèýñè, ðàäëî, ðåëåâèäåíèý, iñ÷ðà, ðåëåâðàô, èíðåðíåð) áûëèåâèíà qíëìàé, áàëkè ïuññàëàð, ýúíè ïåhíàò âà èæðèññéé ôàïëèýöèäà îääìëàðíèng áëð-áèðè áèëàí áûëäàí o'çëäà õîñ hâìëîðëèëäèð.

Êññóíèëàöèý àðáîðîò, ðàúñèð÷áí ,êè èíðåëëåðòàë ïàçìóíè óçàðèø ,êè qàáóë qilið æàðà, íèëèð. Èæðèññéé êññóíèëàöèýëàðíèng ïaqñàäè îääìëàð ûððàñèäàäè áèð-áèðèíè ðóshuiðø, óïóïèé qèçèqeshëàðíè àíèqëàø, ðûëàðíq àðáîðîò áèëàí àëïàøèñèshâà qàðàðèëäàí. Îääìëàð ïuññàëàñè æàññàëíà ïàúñâèé èqëëìèíè, ðóùèýöèíè, èññqëëäèíè, ïåí áèëàí Ñâí ûððàñèäàäè àëïqàëàðíè áåëäèëàá áåðàäè. Èàðòà shahar ùà, ðè àëïqäëàðää æàäàë ðóñ áåðñàäà, àíúñàëàé ïuññàëà àëïqà ññùaëàðèíè qèñqàððòëðääè. Bir-biri bilan aloqa o'rnatishning 9% yon qo'shnilarga to'g'ri kelsa, 38% èø âà ûqèðdaäi odamlarga òûg'ri keladi.

Sizning oldingizga yosh yigit kelib «Salom» deydi. Bo'ldi. Shu yetarli. Lekin sizning o'ta kuchli kompyuteringiz (miyangiz) aql bovar qilmas tezlikda, yuzdan ortiq parametlar bo'yicha shu odam haqida axborot beradi va sizni murakkab va ma'suliyatli muomalaga tayyorlaydi. Faqat Sherlok Xolms emas, balki boshqaruv san'ati bo'yicha har bir tajribali mutaxassis shu ko'rgan odamning madaniyat, kasbi, ma'lumoti, odatlari, ijobiy va salbiy tomonlari haqida juda ko'p ma'lumot berishi mumkin.

Odam fikrlarini shakllantiruvchi mantiqiy uslublar induktiv (xususiylikdan umumiylarga) va deduktiv (umumiylidan xususiylikga) ko'rinishlarga bo'linadi. Bu uslublarni qo'llab har bir tadqiq etilayotgan hodisaga turli xildagi aniqlik bilan baho berib, kerakli qaror qabul qilish mumkin. Induksiya uslubi axborotni umumlashtirishga, alohida olingan faktlarni qiyoqlashga, o'xshamagan tomonlarni tashlab o'xhash tomonlarni aniqlashga, tadqiq jarayonini umumiyl rivojlanishini belgilashga yordam beradi.

Induksiyaning matematik apparati bo'lib matematik statistikaning ko'p sonli uslublari (kam kvadratlar, korellyatsiya uslubi va boshq.), nisbiy nazariya ommaviy tasodifiy voqealar haqidagi fan xizmat qiladi. Tadqiqotchi uchun individual xususiyat emas, balki bir-biriga muqobil bo'lgan xususiyatlar muhimdir. Hozirgi zamon matematik modellashtirish apparati induksiya uslubiga asoslanadi. Jamiyat fikrini bilish uchun o'tkazilayotgan so'rovlar induksiya uslubini qo'llanishiga misol bo'ladi. Deduksiya, ya'ni izlanishning umumiylidan alohidalikka qaratilgan, fikrni shakllashtirish uchun qo'llaniladigan eng oddiy va qisqa uslubdir.

Sillogizm asosida tuzilgan deduksiyaning mantiqiy tizimi Arastu tomonidan taklif etilgan uch fikr, ikki faraz va xulosadan iborat. Sillogistikaning qatiyyanligi va qarshisizligi matematik logika uslublarida qo'llaniladi.

Deduksiya uslubini misolda ko'rsatsa bo'ladi: «Shahar sudi xalq saylagan pok odamlardan iborat. Eshmatov nopoq odam. Demak u shahar sudiga saylanmaydi». Biz bu sillogizm kuchiga ishonishga harakat qilamiz.

Suhbatni (dialog) olib borish san'atidan murakkab san'at bo'lmasa kerak. Shaxsning jamiyatdagi hurmati va o'ziga bergen holisona baho aksariyat holda gap qaerda, qanday qilib va nima munosabati bilan aytilganiga bog'liqdir. Shu bilan birga shaxs hurmatini u tomondan bajarilgan ish belgilab beradi.

Dialog axborot almashish, dardlashishdan tashqari ijtimoiy-psixologik moslashishga yordam beradi, o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatni shakllantiradi.

Muomala jarayonida tinglash, isbotlash, muammolarni yechish, ishonarli va mazmunli suhbat qurish ko'nikmasi shakllanadi. Dialog, muomala texnologiyalarning o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarini egallah yetuk mutaxassislik belgisidir. Boshqaruv fani va san'ati sohasidagi mutaxassis quyidagilarni:

- dialogning maqsad va vazifalarini tashkil etishni;
- ishbilarmalikka oid suhbat, bahs, tortishuv, munozara, muxokama, ish yuzasidan majlis, «doira stol», muzokaralar, olib borishni ;
- isbotlash, asoslash, dalil bilan ishontirish, tanqid qilish, inkor qilish, bitimga kelishishni;
- nutq va xizmat etiketi va undan foydalanishni bilishi kerak.

**Ñóùáàò** ìäàìëàð ìuñìàëàñèíéíä ýíä êåíä òàðqàlääí øàêëè áûëëá, hàð áèð hîëàðääà o'çèíéíä ìoàéyaí óñëóáè, àìàëää íøèøè áèëàí àæðàlèá ðóðàäè. Ñóùáàò èæðèìíèé, èíòåëëåêðòàë ñàëíhèýòè òåíä hâïéïðëàð, áíøëèq âà qûë íñòëäà èøëíâ÷è, à,ë âà ýðëàë, óñòïç âà øïäèðä, ,ø áîëà âà qàðëý ûðòàñèäà êå÷èøè ìòíèéí. Ùàð áèð õïëàðääà suhbatning èíññíèýò òàæðèàñè áèëàí ñènàlääí o'çëäà õïñ óñëóáè, ñöåíàðëyasi, äðàìmàòóðãëýñè áîðäèð. Hâòòo ýíä õïëèññíà ñóùáàò o'çèíéíä àíèq ìàqñàëë áèëàí àæðàlèá ðóðàäè.

Øó ìàðñà àíèqkè, òàññidif, ðåjäñèç ñóùáàò øóí÷àëè øèðèí ñóùáàò áûëëøè ìòíèéí. Áó õïëàðääà ñóùáàðíéíä hâð áèð èøðøèðík÷èñè áèð-áèðèää hóðìàðää áûëëá, òàíëàíääí ìàçó ùàì hâð èêëàëàs iää æóäà qèçèq ðóþëäè. Õîòèíëàð áèëàí ñóùáàðëàøääíäà áó qïèäàäà katta ýúðèáîð áåðèø êåðäè. Òàæðèàà, ýõøè òàðáèý, þqîðè èíðåëëåêò, ýðëëåò qïèäàäàðèíè áèëèø ñóùáàðíè qèçèqàðëè êå÷èøèíè òàúñíèëàëë.

Êàòòà ,øäàäè ìäàì áèëàí áîëàíéíä ñóùáàòè ûçèäà õïñ òàëäàëàðni qûÿäè. Ùà,ò òàæðèàs iää áíé êèøè õå÷ qà÷íí áîëàäà áàqèðëà, íððèq÷à ìàññòàð áåðèá, óíäà ìàñò íàçàð áèëàí qàðàá, ñóùáàò qóðìàëë. Áóéðóq íâïçda topshiriq berish ôàâqóëítäà ûðèíëè áûëadi. Lekin ìäëëé ñóùáàò, èëðèìññ êüïðíq ñàìàðà áåðäèë. Èø þçàññèäí íëëá áíðèëà,òäàí ñóùáàò ìovaffaqèýòè ñóùáàòäíøíéíä ðóhèýò âà èíòåëëåêðóäë õóñóñèýòëàðèíè, óíèíä ìóàìí âà hîhishëàðèíè ìëëëäàí áèëëá ìëëøää áig' liqdır. Odatda suhbatdosh savolga emotsionallik bilan javob qaytaradi. Uning mimikasi, qo'l

harakatlari, intonatsiya, yuz ko'zidan ahvolini bilib, suhbat kechishini shunga qarab o'zgartirsa bo'ladi. Hech qachon o'z dalillarini mutlaqo to'g'ri demaslik kerak, muholifning aqli, imkoniyati, tajribasi, malakasini inkor etish juda havflidir. Me'yоридан ортиқча ко'tаринкилік, hurmatsizlik, qo'rqtish, firibgarlik odatda teskari samara berib, ochiq yoki botiniy qarshilik uyg'িòаäè.

Èø þçàñèäàí ñóùáàò. Îäätäà èøáèëàðìí häì êïðëäðíèí ñóùáàòè òàññäèôàí, áàúçèäà ýñà ðóðuññâ÷èëëë sababli áîøëàíèá êåðàäè. Èø þçàñèäàí áûëà, ðääàí ñóùáàòíèí ìaqñ àäè àðäâðîò àëìàðèø va íàòèæàäà áèòèì òóçèø, ïóññàáàðöäðíè áåëæëëàá ëëø, þçäàà êåëäàí ìàññäà áûéè÷à qûøèì÷à ìàúëöññòëàð ëëøäèð. Ñóùáàòäàí ëëæí ïññíåíò àhâïëi àìèqëàíàäè, óíèíà þçäàà êåëäàí ìóàññâ÷èëëà ã÷èðäà áûéäàí èøðè, qè ûðäàíèëäè. Óìòiàí ëëäàíà, ñóùáàò qóðèø ó÷óí êåðàëëë çàìèí òàé, ðëàíàäè. Ñóùáàòíè ëëàá áîðà, ðääàí ìóðàðàññèñ äïèì ñóùáàò ëëàá áîðèø ó÷óí ýðøè ìóhèð òàé, ðëàéäè âà ñóùáàðäîøäà ñàëäèé ìóññàáàò óég'otmaslik uchun suhbatni umumiyl gapdan boshlaydi. YAna bir bor shuni o'qtirish kerakki, har bir ishga oid suhbat aniq maqsadga ega bo'lib, bu maqsad suhbatdoshlar uchun yagona bo'lishi kerak. qabul qilinayotgan qarorlar mantiqligi o'z va o'zga munosabatlarning kuchli va kuchsiz tamonlarni holisona qayd etilishiga bog'liqdir. Maqsadlarni tushunishdagi kelishmovchiliklarni belgilab, muholifning o'zga fikrlariga hurmat bildirilgan holda o'zaro manfaatli bitim variantlari ko'rib chiqiladi. Agar suhbatda bir necha kishi ishtirok etayotgan bo'lsa, unda birinchi so'z navbatini past lavozimdagи xodimga berish maqsadga muvofiqdir. Agar muxokama qilinayotgan muammo yechimi holisona mezonlar emas, balki yoqtirish yoki yoqtirmaslik nuqtai nazardan hal qilinsa, muammo emas, balki uning yuzaga chiqaruvchi omil muxokama qilinsa suhbat buzilib ketadi. Muhokama predmeti bo'lib hamkorga munosabat emas, balki qiziqtirayotgan muammo bo'lgandagina suhbat o'z samarasini beradi.

YAxshisi, o'z kuzatishlari haqida fikr almashib, keskin baho berish va oxirgi xulosa chiqarishdan o'zini tiyib turganligi ma'quldir. Maslahat berish, o'zaro harakatlarni rejalashtirish kerak bo'lganda ehtiyyotkorlik bilan harakat qilish kerak.

Lekin o'z manfaatini yaxshi bilgan mutaxassislar suhbat axborot berish emas, balki axborot olish vositasi bo'lgandagina samara berishini o'qtiradilar.

Agar suhbatdoshlarning biri o'zini mutlaqo xaq deb, harakat qilsa suhbat samarasiga katta havf tug'dirgan bo'ladi. Bunday holatda o'zaro kelishish qiyin bo'lib, suhbat og'ir kechadi. Past saviyali nutq madaniyati ham suhbat kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, «shunday qilib», «demak», «shu desangiz» kabi kushanda so'zlar suhbat saviyasiga putur yetkazadi.

Ba'zida suhbatdoshlar shunchaki nutqiga berilib gapiradiki, hatto bir necha muammo haqida gapirayotgani eslaridan chiqib ketadi va natijada noqulay ahvol yuzaga keladi. Bu «notiqlik san'ati»ga bir misol: «Boshqa bir fermerimiz tug'ishni yo'lga qo'ygan. U bir yo'la 145 sigirni qochirdi, natijada 148 ta buzoqcha tug'ildi. Kelasi yilda u bundan ham ko'proq sigirlarni qochirish niyati bor».

**Bahs.** «Bahsda haqiqat aniqlanadi» deyiladi. Haqiqatan ham shunday ekanmi? Saylov oldi kompaniyasi, futbol muhlislarining bahslari, diniy aqidaparastlarining surushuvlari, oilaviy mojarolardan keyin haqiqat yuzaga kelganini tasavvur qilish juda qiyin. Aksariyat holda bahslarning maqsadi muammoning yechimini izlash emas, balki o'z fikrini isbotlashdan iborat bo'lib qoladi.

**Dalillash uslublari**, ma'lum qoida va jarayon kechishini belgilash bahslovchilar tomonidan ortiqcha deb, qabul qilinadi va bahs mojaroga, tartibsiz fikrlar urushiga olib kelishi mumkin.

Har bir yangi dalil muholif fikrini inkor qilishga qaratilgan, ba'zida bahs ishtirokchilari qiziqib ketib bahs mavzusini ham yoddan chiqarib yuborishadi va shu tufayli yangi-yangi munosabatlar yuzaga kela boshlaydi. Bahs uchun inkor qilish uslubi, fikrlarni qarama-qarshiligi xos bo'lib, kelishishga o'rinn qolmaydi. Agarda ko'proq tayyorlangan, shaddotroq bahslovchilardan biri bahsda mutloq ustunlik qilgan bo'lsa, mag'lub esa o'z obro'ini yo'qotadi. SHu bilan birga bahsda g'olib chiqqan raqib u uchun dushmanga aylanadi. Bahsni murosasizligi va himoya qilinayotgan omilning muhimligiga qaramasdan madaniyatli, tarbiya va tajribasi bor kishi hulq chegaralaridan o'tmasligi, yangi dushman ortirmasligi kerak.

Olijanob kishi kasal yoki ruhi tushib ketgan muholif ustidan kulmaydi, uni avaylaydi. Ushbu nozik holat murakkab ichki bahsga olib keladi: kuchli dalillar ishlatib, ta'sirchanli g'alabaga erishish niyati muholif obro'iga katta ziyon yetkazmaslik kerak degan fikr bilan zidlashadi. Lekin bahsda g'alaba qozonishdan voz kechish, raqibga ziyon keltiruvchi imkoniyatidan foydalanmaslik ko'proq samara beradi.

Bahs qoidalari xaqida gap borar ekan Arastuning («Topika») tavsiyalarini eslash joizdir. U «sening dalillaringni inobatga olib, o'z dalillarini o'ylab gapiradigan, safsatabozlikka berilmaydigan raqib bilan bahs olib borish mumkin», – deydi. Agarda bahsdagi raqibing ahmoq bo'lsa, unda sen xaqoratomuz gaplar eshitasan, bunday mojaroda ishtirok etganing uchun ham afsuslanasan.

Keyinchalik, boshqaruv san'ati uslublarini tadqiq etganda biz yana bir bor bahs muammosiga qaytib, uning olib borishda qo'llaniladigan aniq uslublarini ko'rib chiqamiz (Sokrat uslubi, uch raund uslubi va boshq.). Bahsda qachon ishtirok etish va qay vaqt unda ishtirok etmaslik holatlarini ko'rib chiqamiz. Ba'zida bahsda ishtirok etmaslik imkoniyati bo'lmay qoladi. Ana shunday holatlar uchun antik ritorikada talay amaliy maslahatlar berilgan: faol ishtirok etilganda muholif o'zini oqlashga o'tadi, savollarga javob beradi, bahsning har bir bosqichi (shaxmat o'yinidek) taktik ustivorlik keltirish kerak, tashabbus qo'lga kiritiladi, bo'sh tezis tanqid qilinadi yoki u butunlay yo'qqa chiqariladi; kuchli savol bilan suhbatni faol ishtirokchisiga emas, balki norasmiy sardoriga murojaat etish raqiblar orasida kelishmovchilik chiqaradi. Ovozini ma'lum darajagacha ko'tarish, raqib ahvoliga baho berishni o'zgartirish, bo'sh pozitsiyali muammodan boshqa pozitsiyaga o'tish va, nihoyat, birinchi bo'lib yarashish uchun qo'l cho'zish va bahsdan obro' bilan chiqish bahsda qo'llaniladigan taktik usullardan hisoblanadi.

Bahsda holisona bo'lish, muholif fikrini to'g'ri tushunish qiyin. Bunga sabab o'zining pozitsiyasini benuqson, maqsad va fikrlarini oljanob deb hisoblashdir.

O'zining oljanobligiga ishonishi esa, bahsni ochiq mardlarcha olib borishga, raqibni odil jangda yengishga yordam beradi. Chunki raqibning kamchiligi, xatolari yaqqol ko'zga tashlanadi.

#### **19.4. Ijtimoiy-siyosiy dalillar san'ati**

*Koyishdan keyin maqtash yomg'irdan  
keyin chiqqan quyoshga o'xshaydi.*

*I. Gyote*

Mustaqillikning birinchi yilidayoq O'zbekiston hukumati mamlakat mudofasini mustahkamlashga kirishdi. Shu bilan birga barcha imkoniyatlardan foydalanib, harbiy mojarolarni tinch yo'l bilan bartaraf qilashga harakat qilib kelmoqda. Davlatlararo iqtisodiy, siyosiy aloqalarni rivojlantirish g'oyasini oldinga surmoqda. Davlat tizimlari va harbiy bloklar o'rtasida muzokaralar olib borish ijtimoiy jarayonlarga boshqa nuqtai nazardan qarashga, ijtimoiy hamkorlikning yangi tamoyillarini yaratishga olib keldi.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti oxirgi yillarda ommaviy kommunikatsiyaning (mass media) sotsologik muammolarga, ijtimoiy aloqa va munosabatlarning (Public relations) shakllanishiga alohida e'tibor bermoqda. Jamiyatga, jamoaga ta'sir qilish uslublari nafaqat siyosatshunoslarni, balki korxona rahbarlarini, tijoratchilarni, menejment va marketing mutaxassislarni qiziqtirmoqda. Majlis va namoyishlarni tashkillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jamoaning oddiy, kichik majlisini o'tkazish ham rahbardan katta bilim va tajribani talab qiladi.

Majlis ma'lum tartibga bo'ysinadi. Majlisga yig' ilganlar bir-biri bilan gaplashib, hazil qilib joylarga o'tirishadi. Tajribali xodimlar iloji boricha panaroq joyga o'tiradi, ular qulay vaziyat kelganda majlisdan ketib qolishni niyat qilib qo'yadi.

Agarda o'ta muhim masala majlisda muhokama qilinmasa, tajribali notiq uchun ushbu majlisda nutqqa chiqish juda oson kechadi. Agarda majlisda o'tirganlar notiqqa qarshi bo'lsa, unda so'zga chiqqan notiq qator muammolarni yechishga to'g'ri keladi.

Boshqaruv san'ati ushbu ekstremal, murakkab sharoitda qanday yordam bera oladi? Qanday maslahat berish kerak? Nutqqa chiqish kerakmi? Iloji bo'lmasa-chi? So'zga chiqib, qarshi tamon takliflariga rozi bo'lsa-chi? Unda o'z safdoshlari sotqinlikda ayblaydi. Lekin sharoit bahsda ishtirok etishni taqozo qilib turibdi. Bahsda ishtirok etmasdan chiqib ketish iloji bo'lmasa, unda bahsda ishtirok etib, o'zining xaq ekanligiga boshqalarni ishontirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak. Bunday holatlarda boshqaruv san'ati tavsiyalariga quloq solish katta yordam beradi. Bu tavsiyalar quyidagilardan iboratdir:

—qarshi bo'lgan jamoa, olamon bilan mulohaza olib borishga tavakkal qilgan kishi o'zi yomon ahvolga tushib qolishini tushunishi, biror bir baxtli hodisa ro'y berishligiga ishonmasligi, doimo sergak mulohazali, hissiyotga berilmasligi kerak. Doimo o'zining obro'yisi, ishini himoya qilayotganligini esda tutib, minbarda aytadigan har bir so'zini o'ylab olishi kerak. Birinchi gap ta'sirli ekanligini yodda tutib, uni yaxshi tayyorlab, xatti-harakati, yuzining ko'rinishi, qo'l harakatlarini o'ylab ko'rishi kerak;

- maqsadni oldindan aniq va lo'nda belgilab olish lozim;
- imkon doirasida oldindan auditoriyani yaxshi o'rganish, muholiflarning norasmiy liderini va u zalning qaerda o'tirganligini aniqlab olishsh kerak;
- o'zining kam sonli potensial tarafdarlarini imkonli boricha so'zga chiqishdan oldin bilib olib, ular bilan norasmiy aloqa o'rnatish kerak;
- ish yuzasidan va ig'vo savollarga javob berishga tayyorgarlik ko'rib qo'yish kerak. Bu javoblar aniq, ishontiruvchi bo'lishi lozim, chunki odamlar noaniq, olib qochar javoblarga salbiy munosabatda bo'ladilar;

- o'z nutqini soddarоq, jonliroq, olamonning aksariyat qismiga tanish bo'lgan so'zlarni ko'proq ishlatish kerak;
- shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, tang ahvolni jiddiy mulohaza emas, ko'ngildan aytilgan so'z, hazil-mutoyiba yumshatish mumkin;
- gapirganda minbardan yoki prezidium stoli yonidan emas, balki odamlarning oldiga chiqish tavsiya etiladi. Bunda siz ularga o'z ishonchingizni bildirib, o'zingizga yaqinroq tutgan bo'lasiz;
- o'tirganlar orasida babs uyushtirishga, ularning orasiga raxna solishga harakat qilish kerak. Bu tavsiyanomalarни birinchi galda majlisda, jamoa oldida gapirganda qo'llasa bo'ladi.

Majlis ahli ma'lum qoida talabi va rahbar aytganiga bo'ysungani kabi, olomon ham o'ziga hos «qonun»larga bo'ysunadi.

Olamon hatto kaltakli militsiya, harbiy qo'shin, tankalar bilan qurshab olingan bo'lsa ham, ba'zida bo'ysinmaslikka harakat qiladi. Olamon bu ming boshli maxluq bo'lib, oddiy mantiq va ahloq qonunlariga bo'ysinmaydi, u shaxslarni oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki o'z qonuni bilan yashaydigan tirk organizmdir. Olamonning boshi ko'p bo'lgani bilan aqli kam bo'ladi.

E.Zolyaning «Jerminal» asarida olamon yulib olingan jinsiy organlarni cho'pga tiqib, ko'chalarda namoyish etganlarini, 1917 yil oktyabr oyida son-sanoqsiz namoyishlar bo'lib, olamon oyog'i ostida odamlar qurbanlarini, Stalinni dafn etish marosimida olamon ichida siqilib, oyoqlar ostida qolib, ko'z yumganlarni, Nyurenbergda natsistlar tamonidan uyushtirilgan qirg'inborotlarni eslang. Estrada yulduzlarining ishqibozlari, futbol jinnilarining gala-gala bo'lib yurishlari, yong'in vaqtidagi xadiksirashlar, diniy aqidaparastlarning qonli yurishlari, rus diniy ayrimachilarining o'z-o'zini yondirib yuborishlari ham bunga qo'shimcha misol bo'la oladi.

Futbol ishqibozlarining razil kirdikorlariga e'tibor beraylik. 1946 yil Angliyaning Boston shahri stadionida mojaro sodir bo'lganda 33 kishi hayotdan ko'z yumdi, 500 dan ortig'i jarohat oldi. 1961 yil Chili va Braziliyalarning futbol bo'yicha

terma jamoalari uchrashuvida 5 kishi o'lgan. 1964 yil, Lima, Peru-Argentina futbol uchrashuvi, 30 kishi o'lgan, 500 dan ortig'i jarohat olgan. Ro'yxatni davom ettirish mumkin. qizig'i shundaki, ushbu jinnisimon futbol muhlis lari ichida haqiqiy futbol bilimdonlari nihoyatda oz qismni tashkil qiladi.

Olamon qo'lidan hamma narsa keladi. U ommaviy qaxramonlikdan tortib, dahshatli voqealar sababchisi bo'la oladi. Buning uchun olamonda yashirincha mexanizm ishga tushsa bas. Olamonning his tuyg'ulariga ustamona ravishda ta'sir ko'rsatib, aniq, oddiy, oljanob yoki razil g'oyalarni singdirib, uni g'azab otiga mindirsa kelishmovchilikni – ishonchsizlikka, aqidaparastlikni – ashaddiylikka aylantirish mumkin. Olamon aql bovar qilmaydigan ishga qo'l uradi, u ko'proq hissiyotga, taqlidga berilib ketib, mantiqsiz harakat qila boshlaydi. To'da ichida shaxs ma'suliyatni yo'qotadi. Agar olamon ruhiy yaxlitlik darajasiga yetsa uning harakati poda hissiyoti bilan tenglashadi. Tajovuzkorlik, qo'rqqanidan orqasiga qaramay qochish unga xos xususiyatlardir.

### **19.5. Nutq madaniyati**

*Sovuq so'z bo'lmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur,  
undin dushmanlik xosil bo'lur.*

**Qobusnama**

Nutq madaniyati talaffuz, diksiya, so'z boyligi, mantiqiy ravonlik, hatto qo'l va yuz harakatlarining yahlitligidir. So'zga ega bo'lgan kishi odamlarni boshqara oladi.

Ona tilida uzuq-yuluq gapiradiganlar hozir ham yo'q emas. Ba'zi filolog olimlarimiz ham sof adabiy tilda gapirmasligi kechirib bo'lmaydigan hol. Radio va oynai jahonga nutqida kamchiligi bor kishilarni sxandonlikka ishga olish holatlari

uchrab turadi. Buning natijasida so'zlar noto'g'ri talaffuz etiladi. So'zlar keraksiz hollarda ham chet tillardan kirib kelgan so'zlar bilan almashtiriladi.

Tilga nisbatan bo'lган bunday hurmatsizliklarni misol sifatida ko'p keltirish mumkin. Achinarlisi shundan iboratki, faylasuflar, bilimdon mutaxassislar shubhali bo'lган til «yangiliklarni» himoya qilishga qo'1 uradilar. Natija salbiy bo'lishi muqarrardir.

Bir misol, qator «til bilimdonlari» o'zbek tilida ko'p va ho'p qo'llanadigan «aeroport» so'zini «tayyoragoh» so'zi bilan almashtirishga urindilar. Ular «tayyoragoh» so'zi o'zbek tiliga yaqinroq deyshdi. As lida shundaymi? Tahlillar shuni ko'rsatadiki, «aeroport» so'zidagi «aer» qismi va «tayyoragoh» so'zidagi «ayyor» qismi arab tilida «havo» ma'nosini bildiradi (bu yerda Hazrat Navoiyning "Lison-ul-tayr" asarida ishlatilgan «tayir» so'zi qushni, ya'ni havodagi uchib yuruvchi jonzodni bildiradi. Bu so'zning negizini ham havo ma'nosini tashkil qilgan). «Aeroport» so'zining ham, «tayyoragoh» so'zining ham tarixiy ildizlari arab tiliga borib taqaladi. Savol tug'iladi – bir arab so'zini ikkinchi arab so'zi bilan almashtirishga xojat bormidi?

Yangi so'zlar barcha san'at, maishiy hayot sohalarida o'z aksini topdi. O'zingizni bir tekshirib ko'ringchi, quyidagi so'zlardan qaysi biri sizga tushunarli: relevant, autpleysment, koaching, absenteizm. Bu so'zlar mahsus atamalar guruhini tashkil qiladi. Shu bilan birga til o'zgarib, rivojlanib, yangi-yangi so'zlar bilan boyib borishi tabiiy hol.

Matnda qancha ko'p murakkab atamalar qo'llanilsa, jumlalar og'ir bo'lsa, ilmiy maqola yoki ilmiy simpoziumda o'qilgan ma'ruza shuncha «jiddiyroq» hisoblanadi.

Shu ma'noda o'ta «dono» fikrlar ham yo'q emas. S.N.Parkinson qahramonining «chuqur» bir fikriga e'tibor bering: «Bilasizmi, hulq modeli hulqiy sxemaning to'g'ridan-to'g'ri sinonimi emas, shu bilan birga sxematik hulq jiddiy ma'noda hulqiy sxematizmnинг antonimi deb bo'lmaydi».

Kasbiy suxandonlikning noyob mahsuloti sifatida tibbiyot sohasiga oid ilmiy maqola uslubi yuqorida keltirgan «dono» fikr uslubi va «mazmunidan» qolishmaydi. «Bosh miyaning ustivor revaskulyarizatsiya qilish uchun ichki uyqu arteriyaning potologik buralish yoki gipodinamik stenoz, 50% kam bo'lmagan embologen uyqu arteriyadagi bifurksianing embologen bilan stenoz, kritik stenoz yoki umrov osti arteriyaning okklyuziyasi bilan bog'liq umurtqa umrov osti doimiy sindromi, gipodinamik stenoz, ya'ni broxiotsefan tana okklyuziyasi ahamiyatga ega».

Ushbu o'ta «nfoyob» fikr uslubi boshqa soha olimlarimiz uchun ilmiy ish yozishda qo'l kelmasligi barchaga ayon.

Madaniyatli kishining ravon aytيلayotgan nutqi imo-ishorasiz ayondek tuyuladi. Lekin ko'p narsalar kishi tug'ilib o'sgan jamiyatda qabul qilingan milliy intellektual va madaniy an'analarga bog'liq. Yapon biznesmeni, budda rohibi, arab ko'chmanchilarining imo-ishoralari qisqa va aniq. Oddiy hayotda ham telefon orqali gapirib turuvchining nutqi qo'l, bosh harakatlari, yelka qisish bilan to'ldiriladi. Bu bilan odam ichki his-hayajonlarini ifodalaydi.

Shunday holatlar bo'ladiki, imo-ishora, qo'l harakatlari kuchli ifodalanib, aytilgan so'zni to'ldirib turadi. Urush vaqtida bir voqeа sodir bo'lgan. Xarkov ostonasidagi mag'lubiyatdan so'ng Stalin huzuriga bir guruh harbiylar bilan birga ko'pni ko'rgan jangchini chaqirishgan. Stalin qotib turgan harbiylarga qarab, qo'li bilan ularni ko'rsatib, «otib tashlash kerak» deydi. Bu gapdan keyin o'tirganlarni barchasi hayolan hayot bilan vidolashadi. Keyin Stalin o'z stolini oldiga asta-sekin borib «endi sizlar frontga qaytinglar, bir haftadan keyin ahvolni o'zgarishi xaqida xabar beringlar» – deydi. Stalin qo'lining harakati generallar xotirasida bir umr muhrlanib qolgan.

Har bir kishi bunday dahshat bo'lmagan, lekin shunga o'xshash holatlar bilan hayotda uchrashgan bo'lishi mumkin. Masalan, tilini tushunmagan bir kishidan yo'lni so'ragandan keyin, uning tushuntirishi va qo'l xatti-harakatlarga ishonib, mutloqo boshqa yo'nalishga qarab ketish mumkin. Imo-ishoralar doimiy yordam beradimi? Ko'krakka, stol ustiga qo'l bilan urishlar, birovga qo'l bilan ko'rsatib, mensimaslik,

konsert, telebahs vaqtida qo'llar bilan xatti-harakat qilishlar so'z boyligi kamligidan, aql yalqovligidan, yomon tarbiyadan dalolat beradi.

**O'z-o'zini oqilona majburlash** uslubi kishida odat bo'lib qolib, keyinchalik esa bo'ladigan ishni birdaniga, eng qulay vaqt muddatida bajarish ehtiyojini uyg'otadi.

Tayyorlanmasdan, chuqur va har tomonlama o'ylab chiqmasdan o'z-o'zini tahlil qilish uslubini joriy etish mushkul ish. Bu uslubni ba'zilar samarasiz va zerikarli deb baholaydi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, nafaqat jamoada, balki bir o'zi qolganda ham o'z hulq-atvorini nazorat qilish inson uchun juda muhimdir.

Tevarak-atrofingizdag'i odamlarga, ularning xatti-harakati, qiliqlari, gaplariga bir e'tibor bersangiz, o'z-o'zini tarbiya qilish va nazorat etish muammosining dolzarbliyi yaqqol ko'rinish qoladi.

Shunday holatlar bo'ladiki, ba'zi kishilar og'zini ochib «zavq» bilan birovni tinglaydi, ba'zilari esa barmog'ini burniga tiqib, uni tozalash bilan band bo'ladi. Bunday nojo'ya xatti-harakatlarga ko'p misollar keltirish mumkin. Bularning hammasi odam o'z-o'zini nazorat qilmasligi natijasidir.

**O'z-o'zini tahlil qilish** uslubi o'z fiziologik ahvolini, intellektual va ma'naviy imkoniyatlarining sub'ektiv xususiyatlarini hisobga olishga, ideallashtirish va ortiqcha baho berishdan voz kechishga imkon beradi.

Mushohada va tahlil qiluvchi kishining vijdon nomi bilan ataluvchi ichki ma'naviy tarozisi bor. U nafaqat xatti-harakatlarini, balki istak, niyatlarni ham o'lchashga qodirdir.

Uyatli ish qilib qo'yib, uni hotiradan tezroq haydash kerak emas. Vijdon azobi qiyin bo'lsin, tavba-tazarular chuqur bo'lsin, mana o'shandan keyin bunday nopok ishlar takrorlanmaydi. Ushbu o'z-o'zini tarbiya qilish usullarini egallagan kishi o'ziga ortiqcha baho bermaydi, boshqalarga qo'pol gap gapirmaydi, ko'l ostida ishlovchilar ustidan kulmaydi. Vaqt o'tishi bilan o'z-o'zini tahlil qilish shaxsning ajralmas qismiga aylanadi, uning doimo qo'llanishi noqulaylik tug'dirmaydi.

Tashqi dunyo kishi hayotiga uzluksiz ravishda ta'sir qilib turadi. Kechayu kunduz kishining ko'rish, eshitish, hidlash, sezish va ta'm sezish besh sezgilarini tinimsiz ishlab turadi.

Qabul qilinayotgan axborotning barchasini miya qisqa vaqt ichida qayta ishlab, o’z munosabatini bildirishi kerak. Axborot hajmi nihoyatda ulkanligi tufayli odamlar uning uddasidan chiqishga qiynalib qolmoqda.

Tabiat ortiqcha axborotdan cheklanish va himoyalanish murakkab tizimini yaratib, inson psixikasini ortiqcha taranglashishidan himoya qiladi. Lekin ba’zi shaxslar salbiy taassurotlarni tezda esdan chiqarolmay, hayotda ro’y bergen omadsizlik sabablarini aniqlashga ko’p vaqt sarf qiladi. Uyqusizlik, asab buzilishi, salbiy taassurot sog’liqqa, asabga yomon ta’sir etib, organizmda funksional o’zgarishlarga sababchi bo’ladi.

Tabiat tomonidan yaratilgan cheklanishlarga (uyqu, xotiraning sig’imi, unda axborot qisqa vaqtda saqlanishi) qo’shimcha ravishda odam psixikasini tashqi muhitning salbiy ta’siridan himoya qiluvchi turli xil uslublar ishlab chiqilgan.

Kishi psixikasini ortiqcha salbiy axborotdan **himoya qilish** uslublari shaxs tomonidan individual tarzda tanlab, qo’llaniladi. Odatda, mashqlar natijasida o’z e’tiborini o’tmishtda sodir bo’lgan quvonchli voqealar, do’stlar bilan olib borgan yaxshi damlarga qaratish mumkin.

Ishonch bilan aytish mumkinki, spirtli ichimliklar, hatto yengil narkotiklar (tamaki, kofe, nos va b.) yig’ilib qolgan muammolarni yechmaydi.

Ayanchli, qiyin damlarda xudoga itoat etib, iltijo qilish ko’p kishilarga ancha yengillik baxsh etadi. Og’ir moddiy va oilaviy ahvol, ma’naviy yordam yo’qligi, hayotga, odamlarga bo’lgan ishonch yo’qolganligi kishini ollohdan madad va yordam, ba’zida mo’jizani tilashga undaydi.

Albatta, sharoitni holisona, chin dildan va haqqoniy tahlil qilish, fakt, tevarak-atrofdagilar harakatini o’ylab, solishtirish va eng asosiysi, hosil bo’lgan ishonch odamga yengillik keltiradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlanishida ko’p mamlakatlarda g’ayri dinlikka, tasavvufga, astrologiyaga, spiritizmga, o’rta asr germetik fanlarga e’tibor kuchayib ketdi. Sirli bilim an’anasi bo’lmish germetizm (alximiya, astrologiya, kabala) Aflatun, Pifagor orqali Uch Marta Olijanob (Trismegist) Germes bilan aloqadordir.

Germes qadim yunonlarda savdo homiysi, qadim Rimliklarda Merkuriy kulti bilan bog'liqdir. U misrliklarning donolik va magiya homiysi Totga ham aloqasi bor. Ekzoterik sirli bilimlar donishmandlari ularni hozirgi zamon fan yutuqlari nuqtai nazaridan talqin qiladilar: masalan, transmutatsiya sohasidagi alximiya tadqiqotlari (ya'ni, «falsafa toshi» yordamida oddiy metallni oltinga aylantirish) Anri Bekkerel kashf etgan radioaktivlik hodisasiiga asoslangan edi.

Pifagor maktabining ta'limoti ancha qiziqish uyg'otdi. Bu ta'limot bo'yicha yerning paydo bo'lishi va narsalar mohiyati butun sonlardan iborat bo'lган (Pifagor umumiyoq o'lchovsiz kattaliklar borligini bilgandan keyin ta'sirlanib ketib, xudolarga atab yuzta ho'kizni qurbanlik qilgan). San-Remo shahrida yashab ijod qilgan tabib va munajim Mishel Nostradamusning "Bashorat" nomli kitobi odamlarning ma'naviy hayotida katta o'rinni egalladi. Inson Tibet lamalaridan ma'naviyating ajoyib xususiyatlari haqida sirli bilimlarni o'rgangan.

Amerikalik olim Djeykobson tadqiqoti (asta-sekin bo'shalish uslublari), o'z-o'zini ishontirish uslublarini o'rgangan fransuz olimi Emil Kyuening ishlari, odam organizmining kam o'rganilgan imkoniyatlari asosida o'z-o'zini psixik boshqaruv nazariyasini yaratgan olmon olimi Iogan Shulsning izlanishlari jahonga keng tarqalib ketdi.

Gipnozning psicho-terapevtik ta'sirini o'rgangan Iogan Shuls patsientlar o'z-o'zlarini bo'shashtirish, tinchlanish, uyqu holatiga keltira olishiga e'tibor berdi. Uning «Mashq orqali o'z-o'zini gipnoz qilish» ilmiy asari autogen mashqlarning zamonaviy konsepsiyasining asosi bo'lib qoldi.

Autogen mashqlar o'z-o'ziga ta'sir etish qator formulalarni qaytarishdan iborat bo'lib, psixik tinchlanish, tayanch-yurish apparatini bo'shashtirishga olib keladi. Har kuni o'n minutlik mashq qilinsa, asab buzilishlar, charchashlar, uyqusizlik bartaraf etiladi. Mashqlar ro'yxati va bajarish tartibini autotreningga bag'ishlagan qator adabiyotlarda topsa bo'ladi.

O'z-o'zini takomillashtirishning yana bir ko'rinishi – «o'ta qudratli odam»ni shakllantirish g'oyasini ehtiyojkorlik bilan qarab chiqish lozim. Bu masala hozircha yechilmagan bo'lib, unga bir necha yuzlab tadqiqotlar bag'ishlangan.

«O'ta qudratli odam» g'oyasini Fridrix Nitsshe (1844-1900) ilgari surgan edi. Uning fikricha, hayotda eng muhim narsa – kuch va qudratga ega bo'lism, hukmronlik qilish irodasidir. Barcha yetishmovchilik – kuchsizlik oqibati, yaxshi ish esa «hukmdorlikni mustaxkamlaydigan barcha narsalardir». Nitsshe «xo'jayinlar ahloqi» «qullar ahloqi»dan ajralib turishligini ta'kidlaydi, u hudo oldida barcha kishilar teng ekanligi haqidagi xristian ta'limotini inkor qiladi. «O'ta qudratli odam», «xo'jayinlar ahloqi» g'oyalari nemis milliy sotsializmi tomonidan qabul qilinib, uning mafkurachilari tomonidan rivojlantirildi.

Gitlerning «Mein Kampf» («Mening Kurashim») kitobini misol tariqasida keltirish xohishi umuman yo'q edi, lekin «o'ta qudratli MEN» g'oyasi aslida shu kitobda rivojlantirilib, fashizm davrida amalgalashirildi. Gitler hokimiyat tepeiga kelgandan keyin inson imkoniyatlarini o'rganish, konslagerlarga tushgan minglab asirlar ustidan dahshatli psixofiziologik tajribalar o'tkazish uchun laboratoriya va institatlarni tashkil qilish haqida buyruq bergen edi.

«Mana bu narsa yangilik», degan gapini esda tutib, nemis olimlari qadimgi Hindiston, Xitoy, Tibet va zamonaviy psixofiziologik fenogenologiya maktab sirlarini chuqur o'rjanib chiqdilar. Eramizdan oldingi XII-VII asrga oid eng qadimgi veddalar va unga yozilgan izohlar, odamning psixik holatiga bag'ishlangan va induizm asoschilaridan biri Shankara tomonidan har tomonlama ishlab chiqilgan Vedantening diniy-falsafiy ta'limoti, Hind falsafasining brahman-buddha mumtoz ta'limoti, buyuk Shaolin buddaxonasi rahbari, inson psixologiyasi imkoniyatining mutloq chegarasi konsepsiyasini yaratuvchisi, Xitoy nazariyachisi va amaliyotchisi Bodhidharma ta'limoti, Maxatma Gandhi (1869-1948), Aurobindo Gxosha (1872-1950) larning samkxi, yoga maktablari o'rjanib chiqilgan edi.

Hozirgi kunda tibet buddaxonalaragi shaxs tarbiyasini Xatxo-yoga va Radja-yoga mashq uslublari kishi ruhiyati va tanasining boshqaruvida mo'jizalar

ko'rsatmoqda. O'tkazilgan tadqiqot maqsadlari ekstremal holatlarga bardosh berish uchun insonning psixik va fiziologik xususiyatlarini shakllantirishdan iborat edi. Natijada psixotrop qurolini yasash edi.

Odam organizmining imkoniyatlari, uning psixikasi hali to'la to'kis va har tomonlama tadqiq etilgan emas. Shu tufayli bu sohada yangiliklar yaratish uchun imkoniyat ko'p. Rossiyaning XDF markaziy arxivda urush vaqtida nemislar odamlar ustidan psixofiziologik tajribalar o'tkazgani haqida mahfiy hujjatlar saqlanayotganligi ma'lum. Agar tadqiqotlarning mafkuraviy tomonini inkor qilib, ushbu arxivning noyob hujjatlari tadqiq qilinsa, odam organizmining imkoniyalarti haqida qiziqarli ma'lumotlar olsa bo'ladi.

Tibet lamalarining ezoterik bilimlariga Angliya, Fransiya, Xitoy hukumati qiziqish bildirdi.

1937 yil may oyigacha Moskva energetika instituti qoshida mahfiy neyroenergetik laboratoriya ish olib bordi. Laborotoriya gipnoz, «qor odami», NUJ, odam fikrlarini masofadan turib bilish, radiojosuslik masalalari bilan shug'ullanar edi. Odam miyasining transsident xususiyatlari olim va tadqiqotchilarni hozir ham o'yantirmoqda.

Hozirda intellekt imkoniyati va insonning psixik faoliyatini rivojlantirishining yangi yo'llari ochilgan.

Dunyoning eng yirik nazariyachisi, amerikalik olim Stiv Xosking kelajakda odam va kompyuterlarning birlashishi xaqidagi fikrni ilgari suradi va insoniyat tarixida texnogen inqilob ustivorligini himoya qiladi. Yangi submadaniyat konsepsiysi kelajakda ustivor bo'lishligi haqidagi xulosalari matematik hisoblash bilangina emas, balki uning shaxsiy tajribasi bilan isbotlandi. S.Xosking shol bo'lib o'zining nogiron aravachasidan turmasdan kompyuter va internet tizimi yordamida o'z virtual dunyosida samarali ijod qilib, «sun'iy o'ta qudratli» odam imkoniyati nimaga qodirligini namoyon qilib kelmoqda.

O'z-o'zini tarbiyalash uslublariga bag'ishlangan bo'limni tugatar ekanmiz, shaxs rivojlanishi, uning ulkan, bizga ayon bo'lmagan imkoniyatlarini tadqiq etuvchi

maktablar, nazariyalar va amaliy tavsiyanomalar borligini ta'kidlashimiz kerak. Yoga, Tibet meditatsiyasi, yolg'on, g'ayri-ilmiy ekstrasensorika, telepatiya, oq va qora magiya xaqida yolg'on va g'ayri-ilmiy adabiyotlar ro'yxati nihoyatda ulkandir.

### **21.3. Suqrot uslubi**

*Men faqat borligimga monand harakat qilishdan tashqari, harakatimga monand bo'lib qolaman.*

**Suqrot**

Jahon sivilizatsiyasiga qadimgi yunon buyuk mutafakkirlari katta hissa qo'shgan bo'lib, Ustoz va Inson, Afinaning mashhur falsafa va suxandonlik maktabining asoschisi Suqrotning nomi (eramizdan avvalgi 469-393 y.) alohida turadi.

Suqrot ta'limoti asoslari uning shogirdlari Aflatun, Aristipp, Antisfen, yevklid, keyinchalik Arastu tomonidan yaratilgan asarlardan ma'lum. Aflatun o'z o'rtog'ini juda hurmat qilgani tufayli uni o'z falsafiy dialoglarining asosiy ishtirokchisi qilib ko'rsatdi.

Suqrot bilimning o'ta muhim masalalarini belgilab, yashash qonunlarini ochib berdi, jasorat, haqiqat kabi tushunchalarning nazariy asoslarini shakllantirdi, «Suqrot istehzosi» ham hayot ko'rinishlariga o'zining tanqidiy munosabatini bildirdi.

Suqrotning aytishicha, hech kim o'z-o'zidan jahldor bo'lmaydi, barcha yomon ishlar bilimsizlikdan kelib chiqadi. Suqrotning nuqtai nazaricha, bilim mehribonlikka teng. Suqrot inson muloqotining muammolarini tadqiq qilib, dialogga alohida e'tibor bergen edi. Aflatun o'zining «Fedra» asarida buyuk ustozining dialog olib borish san'atini ko'rsatib, kitob hech qachon dialog o'rnini bosa olmaydi, u faqat dialogning taqlidi deb, izoh bergen edi. Dialog bevosita so'z muloqotida rivojlanib, haqiqat izlashning interaktiv usuli, mushohada qilish, isbotlash san'atidir. Antik

suxandonlik ustalar i tinglovchilarning xususiyatlarini doimo e'tiborga olishni, nutqiy muloqot samarali bo'lishi uchun Suqrot va Arastu usulini tavsiya etganlar.

Agarda notiq muhokama qilayotgan muammo bo'yicha muholifning e'tirozi yo'q ekanligini bilsa, o'z tezisini tezda shakillantirib, isbotni dalillash kerak (Arastu uslubi). Agarda tinglovchilar notiqqa qarshi bo'lsalar, muholif barcha dalillarni inkor qilishga tayyor bo'lib tursa, unda boshqa uslubni qo'llash kerak bo'ladi. Bunday sharoitda notiq o'z tezisini aniqlashtirishga shoshmay, u bilan muholifni asta sekin tanishtiradi. Mushohadaning har bir bosqichida mantiqiy halqalar yaratib boradi. Bahsning ushbu uslubi haqida batafsilroq to'xtab o'tishga to'g'ri keladi, chunki bu uslub bizga qadim dunyodan yetib kelib, ko'p asrlar mobaynida o'z mohiyatini o'zgartirmagan.

Hozirgi zamon notiqlik san'atida Suqrot uslubi deb nom olgan dialog olib borish usuli keng tarqalgan. Uning dialog olib borish uslubi ajoyib mantiqiy fikrlardan iborat bo'lib, muholif har bir aytilgan fikr mantiqiyligiga qoyil qolib, unga qo'shib, uning aytganlarini doimo qo'llab-quvvatlagan.

Bahs davrida Suqrot o'zining haq ekanligini, keyin esa qarama-qarshi tomon haq ekanligining isbotlab beradi. Suqrot va uning shogirdlari usullarining oqilonan ekanligining isboti hozirgi zamon fiziologiyasida o'z aksini topdi. qarshi bo'lib turgan muholif bahs boshlanishida Suqrotning fikriga qo'shib, keyinchalik hayajoni bosilib, o'z holiga kelib, irodasi bo'shashib, bahs olib borish imkoniyatini yo'qotar ekan. Natijada mohirona tarzda olib borilgan Suqrot konsepsiysi, hatto u mantiqsiz bo'lgan holda ham ustun kelar ekan.

Hozirgi vaqtida Suqrot uslubining qimmatliligi maqsadni aniq tushinishda, dalil va xulosalarning chuqur mantiqligida, muholifni chekintirishda va natijada, qo'yilgan maqsadga erishishdadir. Suqrot uslubining amaliy qimmatliligin tushunish, uni tadqiq etishda trening va muholif bilan olib borayotgan suhbat shaklidagi ishbilarmon o'yinlar katta rol o'ynaydi. Suhbat oddiy va aniq savollardan boshlanib, ularga muholif ijobiy javob berishga majbur bo'ladi. Keyin suhbatni mantiqiy ravishda, zo'rovoniksiz kelishilgan xulosaga keltirish kerak.

Suqrot uslubining universalligi, keng ko'lamligini ko'rsatish juda muhimdir. Haqiqatan ham Suqrot uslubi shunchalik samarador-ki, uni har qanday sharoitda – oilada, ishda, boshliq bilan suhbatda qo'llasa bo'laveradi. Agar suhbat maqsadi sizning haqligingizni isbotlash, bir-biringizni tushunish bo'lsa, unda suhbatni muholifga nafaqat tushunarli, balki yoqadigan mavzudan boshlash kerak.

Agar suhbatdoshingiz sizning birinchi fikrlaringizdan qoniqish hosil qilsa, suhbatni keyingi rivojlanishini boshqarish oson bo'ladi. Tajribali sotuvchi, vrach, pedagoglar o'zлari anglamagan holda Suqrot uslubini amaliyotda qo'llab turadi. Ular ba'zi hollarda «yo'q» degan so'z umuman ishlatmasligini juda yaxshi tushunadilar. Suhbatdoshingiz xohishi va talabini oldidan bilib, shularga e'tibor berish ishni ijobiy yakuniga olib kelishda juda muhimdir. Suhbatni nafaqat yaxshi boshlash, balki yaxshi tugatish ham zarur. Chunki suhbatdosh xotirasida ayni dialogni yakuniy qismi muhrlanib qoladi.

## 21.4. Uch raund uslubi

*Aql bilan mingni ko'ndirsang,  
Hayqirish bilan birni ko'ndirasan  
O'zbek xalq maqoli*

Boshqaruv san'ati faqat sizning taklifingiz to'g'ri ekanligiga muholifni ishontirish uchun yana bir uslubini taklif qiladi. Bu uslub shartli ravishda «uch raund uslubi», deb nomlanadi, chunki suhbat olib borishning bu modeli uch qismdan iborat. Dialogning birinchi qismida (birinchi raund) siz, deylik, rahbaringiz shartlarini qabul qilib, unda ijobiy kayfiyat uyg'otib, qisqa qilib muammo yoki sharoitni tushuntirasiz. Ikkinci raundda muammoni yechish uchun bir necha variantlar bilan birgalikda o'zingizga ma'lum variantni taklif qilasiz. Uchinchi raundda taklif qilingan variantlar

o'rtasida sizning variantingizni eng yaxshi deb topgandan keyin, o'z rozililingizni bildirasiz.

Suxandonlarning bu mumtoz uslubi ko'p misolar bilan isbotlanadi. Masalan, ota-onalarga juda tanish bo'lgan holat: qizingiz kechqurun o'z vaqtidan ancha kechikib keldi. Uyda mojaro boshlandi. Unga eng qat'iy chora ko'rish kerak. Lekin biroz shoshilmay, o'ylab ko'ring. Bola birinchi uchrashuvdan qanchadan-qancha quvonchga to'lib, bir olam yorug' his-hayajonlarga cho'mgan vaqtda unga qo'pollik qilish o'rinxlimikin? Ana shunday murakkab paytda bolangizni ko'kragidan itarib, o'zingizdan uzoqlashtirmang. YUzaga kelgan muammoni ildizlari nimada? Bolangizning buzuqligidami? Yo'q, unday emas. Bunday holatda tarbiyadan ko'zlagan maqsadingiz nimadan iborat? Tushunarli, bola kechalarini nazoratsiz qaerdadir yurishi yomon. Shu bilan birga uni qiziqtirgan ob'ekti ham yosh bola. Shu hayotiy sharoitdan yigitni olib tashlasangiz, oilangizda tinchlik o'rnatiladi. Shunday qilib muammoni o'g'il bola yuzaga chiqargani aniq.

Siz o'z qizingizga bu bola uning muhabbatiga loyiq emasligini tushuntiolsangiz, muammo o'zi yechiladi. Birinchi raund qizingizning tarafdoriga aylanishdan, uning his-hayajonlarini tushunishdan iborat. Ikkinci raundda qiz bolaga uning hayotiy tamoyillari, erkaklarga bo'lgan munosabati, ularga qo'yilgan talablari haqida gapirib, uni rom qilgan bola bu talablarga to'liq javob bermasligi o'qtiriladi. U hali yosh, moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanmagan, tozalikka uncha rioya qilmaydi, hayotda o'z yo'lini hali topa olmagan. To'g'rimi? To'g'ri bo'lsa men sen tomonda (uchinchi raund). U sening o'rtog'ing bo'lolmaydi, u sen aytganday yigit emas, u bilan uchrashuvlarga chek qo'yish kerak. Ana shunday gapdan keyin qizingiz ko'z o'ngingizda o'zgarib, aqlliroy qo'rindi, sharoitni tushuniib oladi.

YOki boshqa bir misol. Ta'til avgust oyida berilishi kerak, lekin boshliq bunga unamay turibdi. Maqsad uni ko'ndirish. Birinchi raund. To'g'ri, ish ortib yotibdi to'rtinchi kvartal ishlari nihoyatda ko'p, lekin ta'tilga chiqish kerak-ku. To'g'ri, sentyabr yoki oktyabr oylarida ham ta'tilga chiqish mumkin. Ikkinci raund. Lekin bu oylarda eng muhim ishlar bajarilishi kerak. Shuning uchun bu oyda ta'tilga

chiqish ancha noqulay. Uchinchi raund. Avgust oyida ta'til berish ancha mos tushadi. Bu us lubni rahbar qo'llashda ham ancha samara beradi. U jamoada ko'plarga ma'qul bo'lman, lekin qilinishi kerak bo'lgan tadbir o'tkazmoqchi. To'g'ri, buyruqlar yordamida bu ishni bo'linma boshliqlari amalga oshirishi mumkin. Lekin boshqa yo'l bilan ham borish mumkin: bir necha obro'li, yetakchi mutaxassislarni chaqirib, belgilangan muddatda yuzaga kelgan muammoni hal qilib berish topshiriladi. Eng asosiysi, muammoni muhimligi haqidagi mutaxassislar fikri va uning yechish variantlari bilan rozi bo'lishdir.

Yana bir bor yig'ilib, takliflarni eshitib va ularni asosan qo'llab, jiddiy o'zgarishlar kiritish kerak (ishlab chiqarish nuqtai nazaridan ikkinchi raund juda muhim, chunki butun bir jamoadan ko'ra ikki, uch kishini ko'ndirish osondir). Va nixoyat, uchinchi raund: majlis o'tkaziladi, majlisda mutaxassislar guruhining boshlig'i ishlab chiqilgan tadbirlar haqida hisobot beradi. Tanqidiy fikrlar hisobotchi nomiga aytilgandan keyin, boshliq uning fikriga qo'shiladi.

Dalillar yetarli bo'lmananda, oqilona variant yo'qligida, muholifning bafurja suhbat olib borish kayfiyatiziz ko'zlangan maqsadga erishish juda qiyin. Dialogli suhbatning sohasi keng. Unda ota va o'g'il, rahbar va qo'l ostida ishlovchi xodim, ikki kishi ishtirok etishi mumkin bo'lib, turli xil mavzular muhokama qilinadi. Ko'p hollarda ikki rahbarning yakkayu yakka uchrashuvi uzoq diplomatik muzokaralar davomida yechilmayotgan muammoni hal qilishi mumkin.

## 21.5. Shtirlits uslubi

*Shoshmaning ishi bo'sh,*

*Puxtaning ishi «besh»*

*Xalq maqoli*

Boshqaruv qarorini qabul qilish eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Uning asosida jamoa a'zolarining faoliyatini tashkil etuvchi va rag'batlantiruvchi derektiv hujjatlar yotadi.

Aksariyat hollarda taktik boshqaruv masalalarini ta'minlovchi tezkor qarorlar ishlab chiqiladi, bu qarorlar texnologiyaga yangilik kiritish, kadrlar masalalariga oiddir.

Tarkibiy o'zgarish, ishlab chiqarishni qayta qurish masalalariga oid strategik qarorlar chuqurroq va ijodiy yondashishni talab qiladi. Boshqaruvning yangi uslublari faqat oddiy xodimlar tomonidangina emas, balki birovning ijodiy ish yuritishini ko'rolmaydigan mansabdorlar tomonidan ham tan olinmasligi mumkin.

O'z g'oyasini himoya qilish, haqligiga muholiflarni ishontirish hatto boshqaruv san'ati bilan tanish bo'lgan tajribali mutaxassislar qo'lidan ba'zida kelmaydi. Shunday holatlarda boshqa yo'llar izlanadi. O'z g'oyasini yuqori turuvchi boshliq yoki jamoaga «kuch» bilan singdirish uslubi murakkab bo'lib, «Shtirlits uslubi» deb yuritiladi (ushbu usulni Shtirlits «salbiy qaxramon», dushman, lekin aqli Shelenberg bilan bo'lgan suhbatda qo'llaydi). Bu uslubning mohiyati shundan iboratki, majlis, yig'ilish yoki uchrashuvda «bilmagan» holda yechimning boshqa variantlariga o'z variantini ham qistirib qo'yib, «esdan chiqarish».

Agar boshlig' ingiz aqli bo'lsa, sizning bildirgan fikringizni muhimligini bilib oladi va keyinchalik uni kengaytirib, murakkablashtirib, aniqlik kiritib, o'zining fikri deb taklif etadi.

Kishi boshqalar fikridan ko'ra o'zining fikriga ko'proq ishonadi. Siz uchun mualliflik talashish emas, balki maqsadga erishish muhimroq emasmi? Bu uslubni aksariyat holda aqli xotinlar boshqa choralar topmaganlaridan so'ng qo'llaydilar. Ular erlarining har bir gapiga qo'shilib, ma'qullab, o'z gapiga kiritib oladilar. Ushbu uslubning boshqa variantini tajribali xizmatchilar yaxshi biladilar: sizning fikringizgacha oqilona va sizga foyda keltiruvchi boshqaruv qarorni to'g'ridan to'g'ri boshliqqa ko'rsatmasdan o'z ishingiz rejalariga kiritib qo'yish kerak. Bunday «o'yin»

natijasida tasdiqlangan rejangizda falon vaqtda sizga kerakli ishni tayyor qilish haqida yozuv paydo bo’ladi.

Agar o’z g’oyangizni juda yaxshi, inqilobi deb, unga mualliflik qilaman desangiz, unda mag’lubiyatga uchrashingiz aniq. O’z taklifingizni katta va muhim majlisda gapirib berganingizdan keyin, u qabul qilinganda ham hamkasblaringiz va boshlig’ ingiz tomondan qarshilik ko’rsatilishi aniq va siz o’ta «dono» kishiga aylanib qolasiz.

Ana shunday obro’ bilan boshqa yaxshi takliflaringiz ham qabul qilinishi amri mahol, xizmatdagি o’sishingiz ham to’xtab qoladi. Ming afsuski, juda yaxshi, bilimdon mutaxassislar aksariyat hollarda o’zlarining ilmiy maqolalari, ratsionalizator takliflarini «hammualliflari» bilan ro’yoblashtiradi. Lekin shunday qilmasang ham bo’lmaydi. Chunki bizning hayotimiz shundan iboratdir. To’g’ri, ba’zida bundan istisno hollar ham uchrab turishi mumkin.

## **21.6. «Sutdagи qurbaqa» uslubi**

*Umidingni uzma,*

*Ko’ngilni buzma!*

*Xalq maqoli*

Hayot joyida turmaydi, tevarak-atrofimizdagи dunyo uzlusiz dialektik rivojlanishdadir. Ijtimoiy taraqqiyot bir tekis kechmaydi, jamiyatning rivojlanishi ko’p turdagи jarayonlarning bir-biri bilan bog’liq bo’lgan harakat natijasidir. Bunda eng muhim rolni odamlar faoliyati hal qiladi. Jamiyat hayotining barcha tomonlari – ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatidan tortib oilaviy munosabatlargacha – doimiy izlanish, tasodif, xato va yangiliklardan iboratdir. Odam doimo o’zgarayotgan muhitga moslashish uslublarini qo’llashi lozim.

Ba’zida hayotda kutilmagan voqealar (ishdagi kamchiliklar, kasallik, oilaviy mojarо) sodir bo’lib, hayot me’yorlarining buzilishiga olib keladi. Odam ushbu

favqulotda holatdan chiqib ketish yo'lini izlaydi, hayajonlanadi, o'rganilgan uslublarini qayta-qayta qo'llashga muvaffaqiyatsiz urinadi, yangi xatolarga yo'l qo'yib, boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

Ushbu holatni bir misol yaxshi izohlab beradi: gorizontal yotgan butilkaga asal ari va pashshalarni solib qo'yishdi. Dono hisoblangan asal arilar holdan toyguncha shishaga o'zlarini uravergan, pashshalar esa tartibsiz aylanaverib, birozdan keyin butilka og'zidan chiqib ketgan. Murakkab, o'ziga xos sharoitda an'anaviy yo'l bilan muammoni yechish qiyin bo'ladi, shuning uchun yangi uslublarni qidirish zarur. Tartibsiz tajriba va xato uslub doimo ham istalgan natija beravermaydi.

Ishi o'ngidan kelgan katta firmalarda uzlucksiz rivojlanish kafolatlangan degan ishonch tug'iladi. Bozorda raqobatdosh mahsulot paydo bo'lmasligiga ishonib, asosiy e'tiborni ishlab chiqarishdag'i sarfni kamaytirishga qaratiladi. Bunday o'z-o'zini tinchlantirish firmani turg'unlik va tanazzulga olib kelishi mumkin.

Tashqi muhitga moslasha olmaslik chet el korxonalariga ham hos: hozirgi 500 yirik amerika kompaniyalari 50 yil oldin yo'q edi.

Ta'minlangan va tinch oilada xotin arning o'ziga va bolalariga bog'lanib qolganligiga ishonib, o'ziga qaramay qo'yadi. Natijada ayol nafosati va nafis ligi, unga bo'lgan muhabbat yo'qoladi. Hech narsa yoqmay yurgan turmush o'rtog'i bilan munosabatni aniqlagach, xotin dono va hamisha ham holis fikrga ega bo'lмаган, onasi bilan o'z ahvolini muhokama qiladi, keyin yaqin dugonalarining maslahatini oladi. Lekin hamisha ham to'g'ri qarorga kelmaydi. Qarorni qabul qilsa ham kech bo'ladi.

Xotin nima bo'lsa bo'ldi deb, o'z dardi bilan qolib ketadi. Natijada oila buziladi.

Tanazzul yuzaga kelganda kishida mahkumlik kayfiyati yuzaga keladi, qo'llari ishga bormay, irodasi bo'shashib ketadi. Ba'zida kishida doimiy ikkilanish yuzaga kelib, tanlash qobiliyati yo'qoladi, og'ir psixik kasallikka duchor bo'ladi. Bu ahvolda tanazzulga uchrash aniq gap. Misol tariqasida ko'zadagi sutga tushib ketgan ikki qurbaqani es lash joiz. Biri ahvol juda og'irligini ko'rib, kurashmasdan cho'kib

ketgan. Ikkinchisi to'rt oyoqlarni tez harakatlantirib, saryog' hosil qilibdi va uning ustidan sakrab, ko'zadan chiqib olibdi. Qurbaqaning tirishqoqligi va g'alabasi haqidagi hikoya boshqaruv san'atining bir uslubiga nom berdi. Iloji yo'q bo'lган sharoitning o'zi yo'q, kishi eng murakkab sharoitlarda ham yo'l axtarish kerak va oxirigacha kurashish kerak. Qurashgan nafaqat sutdan yog' xosil qiladi, balki kerak bo'lsa, tog'ni talqon qiladi ham.

«Sutga tushgan qurbaqa uslubi» yoki «miya hujumi uslubi» favqulotda nooddiy qaror qabul qilishda ishlatiladi. Uslub sharoitga nooddiy nuqtai nazardan qarashni rag'batlantiradi. Uning mazmuni qo'yidagidan iborat: muammo bilan tanish bo'lган bilimdon mutaxassislar majlisga chaqiriladi, masalani yechadigan har qanday fikr aytilishi taklif etiladi. Aytiladigan fikrlarni tanqid qilish man etiladi, chunki majlisning maqsadi sifatga emas takliflar soniga qaratilgan.

Ma'qul bo'lмаган г'оялар тahlil qilib qoldiriladi. Bu guruh ishining natijasi shu muammo ustida mustaqil ishlayotgan har qanday mutaxassis ishidan samaraliroq bo'ladi, chunki guruhda aytilgan bir fikr boshqa fikrga o'ziga xos turtki beradi.

## 21.7. «M» uslubi

*Ko'z ko'zga tushsa,  
Muhabbat yurakka tushadi.  
O'zbek xalq maqoli*

Har bir kishi jamiyatda martabali bo'lishni, obro' orttirishni xohlaydi, boshqalar olqishiga sazovor bo'lishga intiladi. Hatto, o'zining intellektual va ma'naviy imkoniyati oz deb bilgan kishi tevarak-atrofdagilar, qarindosh, do'st, hamkasblar unga e'tibor bersa xursand bo'ladi.

Jamiyat va oilada obro' orttirish uchun asosiy ma'naviy qadriyatlar bo'l mish olijanoblik, haqiqatgo'ylik muhim ahamiyat kasb etadi. Tevarak-atrofdagilarga

hurmatda bo'lish, kamsuqumlilik, intellekt, yuqori madaniyat kishiga jamiyatda o'sishi uchun katta yordam beradi.

Shaxs erkak yoki ayol bo'lishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Ravshanki, erkak kishi faoliyati ayol kishi faoliyatidan ajralib turadi. Erkakning ba'zi bir kamchiliklarini kechirish mumkin. Ayollar oljanob erkak bo'lgan kishilarni yoqtiradilar. Erkaklar esa ayollarga xos bo'lgan fazilatli ayollarni yoqtiradilar.

Tevarak-atrofimizdagi yomon, iflos kiyim kiyib, sasib yurgan erkaklar, kosmetika, yaxshi kiyimni inkor etib, «tabiiy go'zallik» tarafdori bo'lgan ayollar kishida yomon taassurot qoldiradi.

YAxshi kiyim odam ko'rki ekanligini hech qachon unitmaslik lozim. Toza, mos o'tirgan kiyim yaxshi kayfiyat tug'diradi, kishiga jozibadorlik baxshlaydi. Har bir ayol odobli, yaxshi kiyingan boshliqning iltimosini ishtiyoq bilan bajaradi.

Jozibadorlik ozmi ko'pmi har qanday odamga xos xususiyat. Shu masalada «chiroyiga moy surib yeydimi», «chiroyi bo'lmasa ham, aqli bo'lsin» kabi turli xil iboralar bor. Har bir ayol, har bir erkakda ham o'ziga xos go'zallik, o'ziga xos jozibadorlik bor.

O'spirin katta kishilarga taqlid qiladi, bolalar o'zlarini ko'rsatish uchun qo'pol qiliqlar qo'rsatadi, qizlar diqqat markazida bo'lishni xohlaydilar, soch, tirnoqlariga ko'p e'tibor beradi. Ayollar tozalik, atirlarning nafis hidi, jozibadorlik go'zalligi nima ekanligini yaxshi tushunadi.

Dunyo go'zal tovushlarga nihoyatda boydir, qush sayrashidan to Motsart simfoniyalarigacha. Agarda tabiat sizga jozibali ovoz bergen bo'lsa, undan uyalmasdan samarali foydalanib, odamlarni chiroyli qo'shiqlaringiz bilan xushnud qiling. Qo'shiqning shirin nolasi, ayolning jozibali ovozi hali hech kimni befarq qoldirmagan.

Aqli va tajribali erkak ayol yuziga xusn qo'shadigan ko'z ilg'amas belgisini topa oladi, sevgi ko'zlarini bilan uni bir lahza tomosha qilganda ayol buni chin dildan sezaga oladi. Erkakni rom qilgan narsa bu ayolning jozibadorligi va shirin so'zidir. Vaqt o'tib bu qiziqishda sifatiy o'zgarishlar bo'lish ehtimoli bor. Natijada muhabbat

yuzaga keladi. Ayol bilan erkak o'rtasida qiziqish uyg'onishni «M» uslubi deb atab, u jiddiy tadqiqlarni talab qiladi.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar**

1. O'z-o'zini tarbiyalash uslubini qo'llash o'zini oqlaydimi? O'z-o'zini tarbiyalash uslublari haqida nimani bilasiz?
2. Insonga ta'sir qilish uslubining qaysi biri muhim va samaraliroq? Nima uchun?
3. Uch raund uslubini ishlatib, sharoit modelini yasab, o'z harakatingiz algoritmini ishlab chiqsa olasizmi?
4. "M" uslubini doimiy hayotda qo'llash kerakmi? Nima uchun?

### **22-mavzu. Ishbilarmonlikda muomala madaniyati**

*Boshqaruv san'atidagi eng asosiy narsa – odamlarda g'alaba qozonish ishtiyoyqini uyg'otish. Odamlarda o'z-o'ziga baho*

*berish, mag'rurlanish hissiyoti paydo bo'lib, g'oliblarga xos munavarlik bo'lishi kerak.*  
***Stek Djek «Menejment haqida mislar»***

## **22.1. Ehtiyot bo'ling! – Atoqli otlar**

Boshqaruv uslubidan qat'iy nazar, ba'zi usullar borki, ularni qo'llaganda qo'l ostida ishlagan muholif xodim hamkor, hamfikr, hatto maslahatdoshga aylanib qoladi.

Shu usullaridan biri – rahbar qo'l ostida ishlayotgan xodimga hurmat bilan ismi-sharifini aytib, murojaat qilishdir. Bunday attraksiyaning (munosabat) psixologik sxemasi juda sodda: kishiga e'tibor berib, ism-sharifini aytib, murojaat qilish unda izzatga talab hissiyotini qondiradi, uni shaxsga aylantiradi. Natijada ijobiy hissiyot yuzaga kelib, shu hissiyotni uyg'otgan manbaga nisbatan minnatdorchilik paydo bo'ladi, muomalaning kerakli interaktiv tartibi ta'minlanadi.

Agarda kishining ichki dunyosiga haqiqatan qiziqish bildirilsa, unda o'zini ma'naviy dunyosi ham boyishi haqiqatdir. qiziqarli, madaniyatli, bilimdon kishi bilan suhbat qursangiz o'zingizga bo'lgan hurmat oshadi. Hurmat katta ta'sir kuchiga ega. Hatto eng oddiy ayolni malika desangiz, u malika bo'lishga intiladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har qanday tilda kishi uchun o'z ismi eng yoqimli va eng muqaddas so'zdir. Amir Temur unga xizmat qilgan yuzlab jangchilarining ismini, ishtirok etgan jangi, odatlarini bilar edi. Shu tufayli jangchilar o'z sarkardasini yaxshi ko'rар, hatto jonini ham ayamas edilar.

Turli mamlakatlarda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos an'ana shakllari rivojlangan. Masalan, Rossiyada o'z rahbariga ismi-sharifini aytib, murojaat qiladi, qator yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Vengriya) familiyasi yoniga mansab, kasbini ham qo'shib, «injener Myuller, usto Sabo», deb chaqiradi.

Finlyandiyada egallagan lavozimdan qat'iy nazar bir-biriga «sen», deb murojaat qiladi. Qator amerika firma xodimlari – prezidentidan tortib, oddiy ishchisigacha faqat ismi-sharifi yozilgan ko'krak nishonini taqib yuradi. Ular bir-birining ismini aytib, murojaat qiladi. Xizmat kabineti eshiklarida ham lavozimlari yozilmaydi.

Ishbilarmon va yaxshi tarbiya ko'rgan odam o'z stoli ustida hamkasaba va xodimlarning lavozimi, ismi-sharifi, hatto tug'ilgan kuni yozilgan ro'yxat bo'lishi kerak. Hamkasabaga «sen»lab gapirish hurmatsizlik, kulgili hisoblanadi. Rahbar xato qilishi, aldanishi mumkin, lekin boshqalarga kulgi bo'lishi mumkin emas. Manmanlikka o'tish rahbar uchun obro'ini ketkizish bilan tengdir.

## **22.2. Manmanlik va xushomad**

*Manmanlik qilib netarsan,*

*Obro'ingdan ketarsan!*

*Xalq maqoli*

Birovga kulgi bo'lish rahbar oxiratining boshlanishi. Odamlar tez vaqtda bo'sh rahbar kamchiligin bilib oladi, uning ustidan kuladi, gaplarini askiya qiladi. Ko'p rahbarlar og'zaki yoki yozma buyruq berayotganda «men» yoki «biz» so'zlarni ishlatalish mumkin emasligini yaxshi biladi, lekin avtoritar boshqaruv uslubini qo'llashda ba'zilar bunga rioya qilishmaydi.

Manmanlikdan qutulish uchun ichki madaniyat, rivojlangan intellekt, o'z obro'yini qadrlash kerak bo'ladi. Manmanlik bilan donolik, yaxshi tarbiya bir-biriga zid xususiyatlardir. Insofililik, oriyat iste'dodli kishiga xos bo'lgan fazilatlardir. «Men boshliqman!», «Mening aytganim aytgan, deganim degan!» kabilida ish tutmaslik kerak.

Qadimgi Rumda Korneliy Tatsit «Men aytdim» o'rniga «Omnium consensu» – «barchaning roziligi» shiorini taklif qilgan edi.

«Men» so'zini ko'p ishlatish boshqalarga yoqmasligi hammaga ayon. Shu bilan birga Nyu-York telefon kompaniyasi tomonidan o'tqazilgan so'rovlarda telefon orqali bo'lgan 500 suhbatda «men» so'zi 3990 marta uchragan! Dunyoqarashi cheklangan odamlar doimo o'z shaxsiga boshqalar e'tiborini jalb qilishga urinib, «Men o'zimni yaxshi ko'raman, chunki men yaxshiman», deydi. Faqat o'z haqida o'ylab gapirgan odam qancha ma'lumoti bo'lmasin, bari bir madaniyatsizdir. Har bir tanqidga ustamonlik bilan javob berib, har qanday muammoni bir zumda yechadigan boshliqning muammo haqidagi tushunchasi yuzaki va sayoz bo'ladi. Eng yaxshisi tez javob qaytarmasdan, har bir taklifni o'ylab ko'rish kerak. Aks holda xodimning fikri, izlanishlari diqqatga loyiq emasdek tuyuladi.

Buyruqboz, qat'ian uslub, odatda buyruq, ko'rsatma berilganda ishlatilib, harbiylarga xosdir. Bu uslubni bo'lsa-bo'lmasa qo'llash harbiy boshliqning past madaniyati, manmanligidan dalolat beradi. Armiya boshliqlarining ana shunday xattiharakati, qilmishlari ichak-uzdi latifalarga asos bo'lib kelmoqda.

Ba'zi qarorlar instinct va reflekslarning biologik mexanizmlari yordamida, avtomatik tarzda qabul qilinadi. Masalan, agar qo'lingiz biror bir qizigan narsaga tegib ketsa, hech qanday boshqaruv san'atining buyrug'isiz qo'lingizni tortib olasiz.

Qarolarning aksariyat qismi tavakkal va noaniqlik sharoitda qabul qilinadi. «Katta foiz to'laymiz», deb va'da bergen bankka omonatni qo'yish mumkinmi? Mahsulotni bozor sharoitini o'rganmasdan sotishga olib chiqish kerakmi? Odatda, bunday qarorlar qabul qilinishi so'rov o'tkazish yoki bozorni o'rganish uchun vaqt tig'izligida yoki qaror qabul qiluvchining yalqovligiga borib taqaladi. Qarorlar qabul qilishning eng oddiy usuli qur'a tashlashdir. Ming afsuski, inson qaror qabul qilishda shu usuldan hozirgacha foydalanadi.

Qaror qabul qilishning eng qadimgi va ko'p ishlatiladigan uslubi – sinab ko'rish va xato uslubidir. Uning ustivorligi muvaffaqiyatsiz sinovlar yordamida ijodiy tafakkurni rag'batlantirishdadir. Uslubning muvaffaqiyati odamning qobiliyati

va sinovlar natijasini xotirada eslab qolish xususiyatiga bog'liq. Ushbu uslubga qiziqish tezkor EHMLar paydo bo'lgandan keyin yanada oshdi. Variantlarni oddiy almashtirish yordamida kerakli yechimni olishga umid bog'langan edi. Ijtimoiy hayotda bu uslub tiklab bo'lmas xatolarga olib keladi. Erta turmush qurish, ajralish miqdori ko'payishi natijasida yetim bolalarning oshib ketishi buning yaqqol isbotidir.

Qaror qabul qilishni eng qadimiylar uslublaridan biri obro'ga ega bo'lgan sub'ektga murojaat qilish. Qadimda odamlar qushlar uchishiga, bashoratlarga qarab bemalol qaror qabul qilardilar. Bugungi kunga kelib, ularning o'rnini folbin, ekstrasens, sehrgarlar egallab olgan.

Shu bilan birga, obro'li sub'ektga murojaat qilish oqilona mazmunga ham egadir. Advokat, vrach yoki bo'lmasa har qanday professional mutaxassis jamiyatimizda katta obro'ga ega bo'lib, qaror qabul qilishda ular aytgan fikriga qo'shilmasdan bo'lmaydi.

Quruq gap, ayyorlik, bezbetlik yoki qo'pol kuchga asoslangan qaror obro'li sub'ektga ishora qilishidan qat'iy nazar qarshilikka uchraydi. Afsuski, odamlar manmanligi o'z-o'zini maqtash, birov maqtovidan lazzatlanish tufayli yuzaga keladi. Bunday xususiyat yoshlikda shakllanadi, o'sha davrda bola ota-onas, mehmonlar olqishini olib, she'r aytadi, qo'shiq kuylaydi, raqsga tushadi va keyinchalik ham doimo diqqat markazida bo'lishni xohlaydi.

Xushomad murakkab hodisa bo'lib, qo'pol xushomad odamda nafrat uyg'otadi. Nafis, ustalik bilan qilingan xushomadga kishi qarshilik ko'rsatolmaydi.

Xushomad sigaretaga o'xshaydi: agar uni ichga chuqur tortmasa havfli emas, lekin kim o'rganib qolgan bo'lsa doim unga ehtiyoj sezib turadi.

Madaniyati past, intellekti cheklangan kishilar xushomadni tez va osonlikcha qabul qiladi.

Xushomaddan sal yuqoriqda maqtov turadi. Maqtov san'ati odamlarda doimo yaxshi kayfiyat uyg'otgan. Ayollar did bilan, sharoitiga qarab aytilgan maqtovni juda yoqtiradi.

### **22.3. Odamlarga bo’lgan qiziqish**

*Aholi ahwolidan ogoh bo’ldim, ulug’larini  
og’a qatorida, kichiklarini farzand o’rnida  
ko’rdim.*

***Amir Temur***

O’sha paytida hali hech kim tanimagan Missouri shtatining fermeri Deyl Karnegi katta va tajribali odamlarning boshqaruv san’atiga o’rgatish uslublarini taklif qilib, dunyoga mashhur bo’lib ketdi. «Qanday qilib do’st ortirish va odamlarga ta’sir qilish mumkin» kitobi o’nlab xorijiy tillarga tarjima qilingan va millionlab nushada chop etilgan.

Kitobning birinchi qoidasida «Boshqa kishilar bilan chin qalbdan qiziqing» deyiladi. Hayvonot dunyosidagi kishining eng sodiq do’sti – itlar haqida shunday deyilgan «Siz uni ko’chada uchratib, oldiga yaqinlashganingizda u erkalanib, dumini o’ynatadi. Agar siz boshini sillasangiz, u nihoyatda xursand bo’lib, sizga bo’lgan muhabbatini harakatlar bilan ko’rsatishga intiladi. Bunday sodiqlikda hech qanday manfaat yo’qligini siz juda yaxshi tushunasiz. Hayvonlar ichida yashash uchun faqat it mehnat qilmasligi, odamga moddiy foyda keltirmasligi haqida o’ylab ko’rganmisiz? Tovuq tuxum qo’yadi, sigir sut beradi, bulbul sayraydi, it esa sizga bo’lgan sodiqligi, muhabbatи tufayli yashab keladi».

Bir-biriga bo’lgan qiziqish inson hayotining asosiy ko’rinishidir. Tevarak-atrofimizdagи kishilar o’zlariga xos qiziqish o’yg’otadi va hayotdagi eng yaxshi quvonchlardan biri – ana shu qiziqarli odamlar bilan muloqotda bo’lishdir.

Boshqaruv san’atining yana bir amaliy maslahati ishda juda qo’l keladi: jamoada sodir bo’layotgan barcha norasmiy voqealar (tug’ilgan kun, o’lim, pensiyaga chiqish va boshq.) haqidagi axborot tayyorlab qo’yishni kotibiga yotig’i bilan aytib, mas’uliyatni unga yuklash kerak.

Ish kunining boshida 5-10 minut vaqtini telefon orqali tabriklashga yoki ta'ziya bildirishga sarf qilinsa, rahbarning hurmati, obro'i oshadi. Bunday oddiy va sodda usul sog'lom va yaxshi psixologik muhit yaratadi, odamlarda shu jamoaga nisbatan yaxshi hissiyot uyg'onadi, mehnatga bo'lgan sababiyatlar kuchayadi.

Xushmuomalalik va muloyimlik har bir rahbarga qo'yilgan xizmat talabidir.

Rahbar va xodimlar o'rtasida ishonchli va yaxshi munosabatlar o'rnatish boshqaruvning samarali usullaridan biri. Gap shundaki, xodim bilan ochiq va uzoq muddat davomida bo'lgan suhbatda, uning qiziqishi, muammolari, maqsadlari aniqlanadi. Suhbatning oxirida rahbar xodimdan aytgan narsalarini qog'ozga tushirib berishga va unda tashkilotning rivojlanish istiqboli va xodimning undagi rolni aks ettirishni iltimos qiladi.

Bu iltimosni yozma ravishda tayyorlashda xodim shu jamoa, tashkilotga o'zining kerakligini his etadi, o'z takliflarini tizimlaydi va ba'zida ishlab chiqarish muammosining noan'anaviy yo'llarini ishlab chiqadi.

Xodim kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni tahlil qilib, muammolar yechishda o'z variantlarini taklif etadi. Ma'lum darajada ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi, rahbar esa o'z navbatida umumiy ish bilan juda qiziquvchi kishi nomini oladi. Afsuski, aksariyat hollarda odamlar o'rtasidagi munosabat shaxsiy manfaatga bog'langan bo'ladi: agar shu kishi kerak bo'lsa, undan o'z manfaatiga erishish uchun har qanday yo'l bilan foydalanishga, agar bunday odam to'siq bo'layotgan bo'lsa, undan har qanday yo'l bilan qutulishga harakat qilishadi. Kishiga bo'lgan qiziqish uning jamiyatda egallagan o'rni bilan belgilanadi. Og'ir sharoitda «sadoqatli do'stlar» soni, ularning e'tibori, salom-aligi qisqarib ketadi. Kuchli kishiga laganbardorlik qilish, bechora bilan hisoblashmaslik sotqinlikka teng bo'lib, kishilarda nafrat uyg'otadi.

Qish kunlari qor bilan o'rangan daraxtlarga, novlardan javohir kabi yarqirab osilib turgan sumalaklarga qarab havas qilamiz. Quyosh muzni yarqiratadi, unga o'ziga xos go'zallik, nafislik ato etadi. Ikki tamonlama aloqa bo'limganda edi, quyosh sovuq nurlarini sochib, cumalak esa bir muz shaklida osilib turar edi.

Boshqaruv san'atida ham o'zaro hamkorlik, o'zaro aloqa odamlarga bo'lgan qiziqish juda katta ahamiyatga ega.

## 22.4. Tinglash sa'nati

*Tinglashga o'rghanib ol, o'shanda yomon  
gapiradigan odamdan ham foydalana  
olasan.*

**Plutarx**

Kunlardan bir kuni Suqrot oldiga bir yigit suhandonlik sirlarini o'rghanish uchun kelibdi. Uning gapini eshitib turib, Usta o'qitish uchun ikki barobar narx belgilab, shunday debdi: «Avval seni tinglashga, keyin esa yaxshi gapishtisha o'rgatish kerak».

Haqiqatan ham suhbatdoshini odob bilan tinglashni hamma ham bilmaydi. Tinglash – bu katta san'atdir. Suhbatni davom ettirishning eng yaxshi yo'li suhbatdoshni tinglashdir.

YAna Karnegiga murojaat qilamiz. «Agar odamlar sizdan qochib yurishini, ustingizdan kulishini, hatto yomon nom chiqarishini istasangiz — hech kimni, hech qachon ko'p tinglamang. O'zingiz haqida gapiravering. Suhbatdoshingiz gapiroyotgan vaqtda miyangizga biror bir fikr kelib qolsa, uning gapini tugashini

kutmasdan gapiring. U sizdan aqlli emas. Sizga shartmi, vaqtingizni sarflab, uning ahmoqona gaplarini eshitish?

Uning gapini birdan bo'lib tashlang. Esda tuting: siz bilan suhbatda bo'layotgan kishining birinchi galda o'z muammolari qiziqtiradi. Uning uchun tish og'rig'i Afg'onistonidagi ocharchilikdan ham muhimdir, bo'ynidan chiqqan chipqon Yaponiyadagi zilziladan ham ustunroq turadi».

Nima uchun odamlar bir-birini tinglashni xohlamaydi? Ahir bu qiyin ish emas-ku! Bunday «kar»likning sabablari juda ko'p. Shulardan eng asosiysi – aksariyat kishilar o'zlariga gapirgisi keladi, chunki faqat gapirayotgan kishida eng dono fikr, aniq dalillar bor, faqat u biror-bir narsaga to'g'ri baho berishi mumkin. Shuning uchun ham bunday shaxslar suhbatdosh gapi tugashi bilan tashabbusni o'z qo'liga olib, faqat o'zi gapirib ketadi.

Ko'p hollarda suhbatdoshimiz fikrini aniq ifoda qilolmayotgandek tuyulib, unga yordam bergingiz keladi. Haqiqatan ham suhbatdosh tiniq, ravon gapirmasa, biz o'zimiz gapira boshlaymiz. Shu narsa aniq bo'lganki, qo'shiqni yaxshi ovozi yo'qlar kuylashga harakat qiladi, falsafiy mavzularni biror-bir ma'lumoti bo'lмаганлар мухокама qilishni yaxshi ko'radi, yomon gapiradiganlar ko'p gapirishga harakat qiladi.

Shunday holatlar bo'ladiki, suhbatdoshingiz sizga yoqmaydi, uzuq-yuluq nutqi, fikrining sayozligi, xatti-harakati, gapirish ohangi yomon ta'sir ko'rsatadi. Suhbatdosh haqida salbiy xulosaga kelib, gapini tugatishga imkoniyat izlay boshlaysiz.

Siyosat, diniy ta'limot, meditsina «bilimdonlari» borki, ular krishnaitlar ta'limoti, biror-bir siyosiy arbobning donoli, urinoterapiyaning mo''jizasi haqidatо'xtamay gapiradi. Suhbatdoshlarda bu axborot hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Ular faqat «tushunarli» degan gap bilan chegaralanib qolaveradi.

Samarali nutqiy muloqot o'rnatishga nafaqat psixologik, ijtimoiy, siyosiy to'siqlar, balki suhbatdoshlarning etnomadaniyat farqliklari ham halaqit beradi.

Afsuski, tegishli xatti-harakat modellariga aylangan ushbu farqliklar boshqa millat, boshqa madaniyatli kishiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida kech o'yaymiz. Ba'zida bu omillar tushunmaslikka, katta qarshilik ko'rsatishga olib keladi.

Bir-birini tushunishga imo-ishora, qarashlar, jilmayish, qo'l harakatlari ham yordam berishi mumkin. Shu bilan birga qator xalqlarda nonutqiy muloqotlar turli mazmunga ega bo'lib, tushunmaslikka olib kelishi mumkin.

Tajribali kishi boshqaruv san'ati tavsiyalarini, shaxslararo muloqot, empatiya (muholifning ichki dunyosiga kirib borish) uslublarini har qanday sharoitda, ya'ni uyda, oilada, jamoada, do'stu-dushman orasida qo'llashi lozim.

**Tinglash** talablarini inkor qilish noxush natijalarga olib kelishi mumkin. «E'tibor bilan tinglash kerak. Vositachi kompaniya bilan ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'rtaсидagi farq mana shunga asoslanadi». Shaxslararo muloqot san'ati tinglashni o'rghanuvchilarga muayyan tavsiyalarni taklif etadi:

- muhimmi, suhbatdoshingiz ko'ziga muloyimlik, uni tushunadigan bo'lib qarang, qisqa, qiziquvchan savol bering, unga hamdard bo'ling;
- suhbat mavzusidan chiqib ketmang, aytilgan narsani tanqidiy tahlil qiling, chunki buning uchun sizning vaqtingiz bor;
- eshitgan narsalaringizni barchasini esda tutishga urinmang – bu befoya, chunki xotira suhbatda aytilgan 5-6 asosiy faktlarni eslab qolish imkoniyatiga ega;
- qisqa savol bilan suhbatdosh monologini o'zingizga kerak bo'lgan yo'lga burish muhimdir. Donolik bilan berilgan savolga suhbatdosh ijobiy javob berishi kerak;
- vaqtি-vaqtি bilan «tushunarli», «juda qiziq» kabi gaplarni aytib, aks etish usulini qo'llash, ya'ni gapi rayotgan kishiga uning so'zlari bilan javob berish kerak, masalan, «Siz ..., deb o'ylaysizmi?»

Savollar berish yo'l-yo'riqlarni egallash ham katta foyda keltiradi. Bir qaraganda savol berish javob berishga qaraganda osonroq tuyuladi. Lekin aniq javob olish uchun mantiqiy savol berish kerak. Ko'p hollarda «Po'lat aka, qiyinchiliklar sababi nimada?», – kabi savol berish foydalidir. Bunday savollar suhbatdoshingizga

bo'lgan e'tibor va hurmatingizni namoyish etib, muammoni muhokama qilishga imkon tug'diradi.

Shunday savollar borki, unga yo rozilik, yo inkor javobini berish kerak. Bunday hollarda suhbatdosh asabiy lashadi, chunki suhbat so'roq shakliga o'xshab ketadi. Savollarni yumshoqroq tarzda qo'yib, suhbatdoshga tushuntirishga imkon tug'dirilsa, dialog samarali tus oladi.

Suhbatdoshga tanlash erkinligini beruvchi savollar mavjud. Masalan, suhbatdoshingizga yotig'i bilan «Keyingi uchrashuvimiz qachon bo'ladi? Seshanbami yoki chorshanba kunimi?», – degan savol berib, oqilona ish qilasiz.

Tinglash va savol berish mahorati savollarga javob berish mahorati bilan tengdir. Hayotda ko'p hollarda savol beruvchilar kishilarning aksariyat qismini tashkil qiladi. Savol berib, odam o'zining qiziquvchanligi, bilimdonligini bildiradi. Mohiyatan ahmoqona, zahar, pismiqi savollarga javob berish juda qiyin kechadi. Bunday savollarga eng yaxshisi mutoyiba bilan javob qaytarish kerak. Uinston Cherchil bunday hazil-mutoyibalarga juda ustasi farang odam edi. Bir kuni ledi Astor: «Agar Cherchil mening erim bo'lganda, uning choyiga zahar qo'shib bergen bo'lardim», – degan gapiga buyuk ingliz – «Ledi, agar siz mening xotinim bo'lganingizda, men bajonu dil shu choyni ichib yuborar edim», deb javob qaytargan edi. Hazilomuz gapga jiddiy, jiddiy savolga hazilomuz javob berish odatda tavsiya etiladi.

Gapirish va tinglashdan tashqari jim turish, sukut saqlash ham juda muhimdir. Agar gapiruvchi kishi hissiyotga berilib ketib, haqorat qila boshlasa unga ataylab javob qaytarmasdan, sokinlik va xotirjam bo'lib, nafratlanmasdan uning ko'ziga qarab turish kerak. Gapirayotgan kishi ertami, kechmi shashtidan tushib, sizning irodangizga baho beradi va bu sizning yutug'ingiz bo'lib qoladi.

Sukut, kasbiy sirlarni saqlash xususiyatlariga nafaqat davlat havfsizligi bilan shug'ullanuvchi xodimlar, balki vrach, advokatlar ham ega bo'lishi kerak. Tinglash va savollarga javob berish san'atini eng avvalo odamlar bilan ish olib boruvchi shaxslar – idora xodimlari egallashlari lozim. Masalan, qabul qilingizga orden, medallar

taqqan chol kirib, qo'lidağı hassasini taqillatib, mojaro qilib keldi. Uzuq-yuliq gapidan uni kimdir hafa qilganligi ayon bo'ladi. Marhamat qilib uni arz-nadomatiga qulog soling. Balki unga shu narsa kifoyadir.

## 22.5. Haqiqat bahsda ro'yoblashadimi?

*Birovni ayiblamang, o'zingiz  
ham ayibdor bo'lmaysiz.*

### **Muqaddas kitob**

YAqingacha yaxshi, baxtli oila tinch, muammo-mojarosiz yashaydi degan tasavvur keng tarqalgan edi. Lekin shu narsa aniq bo'ldiki, oila, jamoada bahs, muammo-mojarolar umuman bo'lmasligi mumkin emas.

Akademik P.L.Kapitsa shunday degan edi: «Biror bir fanda qarama-qarshi nuqtai nazarlar, kurashlar bo'lmasa, bu fan qabriston yo'liga chiqib, o'zini dafn etishiga ketayotgan bo'ladi». Ko'p holatlarda bahs turli xil qarashlarni aniqlaydi, axborot beradi, alternativ variantni tanlashda yordam beradi. Bahs shaxs fikrining ro'yoblashishiga imkoniyat yaratadi, boshqa fikrlar bilan solishtiradi, shu tufayli uning hurmatga, o'z o'rnini topishga bo'lgan talablarini qoniqtiradi.

Lekin bir kishi biror narsani ta'kidlasa, ikkinchisi uni inkor qilsa va ikkalasi ham o'zlarini xaq deb bilsa, unda bahs mantiqsiz bo'lib qoladi. Bu holda haqiqatga erishishning ahamiyati yo'q bo'lib, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham g'alaba qozonish kerak.

**Bahs**, albatta, alternativ, ma'noli va natijali bo'lishi kerak, ana shundagina haqiqatga erishish mumkin. Jamiyatga eng katta havfni o'ysiz birdamlik tug'diradi. Bunday birdamlik natijasida so'zsiz itoatkorlik, loqaydlik, mansabdorga quday bo'ysinish yuzaga keladi.

Qadimgi us lublardan biri bo'lmish *devide et impera* (tarqoq qilib hukmronlik qil) nizoga asoslangan bo'lib, xozir ham boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri

bo'lib hisoblanadi. Nizoli sharoitda o'zingizga tegishli kuchlarni birlashtirib, raqib kuchlarini tarqoq qilishga harakat qilish kerak.

Hozirgi zamон nizo chiqarish ustalari raqib saflarida kelishmovchilik chiqarib, uning kuchini oson tarqoq qilib yuborishadi. Bunday holatda ular nafaqat raqib kuchlarini tarqoqlashtiradi, balki bundan o'z manfaatida foydalanadi.

Boshqaruv san'ati bilimdoni D.Karnegi qat'iyan dono tavsiya beradi «Bahslashmang!» Bu antiqa fikr juda chuqur mazmunga ega: bahsda ustun kelib, albatta yana bir raqib (raqiblar) orttirib olasiz.

Agar akangiz, onangiz, otangiz, o'rtog'ingiz sha'niga tosh otilgan bo'lsa-chi, mamlakatingiz, xalqingiz haqoratlanayotgan bo'lsa-chi? Unda nima qilish kerak? Qanday ish tutish kerak? Bahsdan bosh tortsa, unda o'z g'oyasiga bevafo bo'lib, tamoyillaridan chekingan bo'ladi. Bahsga ishtirok etishga ichki talab kuchli bo'lsa, unda qo'rmasdan jang maydoniga kirish kerak. Faqat bu bahsda mag'lubiyatga uchramaslikka harakat qilib, g'olib bo'lish lozim. Bahsda g'alaba qozonish yo'llari bormi? Bor bo'lsa, ular qanaqa? Bahsda oxirgi so'z siz tomondan aytishni juda xohlasangiz unda «Balki, siz haqdirsiz» deb, bahsni yakunlang. Lekin bu hamisha ham yordam beravermaydi.

Sharq va G'arb donishmandlari bahs, muloqot, suhandonlik musobaqalarida g'alaba qozonish uslublarining ko'plarini ishlab chiqqanlar. Bahs olib borishning strategiyasi bilan biz yuqorida tanishgan edik, endi uning «maxfiy quroli», ya'ni qo'llanayotgan uslublar bilan tanishamiz. Ular halo1 bo'lmasada, lekin samarali natija beradi.

Albatta, muvaffaqiyatli bahsning eng asosiysi – o'z nuqtai nazari to'g'rilingiga ishonish, dalillarning asoslanganligi va ulardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanishdir. Shu bilan birga qator taktik usullar borki, ularni bilish g'alaba qozonishga imkon beradi:

- kasbiy nutqqa o'tish, atamalar nozikligini namoyish qilish, ya'ni muholifni kasbkorlik tilini, tushunchalarini bilmasligidan foydalanish. Ushbu usuldan dasturchilar, bank xodimlari, santon, vrach, folbinlar ustalik bilan foydalanadilar;

- bahs mavzusini muholifning shaxsiy xususiyatlarini muhokamasiga o'tib, uning o'tmishdagi xatolari, chalasavodligi, ahloqi buzuqligi eslatiladi. Bunday bahsning nomardlik uslubi ayon, lekin ushbu uslub odatda g'alabaga olib keladi;
- «mantiqiy qo'porish» usulini qo'llash. Bahslashganda o'z pozitsiyasi kuchsizligini sezib, bahsga aloqasi bo'lman masalaga e'tiborni qaratishga urinib ko'rish, ya'ni tezisni almashtirish;
- bahsga sabab bo'lgan masalani umumiy foydas i haqidagi dalilni qo'llash. Bu usulni ishlatganda odatda ish zarar ko'rib, bahslashayotganlar uchun yaxshi oqibat bilan tugamaydi;
- kuch muvozanati buzilganda majburlash, siyosiy, ma'muriy, jismoniy kuchlar ta'siridan foydalanish;
- mehribonlik, rahm-shavqat, inson huquqi, umumiy maqsad va tamoyillarga sodiqlik eng oxirgi dalillardir.

Bahs olib borishning ushbu usullarini biliш, ularni, albatta, amalda qo'llash kerak degan gap emas, balki mohiyatini bilib, qarshilik ko'rsatish uchun foydalanishdir.

Bahs olib borish usullarini tahlil qilib «hujum qurollari», ya'ni o'z nuqtai nazari to'g'rilingini isbot qilish yo'llari bilan tanishdik. Shu bilan birga muholif dalillarini inkor qilish uslublari («himoya qurollari») bor bo'lib, ular aktiv qo'llanadi. Inkor qilishda o'zining fikri to'g'ri ekanligi isbot qilinmasdan, raqib dalillari xato ekanligi ochib tashlanadi va ularni barbod bo'lishiga olib keladi.

Inkor qilishning antik mumtoz usullaridan biri – «ad absurdum» – mantiqsizlik deb nomlanadi. Bu usulga binoan raqib ta'kidlari shartli ravishda to'g'ri deyiladi, lekin ushbu ta'kidni dalillar bilan solishtirganda uning yolg'on ekanligi ko'rinish qoladi. Demak, natijada asosiy ta'kid ham yolg'on bo'ladi. «Deylik, Ahmadov halol kishi». Lekin dalillar boshqa narsadan dalolat bermoqda. Mayli, bularga e'tibor bermaylik, Axmadov axir halol odam-ku! Lekin yana bir necha dalillar Ahmadov halol odam emasligi haqida dalolat bermoqda. Nima, ularni ham

e'tiborga olmaslik kerakmi? Yoki bo'lmasa, ohir oqibatda «Ahmadov halol odam emas», degan haqiqatni tan olishimiz kerakmi, yo yo'qmi?!”

Qarshi tomon keltirgan dalillarni tanqid yordamida yo'qqa chiqarish mumkin. Bunday hollarda e'tibor dalillarning shubhaligiga, ekspertizaning malakasizligiga, statistikaning asosli emasligiga va boshqalarga qaratiladi. Keyinchalik e'tibor tezisga qaratiladi, chunki dalillar fosh etilgandan so'ng tezislар ham yolg'onga chiqadi. Shuni aytib o'tish joizki, bahsda raqibingiz tan olgan dalil va faktlarni ishlating, qarshi tomon hurmatiga sazovor bo'lgan obro'li kishi fikriga murojaat qiling.

Agar ikki raqib bilan kurashish to'g'ri kelsa, unda kuchsizrog'i bilan ittifoqdosh bo'lish yo'llarini izlang va til topishishga harakat qiling, u bilan birgalikda kuchli raqibga qarshi chiqishingiz mumkin. Bahs olib borishning eng asosiy qoidasi ana shu fikrga asoslangan bo'lib, doimo raqib dalillarining asosini nishonga olishingiz kerakligini nazarda tutadi. Lekin bahsni biror bir xulosani rad etishdan boshlash kerak.

Xulosani rad etish asosiy tezis to'g'riliгини shubha ostida qoldiradi. Raqib fikrining parchalashni eng bo'sh joyidan boshlash lozim.

Oilada mojaro paytida savolga savol qaytarish odat bo'lib qolgan. «Sen nima uchun kech kelding?», – deydi g'azabi chiqqan er. «Senchi, sen kecha qaerda yurgan eding?», – deb, o'z navbatida savol beradi xotin. Bir qaraganda oddiy tuyulgan savolga savol qaytarish oddiy tuyulishi mumkin, lekin u ancha murakkab mazmunga ega. Shu savol bilan raqibga (bu yerda er) o'z haqligini isbotlashning qiyinchiligin (Onus probandi) yuklatilsa, yarim g'alaba ta'minlandi, deyavering.

Aksariyat ishlab chiqarish majlislari biror bir qaror qabul qilish bilan tugallanadi. Bu qaror loyihasini o'zingiz tuzgанингiz ma'qul. Muhokama, bahslardan keyin rais taklifi bo'yicha qaror loyihasi o'qilayotgan vaqtida an'anaviy «Asos sifatida qabul qilinsin» degan taklif kiritiladi va majlis qarorining taqdiri deyarli hal etilgan bo'ladi.

Mojaro, bahs, tortishuvda g'alaba qozonish imkonini beruvchi boshqa uslublar (qaror qabul qilishni cho'zish, sun'iy sharoit yaratish va boshq.) ham borki,

ular inson nomiga munosib emas. Lekin raqib harakati, kirdikorlarini o'z vaqtida bilib olib, o'zini himoya qilishga tayyorlanish har bir boshqaruv san'ati ustasining burchidir. Agarda siz mojaro, tortishuvga kirishgan bo'lsangiz muholifga hurmat ko'rsatib, bahsni olib boring, dushmaningizni do'stga aylantiring, do'stni ishontirish osonroq.

Qattiq va ayovsiz dalillarga yumshoq qiyofalar berishga hararkat qiling. Sizning dalil va mantig'ingiz bilan mag'lub bo'lgan kishiga bahsdan hurmatini saqlagan holda chiqib ketishga imkon tug'diringlar, siz sherni tutgan bo'lsangiz, uni dumidan ushlab turmasdan, qochib ketishga imkon bering.

## 22.6. Xushmuomalalik va shaxsiy jozibadorlik

*Bug'doy noning bo'lmasin,  
Bug'doy so'zing bo'lsin!*

*Xalq maqoli*

Kishi maqsadi – baxtli bo'lish. Kishilarda baxt tushunchasi turli bo'ladi: kimdir baxtni pul, kimdir ayol, kimdir sharob deb biladi. Ba'zilar baxtini ishida, ijodida, oilasida, bolalarida topadi. Balki, sevgan, yaxshi ko'rgan odamni baxtli qilish bu baxtdir. Lekin «Odamlar baxtli bo'lishga tayyormi?» – degan savol ustida aksariyat odamlar bosh qotirmagan.

Ishda, oilada odamning ruhiy tinchligi uning tashqi dunyoga bo'lgan munosabatiga, noxush voqealarga to'siq qo'ya olishiga bog'liqdir. Agarda odam doimo xushmuomalali, tabassumli bo'lib, boshqalarga yaxshi niyatda bo'lsa, uning hayoti, albatta, baxtliroq kechadi. To'g'ri, puli ko'paymaydi, tashvishlar ozaymaydi, tevarak atrof shavqatliroq bo'lomaydi, lekin o'ziga va o'zgalarga yaxshi niyat tilab yurgan kishi doimo niyatiga yetadi.

Madaniyatli kishi, eng avvalo, boshqalar haqida o'ylab, ularning ahvoli, fikri-hayoli bilan hisoblashadi. Bunda oliv mantiq bor. Ba'zilar esa, jamoa transportida ayolga joy berish, ko'cha-ko'yda qariyalarga yo'l berish, sotuvchiga yaxshi muomala

qilish, qo'shni bilan quyuq salomlashish yaxshi kayfiyat bag'ishlashini anglamaydilar.

Xushmuomalalik va insonning shaxsiy jozibasi tevarak-atrofdagilarni baxtliroq qiladi. Xushmuomalalik, shaxsiy jozibalik boshqaruv san'atining shaxs va jamoaga ta'sir qilish usullaridan biri hisoblanadi.

Odam bilan muloqotda bo'lgan ingizda o'rtalaring izdag'i farqlarga emas, balki umumiylar bo'lga tomonlarga e'tibor berish lozim. Xushmuomalalik odamlar o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlaydi, ishonchhsizlik, qo'rquv, jahlni bartaraf qiladi. Ruhiyatshunoslikda «oyna aksi» degan tushuncha bo'lib, unga muvofiq kishi suhbatdoshida o'ziga yoqib qolgan fe'l-atvorini, aql xususiyatlarini ko'radi. Bunday ma'naviy yaqinlik, dunyoqarash birligi natijasida ishonch, hurmat, do'stlik tuyg'ulari yuzaga keladi.

Shaxsiy jozibadorlik iste'dodli va tajribali rahbarlarga xos. Rahbarning o'z xodimlariga bo'lga mehribonligi, qiziqishi faqatgina tabassum, qo'l berib ko'rishi emas, balki ularga xizmatda o'sishga yordam berishga tayyor ekanligi bilan ham tasdiqlanishi kerak. Agar rahbar yuqori boshliqlar oldida erishilgan muvaffaqiyatlarda xodimlarning xizmati katta ekanligini ta'kidlasa, unda u holisona ish olib borayotganligidan, ishni to'g'ri tashkillashtirganidan dalo lat beradi.

O'z xodimini yuqori lavozimga ko'targan rahbar qayg'uruvchan, mehribon kishi nomini oladi. Aqli va iste'dodli xodimlarga diqqat e'tiborli bo'lish qiyin emas, lekin shuni esda tutish kerakki, har bir tizim mustahkamligi uning tashkil qiluvchi halqlar mustahkamligiga bog'liq. Bechora, yordamsiz kishilar haqida jon kuydirish har bir aqli va vijdonli rahbarning shaxsiy majburiyatidir. Hayotda qiynalib, yakka yashayotgan ayollar alohida e'tiborga loyiq bo'ladi, ular har bir ma'naviy yordam, yaxshi gapga yaxshilik qaytarishga tayyor bo'ladi, o'z rahbari haqida jamoada ijobiy fikr uyg'otadi.

Shunday savol tug'iladi: xushmuomala, hozirjavob, jozibali kishini tilyog'lamalik, nosamimiylikda ayblash mumkinmi? Bu savol mashhur «aktyor paradoksi»ga yaqin. Aktyorlar sahnada sodir bo'layotgan ichki xayajonlarni hayotda

ham kechirish kerakmi yo yo'qmi degan savol «aktyor paradoksi»ning mazmunini tashkil etadi. Bu savolni dunyoning mashhur kishilar – D.Didro, K.S. Stanislavskiylardan tortib, hozirgi zamon ruhiyatshunoslarigacha muhokama qilib kelmoqda.

Didroning fikricha, sahnada hissiyoti bilan tomoshabinlarni larzaga solib turuvchi aktyor to'la-to'kis o'zini boshqaruvga qodir bo'lishi kerak. Haqiqatan ham shundaymikan? Ma'lum darajada faylasuf fikri ham to'g'ri. Aktyor o'yini professional darajada bo'lib, u inson tuyg'usini to'laqonli aks ettirishi kerak. Lekin aktyor umr bo'yi hayajonli hayot kechiraversa, u, albatta, infarktga mutbalo bo'lishi aniq.

Aktyor o'z qahramoni bilan bиргаликда xushmuomala, jozibador bo'lsa, lekin hissiy muvozanatni saqlasa, bunday kishini ikki yuzlamachi deyishimizga haqimiz yo'q.

AQSh, yevropa yoki YAponiya jamoa arboblari omma oldida o'zlarining bor aktyorlik mahoratini ishga soladi. Xo'mrayib, jahli chiqib ommaga yomon ko'rinish yurgan kishi hech qachon siyosiy muvaffaqiyatga erisha olmasligini ular juda yaxshi bilishadi. Agar jahon liderlarining omma bilan bo'lgan muloqot davridagi xattiharakatlarini holisona ko'rsatsak, ularning odamlarga ta'sir usulari hurmatga sazovordir. Siyosiy liderlar uchun asosiysi – chin ko'ngilli bo'lish va shaxsiy jozibadorlikdir. Ikki saylov oldi kompaniyada Yirik kapital vakili Jeskar de Esten o'zining bor mahorat va imkoniyatlarini ishga soldi: televizor ekranlarida oila a'zolari, akkordeon bilan birga, metro poezdida, futbol maydonida tushgan foto suratlari ko'rsatildi.

Malika Diana fojiali halok bo'lganda, eri va qirol oilasiga nosodiqlik qilganiga qaramay, unga juda ko'p kishilar qayg'urdilar. Buning sababi – Diananing xushmuomalaligi, jozibadorligida edi.

Ko'p dono kishilar jozibadorlik sirini ochishga uringan edilar. Jozibadorlik – aql, farosat, ovoz shirinligi, qarash, jilmayish, nutq iste'dodi va bir necha shunga o'xshash inson qobiliyatları yig'indisi va yana nimadir.

Aniqki, yoshlik jozibadorligi, kuchsizlik jozibadorligi (kuchukcha, qo'zichoq, bo'taloq va boshq.), aql, xushchaqchaqlik jozibadorligi, ayol, erkak jozibadorligi bor. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ko'zbo'yamachi, firibgar, folbinlarning o'ziga hos jozibadorligi ham yo'q emas.

Jamiyatimizda hozir ham katta foyda evaziga uy, mashina sotib olib beruvchi jozibador, xushmuomalali firibgarlar soni juda ko'p. Bunday o'rtakashlar o'z san'atining sirlarini yaxshi biladi va shaxsga ta'sir etish uslublaridan ustamona foydalanadi. Lekin ushbu xushmuomala o'rtakashlarga ular taklif qilayotgan shartnomalarni firma, ofislarda tuzib, bank orqali rasmiylashtirishni taklif etib, litsenziya so'ralsa, ular tumtaraqay bo'lib qochishadi.

Bos iq, o'zi va o'zgalarga ishongan odamlar tabassumi yoshu-qarilarni go'zallashtiradi.

Tabassum – zamonaviy menejer quroli, u oilada va ishda yaxshi kayfiyat manbaidir. Tabassum ba'zida «assalomu alaykum» o'rnini bosadi. Lekin tabassum murakkab mazmunga egadir. Tabassum jilmayish, tirjayish, kulishlar bilan yonma yon turadi, faqat ular o'z o'rni va o'z vaqtida yuzga kelish bilan farqlanadi.

YOsh qizlar jilmayishi, tabassumi o'ziga xos jozibadorlikka ega bo'lsa, ba'zi kalondumog' rahbarlarning jilmayishi boshqacha mazmun kasb etadi. Umuman olganda, tevarak-atrofga nazar tashlasak, tabassumli, jilmaygan odamlar kamligi, xo'mrayib, norozi bo'lib yurgan kishilar soni ko'pligiga guvoh bo'lamic. Eng og'ir paytlarda ham hayotga tabassum bilan bir qaralsa, dunyo yorishadi, g'am-g'ussadan oz bo'lsa-da forig' bo'lasiz. Qissadan hissa: ko'proq tabassum qiling.

## **22.7. O'z xatosini qanday qilib tuzatish mumkin?**

*–Eshitdingmi, Eshmat lotereya o'ynab, "Neksiya" yutib olibdi?*

*–Adashyapsan. Eshmat emas Toshmat, "Neksiya" emas, yuz so'm, lotereya emas, karta o'ynab, yutmadi, yutqazib qo'ydi.*

***Latifa***

O'z xatosini qanday qilib tuzatish mumkin? Berilgan savol ramziy bo'lib, rahbar uchun tushunarsiz, chunki u «hech qachon xato qilmaydi». Agarda siz katta boshliq bo'lmasangiz, unda kamroq xato qilasiz. Karta o'ynaganda yutqazib, ohirigacha g'irromlik qilish mumkin, lekin birdaniga o'z mag'lubligini tan olsa ham bo'ladi. Ikkinchi variantni tanlash ma'qulroqdir. YOki siz chekayotgan sigareta gilamga tushib ketganidan jahli chiqqan xotiningizga, «Bu mening xatoim», – desangiz ma'qul. Agar bu gap yetarli bo'lmasa, «Bu mening eng katta xatoim», – desangiz olam guliston bo'ladi qoladi. Siz va xotiningiz yana bir noxushlikdan forig' bo'lasiz.

Hamkasaba yoki boshliq xatongizni ko'rsatganda siz hech qachon passiv himoya, o'z xatongizni inkor qilishga o'tmang, oqibati yomon bo'ladi. Bunday hollarda tashabbusni tez ravishda o'z qo'lingizga olib, tanqidiy ravishda xatongizni tan olib, «egilgan boshni qilich kesmaydi» kabilida ish tuting. Tan olingen xatongizni «Biroz shoshilib qolibman», «To'g'ri, umumiy xulosaga ta'sir qilish mumkin», – degan gaplar bilan tasdiqlasangiz sharoit har holda ancha yumshayadi.

Agar jamoa ishida uzilish sodir bo'lgansa yoki ijro etuvchi rahbar xatoga yo'l qo'ygansa, boshqaruv san'ati bu holda qanday tavsiyalar beradi? Boshqaruv san'ati qoidalari bunday holatlarda bor xatoni biror bir shaxsga to'nkamasdan o'z bo'yniga olishni ma'qul ko'radi. Bu odilona ishdir, chunki rahbar qo'lida nafaqat hokimiyat, balki unga butun tashkilot mas'uliyati yuklatilgan bo'ladi. Shuning uchun rahbarga ko'proq oylik to'lanadi, degan gap bor. Lekin tajribali ishlab chiqarish rahbarlari o'z bo'yniga xato mas'uliyatini olishni yomon ko'radilar.

Rahbar kishi o'z ishini yaxshi ko'rsa, ertangi kunini o'ylasa, jamoani hurmat qilsa, hech qanday mas'uliyatdan qo'rmasligi kerak, jasoratlik bilan bor zARBANI o'ziga qabul qilishi lozim – jamoa va yuqoridaqgi boshliq ham bunday rahbarni tushunib, qo'llab-quvvatlaydi. Rahbarning bu halol va vijdonli ishida nafaqat odamiylik, balki oqilona hisob-kitob ham bor, chunki vijdoniylik, oljanoblik, mardlik, ulug'vorlik xalq orasida doimo qadrlanib kelgan.

Bu xulosani yapon menejment tajribasi ham tasdiqlaydi. Boshqaruv sohasida yirik yapon mutaxassisi A.Morita shunday yozadi: «Odatda kompaniyada jiddiy xatoga yo'l qo'yilib, qonun buzilsa, iste'molchilar ishonchi yo'qolsa, barcha xatolarni kompaniya raisi o'z zimmasiga olib, iste'foga chiqib ketadi. Shunga qaramasdan bunday rahbarlar shaxsan xato qilgan deb, hech qachon hisoblanmaydi».

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish faoliyatningiz va oilaviy hayotingizda atoqli otlarni qo'llash moyilligini sezganmisiz?
2. YAxshi so'z va xushomad o'rtasida farq bormi? Hayotingizda bularni tez-tez qo'llab turasizmi?
3. Tinglash, bahs olib borishni bilasizmi? Xushmuomalalik va shaxsiy jozibalik ishingizda yordam beradimi?

## **23-mavzu. Chet el boshqaruv nazariyasi, amaliyoti va san'atining taraqqiyot bosqichlari va hozirgi holati**

### **23.1. «XX asr iqtisodiyotidagi mo''jiza» – nemis boshqaruv modeli**

Evropa menejmenti o'ziga xos bo'lgan muhim va o'rnak bo'ladigan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga boshqaruv sohasidagi Germaniya tajribasi o'zbek menejmenti uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu davlatning «Iqtisodiyot mo''jizasiga» kirishgan vaqtidagi sharoit O'zbekistondagi iqtisodiyot sharoitiga o'xshab ketadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya hududi va iqtisodiy makoni juda qisqarib, regionlar o'rtasidagi an'anaviy iqtisodiy aloqalar buzilib ketgan edi. Sanoatni tiklash, qochoqlarni joylash, inflyatsiya bilan kurash muammolari hal qilinishi lozim edi (shunga o'xshash sharoit O'zbekistonda ham yuzaga kelgan edi). O'z vaqtida Germaniyada amalga oshirilgan bozor iqtisodiyoti muholiflar va chap siyosiy kuchlar tomonidan qarshilikka uchradi.

Shu bilan birga iqtisodiyot rivojlanishning nemis modelini to'ppa-to'g'ri O'zbekiston sharoitiga ko'chirib, undan foydalanish noto'g'ri bo'lar edi. Bunga asosiy sabab yevropa, Tinch okeani hududidagi mamlakatlar o'z iqtisodiyotini erkin bozor munosabatlar asosida rivojlantirmoqda, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga nisbatan xususiy mulkdorlik tamoyillari qo'llanilmoqda. Bu mamlakatlarda har bir shaxs o'z ishini individual ravishda rivojlantirmoqda.

Germaniya bozor iqtisodiyotida mashhur bo'lgan DIM tamoyillari — bozor axboroti (information) asosida qaror qabul qilishdagi erkinlik (decision) va taqdirlash (motivation) tizimi qo'llandi. Xo'jalik boshqaruvning bunday yangi tamoyillarini O'zbekiston endi qo'llashga o'tmoqda.

**Ijtimoiy bozor iqtisodiyotini yaratish.** Ijtimoiy bozor iqtisodiyotining siyosati iqtisod vaziri Lyudovik Erxard nomi bilan bog'liq. U keyinchalik GFR ning kansleri lavozimida faoliyat ko'rsatib keldi. Ushbu siyosat asosini «Freyburg maktabi»ning (Valter, Oyken, Vilhelm Repke) konsepsiyasini va Alfred Myuller-Armakning bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy guruhlar ahvolini tenglashtirish lozimligi haqidagi ishlari tashkil qildi.

Germaniya iqtisodiyotining ko'tarilishi 1948 yilda valyuta islohoti va mashhur Marshall rejasini amalga oshirishdan boshlandi. Gamburg shahridagi pul va kredit masalasi bo'yicha mahsus bo'lim tomonidan mo'ljallangan va qatda pul islohoti boshlandi. «Gamburg rejasini ishlab chiqishiga o'ta mahfiy sharoitda L. Erxard rahbarlik qildi. Rejaning asosini AQSh pul islohotlarining loyihalari tashkil qilgan edi.

YAkunlovchi bosqichda 20 aprel 1948 yilda maxsus bo'limning 25 xodimi AQSh harbiy bazasiga ko'chirildi. 49 kundan keyin pul islohotining huquqiy va tashkiliy hujjatlari tayyor bo'ldi.

Islohotlashtirish bilan bir vaqtida 20 iyunda narxlarni erkinlashtirish ham boshlandi, bu esa tezda «qora bozor»ni yo'q qilishga va rejali ravishda bozor

munosabatlarini tadbiq etishga imkon yaratdi. Marshall rejasiga bo'yicha Germaniya valyuta va strategik tovarlar hisobida 1,5 mlrd. dollar hajmida yordam oldi.

**Iqtisodiyotda davlat boshqaruving roli.** Germaniya iqtisodiyoti qayta tiklanishida va bozor iqtisodiyoti uslublari qo'llaninishida davlat faol ishtirok etdi.

Bozor iqtisodiyoti shaxsiy mulk, ishlab chiqarish vositalari, erkin narxlar, raqobat va tashqi bozorga chiqishga tayanadi; davlat narxlarining mustahkamligini, iqtisodiy inqirozlar bilan kurashni, ijtimoiy adolat va monopoliyaga qarshi tadbir larning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Urushdan keyingi davrda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat muamolarini yechishda Germaniyada davlat rolini alohida ta'kidlab o'tish lozim:

- davlat iqtisodiy strategiyasi ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan bo'lib, «ijtimoiy tenglashtirish funksiyasini bajarishi lozim, chunki daromaddagi katta farqlar jiddiy ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lib, boylar yanada boyib, kambag'allar yanada qashshoqlashib qoladi». Ushbu tamoyil qarama-qarshilikka ega, chunki bozor erkinligi bozor faoliyatining natijasini erkin taqsimlanishini nazarda tutadi;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun daromadning aksariyat qismi soliq sifatida davlatga o'tmasdan, ishlab chiqaruvchi qo'lida qolishi kerak. Ishlab chiqaruvchi o'z ishini rivojlantirish, oilasing farovon hayot kechirish tashvishini o'z zimmasiga oladi, demak davlatning ijtimoiy hayriya funksiyalari, dotatsiya va imtiyozlar taqsimlanishi cheklanishi kerak;
- nemis davlat boshqaruving yana bir qoidasi murakkab va tashqi ko'rinishidan bir-biriga ziddir: ijtimoiy farovonlik o'sishi bilan birga ijtimoiy nafaqalar miqdori ozayib boradi. Har bir kishi o'zi uchun javob berishi lozim va faol hayot kechirish vaqtida mablag' yig'ib yoki nafaqa, sug'urta tizimini qo'llab, o'z qarilagini ta'minlashi kerak. Daromad ko'paygan sari davlat tomonidan ijtimoiy to'lovlar kamayib borsa, adolatdan bo'ladi, chunki davlat boy bo'lsa, yordamga muhtoj bo'lganlar soni kamayib boradi. Aytib o'tish joizki, ijtimoiy sug'urtaga

ketgan xarajat Germaniyada 1992 yilda juda katta mablag' – 1500 mlrd. nemis markasini tashqil qildi. Shu davrda ichki yalpi mahsulot qiymati 3000 mlrd. nemis markasiga to'g'ri kelgan edi. Shu bilan birga nemis larning fikricha, eng yaxshi hukumat davlat hokimiyatida ko'p o'tirib qolmasligi kerak.

**«Natijaga qarab boshqaruv».** G'arbiy yevropa, shu jumladan nemis kompaniyalarida, boshqaruvni tashkillashtirish AQSh kompaniyalariga nisbatan o'ziga hos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bunday farq boshqaruv nazariyasi va amaliyotining tarixiy taraqqiyot sharoitlari bilan izohlanadi.

Etakchi amerika kompaniyalari trest tuzilmalaridan tashkil topib, ularning firmalari mustaqil faoliyat qilish huquqiga ega emas edi. Mahsulotni yangilash, narxni o'zgartirish, uskunalarini almashtirish va o'rnatish kabi strategik masalalarni o'zlarini yechishga huquqlari yo'q edi.

Aksariyat yirik yevropa kompaniya, firmalari moliyaviy, yuridik jihatdan mustaqil bo'lib, ishlab chiqarish, tovarini sotish huquqiga to'la egadirlar. yevropa korporatsiyalari «Sanoat guruhlar»dan tashkil topib, ushbu tuzilma xususiyati ularning nomida aks etilgan. Urushdan keyin «I.G.Farabenn industri» sanoat giganti yuridik jihatdan uchta mustaqil firmalarga bo'lindi: Bayer, Basf va Xexst. Ularning har biri muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Hatto bu firmalarni ham bo'lib yuborish rejalarini tayyorlanmoqda.

Dunyoning eski sanoat kompaniyalaridan bo'lган «Simens» (Siemens, 1847 yilda tashkil topgan) 1992 yilda 120 mamlakatda o'z filialiga ega bo'lib, chet elda sotilgan mahsulot 54% tashkil qildi. Eng yirik sotuv bozori AQShning o'zida bo'ldi (1993 yilda «Simens»ning AQShdagi sotuv hajmi 5 mlrd. dollarni tashkil etib, ishlovchilar soni 34 ming kishiga yetdi).

## 12-jadval

<i>Firmada ishlovchilar soni</i>	Bir yilda bitta ishlovchiga ajratilgan o'quv soati hajmi
9 gacha	147,8
20-49	72,4
100-199	39,9
300-399	22,7
1000 dan ortiq	15,8

Kichik korxonalar katta korxonalarga nisbatan boshqaruvning egiluvchanligi, bozor sharoitida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tezda moslashish, shaxslararo munosabatlarning o'ziga hosligi (firma – yagona oila) kabi qator ustunliklarga ega. Kichik va o'rta firmalarda xodimlar o'qishi, malakasini oshirishi uchun katta firmalarga qaraganda ko'proq o'quv soati ajratiladi. Quyidagi jadvalda 9 kishigacha bo'lган kichik korxonada malaka oshirish uchun bir yilda 148 soat ajratilgan. Ming kishidan ortiq korxonalarda bu maqsad uchun ajratilgan vaqt 16 soatdan oshmaydi.

Firmaning imkoniyatini hisobga olib, strategik natijalarga erishish uchun qilingan maqsadli faoliyat «natijaga qarab boshqaruv» nomi bilan yuritiladi. Boshqaruvning bu uslubi korxona faoliyatining muhim yo'nalishini hamkorlik ravishda belgilashni nazarda tutadi. Maqsadga erishish uchun kerak bo'lган harakat variantlar aniqlanadi. Qo'yilgan masalani muayyan yechim uslublarini ijrochilar o'zları tanlaydilar. Orada erishilgan yutuq nazoratga olinadi va baholanadi. Ishlab chiqarish tezkor jadvallari bajarilishda boshqaruv apparati ishlab turadi.

**«Donishmandlar majlisi».** L.Erxard Germaniya hukumati qoshida «Donishmandlar majlisi», deb nom olgan ekspertlar guruhini tashkil qildi. Har yili yangi yilga olti hafta qolganda oltita yirik iqtisodchi tantanali ravishda kanslerga «Joriy yilda mamlakat xalq ho'jaligini rivojlanishi haqidagi ekspertlar majlisining

xulosasi» nomli katta hajmli ishni taqdim etadi. Ishda iqtisodiyotda ro'y bergan ijobjiy o'zgarishlarga holisona baho beriladi, xalq ho'jaligi rivojlanishi uchun alternativ variantlar taklif etiladi, taklif etilgan tadbirlarning ijtimoiy va siyosiy oqibatlari aniqlanadi.

Nemis sanoatida boshqaruvning demokratik tamoyillari qabul qilingan. 1951 yildayoq og'ir sanoat korxonalarida ish tashlashni oldini olish uchun yirik kompaniyalarning direktorlar kengashida rahbariyatdagi 50% joy ishchilar vakillari uchun ajratish haqida qaror qabul qilingan edi (bu fakt, tabiiyki, sho'ro matbuotida o'z aksini topmagan edi).

**Boshqaruvning kollegial uslubi.** Hamkorlik tamoyillarini amalg'a oshirish korxonada ishlab chiqarish muhitini keskin darajada yaxshilaydi, boshqaruv, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni yechishda ishchilar qiziqishini rag'batlantiradi. Germaniya tajribasi Avstriya, Daniya, Gollandiya, Lyuksemburg va Shvesiyada qo'llana boshlandi. Bu mamlakatlarda ham ishchilar direktorlar kengashida ishtirok etishi haqida qonunlar qabul qilindi. Germaniya qisqa vaqt ichida mag'lub, vayronaga aylangan mamlakatdan dunyoda sanoti eng rivojlangan davlatlardan biriga aylandi. Ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Germaniya yevropada birinchi va dunyoda uchinchi (AQSh va Yaponiyadan keyin) o'rinni egallaydi.

## 23.2. Amerika menejmenti

*YArim kunlik umring qolsa ham,  
Bir kunlik mol-dunyong bo'lsin!  
O'zbek xalq maqoli*

YAqin yaqingacha rivojlangan mamlakatlarning menejment sohasidagi tajribasini holisona aks ettiruvchi adabiyotlarni topish juda qiyin edi. Hozirgi kunda kitob do'konlari, kutubxonalar boshqaruv, investitsiya, moliya tizimi, bank ishi bo'yicha kitoblar bilan to'lib ketgan. Kitoblarda, asosan, amerika biznes ishlarini olib

borish tajribasi yoritiladi. Bu esa AQSh modelini o'zbek sharoitida ko'r-ko'rona qo'llashga olib kelishi mumkin.

**Jahon iqtisodiyoti lideri.** Oxirgi 50 yil davomida AQSh jahon iqtisodiyotining so'zsiz lideri bo'lib kelmoqda. AQShda yangi texnologiya, ilg'or boshqaruv uslublarini qo'llash tufayli mehnat ishlab chiqarishi keyingi 100 yil davomida mislsiz darajada rivojlanib keldi. Urushdan keyingi yillarda yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarish AQShga nisbatan 30-40%ni tashkil qildi, Yaponiyada bu ko'rsatkich 14% edi.

AQShning iqtisodiy ko'rsatkichlari har yili 3,2% o'sdi, aholi daromadi har 20 yilda ikki barobar ko'paydi. AQSh aholisining daromadidagi farq o'sib bormoqda. Amerikalik iqtisodchi Lestor Turou shunday deb yozadi: «Agar eng kam daromad oluvchi aholining 10%ni va eng ko'p daromad oluvchi aholining 10% bilan qiyoslasak nemislar shu daromadidagi farq uchun o'zlarini ayamasdan mehnat qiladilar. Bu farq bizga nisbatan 36% kam. Agar daromaddagi farq shaxsiy tashabbusni jadallashtirganda edi biz tashabbuskor xalqqa aylangan bo'lar edik».

Unga qo'shimcha qilib Stiv Loor shunday yozadi: «Bugungi kunda chet el kompaniyalari amerikalik hamkasblari haqida gapirganda yaxshi niyat bildirishdan ko'ra, ularga nisbatan hasad bilan qaraydi. Haqiqatan ham ular gapiga qulqoq solsak AQSh boshqaruv tizimi tanazzuliga uchragandir».

Jinoyatchilik va narkobiznes jamiyat uchun eng dahshatli havf hisoblanadi. «Biznes uik» gazetasining xabariga qaraganda, jinoyatchilik mamlakat iqtisodiyotiga ulkan zarar yetkazadi, ya'ni bir yilda bu zarar 425 mlrd. dollarni tashkil qiladi (qiyos uchun mudofaaga ajratilgan byudjet 300 mlrd. dollarga teng). Jahon iqtisodiyotining liderligini yo'qotish havfi AQSh uchun real bo'lishi tufayli jamiyatning ijodiy kuchlari harakatga keldi.

Boshqaruv nazariya va sa'natining ayrim tomonlari qayta ko'rilib chiqildi. Ishlab chiqarishga mutlaqo yangi mahsulotlar joriy etilib, xarajat hajmlari kamaytirila boshlandi. Ishlab chiqilgan mahsulotlar sifati keskin yaxshilandi, narxlari erkinlashdi.

Amerika yirik korporatsiyalarining faoliyati ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirishga, boshqaruv shakl va uslublarini, ishlab chiqarish, texnologik bazani takomillashtirishga, kadrlar imkoniyatini kengaytirishga, har bir xodimning malaka va faoliyatini oshirishga qaratilgan. Transnatsional korporatsiyalarni (TNK) yaratishga alohida e'tibor berilgan. 1993 yildan boshlab jahonda 39 ming TNKning 270 mingta firmalari ishlab turmoqda. Ular zimmasiga AQShning 36% eksporti va 43% importi to'g'ri keladi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi takomillashtirilmoqda. Xususan, boshqaruvdagi ba'zi halqalar qisqartirilmoqda. Agar Yaponiya avtomobil qurilish korxonadagi usta bevosita rahbarga bo'ysungan bo'lsa, AQShda rahbar bilan usta o'rtasida yana uchta boshqaruv halqalar mavjud. Masalan, «Ford» kompaniyasida ishchi va boshliq orasida 11 ma'muriy bosqich bo'lsa, Yaponianing «Toyota» konsernidagi soni faqat 6 ta.

Boshqaruvga ketayotgan xarajatlarni kamaytirish iqtisodiy samara beradi, oraliqdagi ma'muriy bosqichlarni bartaraf qilish boshqaruvni egiluvchan va tezkor qilishga imkon yaratadi. AQSh iqtisodchilarining hisob-kitobiga qaraganda yapon avtomobili shu klassdagi AQSh avtomobiliga qaraganda 1,5 ming dollar arzon ekan, televizor yig'ishga ketgan sarf deyarli yarmidan ham pastroqdir.

Amerika menejmenti bo'yicha mashhur mutaxassis J.Xarbor shunday yozadi: «Yaponiya avtomobil chiqarishda bizdagidan ham takomil texnologiya ishlatmaydi, lekin kompaniyalarni boshqaruv sohasida ular bizni changda qoldirib ketmoqda».

**Z nazariyasi.** Boshqaruvning yangi tuzilma modellarini izlash natijasida 70-yillar oxirlarida amerika-yapon modeli yuzaga keldi. Model muallifi amerikalik yapon U.Ouchi bo'lib, uni Z nazariyasi deb nomlandi (D.Makgregorning X va Y nazariyasiga o'xshash). Haqiqatan ham «Z modeli» amerika va yapon menejmentining asosiy g'oyalarini o'z tarkibiga oldi va mutaxassislar tomonidan ideal deb tan olindi.

U individual qadriyatlar tizimi (shaxsiy faoliyat va tashabbus, obro', o'zini biror bir ishda sinash, erkinlik) va guruhiy hamkorlik shakllarini birlashtirgandir.

U.Ouchi o'z modelini yaratishda quyidagi asosiy holatlarga tayangan:

1. Korxonada ko'p vaqt uzluksiz ishlash, bu esa xodimlar ko'nimsizligini kamaytiradi, jamoa birdamligini mustahkamlashga yordam beradi.
2. Konsensus tamoyili asosida boshqaruvning strategik va tezkor qarorlarini qabul qilish.
3. Shaxsiy ma'suliyat — ana shu hol yapon boshqaruv uslublaridan farqlab turadi.
4. Lavozimda asta-sekin oldinga siljish, u esa xodimning qobiliyatini aniqlashga imkon tug'diradi.
5. Jiddiy, rasmiy va holisona uslublar asosida ijrochini yumshoq norasmiy tekshirish.
6. Mutaxassislarning malakasini doimo oshirib borish.
7. Xâæì ñøðñèäà, óíéíä ïèëàâèé âà ìæøèé ýhòè, æèäà äièïî ýúòèáîð áåðèø.

Àìåðèêàëëëäð æàhiiíéíä ëeg'íð ôèðìàëäðè òàæðèáàñèè âà áèðèí÷è ûðèíäà ýpíí máíåæìåíðèí ÷óqóð âà qèçèqóâ÷àíëë áèëàí ûðääíèá áîðìîqäà. ßiñíéý âà Õèí÷ ïéåâíè õóäöäëäà æíéëàøäàí ìàìëàêàðëàðíèíä ñàñìàðèäà ñiñäèð áûëà, òäàí êàðòà ûçãàðèøëàðíè ÀqSh ðàqñáàðäà ÷àqèðèq äååá áèëëäè. Ràqñáàò ýñà hàðàêàò qèëëøäà äàúâàò ýðàäè.

Àäàð ÀqSh áèðèí÷ëëëë ÿ÷óí êóðàøèøäà ðàqñáàò ýðèëíëëäè, õóñóñèé ïóëëäîð÷ëëëë, erkin narx, ëíäëàëäóàëëçìäà àññëàíäàí óíóíëé ìàäàíèýð, äàâëàðíè ëqòèññäè, òäà êàì àðàëàøèø, áîøqàðèøíè ýíà òàéñëëëàøòèðèø òàìýèëëàðèäà àññëàíñà g' àëàäàà qîçñíèøè òàéëíäèð.

### **23.3. YApon menejmenti**

*YAponiyaga nusha ko'chirish model sifatida qaramaslik lozim. Uni kuchli va kuchsiz tomonlarini aks etuvchi oyna sifatida ishlatish kerak.*

*Jan Per - Lemar*

Yapon jamiyatining deyarli barcha tomonlari – falsafiy qarashlari, dini, boshqa xalqlardan ajralib yashaganligi, yuqori estetik madaniyatni, o'rta asrlik mardlik bilan hozirgi zamonda ishbilarmonligi, ajoyib mehnatsevarligi, dam olish yaxshi tashkil etilishi, oilaviy an'analarga sodiqligi, chuqur vatanparvarlik his-tuyg'ulari o'ziga xos va betakrordir.

Biññieäð ìag'ðóð áûëèøèäà ñàáàá áîð. Yaponiya æähii qóðóq õóäöäèíéä ôàqàò 0,2% ýäà áûëèäà, uning àùñieësi æàùñí àùñieë ññieëíéä 2% ðàøêèë qèëadi. Tàáèëé âà ýíåðäåòèäà ðåñóðñëäðè ÷âéëäíäàí hïëäà æähiiäà ÷èqàðèëà, òäàí ìëëëèé ìàhñóëïòíéä ïëöèäàí áèð qèñiè óíéíä çèììàñèäà òûg'ðè êåëäàë âà ñàñìàò èøëàá ÷èqàðèøíéä êüï ññùàëäðèäà Yaponiya áèðèí÷è ûðëíäà áîðñìqäà. Áóíäàé ìóâàfôàqèýðëäð ûçèäà õññ ðàðàqqè, ò éñëëíè ðàíëäø natijàñèäèð.

Óøáó ìëëëèé ûçèäà õññëèé èøëàá ÷èqàðèøíè ðàøêèë ýðèø âà áîøqàðèøäà, øàðñ âà æàññäà òàúñèð ýòèø ñàíúàòèäà àêñ ýòñìqäà. Biññieý áîøqàðèøíèíä ô àëñàòàñè âà ìàäàíèýðè êüï àñðëäð äàññìèäà øàéëëàíèá êåëà, òäàí àíúàíàëé ìëëëèé äóí, qàðàøäà, aìåðèäà ìåíåæìåíòèíä ìòóqëäðèäà àññëàíàë. Íäëëé, øó áèëàí áèðäà êàìñë ðññäàí ó÷ìàäàíèýð (íäàìëäðíèíä ãóðóùèé ìóññààðöäðèäà àññëàíàí Õèðîé ìàäàíèýðè, ìóðëíq ðóhääà qàðàòèëäàí Õèíä ìàäàíèýðè, øàðñ ýðêëíëëäàë àññëàíàí Àìåðèäà ìàäàíèýðè) yaññí æàìëýðèíèíä òàøêèëèé qññóíèýðëäðè àññëäà, òàäëè.

Biññieäðäà òèðèøqñqëèé, èðñäà êó÷è áèëàí ýíä qèëëí øàðìèðda ùàì g' àëàáà qñçñíèøäà äàúâàò qèëëà ðóðóâ÷è ñàìóðàéëäð ðóùèäà áûëäàí ùóðìàò æöäà êó÷ëëäèð. Ñaiðàéëäð òàúëëññòð – Áóñèäà êñëååñè, «Áåø õàëqà êèðîáè» âà o'ðòà àñð «ìóalëëôëäðèíä» àñadëäðèäà ûç àëñèíè ðññäàí.

**Êèøè èiññieýðè òàññyèëè.** Biññí áîøqàðuv óñëóáëäðè óðóøäàí êåëëíèä âàéðññäàð÷ëëèé øàðñèðäà øàéëëàíà áîøëàíäè. Áó âàqòäà ÀqSh ùàðáèé ìà'ìóðèýðè «ùàðäèé eëëëàðäà ôàññëýð èûðñàòäàí eëðèé èøáëëàðññëàðäà íèñààòàí æàçñíè qñëëàøíè» ìëëà áîðèø ìàðèæàñèäà ìàìëàëàò eëðèé ìóðàòàñèñëàðñèç qñëëà. Ëåëëí yaññieäð òèðèøqñq âà ìåùñàòññäàð shogirdlar edi. Óëàðning Àìåðèäà âà Åâðññä áîøqàðuv ñàúàòëäàäè èëg'îð þòóqëäðíè ÷óqóð ûðñàíèshi, èæñäëé èçëàíèøëäðè yaññí áîøqàðuv ñàíúàòë ìàçàðèýñèíè þçàäà êåëëøè áèëàí ýëóíèäà.

Ìàê-Ãðåäîðíèíä Õ âà Y íàçàðèÿñè, «еíññéàð ïóññàáòè» íàçàðèÿñè, taqdir lash óñóëóàè, eísoí óñðiâîð ðàëàáëàðè ðèçèëàðèíè êó÷ëè âà çàèô ðàññéàðèíè ýðøè ðóðuúgan yaïí ìåíåæiaíòè øàõñéè èø èìéíèÿòè ïíäæéè èýðàðäè.

«Êèøè èìéíèÿòè» ðàìîyèëè qóðóq ãàï áûëìàñääí, ñîäèì ûç èìéíèÿòèíè êûðñàðèøäà, qîáèëèÿòèíè ðèâîæëàíòèðèøäà, èøääí qîñèqèøäà èìéí ÿðàðèøíè íàçàðää ðóðàäè. Tamoyilga muvofiq xodim barcha sharoitlarda ishtirok etadi. O'z ishning qiyinligini anglaydi, o'z-o'zini boshqaruv va nazorat qilish uchun imkoniyatga ega bo'ladi.

Xodim ishga kerak bo'lgan barcha axborotga ega bo'lib, jamoa oldida obro'y i oshadi. Bir yapon mehnatkashi bir amerikalikka qaraganda ikki barobar zaifroq, lekin o'n yaponiyalikdan iborat jamoa o'n amerikalikdan ikki barobar kuchliroqdir.

Bu tamoyilni amalda qo'llanishining samarasini bugun dunyoga mashhur bo'lgan yapon «sifat to'garagi» faoliyatida kuzatish mumkin ya'ni yapon menejerlarining faoliyati firmada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan. To'garaklarning asosiy vazifalari quyidagi lardan iborat:

- ishchi va ustalarni mustaqil ta'lim yordamida boshqaruv va nazorat qilish uquvlarini rivojlantirish;
- ruhiyatni ko'tarish, ish joylarida psixologik ahvolni yaxshilash, ishchilarda sifatli ishga, ixtirochilikka bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish;
- sex, ishchi joyining sifatini ta'minlovchi tizimining asosiy halqasiga aylantirish;

E'tibor berish kerakki, barcha sanab o'tilgan maqsadlar inson imkoniyatiga asoslanib, yuqori sifatli mahsulotni chiqarishda barcha xodimlar o'z ihtiysi bilan ishtirok etadilar. Sir emaski, kishi imkoniyatiga katta e'tibor berish sifat to'garaklarini gurkirab ko'payib ketishiga sabab bo'ldi. Agar 1967 yilda 10 ming to'garak tashkil topgan bo'lsa, 1989 yilda ularning soni 100 mingtaga yetdi.

Hozirgi kunda YAponiyada 300 mingga yaqin to'garaklar ro'yxatga olingan, ro'yxatdan o'tmaganlari undan ham ko'proqdir. (Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda ular soni 2 mln.dan ortiq).

To'garaklar faoliyati natijasida mahsulot sifati sezilarli darajada oshib, nazoratchilar soni kamaydi. Masalan, Yaponiya avtomobilsozlik kompaniyalarida nazoratchilarning soni AQSh avtoindustriyasiga nisbatan ikki barobar oz.

Sifat to'garaklarining ishlab chiqarishning dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan ixtiolarini joriy etish samaralidir. «Pentel» kompaniyasida to'garakning har bir a'zosiga bir yilda 90 gacha joriy etilgan takliflar to'g'ri keladi. Yirik kompaniyalarda bir yilda yechilgan muammolar 10 mingtaga yetadi (masalan, «Nippon stil» kompaniyasida 3 mingdan ortiq, «Toyota dzidosya»da 20 mingdan oshiq). To'garak ishining har yilgi iqtisodiy samarasi ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra 80 mld. dollardan oshadi.

Ushbu tamoyilni joriy etishda rahbar roli ham o'zgaradi. U ba'zi bir detallar, muayyan masalalar haqida xodimlardan ko'ra kamroq xabardor bo'lishi mumkin, lekin jamoaning juziy nuqsonlarini osonlikcha bartaraf etadi. Rahbarning muhim ishlaridan biri tarqoq iste'dodli ijrochilarni birlashtirish, ularning ijodiy faoliyatini tashkil qilish, intellektual imkoniyatini rivojlantirishdir. Tamoyil asosini Yaponiya uchun an'ana bo'lgan guruhlarga birlashish, mehnatning jamoa shakllariga intilish tashkil etadi.

**Umr bo'yи yollash tizimi.** Agar yapondan uning kasbi haqida so'rasangiz u «Sumitomo» yoki «Matsusita» da ishlayman, deb javob beradi, chunki yapon ongida kasb ishga, o'zi ishlayotgan firmaga o'xshatiladi. «Mitsubisi» yoki «Fudzitsu» firma xodimi bo'lish har kimga ham nasib qilavermaydi. Umr bo'yи yollash tizimi menejmentning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ishga qabul qilish jarayoni ishga olish haqida buyruq chiqmasdan ancha oldin boshlanadi.

Korporatsiya va davlat xizmatchilarining maxsus tayyorgarlik ko'rigan vakillari turli xil o'quv muassasalar bilan uzoq vaqt davomida aloqa o'rnatib boradi, bitiruvchilar bilan tanishadi, norasmiy sharoitda ularni qiziqishi, qobiliyati haqida ma'lumot yig'adi, imtixon, yoshlari bayramida ishtirok etadi, oilaviy sharoitini o'rganadi, tavsiyanomalarini baholaydi (yapon menejerlar tili bilan aytganda bu tadbir «pishmagan hosil yig'ish» deb nomlanadi).

Tanlab olingan nomzodlar bo'lajak ish joyi haqida holisona axborot oladi, test va maxsus imtihon topshirgandan keyin, sinov muddati bilan ishga qabul qilinadi va bir yil stajirovka o'tgandan keyin ma'lum lavozimda maxsus ajratilgan vakil rahbarligi ostida ish sinovidan o'tadi. Ijobiy tavsiyanoma olgandan keyin yosh mutaxassis kompaniyaning doimiy shtatiga umr bo'yi, pensiyaga ketguncha qabul qilinadi.

Ishga qabul qilingan xodim ishsizlikdan holi bo'ladi, chunki u hech qanday sharoitda ham ishdan haydalmaydi (firma bankrotlari bundan mustasnodir), o'z vaqtida va doimo oshib borayotgan maosh oladi, qator imtiyozlardan foydalanadi (masalan, yo'l kiradan ozod bo'ladi, kasalxona bilan bo'lgan xarajatlarning bir qismi qoplanadi, sport zallaridan foydalanadi, pansionat, chet ellarga firma hisobidan borib keladi va boshq.).

YAshash uchun uy sotib olishga imtiyozli kredit beriladi (kompaniya bankdan kredit olib, o'z xodimlariga imtiyozli ravishda to'g'rilab beradi). Odatda, xodimlar uchun turar joy bir hududdan beriladi, bu esa ishdan tashqari vaqtda uchrashishga, oilalar bilan bordi-keldi qilishga imkon yaratadi. Natijada xodimlarning hayoti bir-birining ko'z o'ngida kechadi va aytish kerakki, mikrorayonlarda, spirtli ichimliklar iste'moli oxirgi 10 yil davomida 1,5 barobar kamaydi.

Boshqa kompaniyaga ishga o'tgan xodim barcha imtiyozlardan mahrum bo'ladi va xizmat pog'onasida o'sish uchun harakatlarni boshidan boshlashi kerak. Natijada yirik kompaniyaning aksariyati xodimlar ko'nimsizlik muammosini bilmaydi, ularning xodimlari o'zini, o'z manfaatlarini firma manfaatlari bilan birlashtiradi. Umr bo'yi yollash tizimi barqarorlikni, o'z jamoasi va firmasiga bo'lgan sodiqlikni ta'minlaydi. Jamoaga intilish istagini mustahkamlash YAponianing barqaror stereotip va milliy an'analar talablariga javob beradi.

YApon menejerlarining qator ilmiy tadqiqotlarida yapon boshqaruvi tizimining shakllanishida milliy xususiyat, ijtimoiy va madaniy an'ana, falsafiy va dzen-budda ta'limotlari hal qiluvchi rol o'ynagani ta'kidlanadi. Biroq yapon jamoasining qarishi menejerlarni umr bo'yi ishga yollash g'oyasini yangilash haqida o'ylantirib

qo'ymoqda. Ish beruvchi va xodimlar o'rtasida mehnat munosabatlarining boshqa shakllari tez-tez qo'llanilmoqda. Vaqtincha, mavsumiy, qisqa muddatga, shoshilinch ishlarga, xo'jalik ishlarga, to'liqsiz xaftha ishlariga yollash odat bo'lib qolmoqda.

### **Maosh to'lash tizimi va «yoshiga qarab» xizmat lavozimiga ko'tarilish.**

Xizmat lavozimiga ko'tarilish va maosh oshishi shu kompaniyada orttirgan mehnat stajiga va yoshiga bog'liqdir. Zo'r qobiliyatli yosh xodim ma'lum yoshgacha yuqori lavozimga ko'tarilmaydi. Masalan, kichik ma'mur bo'lish uchun 30 yosh, katta ma'mur bo'lish uchun 35 yosh belgilangan. Ushbu tizim ishchilarni firmada qolib ishlashga undaydi, amalda malakali ishchilar ishdan ketish holatlarini yo'qqa chiqaradi, ishlab chiqarish samarasini oshirib, personal o'qitishga ketayotgan xarajatlar keskin qisqaradi. «YOshiga qarab» maosh to'lash tamoyillari turli variantlarda deyarli barcha firma va davlat muassalarida qo'llanib kelmoqda. Yapon korxonalarida maosh to'lash o'ziga xos tizimdan iborat.

Birinchidan, **asosiy maosh**. Maoshning bu qismi bir yosh va bir malakali bo'lgan doimo ishlovchi xodimlar uchun deyarli bir xil.

Ikkinchidan, turli xil **qo'shimcha to'lovlar** ishlatiladi: qo'shimcha maosh, mukofot, bonuslar har oyda va yarim yillik ish faoliyatining natijasiga ko'ra asosiy maoshga qo'shib beriladi. Ushbu qo'shimcha to'lovlar miqdori asosiy maoshning 10% dan 50% ni tashkil qiladi. YArim yillik va bir yillik **bonuslar** oylik maosh miqdoridan bir necha marta ortiq bo'lishi ham mumkin. Ushbu qo'shimcha to'lovlar ishlab chiqarish samarasini oshirishga, mehnat intizomini mustahkamlashga va kattalarga so'zsiz bo'ysunishga qaratilgan.

Bundan tashqari, yuzaga keladigan iqtisodiy, moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, bozor sharoitining o'zgarishiga moslashish maqsadida katta **zahira jamg'armasi** shakllantiriladi.

Yiliga ikki marta (yozda va yangi yil arafasida) beriladigan mukofot miqdori kompaniya faoliyatining natijalariga, ya'ni olingan daromad miqdoriga qarab belgilanadi. Lekin uning taqsimlanishi xodimlarning yoshi va ish stajiga qarab amalga oshiriladi.

Masalan, 1998 yilda qator kompaniyalarda 35 yoshdag'i xodimlarning yozgi mukofot miqdori 22 yoshdag'i xodimlarnikiga qaraganda 13 marta ko'p bo'lgan. Maoshga qo'shib beriladigan qo'shimcha to'lov tizimi jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarshlarning aksi bo'lib qolmoqda. YOshlar qishloqdan shaharga juda katta miqdorda ko'chib kelish davrlarda maxsus qo'shimcha to'lovlar joriy etiladi: uy-joy berish, transport to'lovleri va boshqa imtiyozlar.

Erkak oila qurganda (ayollar bunday to'lovlar olmagan) maxsus to'lov tizimi harakatda bo'ladi. Bu to'lov miqdori ramziy bo'lsa-da, lekin firma o'z xodimiga e'tibor qilganligidan dalo lat beradi.

Maosh miqdori aksariyat holda korxona katta, kichikligiga, moliyaviy imkoniyatga bog'liqdir (yirik korxonada xodimlar yuqori malakali bo'lishligi kerak, deb hisoblanadi).

Yirik korxonadagi korovul kichik korxonadagi matematik dasturchidan ko'p maosh olishi hech kimni ajablantirmaydi. Yirik korxonalarda xodimga maishiy muammolarni yechish uchun yordam berishga katta imkoniyatlar bor. Masalan, uy qurishda katta firmalar xarajatning 98% gacha o'z zimmasiga oladi, 100 xodimdan iborat bo'lgan kichik korxona uy qurishda faqat 20,1% gacha yordam bera oladi.

Xizmat lavozimiga ko'tarilish deyarli har bir xodimga kafolatlangan, ma'lum yoshga kirganda pensiyaga chiqish har bir kishi uchun majburiydir. Katta yoshdag'i xodim kichik yoshdag'i xodimning qo'l ostida ishlamasligiga qat'yan rioxasi qilinadi. Xizmat lavozimiga ko'tarilishi chog'ida firmaning deyarli barcha xodimlari bir necha bo'limmalarda ishlab chiqadi, bu esa ularning dunyo qarashini kengaytiradi, bilimi, malakasini oshiradi.

«YOshiga qarab» lavozimiga ko'tarish tizimi, bizning fikrimizcha, qator nuqsonlarga ega: firmanın o'zida tayyorlab, rahbar tarkibiga tanlash o'ziga xos «inbridging»ga (biologiyada inbridging yaqin qarindoshlardan olingan avlod ma'nosida ishlatiladi) olib keladi. Ushbu uslub firmaga yordam beruvchi, yangi g'oyali xodimlarni ishga olishga chek qo'yadi.

Yapon menejeri Satoru Takayama yozishicha: «Yapon firmalarining xodimlari kamdan kam dam olish kunini oladi. Ular hatto kasal bo'lganda ham ishlashni davom ettiradi. Yapon ishchisi ma'muriyatning topshirig'i haqidagi buyrug'iga ikkilanmasdan bo'ysunadi. Chunki u ma'suliyatni yaxshi his etadi».

Aksariyat yapon ishchilari berilgan ta'tilni to'liq ishlatmaydi, chunki firma ishlab turganda ular bekor o'tirishni o'zlariga yarashmaydi, deb tushinadi. Shu bilan birga ta'til olib ular kompaniyaga «nosodiqlik» bo'lishidan o'zlarini holi qiladi.

**«Ringisey» qarorni qabul qilish tizimi.** Aksariyat yirik yapon kompaniyalarida «Ringisey» strategik qarorini qabul qilish tizimi qo'llaniladi. Bu tizim loyihalarni chuqur va pishiq ishlab chiqishni, ijodiy faoliyatda barcha yetakchi xodimlar ishtirokin i ta'minlaydi.

«Ringisey» tizimi boshqaruvning barcha pog'onalarida qarorlarning muvofiqlanishini nazarda tutadi, turli xil bo'linmalardagi oddiy xodimlar o'rtasida konsultatsiya va muhokama o'tkaziladi. Keyinchalik umumlashgan tahlil va takliflar yuqori pog'onaga yuboriladi va undan so'ng korxona boshliqlari qo'liga tegadi. Buning natijasida boshqaruv qarorining loyihasi bilan turli xil pog'onadagi rahbarlar tanishib oladi. Qabul qilingan qaror ma'suliysi bevosita korxona rahbari zimmasiga emas, balki barcha bo'linma boshliqlari zimmasiga ham tushadi. Strategik yoki muhim boshqaruv qarorini bu tarzda qabul qilish murakkab bo'lib, uzoq muddatga cho'ziladi, lekin loyihami amalga oshirish jarayoni tez kechib, hech qanday muhokamaga yoki ijrochilar ishlarini muvofiqlashtirishga xojat qolmaydi.

Tizimning eng ustivorlik tomoni taklif etilayotgan loyiha nisbatan yangi fikrlar bildirish va erkin muhokama qilishdir (Amerika boshqaruv qarorini qabul qilish uslubida asosiy ma'suliyat rahbar zimmasiga yuklanib, xodimlarning fikrlari maslahat sifatida qabul qilinadi).

Qaror qabul qilishning eng muhim belgilaridan biri uni shakllantirish. Muhokama cho'zilib ketishi, variantni uzoq vaqt davomida tanlash menejerning yomon ishlashidan dalolat beradi. «Ringisey» tizimi ham milliy an'analarining bir ko'rinishi bo'lib, qaror qabul qilishda jamoa fikri, mulohazasi ustivor hisoblanadi.

**Yapon boshqaruv san'atining uslublari.** YUqorida keltirilgan yapon menejmentining tizim va tamoyillarini chuqur va har tomonlama o'rganish boshqaruv sanatini rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ular shaxs va jamoani boshqaruv san'ati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shakllanayotgan o'zbek boshqaruv maktabi G'arb boshqaruv san'atidan ko'p foydali tomonlarni o'zlashtirib kelmoqda. Bu ishda Yaponiya menejmenti juda katta yordam berishi aniqdir. Yaponiya menejmentini tadqiq etgan barcha mualliflar uning o'ziga xosligi xodimlarni firma bilan teng bo'lishidadir, deb ta'kid qiladilar.

Yapon boshqaruv tizimi ushbu tenglashtirishni kuchaytirishga harakat qiladi va natijada o'ziga xos ahloqiy qadriyatlар yuzaga keladi, bu esa mehnat samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Ushbu konsepsianing to'g'riliq, odillig, oqillig haqida munozara yuritish befoydadir, chunki yapon boshqaruv tizimi Yaponiyaning jahon iqtisodiyotida muvaffaqiyatini ta'minlay oldi.

Firmaga bo'lgan sodiqlikni, o'z ishi uchun g'ururlanishni, mehnatda doimo samaradorlikka erishishni qanday qilib qo'lga kiritish mumkin? Katta moddiy mukofot evazigami? Jazolash evazigami? Yo'q, unday emas. Javobni hayotning o'zi bermoqda: milliy an'ana, mehnatsevarlik, boshqaruv san'atining tamoyili bunga sabab bo'lib kelmoqda. Bu san'at uslubini o'rganish va tushunish nihoyatda zarurdir.

Yapon boshqaruv san'atining eng samarali uslublaridan biri qo'li ostida ishlayotgan xodim bilan tez-tez muloqotda bo'lish, norasmiy sharoitda uchrashib, suhbat qurishdir. Qator Yapon firmalarida ish kuni yig'ilish bilan boshlanadi. Bosh boshqaruvchi kompaniyaning siyosati va birinchi galdag'i vazifalar haqida gapirib beradi. Havfsizlik texnikasi bo'yicha mutaxassis doimo jamoa orasida tushuntirish ishlarni olib boradi, natijada ishlab chiqarishda jarohatlanish juda kam ro'y beradi. Keyin ertalabki jismoniy tarbiya o'tkaziladi. Odatda bunday yig'ilish «YAxshi ishlaymiz!» da'vati bilan yakunlanadi. Tabiiyki, bu mitinglarning maqsadi biror yangi buyruq bilan tanishtirishdir. Shu bilan birga firma rahbarlari ushbu aloqa tufayli jamoa yanada jipsliroq bo'lib, ish samaradorliroq kechadi, degan umidda

bo'ladi. San'atning yana bir shakli «haftada bir soat, oyda bir kun» muloqot qilishdan iborat.

Firma ma'murlari, shu jumladan bosh rahbarlar sexga kelib, oddiy ishchilar qatorida ishlay boshlashadi. Rahbarning jamoa ishida bevosita ishtirok etishi, xodimlar bilan muloqot qilishi bir-biriga bo'lgan ishonchni oshiradi va norasmiy axborot olishning eng yaxshi usulidir.

Muloqotning boshqa turlari sex va kichik guruh offislarida o'tkaziladi (sifat to'garaklari, «qog'ozsiz elektron idoralar» tamoyilini joriy etish, muammo guruhlari va boshq.).

Kichik guruhlarda vazifalarni yechish yo'llari muhokama qilinadi, ishlab chiqarish mehnatini va mehnat sifatini oshirish haqida qizg'in bahslar o'tkaziladi. Bularning barchasi korporatsiya va uning xodimlarining qiziqishlarini yaqinlashtiradi. Kichik guruhlarga ustalik va muloyimlik bilan rahbarlik qilish – jamoa va a'lovida olingan xodimlarga ta'sir qilish uslubidir.

Ishlab chiqarish muammolarini yechishda rahbar va barcha xodimlar ishtirok etishi mumkin.

Yangi ofis va zavod ochilishi, yubileylar albatta tantanali ravishda o'tkaziladi, bu esa umr bo'yi yollagan xodimlar uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoa jipslashishida sport komandalari (xokkey, futbol, beysbol, regbi) musobaqalari ham muhim rol o'ynaydi. Bu tadbirlar xarajatining barchasi korporatsiya tomonidan qoplanadi. Yapon boshqaruven san'atida paternalizm («firma – bir oila») tizimi kishi omiliga asoslangan bo'lib, muhim o'rinn tutadi.

Yapon jamiyatining an'alari jamoa qadriyatlarga qaratilgan bo'lib, xodimlar katta yoshdagilarga, o'z boshliqlariga katta yoshdag'i qarindoshlariga kabi hurmatda bo'lishini taqozo etadi. O'z navbatida boshliq xodimlar to'g'risida otalar kabi g'amxo'rlik qilishi kerak. Natijada xodimlar firmani o'zining katta oilasi deb biladi.

Yapon ishchilari yetakchi firmada ishslash katta yutuq, deb chin qalbdan ishonadi.

Shuning uchun ham firma, ishchilar obro'yini ko'taradigan juda ko'p tadbirlar amalga oshiriladi. Ish anjomi, kurtka, avtomashinasida o'rnatilgan firmaning belgisi o'ziga xos fayz yaratadi. Ishga, uyga ishchilar firma belgisi bor avtobusda borib keladi, firma san'at saroylarida dam olish kechalari, yubiley tantanalari, konsertlar, leksiyalar o'tkaziladi, qiziqish bo'yicha qator to'garaklar (sport, falsafa, gullar shaydolari) ishlaydi. Tug'ilgan kuni xodim dam oladi. Ishlaganiga 10 va 20 yil to'lganda xodimga dam olish uchun 20 kun qo'shib beriladi.

Bu masalada bizning boshliqlar va kasaba uyushma vakillariga bosh qotirish uchun imkoniyat bor.

«Firma – bir oila» tamoyili jamoa hayotining boshqa tomonlarida ham o'z aksini topadi: bir bo'limning barcha xodimlari, shu jumladan boshqaruvchi ham, bitta katta xonada joylashadi, bu esa ularga doimo xodimlar bilan muloqotda bo'lishga imkon to'g'diradi. Boshliqlar ataylab xodimlarning umumiyligi oshxonasida ovqatlanadi, umumiyligi xojaxonadan foydalanadi, mashinalarni umumiyligi turar joyga qo'yadi, oddiy xodimdan tortib, bosh direktorgacha bir xil bo'lgan ishchi kiyimida yuradi, hatto kiyimlarining rangi ham bir xildir.

Lavozim ramzi va maqomini bekor qilinishi jamoani yanada kuchliroq jipslashtirishga olib keladi. Ishchi maishiy hayotining ehtiyojlariga doimo e'tibor berilishi boshqaruv san'atining haqiqiy ifodasi idir.

Yaponiya menejmentida qaror qabul qilishda ayollar, chet elliklar, mayda millat vakillari ishtirok etmaydi. Bu yerda jamiyatning ma'lum qismi kamsitiladi. Yaponlarning fikricha, ayol kishi erkak kishining boshlig'i bo'lishi mumkin emas. Ta'kid etish joizki, Yaponiyada yashovchi «chet elliklar»ning 85%ni koreyslar tashkil etadi.

**Kadrlarni o'qitish va tayyorlash.** Yaponiyada 12 yillik o'qish tizimi qo'llanib, shulardan 6 yili boshlang'ich ta'lim, yana 3 yil yakuniy kuchaytirilgan ta'limga ajratilgan. Yaponiyada ta'lim maxsus bilim beradi. Lekin maktab kerakli

professional ta'lim berishga tegishli sharoitga ega emas. Korxonalar kechagi maktab bolalariga qimatbaho uskunalarini ishongisi kelmaydi.

Yirik kompaniyalar ushbu o'ta muhim xodimlar zahirasini raqobatdosh firmalarga berib qo'ymaslik uchun yoshlarni «zahiraga» qabul qilish strategiyasini qo'llay boshlaydi. 80-yillarda yirik kompaniyalarda 800 mingdan ortiqcha kadrlar hisobda bor edi. Ishga qabul qilingan yoshlarning aksariyati kompaniyalarining o'quv markazida mutaxassislikka o'qitiladi yoki yirik chet el o'quv yurtlariga yuboriladi.

Xizmat lavozimidan tez ko'tarilish shartlaridan biri nufuzli universitetlarning huquqshunoslik, iqtisodiyot, sotsiologiya sohalari bo'yicha diplomga ega bo'lishdir. Davlat va soha dasturlari, malaka oshirish kurslari kompaniya tomonidan amalga oshiriladi, ilmiy uslubiy materiallar tijorat asosida yetkazib berish maxsus tashkilotlar zimmasiga yuklatiladi.

Malaka oshirish turli uslublar asosida amalga oshiriladi. Doimo ishlab turuvchi seminar, konfererensiyalar o'tkaziladi, boshqa mamlakatlarga sayohatlar uyuştiriladi. Ba'zi sanoat va savdo firmalarida malaka oshirishning tashkil etilishi o'ziga xosdir. Masalan, o'qitishning birinchi kunida barcha o'quvchilar kurtkasiga o'qitilayotgan fan soniga qarab 12 «uyat tasmasi» taqiladi.

Navbatdagi imtihon topshirilgandan keyin bitta «uyat tasmasi» olib tashlanadi. Har kuni o'quvchi o'qishi haqida batafsil hisobot yozib, o'z firmasiga jo'natadi. Rotatsiya, ya'ni xodimni bir ishdan ikkinchi bir ishga o'tkazish tizimi keng qo'llaniladi. Rahbar lavozimiga o'tiradigan nomzod uchun rotatsiya majburiydir. U besh yilda bir marta o'tkaziladi. Xodimning bir lavozimda ishlash o'rtacha muddati quyidagicha: rejalashtirish bo'limida 5,1 yil, sotish va tarqatish bo'limida 4,9 yil, ishlab chiqarish bo'limida 5,5 yil. Rotatsiya va lavozimga ko'tarilish deyarli bir vaqtda amalga oshiriladi.

Yapon kompaniya va firmalari xodimini rahbar lavozimiga ko'tarish jarayonida demokratik uslublarni qo'llab, shaxsga baho berib, doimo boshqaruv tizimining shakllantirish usullarini izlaydi. Buning uchun kompaniya konferensiyalar o'tkazadi. Konferensiyada istiqbol va kadrlarga bo'lgan imkoniyatlar muhokama

qilinib, rahbar lavozimiga o'tkazilayotgan nomzodlarga yopiq ovoz beriladi. Ovoz berish natijalari e'lon qilinmaydi, lekin yangi lavozimga saylashda boshliq tomonidan hisobga olinadi.

Aksariyat firmalarda faoliyatning turlari (professionallik, tashabbus, intizom va boshq.) hisobga olinib, kompyuterda baholash tizimi yordamida barcha xodimlar vaqtি-vaqtি bilan attestatsiyadan o'tkaziladi. Ishbilarmon yaponiyada tanish-bilish, qarindosh-urug'chilikka qarshi kurash doimo olib boriladi. Masalan, xodimlarning bolalarini ishga qabul qilish man etilgan.

Imperator oila a'zolari ham faol tijorat bilan shug'ullanadi. Jahonga mashhur «Xitachi» (bu nom imperator oilasining familiyasi Xitachinosiyadan olingan) firmasining aksiyadorlari sifatida ular katta dividendlar oladi. 1983 yilda taxtga o'tirgan imperator Akixitonning o'zi ham o'tmishda katta ishbilarmon bo'lган.

Shaxs va jamoaga ta'sir qilishni shakllantirish, boshqaruvning yangi uslublarini izlash uzluksiz ravishda olib borilmoqda.

Yapon menejmentining strategik yo'llari yevropa va AQSh yo'naliishlaridan mohiyatan farqlanadi. Ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish va avtomatlashtirilishiga qaramasdan yapon mutaxassislari rivojlantirishning bu yo'lini ulkan iqtisodiy samaraga yetishda asosiy omil deb hisoblamaydilar. Mahsulot ishlab chiqarishda murakkab texnologiya uskunalarini soddalashtirish yo'llari qidirilmoqda. Ushbu harakatlarning maqsadi operatorlarning mehnati, tez almashtirilayotgan uskunalar, standartlashgan oddiy operatsiyalar yordamida murakkab mahsulotlar ishlab chiqarishdir.

Shu bilan birga dasturlanmagan kamchiliklar aniqlanib, ular ishlab chiqarish joyida personal tomonidan bartaraf qilinishi kerak ya'ni e'tibor o'ta avtomatlashtirilgan texnikaga qaratilmasdan, balki "kishi omili" dagi imkoniyatlarni boshqaruv jarayoniga jalb qilishdir.

Yapon menejmentining AQSh menejmentiga nisbatan bo'lган ustunligiga bir misol:

«Matsusita» yapon kompaniyasi tomonidan «Motorola TV» AQSh televizion zavodi sotib olingandan keyin, ishlab chiqarish jamoasi almashtirilmasdan, yapon menejerlari yordamida kafolat ta'mirlash jamg' armasi 22 mln. dollardan 3,5 mln. gacha qisqartirishga erishildi, 100 dona mahsulot turiga to'g'ri keladigan 140 kamchilik 6 tagacha tushdi, kadrlar ko'nimsizligi 30% dan 1% ga tushdi. O'rnak olsa bo'ladigan hodisa.

Shu bilan birga yapon boshqaruv tizimini ilohiy lashtirish kerak emas. YApon iqtisodiyoti va jamiyatida o'ziga xos jiddiy muammolar mavjud. Shularning ichida eng murakkabi yapon mahsulotlarining eksporti o'sishiga butun jahonda himoya sifatida qo'llanilayotgan proteksionizmning o'sishidir. YAponiya 100 mlrd. dollardan oshiq bo'lган mislsiz ijobiy savdo saldosiga ega bo'lib, shu bilan birga savdo tarif usullarini qo'llamoqda.

Raqobatbardosh mamlakatlarning proteksionizmiga doimo duch kelib, yaponlar javob tadbirlarni qo'llamoqda: ishlab chiqarish quvvatlarni boshqa mamlakatga ko'chirish siyosatini olib borib, qo'shma korxonalar tuzmoqda. Eng asosiysi, mehnat ishlab chiqarishini oshirishi bo'yicha ish olib borilmoqda, sifat yaxshilanmoqda. Mushohada qilish uchun yana bir mavzu – YAponiyada barcha korxonalarda gumanitar fanlar va estetika sohasiga urg'u berilib, «Sakura» gullah milliy bayrami, Fudziyamaga sayohat qilish, choy ichish odatlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonning har bir madaniy markazida YAponiyadan kelgan sayyoohlarni uchratsa bo'ladi, ularning bilim saviyasi va madaniyati juda yuqori, boshqa xalqlar hayoti va madaniyati bilan qiziqib yashaydi.

Shakllangan stereotiplarning buzilishiga asta sekin moslashishni hayotdagi o'zgarishlar talab qilmoqda. Inqilobiy o'zgarishlar jamiyatda salbiy munosabat uyg'onishiga sabab bo'ladi. Davlat mulkini xususiy lashtirishda ham o'zbek xalqining urf-odatlari, an'analarini e'tiborga olish lozim. Ayniqsa, yer islohotlari agrar siyosatning eng qiyin masalalaridan biridir. Muammoning murakkabligi agrar hududlarda ko'p aholi yashaganligi, suv tanqisligi, yer hosildorligi bir xil emasligidan

tashqari, yer mulkdorchilikka diniy nazar bilan qarashlar saqlanib qolganiga ham borib taqaladi.

Islom dinida yer odamga bir marta parvardigor tomonidan in'om etilib, ma'lum shartlar asosida foydalanadi va sotilish mumkin emas.

Rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan nimalarni chuqur o'rganib, modifikatsiya qilish kerak? Davlat xo'jalik yuritish tizimiga qanaqa an'analarni asos qilib olish lozim?

### ***12-jadval***

Amerika	YAponiya
individual qaror qabul qilish tizimi;	kollegial qaror qabul qilish tizimi;
individual ma'sulyat;	kollegial ma'sulyat;
rahbariyat tomonidan individual nazorat qilish;	nazoratning gunuhiy shakli;
boshqaruvning rasmiylashtirilgan tizimi;	boshqaruvga norasmiy yondashish;
nazoratning aniq rasmiy kechishi;	nazoratning norasmiy kechishi;
tez baholash va lavozimga ko'tarilish;	sekin baholash va lavozimga ko'tarilish;
mala kaviy uslub va tashabbusga qarab tanlash;	rahbarlar tanlashda muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatga e'tiborni qaratish;
individual rahbarlik uslubi;	guruh rahbarlik uslubi;
shaxsiy natijaga erishish uchun qilingan harakat;	guruh barkamoliga erishish uchun qilingan harakat;
qo'l ostidagi xodimlar bilan maqsadli rasmiy aloqalar o'rnatish;	xodimlar bilan shaxsiy, norasmiy aloqalar o'rnatish;
shaxsiy yutuqlar asosida lavozimga ko'tarish;	yoshi, ish stajiga qarab lavozimga ko'tarilish;
ma'lum mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik ko'rish (tor mutaxassislar tayyorlash);	umumiyyetli mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik;
maosh miqdori shaxsiy natija va ishlab chiqarish bilan bog'liqligi;	maosh miqdorining ish stoji, gurux ishiga qarab belgilash;
qisqa muddatda ish bilan band bo'lish.	davomli muddatda ish bilan band bo'lmoq.

Ana shu kabi savollarga mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlardan javob topish mumkin.

Urushdan keyin parokanda bo'lgan Germaniya iqtisodiyotining oyoqqa turish tajribasi e'tiborlidir.

Eslatib o'tish kerakki, Germaniyada bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga harakat qilish bilan birga milliy sanoatning asosiy tarmoqlari davlat tomonidan boshqarilib turildi, islohotlarning birinchi yilidayoq o'ziga xos istiqbolli reja tizimi shakllantirildi. Kimyo sanoati, metallurgiya va boshqa qator tarmoqlardagi sindikatlar davlat boshqaruv tuzilma bo'linmalariga aylantirildi. Tarmoq rejorashtirish organlari shakllantirildi, bu tez orada yuksak iqtisodiy samara bera boshladи.

AQSh va YAponiya iqtisodiyotidagi boshqaruv tizimlar alohida e'tiborga loyiqdir. Ularning asosiy ta'riflarini solishtirish juda katta foyda beradi.

Amerikaga xos bo'lgan individualizm konsepsiyasiga binoan, odam o'z harakatida birinchi navbatda shaxsiy maqsadlarni ko'zlaydi, boshqa shaxslar bilan raqobatda bo'lib, maqsadga erishadi. YApon boshqaruv uslubi gurux faoliyatiga qaratilgan bo'lib, jamiyatning har bir a'zosi, shu jumladan rahbar ham, umumiy masala yechish bilan band bo'ladi.

Amerika va YAponiya boshqaruv tizimini umumiy taqqoslash tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **23.4. O'zbek davlat va xo'jalik boshqaruv modelining shakllanishi**

*Insoniyat ijodsiz yashay olmaydi, maqsadi, tashvishi,  
dardi yo'q kishi bamisol haywonga o'xshaydi.*

***Ahmad YAssaviy***

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yirik davlat bo'lib, uning aholisi 24 mln. kishidan ziyoddir. Mamlakatimiz bir necha ming yillik tarixga ega. Qadim zamonlardan beri O'zbekiston shaharlari «Buyuk ipak yo'li»da joylashgan, va yirik savdo-sotiq, madaniyat, fan, din markazlari bo'lib hisoblangan

Sho'rolar davlati tanazzulga uchragandan keyin O'zbekiston xom ashyo va mineral resurlarni eksport qilishga mo'ljallangan samarasiz iqtisodiyotni, ishlamaydigan moliya va bank tizimini, chet el oziq-ovqat va xalq iste'moliga bo'lgan qaramlikni, ijtimoiy va ekologik muammolarni meros sifatida qabul qilib olgan edi.

Siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishgach O'zbekiston xalqaro integratsiya yo'liga, milliy xususiyat va an'analarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotiga o'tib oldi. Respublikaning iqtisodiy strategiyasi aholiga zarar yetkazmagan holda xalqaro bozor iqtisodiyoti tajribasiga asoslangan.

Yangi ijtimoiy – iqtisodiy siyosat respublikaning barqaror va muntazam rivojlanishini ta'minladi. Mustaqillikning birinchi yillaridayoq MDH davlatlari orasida O'zbekiston birinchi bo'lib iqtisodiy barqarorlikka erishdi. 1996 yilda yalpi mahsulot 101,7% ni tashkil qildi, 1997 yilda 105,2%, 1998 yilda bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 104,4% ga yetdi.

Barqaror investitsiya muhiti yaratilishi tufayli respublikaga besh mlrd. dollardan ortiq chet el kapitali kiritildi.

Mustaqillik davrida harakatdag'i sanoat korxonalari rivojlantirildi, yangi tarmoqlar, shu jumladan O'rta Osiyoda birinchi mashinasozlik sanoati yaratildi. Gaz hajmi 41,8 dan 54,8 mlrd. kub metrga yetdi, 1996 yilda neft mahsulotlarini sotib olinishi to'xtatildi, neft mustaqilligiga erishildi. Agar 1997 yilda 25,3 ming avtomashina chiqarilgan bo'lsa, 1998 yilda uning hajmi 55 mingtaga yetdi.

Sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanish strategiyasi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi tahviliga asoslangandir.

Iqtisodiy nazariya va boshqaruv amaliyotining asosiy vazifasi O'zbekistonning harakatdag'i omillarini hisobga olib, rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarining tahlili asosida progressiv milliy xo'jalik modelini yaratishdir.

Chet mamlakatlar tajribasidan nimani olish mumkin yoki nimani olish mumkin emasligini bordaniga aniqlab olish yaxshi samara beradi. Bu esa birinchi navbatda narxlarni erkinlashtirish, xususiy savdoda cheklanishlarni olib tashlash, davlat tomonidan valyuta kursini nazorat qilish yordamida makrobarqarorlikka erishishga yordam beradi.

Yapon boshqaruv tizimining aksariyat unsurlari mantiqiy asoslangan va ma'lum modifikatsiyadan keyin o'zbek menejment amaliyotida qo'llasa bo'ladi.

Nafaqat Markaziy Osiyo menejerlari, balki amerikaliklar ham yapon boshqaruv nazariyasi, amaliyoti va san'atidan saboq olishga tayyordirlar. qator amerika korporatsiyalari uzoq vaqtga xodimlarini ish bilan ta'minlash, izchil ravishda malaka oshirish, rotatsiya tizimini joriy etish, kollektiv qaror qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish uslubini qo'llash, rahbar va xodim o'rtaida norasmiy aloqalarni rivojlantirish, «sifat to'garaklari» yordamida kishi omiliga e'tiborni kuchaytirish kabi boshqaruvning turli shakl va uslublarini amalda joriy etishmoqda (bu yerda U.Ouchinning nazariyasini eslatish o'rnlidir).

Mahsulot sifatini oshirish istiqboli, firmaga bo'lgan sodiqlik yapon boshqaruv uslublarini joriy etishga asosiy sabablardan biri bo'lib kolmoqda. Bugungi kunda g'arb boshqaruv maktabi yirik biznesni takomillashtirilgan boshqaruv variantini taklif qila olgani yo'q. Agarda yana bir bor yapon menejmentiga e'tiborimizni qaratib, uni boshqaruv san'ati nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda yapon uslublari va an'analar i hurmatga sazovor bo'lib, katta qiziqish uyg'otadi.

Davlat tizimining iqtisodiy boshqaruvini shakllanishida o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari, an'analar, urf-odatlarining qanday xususiyatlarini hisobga olish kerak? Ajdodlarimiz bizga bu murakkab hayotda qo'llash uchun qanday xazinalarni in'om etdi?

Sharq jamoatchilik, paternalizm, ijtimoiy fikr ustivorligiga asoslangan demokratiyanı taqazo qiladi. Demokratik jarayon hayotning barcha jabhalarida

ahloqiy, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan hurmat asosida kechadi. Oila va qarindoshlik munosabatlar ming yillik an'analarga ega bo'lib, kattalarga hurmat ko'rsatish, bir-biriga yordam berish, bolalarga g'amxo'rlik qilish, yerga, nonga hurmatda bo'lish tamoyillariga asoslanadi.

*O'zbek xalqining o'ziga xos madaniyatining buyuk qadriyatlardan biri mahalla hisoblanadi. Oila va davlatni bog'lab turuvchi xalqa sifatida mahalla ko'p asrlik tajribaga ega. Markaziy Osiyo davlatlari orasida fakat O'zbekiston mahalla ijtimoiy instituti orqali o'z-o'zini boshqaruvi idoralari faoliyatini samarali bo'lishiga erishdi. Mahallada maishiy muammolar yechiladi, tuy-tamoshalar qilinadi, xasharlar o'tkaziladi, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot masalalariga munosabat bildiriladi.*

*Mahalla qo'shnichilikni shakillanishida, kishilar o'rtasida hurmat, insonparvarlik his tuyg'ularini mustaxkamlashda, muhtoj oilalarga yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mahalla faoliyati yangi mazmun bilan to'ldirilgan, ya'ni iktisodiy va demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda katta yordam beradi.*

Eski korxonalar o'zlarining nihoyatda katta ishlab chiqarish imkoniyati, regionlararo aloqlari, mehnat resurslariga qaramasdan yangi iqtisodiy jarayonda o'z o'rinalarini topa olmadi.

Bozorga utish boshqaruvi bilan bog'liq yana bir muaommani yechishni – raqobatchilik sharoitini tuzishni, monopoliyani bartaraf etishni talab qiladi. Barcha yirik rivojlangan mamlakatlar monopoliyaga qarshi turli xil, shu jumladan qonunchilik bilan bogliq tadbirlar qullamoqda. Uzoq 1890 yil AQShda monopoliyaga qarshi qonun (Sherman qonuni), keyin Kleyton qonuni (1914 yilda), Viler Li (1938), Seller-Kefovar qonuni (1950 yilda) qabul qilindi.

Germaniyada tovar miqdorini cheklovchi qonun ishlab turibdi – bir firma tovar bozorining uchdan bir qismidan ko'pini nazorat qilolmaydi, ikki – uch firma bozorni faqat 75% nazorat ostiga olishi mumkin.

1986 yildan boshlab Fransiyada monopoliyaga qarshi qonunlarni buzganligi uchun besh mingdan – bir million frank miqdorida jarima soluvchi kengash o’z faoliyatini ko’rsatmoqda.

Shurolar davrida monopoliya keng tarqalgan edi, asosiy ishlab chiqarish fondining 30% davlatga tegishli edi. Davlat tashqi savdo, valyuta operatsiyalarni monopoliya qilib olgan edi. Yirik korxonalarni qurish yirik monopolistlarni yuzaga chiqaradi. Monopolizmni bartaraf etish juda qiyin masala edi. Masalan 1993 yilda 2% korxonalar mahsulotlarning 40% ishlab chiqarar va savdodan olingan daromadning yarmidan ko’pi ularga tegardi.

Ko’p hollarda yangi ishbilarmonlar maksimal daromad olish uchun turli xil yo’llardan foydalanadi, ular bu yo’lda hatto qonunlarni ham buzmoqda, deb tanqid qilinmoqda. Lekin bu daromad o’g’rilik, aldash evaziga emas, balki chin mehnati, tashabbusi, tijorat tavakkalchilik hisobiga bo’lishi kerak.

Siyosat va iqtisodiy islohotlarni joriy etish rahbar kadrlarni tayyorlamasdan, ularning malakasini oshirmasdan qiyinchiliklar tug’diradi. Shu muammoni yechish uchun O’zbekistonda akademiya, universitetlar, kollej, biznes va marketing maktablari mavjud.

Ochig’ini aytish kerakki, boshqaruv nazariyasini va amaliyotidan dars beruvchi o’qituvchilar shu fanga chin dildan qiziquivchan, ijodkor tinglovchilarni ilgari uchratmagan edilar. Bunday tinglovchilar bilan boshqaruv san’ati sirlari haqida suhbat olib borish nihoyatda qiziqarli kechadi.

Bugungi kunda ko’z o’ngimizda iqtisodiyot boshqaruvining yangi modeli shakllanmoqda. Uning har bir muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi aholi turmush tarzida aks etiladi. Yangi atamalar shakllanmoqda, boshqaruvda ishtirok etuvchilarning roli muhim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Yangi ishbilarmon kishi shakllanmoqda U mulkdor bo’lib, yollanma mehnatdan foydalanadi, maksimal daromad olish uchun strategik boshqaruvni o’z zimmasiga yuklaydi. Ishbilarmon

kishi nafaqat iqtisodiy jihatdan erkin, ijodiy jihatdan mustaqil, balki o’z faoliyati natijasi uchun moddiy va ma’naviy javobgardir. YAngi milliy boshqaruv shakllanmoqda, u odamga, uning imkoniyatiga qaratilgandir. YAngi turdag'i rahbar umuminsoniy qadriyatlarga suyanishi kerak, tevarak atrofdagilarga ta’sir qilish san’ati usullariga ega bo’lishi lozim, innovatsiyalarni qabul qilishga tayyor bo’lishi kerak.

Shu bilan birga qator tadbirlarni amalg a oshirish iqtisodiy is lohatlarni jadallashtirishga imkon tug’diradi:

1. Qishloq xo’jaligini rivojlantirish uchun moliyaviy, investitsion va ma’naviy psixologik asos tayyorlash.
2. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv shakli va uslublarini takomillashtirish.
3. Xodimlar, ilmiy kadrlar imkoniyatini rivojlantirish, milliy madaniyat qadriyatlarni saqlash.

Va, yana YAponiya boshqaruv tizimiga bir qaytamiz. Mana ko’p yillar davomida YAponiyaning eng yirik korporatsiyalaridan biri bo’lmish “Matsusita” (1918 yili Osaka shahrida K.Matsusita tomonidan tashkil etilgan) prezidenti filial boshqaruvchilariga kompaniya filialining rejasini – «qirol muhri bosilgan hujjatni» yuboradi. Unda shunday deyiladi «Men filialingizning tasdiqlangan rejasini Sizga yuboryapman. Bundan maqsad qo’yilgan rejalarни muvaffaqiyatli bajarish. Filial bilan bog’liq ishlarni bajarishda Sizga barcha vakolatlar beriladi. Filialning boshqaruvi, keyingi ishlar yutug’ining mas’ulyati sizga yuklanadi. Agarda filial boshqaruvchisi ikki yil mobaynida belgilangan daromad me’yorini bajarmasa, u sharmandalarcha lavozimdan olinadi». Hokimiyat va mas’uliyat yaxlitligi bu yerda yaqqol ko’rinib turibdi.

O’zbekiston mutaxassislari AQSh, yevropa, YAponiya menejmentiga asoslanib, ularning yutuq va kamchiliklarini o’rganib, ko’p asrlik milliy an'analar asosida davlat, hududiy, ishlab chiqarish boshqaruv tizimini yaratmoqdalar.

### **O'zini o'zi tekshirish uchun savollar**

1. Nemis boshqaruv tizimning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. AQSh iqtisodiyoti va ishlab chiqarish boshqaruv tizimi asosini nima tashkil etadi?
3. Z nazariyasining mohiyati va xususiyati nimalardan iborat?
4. Sizga yapon menejmentining qanday uslublari yoqadi?
5. Davlat va ishlab chiqarish modelini shakllantirishda chet el ishlab chiqarish boshqaruv tiziminинг qaysi uslublarini qo'llasa bo'ladi?

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'iishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimzdir"., O'quv qo'llanma, "O'qituvchi", Toshkent-2013
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
3. G'ulomov S.S. Zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti. Maruzalar matni. TDAU.-2008
4. Fatxutdinov R.A. Proizvodstvennyi menedjment. Uchebnik. M.: Banki i birji. YUNIPI, 1997
5. Qosimov G'.M. Menejment. Darslik. T. O'zbekiston, 2004
6. Qosimov G'.M. Menejment. Darslik. T. O'zbekiston, 2002
7. G'ulomov S.S. va b. Qishloq texnikalari marketingi. Darslik. T.2010
8. Qosimov G'.M. Transport korxonalarida menejment. Darslik. T. O'zbekiston, 2001
9. Abdullaev O.M., G'ulomov S.S. va b. Menejment va biznes asoslari. Darslik. T. "Mehnat", 1997
- 10.G'ulomov S.S. va b. Umumiy tahriri ostida. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T: "O'qituvchi ", 2000
- 11.G'ulomov.S.S va b. Traktor va avtomobillar marketingi. Darslik. T: TDAU, 2010
- 12.G'ulomov S.S. Menejment asoslari. T: "Sharq", 2000
- 13.G'ulomov S.S. Marketing asoslari. T: "Sharq", 2002
- 14.G'ulomov S.S. Menejment: Boshqaruv san'ati, nazariyasi va amaliyoti. T.: "Sharq" 2003

**Mundarija**

Nº	Ilova	Bet
So'z boshi	.....	3
1-mavzu.	O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishining tizimli tahlili. .....	6
1.1.	Menejment fanining mazmuni, maqsadi, predmeti, ob'ekti va usuli, vazifalari va umumiy tavsifi.....	6
1.2.	O'zbekistonda tarmoq iqtisodiyotlari taraqqiyotining tizimli tahlili.....	11
1.3.	Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida milliy madaniyatning ahamiyati.....	32
1.4.	O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning ilg'or shakllari va usullarini aniqlash.....	39
2- mavzu.	Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari taraqqiyotining qonunlari va tamoyillari.....	51
2.1.	Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishiga oid davlat qonunlari.....	51
2.2.	O'zbekiston mustaqilligi va uning tashqi iqtisodiy tamoyillari.....	53
2.3.	Fermer xo'jaliklarini shakllanishi.....	58
2.4.	Qishloq xo'jalik korxonalarida ilg'or mehnat usullaridan foydalanish.....	60
3-mavzu.	Ishlab chiqarish tizimi va uning firmalari.....	68
3.1.	Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi sharoitida marketingga amal qilish.....	68
3.2.	Korxona faoliyatini zamonaviy boshqarish muammosi.....	71
3.3.	Firmalarning chet ellarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish.....	73
4-mavzu.	Zamonaviy ishlab chiqarish menejmentining uslubiy asoslari.....	76
4.1.	Xususiyashtirish strategiyasi.....	76
4.2.	O'zbekistonning tashkilotlar, firmalar, korxonalarning tashkiliy xuquq shakllari .....	78
4.3.	O'zbekiston Qishloq va Suv Xo'jaligi Vazirligida zamonaviy ishlab chiqarish menejmenti.....	79
4.4.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari, seleksiya, urug'chilik va qishloq xo'jaligini kimyo lashning ulgurji bozorlari taraqqiyotini ta'minlash.....	85
5-mavzu.	Boshqaruv-jamiyatning rivojlanish tizimi idir.....	95
5.1.	Boshqarish-rivojlanish tizimi idir .....	95
5.2.	Inson ishini bajarishga tayyorligi, xohishi va bilarmonligi-menejment asosi.....	96
5.3.	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ta'minlash logistikasi (	99

	tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, realizatsiya qilish) .....	
6-mavzu.	Ijtimoiy omillar va menejmentning axloqi.....	104
6.1.	Ijtimoiy omillar xaqida.....	104
6.2.	Ijtimoiy texnik yondashish.....	106
6.3.	Firmalar amaliyotidagi mas'uliyat.....	107
6.4.	Zamonaviy boshqarish ma'rifat va axloqi.....	107
7-mavzu.	Firma strategiyasi va uni ishlab chiqish .....	110
7.1.	Biznesning strategik turlari .....	110
7.2.	Firma strategiyasini ishlab chiqish.....	111
7.3.	Strategiyani bajarishilishi.....	112
7.4.	Xodimlarning vazifasi va ularning tashkilotini loyihalash.....	112
7.5.	Tashkilotni qurish.....	113
7.6.	Ishlab chiqarish jarayonini tezkor boshqarish.....	115
7.6.1.	Korxonani boshqarish.....	115
7.6.2.	Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish.....	137
7.6.3.	Mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) ni rejalahtirish.....	137
7.6.4.	Zahiradagi materiallarni boshqarish.....	138
7.6.5.	Loyihalarni boshqarish.....	138
7.6.6.	Loyihalarni boshqarish usullari.....	139
8-mavzu.	Ishlab chiqarishni boshqarishda kafolat va sifatni taminlash.....	141
8.1.	Kafolatdagি materiallarin boshqarish.....	141
8.2.	Ishlab chiqarishni boshqarishda sifatni taminlash.....	141
8.3.	Ishlab chiqarishni boshqarishda zamonaviy bo'zor munosabatini yaratish.....	142
9-mavzu.	Zamonaviy ishlab chiqarish menejmentida moyillik faoliyati.....	148
9.1.	Moyillikning umumiy tavsifi va nazariyaları.....	148
9.2.	Moyillik jarayonining nazariyası.....	149
10-mavzu.	Ishlab chiqarishda boshqaruв yechimi (qaror) ni qabul qilish.....	150
10.1.	Menejment jarayonlarida boshqaruв yechimini qabul qilish.....	150
10.2.	Menejment jarayonida tezkor yechim qabul qilish.....	151
11-mavzu.	Turli mulkchilik guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini shakllantirish.....	152
11.1.	YAlpi ichki mahsulotda tadbirkorlir faoliyatining roli.....	152

11.2.	Turli mulkchilik guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari.....	154
12-mavzu.	Zamonaviy ishlab chiqarishning boshqaruvning texnologiyasi.....	157
12.1.	Boshqaruv strategiyasi va taktikasi.....	157
12.2.	Boshqaruvning axborot ta'minoti.....	160
12.3.	Boshqaruvning texnologik vositalari va ish bajarilishini loyihalashtirish.....	169
12.4.	Boshqaruv jarayoni va uning texnologiyasi.....	180
12.5.	Boshqaruv operatsiyalari va protseduralarin tasnifi.....	182
12.6.	Boshqaruv texnologik siklining tavsifi.....	186
12.7.	Boshqaruv operatsiyasi va protseduralarini loyihalashtirish...	191
13-mavzu.	Firma jamoasini zamonaviy boshqarish.....	194
13.1.	Menejment tizimida faoliyatni tartibga solish va nazorat qilish.....	194
13.2.	Menejmentning strotegik vazifalarining tabiatи va tashkiliy tuzilmasi.....	196
13.3.	Menejment tizimida guruhlarning o'zgarishi va rahnamolik...	199
13.4.	Firma xodimlari va mehnat jamoalarini boshqarish.....	200
13.5.	Samarali boshqarish va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) samaradorligini umumiy o'sishini ta'minlash.....	202
14-mavzu.	Ishlab chiqarish boshqaruvining tashkiliy tuzilmaları.....	207
14.1.	Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning roli.....	207
14.2.	Áîøqàðuvíèíä òàøèëëèé ðóçëëìàlar ðóðèíè òàíëàðda áåëæëïâ÷è ïièëëàð.....	213
14.3.	Boshqaruv tizimidagi kadrlar va ularning tasnifi.....	222
14.4.	Boshqaruv kadrlarining ishbilarmonligini baholash.....	224
14.5.	Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash.....	227
14.6.	Kadrlar ishini takomillashtirish.....	232
15-mavzu.	Zamonaviy ishlab chiqarishni samarali boshqarishda korxona faoliyatları tizimi ni tuzish.....	235
15.1.	Korxonada operasiyali tizim va uning toifalari.....	235
15.2.	Zamonaviy ishlab chiqarishda operatsiya tizimining ishlab turishi.....	238
15.3.	Agrosanoat korxonalari faoliyatida marketingning tashkiliy mexanizmini mukammallashtirish.....	239
16-mavzu.	Zamonaviy ishlab chiqarishda unumdorlikni boshqarishda majmuaviy yo'l.....	246
17-mavzu.	Boshqaruvning psixologik jihatlari.....	249
17.1.	Eng asosiy va kamyob resurs.....	251
17.2.	Ruhiyat tahlili nazariyası.....	252
17.3.	O'rnatish nazariyası.....	254

17.4.	Lombrozoning «jinoy atchi shaxsi».....	257
17.5.	Psixologik tiplar.....	259
18-mavzu.	Mehnat jamoas i boshqaruv ob'ekti sifatida.....	261
18.1.	Rahbar mehnatining o'ziga xos xususiyatlari.....	262
18.2.	Aholi farovonligini oshirishning muhim yo'naliishlari	279
18.3.	Jamoa a'zolarining ijtimoiy-psixologik maqomi.....	285
18.4.	Etakchilik muammosi.....	306
18.5.	Rahbar almashinuvi.....	314
18.6.	Byurokratiyaning sirli ittifoqi.....	315
18.7.	Nizolarni boshqaqarish san'ati.....	320
19-mavzu.	Menejment, notiqlik san'ati, nutq madaniyati.....	329
19.1.	Notiqlik sanati – mahorat cho'qqisi.....	329
19.2.	O'rta asr notiqlik san'ati va uning hozirgi zamon taraqqiyoti.....	331
19.3.	Ish muomalasining muammosi va shakli.....	336
19.4.	Ijtimoiy-siyosiy dalillar san'ati.....	343
19.5.	Nutq madaniyati.....	346
20-mavzu.	Ishlab chiqarish menejment, shaxsning noyobligi, kishining ustivor talablari, etika va etiket.....	351
20.1.	Erkak va ayol.....	351
20.2.	Êèøèïèï òñòèâïð òàëàáéàðè.....	357
20.3.	Rahbarning huquqi va mas'uliyati.....	365
20.4.	Boshqaruv usuli.....	372
20.5.	Ishbilarmonlik munosabatlari etikasi.....	378
20.6.	Hozirgi zamon jamiyat etiketi.....	384
20.7.	Äóíyoqàðàø âà ìàäàíèé òàðáèya.....	389
21-mavzu.	Shaxsga ta'sir etish uslublari.....	395
21.1.	Boshqaruv san'atining universal uslublari.....	395
21.2.	O'z-o'zini tarbiyalash uslublari.....	398
21.3.	Suqrot uslubi.....	412
21.4.	Uch raund uslubi.....	415
21.5.	Shtirlits uslubi.....	417
21.6.	«Sutdagি qurbaqa» uslubi.....	419
21.7.	«M» uslubi.....	421
22-mavzu.	Ishbilarmonlikda muomala madaniyati.....	424
22.1.	Ehtiyyot bo'ling! – Atoqli otlar.....	424
22.2.	Manmanlik va xushomad.....	425
22.3.	Odamlarga bo'lgan qiziqish.....	428
22.4.	Tinglash sa'nati	431
22.5.	<b>Haqiqat bahsda ro'yoblashadimi?</b>	435
22.6.	Xushmuomalalik va shaxsiy jozibadorlik	439

22.7.	O'z xatosini qanday qilib tuzatish mumkin?	443
23-mavzu.	Chet el boshqaruv nazariyasi, amaliyoti va san'atining taraqqiyot bosqichlari va hozirgi holati.....	446
23.1.	«XX asr iqtisodiyotidagi mo''jiza» – nemis boshqaruv modeli.....	446
23.2.	Amerika menejmenti.....	451
23.3.	Yapon menejmenti.....	455
23.4.	O'zbek davlat va xo'jalik boshqaruv modelining shakllanishi.....	471
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	478
	Mundarija.....	480